Chiqindi gazlar ichida zararsiz kislorod, karbonat angidrid, azot, oltingugurt kabi mahsulotlar ham mavjud. Ammo azot yuqori haroratda va bosim ostida juda katta zararli kuchga ega bo‘lgan azot oksidlarini hosil qiladi. Chiqindi gazlarning tarkibidagi zararli mahsulotlar ko‘pgina sabablarga ko‘ra hamma vaqt ham bir xil hajmda bo‘lmaydi. Bu dvigatellar turiga, ishlash rejimiga, sozlanganlik darajasiga, dvigatelga ko‘rsatilgan texnik xizmatning va yonilg‘ining sifatiga bog‘liq bo‘ladi

Dizel dvigateli karbyuratorli dvigatelga qaraganda kamroq zararli bo‘ladi.



rasm. Avtomobillar ekspluatatsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan zararli chiqindilar. [5]

Dizel dvigatellarining ishlash jarayonida CO, NOx va CH kabi zararli gazlar kamroq ajralib chiqadi, ammo tarkibida zararli benzopiren bo‘lgan qurumning hajmi ko‘proq bo‘ladi. Karbyuratorli dvigatellar ishlaganda qo‘rg‘oshin birikmasi va dizel dvigatellar ishlaganda bariy birikmasi ajralib chiqadi.

Bu birikmalar quyidagicha hosil bo‘ladi:

— benzinlarning antidetonatsion xossasini oshirish uchun etil spirti qo‘shish natijasida (etil spirti tarikibida qo‘rg‘oshin mavjud);

— dizel yonilg‘isining tutashini kamaytirish uchun tutunga qarshi maxsus bariy ishtirokida tayyorlangan modda qo‘shish natijasida.

Dvigatelning ish sharoiti chiqindi gazlarning zararli yoki zararsiz bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. CO ning eng ko‘p ajralishi dvigatelning salt ishlash rejimida hosil bo‘ladi, bunda dvigatel boyitilgan yonilg‘i aralashmasida ishlaydi. Shu bilan birga karbyuratorli dvigatellarda yonish tizimining noto‘g‘ri o‘rnatilganligi natijasida kuchlanish (uchqun) shamga me'yoridan oldinroq yoki keyinroq uzatiladi, bu esa yonuvchi aralashmasining to‘liq yonmasligiga olib keladi. Uzgich kontaktlari oralig‘ining me'yordan o‘zgarishi ham shamlardagi kuchlanishning kamayishini va uchqunning kuchsizlanishini yuzaga keltiradi, bu ham yonuvchi aralashmaning to‘ liq yonmasligiga, natijada yonish mahsulotlari tarkibidagi CO miqdori oshib ketishiga olib keladi [6]

Dizel dvigatellari forsunkalarining yonuvchi aralashmasini oldindan sepish burchagining o‘zgarishi hamda sachratish burchagining me'yorda emasligi (burchak kam bo‘lsa, yonilg‘I sachratish tezligi oshadi va yonilg‘I qisman porshen ustiga o‘tirib qoladi, burchak kata bo‘lsa yonilg‘I yonish kamerasining hamma joyiga yetib bormaydi) yonuvchi aralashmaning yomonlashuviga va yonilg‘ining to‘liq yonmasligiga olib keladi. Bu hollarda ham chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalar miqdori ko‘payadi

Atrof-muhitni avtomobil transportining zararli ta'siridan himoya qilish asosan 2 xil yo‘nalishda olib boriladi:

— avtomobillar va uning dvigateli konstruksiyalarini takomilashtirish;

— ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash.

Avtomobillar va uning dvigateli konstruksiyalarini takomillashtirish, dvigatel ish rejimini takomilashtirish, har xil yordamchi jihozlardan va yuqori sifatli yonilg‘idan foydalanish, texnik xizmat va ta’mirlash ishlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish, shuningdek kam zararli, gazoturbinali, tashqi yonuvchi – Stirling dvigateli, elektromobillar, injektorli dvigatellar ishlab chiqarish bilan amalga oshiriladi.

Ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash, asosan avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalarning miqdorini tegishli qonun hujjatlari bilan chegaralash va bu me'yorlarga amal qilishni nazorat etishdan iboratdir.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga asosan, AQSHda har yili 142 mln. t zararli modda atmosferaga chiqarilib, buning 86 mln. tonnasi avtomobillarning ishlashi natijasida hosil bo‘ladi.

1971 yil 1 yanvardan joriy etilgan GOST 16533-70, benzinli dvigatellar ishlashi natijasida ajralib chiqadigan chiqindi gazlarning tarkibidiigi CO hajmini chegaralaydi.

GOST 21393-75 esa dizel dvigatellaridan chiqadigan gazlar tutashini cheklaydi, 1980 yil GOST 16533-70 o‘rniga yangi davlat standarti 17.2.2.03- 77 joriy qilindi, bu ham benzinli dvigatellarning chiqindi gazlaridagi CO hajmini cheklaydi. Bu standart benzinda ishlaydigan yuk avtomobillariga, yengil avtomobillarga va avtobuslarga taalluqlidir.

Yangi GOST ga asosan CO ning hajmi hamma avtomobillar uchun 1,5% dan oshmasligi kerak va chiqindi gazlarning tarkibidagi CO ni tekshirish, aholisi 300 mingdan ko‘p hamda poytaxt shaharlarda, kurortlarda 2-TX o‘tkazilganda ta’mirlashdan keyin texnik qarov o‘tkazilayotganda avtotransport korxonalarining mutaxassislari va YPX hodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Yevropaning zaharli moddalarga qo‘yiladigan me`yorlari, g/km, yengil avtomobillar uchun NETSD uslubi bo‘yicha baholashlar shahar ichi (ECE-R) va o‘zgartirilgan shaharorti (EUDC) davralarining birikmasini ifodalovchi Yevropaning yangi harakat davrasiga (YeYaHD) muvofiq berilgan. Unga ko‘ra, eng yuqori reyting ko‘rsatkichi 10 ballgacha boradi. Baholashda dvigatelning quvvati va ish hajmi, eng yuqori tezligi, YeYaHD bo‘yicha yonilg‘i xarajati, CO_2 chiqarishi va tashqi shovqin darajasi hisobga olingan .

Yurtimizning avtomobillari hozirgi kunda Yevropava jahon me`yorlariga tobora yaqinlashtirilmoqda. Davlat standarti tomonidan muvofiq keladigan talablar va me`yorlarishlab chiqilgan standartlarda, birinchi bosqich hisobida yurtimizning yangi avtomobillarini EURO-4 va EURO-5 me`yorlari bo‘yicha sertifikatsiyalash ko‘zda tutilgan. Bu me`yorlariga o‘tish chiqindilarni shu kungacha qo‘llanib kelingan me`yorlarga nisbatan talablarni yengil avtomobillar bo‘yicha 5-6 martaga, katta yuk ko‘taruvchi dizellar bo‘yicha 2-3 martaga qat`iylashtiradi va ishlab chiqarish tannarxini o‘rtacha 10% ga oshiradi. Yevropa mamlakatlariga EURO-4 me`yorlarini 2005 yildan kiritildi. Yurtimiz sanoatini EURO-4 me`yoriga mos keladigan avtomobillar ishlab chiqarishga o‘tishi 2017- yillarga to‘g‘ri keldi, harakatdagi parkni almashtirish esa, 2025-2030 yillargacha cho‘zilishi mumkin.

Texnik foydalanishda yaqin yillarda texnik xizmat ko‘rsatish va ta`mirlash yurtimiz avtomobillariga EURO-3 va EURO-4 me`yorlariga muvofiq va chetdan keltirilgan avtomobillarga EURO-4 va EURO-5 me`yorlariga muvofiq ta`minlashi kerak. So‘nggi modelli avtomobillarni ekologik ko‘rsatkichlarini diagnostikalashni ichiga o‘rnatiladigan, chiqindi gaz chiqarishlarning yuqori miqdorlarini buzilish deb belgilaydigan tizimlar bilan uskunalanishi kerak

Atrof-muhitni avtomobil transportining zararli ta’siridan himoya qilish bo‘yicha asosan 2 yo‘nalishda ish olib boriladi:

1- avtomobillar va uning dvigateli konstruktsiyalarini takomillashtirish.

2- ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash.[5]

Avtomobillar va uning dvigateli konstruktsiyalarini takomillashtirish, dvigatel ish rejimini takomillashtirish, yordamchi jihozlardan va yuqori sifatli yonilg‘idan foydalanish, texnik xizmat va ta`mirlash ishlarini o‘z vaqtida vasifatli bajarish va kam zararli, gazotrubinali, tashqi yonuvchi-Stirling dvigateli, elektromobillar, injektorli dvigatellar ishlab chiqarish bilan amalga oshiriladi.

— Karbyuratorni boshqarishning elektron tizimlarini qo‘llash turli ish sharoitlarida yonilg‘ining dozalanish aniqligini oshirishga va ish rejimi o‘zgarganda uning sarfini o‘zgartirishga ketadigan vaqtni qisqartirish hisobiga chiqarib tashlanadigan zaxarli moddalarni kamaytirishga imkon beradi.

— Tranzistorli va tiristorli o‘t oldirish tizimlari dvigatelning quvvatining oshishini ta’minlaydi. Buning natijasida aralashmaning ishonchli ravishda alangalanishiga erishiladi. Bu hol SO va SNlar chiqarishning kamayishiga olib keladi. Tiristorli tizimlar uchqun razryadida kuchlanish o‘sishining ancha tik old frontini hosil qiladi, bu esa o‘t oldirish svechasini qurum va moy bilan ifloslanganida ham o‘t olishning ishonchliligini oshiradi.

— Ishlangan gazlarni qayta kirgizish tizimi bilan birgalikda qo‘llaniladigan oksidlovchi katalitik neytralizatorlardan ham foydalaniladi. Etillangan benzinlardan foydalanilganda qo‘rg‘oshin birikmalari katalitik neytralizatorni 100—200 soat ishlaganidan keyinoq ishdan chiqaradi. Uning ishga yaroqliligini faqat reaktivlash yo‘li bilan qayta tiklash mumkin.

— IYoD ishlangan gazlarining zaxarlilik darajasini pasaytirishning ishonchli usuli bo‘lgan barcha turdagi neytralizatorlar (ayniqsa, katalitik neytralizatorlar) transport vositasining narxini anchagina qimmatlashtirib yuboradi. Bundan tashqari, ular chiqishdagi aks bosimni oshiradi (ayniqsa, qisman to‘lib qolgan holatdaligida), bu esa IYoD quvvati 5—15 foiz kamayishiga, qabulchanlikning pasayishiga va shunga mos ravishda yonilg‘i tejamkorligining yomonlashuviga olib keladi. Shu sababli ular chiqaribtashlanadigan zaharli moddalar miqdori qat’iy cheklab qo‘yilgan, yoki IYoD alohida sharoitda (berk xonalarda, shamollatilishi cheklangan ish joylarida) ishlagan hollardagina foydalanilishi maqsadga muvofiqdir .

— Gazda ishlaydigan avtomobillarni iloji boricha injektorli qilish maqsadga muvofiq, chunki motor quvvatining maksimal darajasiga yaqinlashadi, ekologikligi yaxshilanadi va mator ravon va uzoq muddat ishlashiga erishiladi.

— Gazballonli avtomobillarning dvigatellari benzin yoki dizelda ishlaydigan dvigatellarga nisbatan uzoqroq muddat ishlaydi agar aytilgan talablarga rioya qilinsa. gazda moy kuyishi sezilarli darajada kamaygani hisobiga motor moyi ham ishlash muddati uzayadi.

— Gazning benzin va dizel yoqilg‘ilariga nisbatan tan narxi ancha arzonligi ham xalq xo‘jaligiga va insonlarning avtomobilda harakatlanishi anchamuncha arzonlashadi.

Ishlangan gazlarni qayta kirgizish (resirkulyatsiya). Bu usulning mohiyati shundan iboratki, ishlangan gazlarning ma’lum qismi chiqarish tizimidan ajratib olinadi va yangi zaryadning bir qismini egallash uchun IYoDning kiritish kanaliga yo‘naltiriladi. Ajratib olinadigan gazlarning miqdori IYoDning ish rejimiga qarab maxsus rostlash tuzilmalari vositasida o‘zgartiriladi. Kameraga qayta kirgiziladigan ishlangan gazlarning issiqlik sig‘imi katta bo‘lganidan yonish haroratini pasaytiradi, bu esa azot oksidlari chiqishini anchagina kamaytiradi. Bunda yonish jarayoni yomonlashadi, natijada SO va SN miqdori birmuncha ko‘payadi, dizellarda esa ishlangan gazlardagi tutun miqdori ortadi. Qator hollarda kengayish oxirida yonishning cho‘zilib ketishi va haroratning ko‘tarilishi oqibatida SN miqdori ham kamayadi .

Qayta kirgizish usulidan uchqundan o‘t oldiradigan IYoD larda ham, dizellarda ham foydalaniladi. Birinchi holda ishlangan gazlar kiritish tizimiga karbyuratordan keyin uzatiladi, shunday qilinganda aralashma hosil bo‘lish jarayoni buzilmaydi. Benzinda ishlaydigan IYoDlarda ishlangan gazlarni qayta kirgizish usulidan foydalanishning kengayib borishi (tez yonish kameralari bilan birgalikda) ularni suyuq aralashmalarda ishlashga o‘tkazishga yordam beradi. Bu esa azot oksidlari chiqishining ko‘payishiga olib keladi. Qayta kirgizilgan ishlangan gazlar yangi aralashmaning bir qismi o‘rnini egallab, quvvatning kamayishiga sabab bo‘ladi. Bunda yonish jarayonining yomonlashuvi siklda issiqlikda yomon foydalanishga olib keladi.

Qayta kirgiziladigan ishlangan gazlarning ulushi (ishlangan gazlarning umumiy miqdoriga nisbatan) 15 foizdan oshmaydi, ko‘p hollarda esa ko‘pi bilan 10 foizni tashkil etadi. Tajriba ma’lumotlariga ko‘ra, ishlangan gazlarning 5 foiz qismi qayta kirgizilganda azot oksidlarining chiqishi dastlabki darajadan 40 foizigacha, 15 foiz qismi qayta kirgizilgandaesa 60-70 foizgacha kamayar ekan. Mazkur usul chiqarib tashlanadigan azot oksidlari miqdori keskin cheklab qo‘yilgan mamlakatlarda yengil avtomobillarning dvigatellarida boshqa chora-tadbirlar, masalan, oksidlovchi neytrallash usuli bilan birgalikda keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda .

Ishlangan gazlarni neytrallash. Bu usul ishlangan gazlarni maxsustuzilma- IYoDning chiqarish tizimiga o‘rnatiladigan neytralizatorlar orqali o‘tkazishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan neytralizatorlar ishlash tamoyiliga ko‘ra termik, suyuqlikli va katalitik xillarga bo‘linadi.

Termik neytralizatorlarning ishi SO, SN va aldegidlarni yonish mahsulotari: karbonat angidrid va suv bug‘iga aylangunga qadar kuydirishga asoslangan. Mazkur jarayon yuqori haroratda ishlovchi maxsus kameralar-reaktorlarda amalga oshiriladi. Agar IYoD quyuq aralashmada ishlayotgan bo‘lsa, reaksiyasohasiga qo‘shimcha havo kiritiladi. SN 400^0C da SO esa 500^0C da oksidlana boshlaydi va bu jarayon o‘rtacha va katta yuklanishlar bilan ishlaydigan IYoDlarning chiqarish tizimlarida deyarli hamma vaqt sodir bo‘ladi. Oksidlanish to‘liqligi va tezligini oshirish uchun reduktorning ish harorati 600^0C gacha yetkaziladi va bundan ham oshiriladi.

SHu maqsadda chiqarish patrubkalariga zanglamaydigan po‘latdan yasalgan issiqlik ekranlari o‘rnatiladi, shuningdek, reaksiya kameralari issiqlik o‘tkazmaydigan qilinadi, yoki o‘t oldirishni ilgarilatish burchagi kichraytiriladi. Oxirgi tadbir o‘z navbatida azot oksidlari chiqishini birmuncha kamaytiradi. Dvigatel katta yuklanish bilan ishlaganda termik neytralizatorning samaradorligi, ya’ni chala yonish mahsullari bartaraf etilishining to‘liqligi eng yuksak darajada bo‘ladi, kichik yuklanish bilan ishlaganda (bunda reaksiya sohasidagi harorat yetarli darajada bo‘lmaydi) esa kamayadi. Ularning samaradorligini ishlangan gazlarning reaksiya sohasi orqali harakatlanish tezligini pasaytirish evaziga ko‘tarish mumkin, ammo buning uchun neytralizatorning gabarit o‘lchamlari va massasini kattalashtirish talab qilinadi. Neytralizatorning xizmat muddati avtomobilning bosib o‘tgan yo‘li hisobida 160 ming kilometrni tashkil etadi

Etillangan benzinlardan foydalanilganda neytralizatorlar o‘z samaradorligini yo‘qotmaydi, biroq bunda ularning xizmat muddati qisqaradi. Ular asosan, uchqundan o‘t oldiriladigan IYOD larda, ko‘pincha ishlangan gazlarning zaharlilik darajasini kamaytirishning boshqausullari bilan birgalikda qo‘llaniladi, chunki ularning o‘zi atmosferaga chiqarib tashlanadigan azot oksidlari miqdorini kamaytirmaydi. Dizellar daneytralizatorlarni qo‘llash samarasizdir, chunki ularda SO va SN ko‘p chiqmaydi va hamda ishlangan gazlarning harorati pastroq bo‘ladi, bu esa ishlangan gazlarning chala yonish mahsulotlaridan keragicha tozalanishini ta’minlamaydi. Havo va yonilg‘i bilan ishlaydigan termik qo‘shimcha yondirgichlar juda kam qo‘llaniladi, chunki garchi, ular IYOD ning barcha yuklanishlarida yuksak samaradorlik bilan ishlasa ham qimmat turadi va qo‘shimcha yonilg‘i sarfini talab qiladi.

Suyuqlikni neytralizatorlar ishlangan gazlarni kimyoviy moddalar (natriy sulfat va natriy karbonat) eritmasi orqali o‘tkazish asosida ishlaydi. Bunda zaxarli moddalar ana shu eritmaga eritiladi, yoki kimyoviy tarzda birikadi. Bu neytralizatorlar 40—80^0 Charoratda ta’sir qiladi va asosan aldegidlar, qurum, benzopirenni (60—80 foizga qadar) neytrallaydi, azot oksidlarini esa, kam darajada (30 foizga qadar) neytrallaydi. Suvda ishlaydigan neytralizator engoddiy neytralizatordir. U ishlangan gazlarda qurum, aldegidlar, oltingugurt birikmalari miqdorini kamaytiradi. Suyuqlikli neytralizatorlar asosan dizellarda qo‘llaniladi. Ularning kamchiligi shundaki, IYoD ishlamayotgan paytda atrofdagi xavoning harorati past bo‘lganda ular muzlab qolishi mumkin. Ularsuyuq eritmani ancha tez almashtirib turishni talab qiladi. Katalitik neytralizatorlar zaharli maxsullarning zararsiz moddalar (karbonat angidrid, suv bug‘i va azot) ga aylanish reaksiyalari alangasiz o‘tishini ta’minlaydi. Bunda reaksiyalar katalizator sirtida kechadi. Reaksiyalar mo‘tadil haroratlarda o‘tadi. Samarali ishlash uchun sharoit mavjud bo‘lganda zamonaviy katalitik neytralizatorlar ishlangan gazlardagi zaharli moddalar miqdorini foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Ularning xizmat muddati ancha uzoqdir. Ularning samaradorligi atrof-muhitning harorati, moddaning katalizator bilano‘zaro ta’sirlashish davomiyligi, zaxarli moddalar va reaksiyalar sohasidagi muhitning tavsifi bilan belgilanadi.



rasm. Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi

1- chiqarish klapani; 2- chiqarish kollektori; 3- so‘ndirgich quvuri; 4-qo‘shimcha so‘ndirgich; (rezonator); 5- asosiy so‘ndirgich; 6- ulash xomutlari [6]

2-

Yuqori haroratda ishlovchi katalizatorlar sifatida (ularning samaraliishlash doirasi 300^0C dan yuqori darajalarga mos keladi) noyob va asl metallar (platina, palladiy, radiy, ruteniy va ularning birikmalari) dan foydalaniladi. Ularbir butun sopol tashuvchi, yoki glinozyom donalari sirtiga qoplanadi. Past haroratda ishlovchi katalizatorlarning (ularning samarali ishlashdoirasi 100-300^0C oralig‘ida bo‘ladi) faolligi yuqoridagi katalizatorlarnikidan sezilarsiz darajada past bo‘lsada ular bir necha barobar arzon turadi. Bunday katalizatorlar sifatida metall oksidlari (mis, nikel, xrom, marganets oksidlari) va turli qotishmalar (zanglamaydigan po‘lat, bronza, latun, mis-nikelli kompaundlar) ishlatiladi. Azot oksidlarini neytrallash uchun tiklovchi muhit (ya’ni, a< 1) bo‘lishizarur. Bunda 0,05 bo‘lgandayoq tiklash samaradorligi keskin pasayadi. SO, SNva aldegidlarni yo‘qotish uchun oksidlovchi muhit kerak bo‘ladi, shu sababliishlangan gazlarda kislorod yetishmaganda reaksiyalar sohasiga havo yuboriladi.

Oksidlanish reaksiyalarida ajralib chiquvchi issiqlikdan tizimining kerakli haroratini bir xilda tutib turish uchun foydalaniladi. Benzinda ishlaydigan IYoDlarda uch yoqlama ishlovchi (ya’ni, uchtazaharli moddaga mo‘ljallangan) katalitik neytralizatordan foydalanilganda ishlangan gazlarni tozalashda eng yuksak samaraga erishish mumkin. Mazkur neytralizator chiqarish tizimida tovush so‘ndirgich vazifasini ham o‘taydi. Bu holda IYoD birmuncha quyuq, yoki stexiometrik yonuvchi aralashmada ishlaydigan qilib rostlanadi. Neytralizatorning birinchi kamerasida azot oksidlariqayta tiklanadi, ikkinchisida esa ko‘shimcha havo berilganda chala yonish mahsulotlari qo‘shimcha oksidlanadi.

Neytralizatorning foydali ish koeffitsientieng yuqori bo‘lishiga erishish uchun qaytar aloqali IYoDga yonilg‘i berishni kislorodning partsial bosimi datchigi orqali boshqarish tizimlaridan foydalaniladi. Bu datchik neytralizatorga kirish joyiga o‘rnatiladi. Aralashma stexiometrik tarkib orqali o‘tganida datchikning EYK keskin o‘zgaradi. Bunda bu signalyonilg‘i sarfini boshqaruvchi elektron tuzilmaga uzatiladi.

Ishlangan gazlarni qayta kirgizish tizimi bilan birgalikda qo‘llaniladiganoksidlovchi katalitik neytralizatorlardan ham foydalaniladi. Etillanganbenzinlardan foydalanilganda qo‘rg‘oshin birikmalari katalitik neytralizatorni100—200 soat ishlaganidan keyinoq ishdan chiqaradi. Uning ishgayaroqliligini faqat reaktivlash yo‘li bilan qayta tiklash mumkin bo‘ladi.

Dizellarda katalitik neytralizatorlardan foydalanish kam samara beradi: ular miqdori uchqundan o‘t oldiriladigan IYoDdagiga qaraganda ancha kambo‘lgan SO, SN va aldegidlar chiqishini kamaytiradi xolos. Azot oksidlarideyarli chiqarilmaydi, chunki dizelning ishlangan gazlarida ko‘p miqdordakislorod bo‘ladi va neytral izatorda oksidlovchi muhit yuzaga keladi.

Bundantashqari, dizelda ishlangan gazlarning harorati past bo‘ladi, shu sabablineytarlizatorning samarali ishlashi uchun sharoit mavjud bo‘lmaydi. Dizelishlangan gazlaridagi qurum tezda neytralizatorni to‘ldiradi va uning ichkiqarshiligini oshiradi, natijada

IYoDning quvvati kamayadi. Shu sababli neytralizatordan ishlangan gaz filtrlari bilan birgalikda foydalanish yoki azot oksidlari chiqishini kamaytirishning boshqa usullarini (ishlangan gazlarni qayta kirgizish, yonilg‘i berishni tezlatish burchagini kichiklashtirish) qo‘llash lozim. IYoD ishlangan gazlarining zaharlilik darajasini pasaytirishning ishonchli usuli bo‘lgan barcha turdagi neytralizatorlar (ayniqsa, katalitik neytralizatorlar) transport vositasining narxini anchagina qimmatlashtirib yuboradi. Bundantashqari, ular chiqishdagi aks 8bosimni oshiradi (ayniqsa, qisman to‘lib qolgan holatdaligida), bu esa IYoD quvvati 5—15 foiz kamayishiga, qabulchanlikning pasayishiga va shunga mos ravishda yonilg‘i tejamkorligining yomonlashuviga olib keladi. Shu sababli ular chiqarib tashlanadigan zaharli moddalar miqdoriqat’iy cheklab qo‘yilgan, yoki IYoD aloxida sharoitda (berk xonalarda, shamollatilishi cheklangan ish joylarida) ishlagan hollardagina foydalanilishi maqsadga muvofiqdir [6].

2.Ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash, asosan avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalarning miqdorini tegishli qonun xujjatlari bilan chegaralash va bu me`yorlarga amal qilinishini nazorat qilishdan iboratdir.

Zaxarli moddalarni kamaytirish uchun hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan usullarni uch turkumga ajratish mumkin: ish jarayonini, birinchi navbatda, aralashma hosil bo‘lish va yonish jarayonlarini takomillashtirish, ish jarayonini maxsus rostlash va IYoD konstruktsiyasiga tegishlicha o‘zgartirishlar kiritish; maqsadiga qaratilgan choralarni qo‘llash. Bularning ichida birinchi turkumchora- tadbirlari eng maqbuli va to‘g‘risi hisoblanadi. Chunki ular deyarli hamisha IYoDning barcha ko‘rsatkichlarini, yonilg‘i tejamkorligini yaxshilashga qaratilgandir. Ish jarayonining, konstruktsiyaning, yoki zaxarli moddalar chiqishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki ikki turkumchora-tadbirlari dizellar va uchqundan o‘t oldiriladigan IYoDlari uchunturlichadir; muammoning o‘tkirligini, yoki zaxarli moddalar hosil bo‘lishiningumumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi uchinchi turkum choralari esa, o‘zasosiga ko‘ra dvigatellarning ikkala turi uchun ham bir xilda taaluqlidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada Ishlab chiqilgan silindrlarni o‘chirish metodi avtomobillarni ekspluatatsiya sharoitini va algoritmini hisobga olgan holda yengil avtomobillarni elektron purkash tizimli dvigatelini salt yurishida yonilg‘i sarfini 13 foizga va ishlab chiqarilgan gazlar tarkibidagi miqdorini 11 foizga kamaytiradi.

Ishlab chiqilgan avtomobil trasnporti vositalarini yonilg‘i sarfini differensiyalashgan me’yori real ekspluatatsiya sharoitini va dvigatelni silindrlarni o‘chirish algoritmini hisobga olishga imkon beradi. Bu metodikani qo‘llash yengil avtomobillarni yonilg‘i me’yoriy sarfini bir smenada R 3112194-0366-03 yo‘riqnoma hujjatidagiga nisbatan 7-18 foizga kamayadi.

Ekspluatatsiya qilinayotgan avtomobillar uchun dvigatelni salt yurishida boshqarish metodi ishlab chiqilgan bo‘lib, dasturli qurilma yordamida ratsional algoritm bo‘yicha silindrlarni o‘chirish amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

[1]. Mirziyoyev.Sh.M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.

[2]. 2 Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 b.

[3]. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasitog‘risida. 2017 yil 7-fevral. PF-4947-son farmoni.

[4]. I.A.Karimov Mirovoy finansovo-ekonomicheskiy krizis, puti i meгы po yego preodoleniyu v usloviyax Uzbekistana. – T: Uzbekistan, 2009. – 67s.

[5]. Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o‘g‘li .Yuk ortish va tushirish joylarining geografik xususiyatlarini tahlil qilish. Maqola https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1479

[6]. Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o‘g‘li maqola AVTOMOBILLARDA TASHISHNI TASHKIL ETISH

[7]. https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/1150

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TA'MIRLASH VAQTINI VA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHDA TA'MIRLASHDAN OLDINGI DIAGNOSTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

O‘.U. Sotvoldiyev

Farg‘ona politexnika instituti
u.u.sotvoldiyev@ferpi.uz tel: +998 91 686 65 91
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Avtotransport vositasini boshqarishga ta’sir etuvchi ruhiy holatlar, charchoq, birxillik, hissiy bosim va ularning harakat xavfsizligiga ta’sirini tahlil qilish tahlillari taqdim etilgan, yo‘l transport hodisalarini kamaytirish uchun kerakli tavsiyalar berilgan. Haydovchining tajribasi, reaksiyasi va qiyin vaziyatlarda o‘zini tuta olishi. Noqulay ob-havo sharoitida avtomobilni boshqara olishi.

Kalit so‘zlar: *Yo‘l transport hodisasi,Yo‘l transport hodisalari statistikasi, YTH sabablari, transport vositalari, haydovchi, jarohatlar, yo‘l harakati qoidalari, yetarli ko‘rinmaslik, charchoq.*

Представлен анализ психических состояний, утомляемости, неоднородности, эмоционального напряжения, влияющих на управление транспортным средством и их влияние на безопасность дорожного движения, даны необходимые рекомендации по снижению дорожно-транспортных происшествий. Водительский опыт, реакция и умение вести себя в сложных ситуациях. Умение ездить в сложных погодных условиях.

Ключевые слова: *Дорожно-транспортное происшествие, статистика дорожно-транспортных происшествий, причины аварий, транспортные средства, водитель, травматизм, правила дорожного движения, недостаточная видимость, утомление.*

An analysis of mental states, fatigue, homogeneity, emotional pressure affecting driving a vehicle and their impact on traffic safety is presented, necessary recommendations are given to reduce road traffic accidents. Driver's experience, reaction and ability to behave in difficult situations. Ability to drive in adverse weather conditions.

Key words: *Road traffic accident, traffic accident statistics, causes of accidents, vehicles, driver, injuries, traffic rules, lack of visibility, fatigue.*

Ta’mirlashdan oldingi diagnostika zamonaviy davrda har qanday ta'mirlash jarayonining muhim qismidir. Aksariyat hollarda nosozlikni aniq aniqlaydigan va zarur ta'mirlash tartibini belgilaydigan diagnostika jarayonini talab qiladi. Vizual tekshirish va qo‘lda tekshirishni o‘z ichiga olgan an'anaviy diagnostika usullari qimmat, vaqt talab qiluvchi va ba'zan samarasiz bo‘lishi mumkin. Biroq, zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan foydalanish sifat va aniqlikni oshirish bilan birga ta'mirlash vaqtini va xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'mirlash vaqtini va xarajatlarni qisqartirishda ta'mirlashdan oldingi diagnostika samaradorligi baholanadi.

Ta'mirlashdan oldingi diagnostika uchun samarali vositalar sifatida bir nechta zamonaviy texnologiyalar paydo bo‘ldi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Vibratsiyani tahlil qilish: Vibratsiyani tahlil qilish - bu mumkin bo‘lgan nosozliklarni aniqlash uchun mashinalar va uskunalarning tebranish naqshlarini tahlil qilishni o‘z ichiga olgan usul. Tebranishlarni kuzatish orqali texnik mutaxassislar eskirgan podshipniklar, noto‘g‘ri hizalama yoki muvozanat kabi asosiy muammolarni ko‘rsatadigan chastota yoki amplitudadagi o‘zgarishlarni aniqlashi va uskunaning ishdan chiqishidan oldin tuzatish choralarini ko‘rishi mumkin.

2. Infraqizil termografiya: Infraqizil termografiya uskunadagi harorat o‘zgarishlarini aniqlash uchun termal tasvirlash kameralaridan foydalanadi. Mashinadagi issiq joylar elektr qismlarining haddan tashqari qizishi yoki yomon moylash tufayli haddan tashqari ishqalanish kabi muammolarni ko‘rsatishi mumkin.

3. Ultrasonik test: Ultrasonik test materiallardagi nuqsonlar yoki nuqsonlarni aniqlash uchun yuqori chastotali tovush to‘lqinlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, ultratovush tekshiruvi metall komponentlardagi yoriqlarni yoki quvur liniyalarida qochqinlarni aniqlashi mumkin.

4. Moy tahlili: Moy tahlili ifloslanish, yopishqoqlikning o‘zgarishi yoki metall zarralari mavjudligi kabi potentsial muammolarni aniqlash uchun mashina va uskunalarda ishlatiladigan moylarni namuna olish va sinovdan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Moy sifatini kuzatish orqali texnik mutaxassislar muammolarni erta aniqlashlari va uskunaning ishdan chiqishidan oldin tuzatish choralarini ko‘rishlari mumkin.

Ta'mirlashdan oldingi diagnostika samaradorligi:

Ta'mirlashdan oldingi diagnostikadan foydalanish ta'mirlash vaqtini va xarajatlarini kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, avtomobillarning nosozliklari korxonalarga har yili ishlab chiqarishni yo‘qotish, ta'mirlash xarajatlari va ishlamay qolish vaqtlari uchun milliardlab dollarga tushadi. Ta'mirlashdan oldingi diagnostikadan foydalangan holda, texnik xizmat ko‘rsatish guruhlari potentsial muammolarni aniqlashlari va katta buzilishlarga olib kelmasdan oldin tuzatish choralarini ko‘rishlari mumkin, bu esa ta'mirlash vaqti va xarajatlarini kamaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta'mirlashdan oldingi diagnostika vositalaridan foydalanish ta'mirlashning sifati va aniqligini oshirish bilan birga ta'mirlash vaqti va xarajatlarini kamaytirishda sezilarli afzalliklarni beradi. Misol uchun, global avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqaruvchi Johnson Controls tomonidan o‘tkazilgan amaliy tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ta'mirlashdan oldingi diagnostikadan foydalanish ta'mirlash vaqtlarini 50% ga qisqartirishi mumkin. Tadqiqot bortdagi diagnostika (OBD) skanerlari va simsiz mobil diagnostika tizimlarining avtomobil elektron tizimlarini ta'mirlash tartib-qoidalarining tezligi va aniqligiga ta'sirini o‘rganib chiqdi. Natijalar sezilarli bo‘ldi, OBD skanerlari ta'mirlash vaqtlarini 25% ga va simsiz mobil diagnostika tizimlarini 50% gacha qisqartirdi.

Zamonaviy diagnostika vositalari asbob-uskunalar va mexanizmlar tizimidagi nosozliklarni aniqlash, ta'mirlash tartib-qoidalarini ishlab chiqish va ishlamay qolish vaqtini minimallashtirishning tez, aniq va tejamkor usulini ta'minlaydi. Monitoring tizimlari, ma’lumotlar tahlili va AI algoritmlaridan foydalanish texnik xodimlarga nosozliklarni tez va samarali tarzda bartaraf etish, diagnostika qilish va tuzatish imkonini beradi, bu esa ta’mirlash vaqtini 50% gacha va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini 30% ga qisqartiradi.

Ushbu kamchiliklarni hisobga olgan holda, ma'lum bir, oldindan belgilangan vaqtdan so‘ng, ushbu avtomobil qo‘llanmasida ko‘rsatilgan barcha operatsiyalar ro‘yxati amalga oshiriladigan, Texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilishning rejalashtirilgan ogohlantirish tizimi ishlab chiqilgan va keng qo‘llanilmoqda. Ish vaqti va operatsiyalar ro‘yxati sinov vaqtida olingan ushbu markadagi avtomobillar guruhining texnik holatining o‘rtacha ko‘rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Biroq, turli sharoitlarda ishlaydigan asosiy agregatlar va avtomobillar tizimlarining haqiqiy parametrlari sezilarli farqlarga ega bo‘lib, bu to‘satdan uzilishlar (og‘ir sharoitlarda) paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin, yoki xizmat ko‘rsatish va operatsion materiallar va zaxira qismlarni ortiqcha sarflashda ortiqcha to‘xtab qolishi mumkin.

Zamonaviy ko‘p tarmoqli texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish ishlab chiqarishi sharoitida asbob-uskunalarning aksariyati amortizatsiya muddatidan tashqari sezilarli darajada eskirgan tugunlar va detallar bilan ishlatiladi. Bu esa, ishning eng qiyin davrlarida muvaffaqiyatsizliklar va avtomobilning to‘xtab qolishiga olib keladi. Kichik fermer xo‘jaliklari ko‘pincha avtomobillarni ta'mirlash va ta'mirlash uchun kerakli bazaga va malakali kadrlarga ega emaslar. Ularda texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish, odatda, ehtiyojga qarab amalga oshiriladi va qattiq ish paytida allaqachon paydo bo‘lgan muammolarni to‘ldirish va bartaraf etishga kamayadi.

Qayd etilganidek, joriy tizimni takomillashtirish va texnik parametrlarni nazorat qilish va kelgusi davr uchun muammosiz va xavfsiz ishlashni ta'minlash uchun asosiy agregatlar va tizimlar elementlarining qoldiq resurslarini prognozlash holati bo‘yicha Texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish tizimini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

1. Kompyuterlashtirilgan diagnostika vositalaridan foydalanish - Zamonaviy avtomobillar avtomobil ichidagi muammolarni aniqlashga yordam beradigan ilg‘or kompyuterlashtirilgan diagnostika vositalari bilan jihozlangan. Ushbu diagnostika vositalari ilg‘or dasturiy ta'minot va

sensorlardan foydalanadi, bu vizual tekshirish yoki qo‘lda testlarni o‘tkazish zaruratini yo‘q qiladi. Shuning uchun kompyuterlashtirilgan diagnostika vositalaridan foydalanish ta'mirlashdan oldingi diagnostikani sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

2. Sifatli diagnostika uskunalaridan foydalanish - ta'mirlashdan oldingi diagnostikada sifatli diagnostika uskunasiga ega bo‘lish juda muhimdir. Bu ta'mirlash bo‘yicha mutaxassislarga muammolarni aniq aniqlash va samarali echimlarni taklif qilish imkonini beradi. Shu sababli, avtomobil do‘konlari skanerlar, osiloskoplar va multimetrlar kabi sifatli diagnostika uskunalariga sarmoya kiritishlari kerak. Ushbu vositalar ta'mirlash bo‘yicha mutaxassislarga muammoning asosiy sababini aniq aniqlash imkonini beradigan keng qamrovli diagnostika ma'lumotlarini taqdim etadi.

3. Muntazam texnik xizmat ko‘rsatish - Avtotransport vositalariga muntazam texnik xizmat ko‘rsatish potentsial muammolarni aniqlashga va ularning yomonlashuvining oldini olishga yordam beradi, bu esa pirovardida ta'mirlashdan oldingi diagnostikani yaxshilaydi. Avtotransport vositalariga muntazam texnik xizmat ko‘rsatish, shuningdek, har qanday nuqsonli yoki shikastlangan qismlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa muammoni oldindan aniqlashga yordam beradi.

4. OEM qismlaridan foydalanish - Ta'mirlash vaqtida OEM (Original Equipment Manufacturer) qismlaridan foydalanish juda muhimdir. OEM qismlari maxsus mo‘ljallangan avtomobil uchun mo‘ljallangan va eng yuqori sifatga ega. Ta'mirlash vaqtida sotuvdan keyingi qismlardan foydalanish muvofiqlik muammolariga olib kelishi va transport vositalariga qo‘shimcha zarar etkazishi mumkin. Shuning uchun, ta'mirlash vaqtida OEM qismlaridan foydalanish ta'mirlashdan oldingi tashxisni yaxshilaydi.

5. Belgilari aniq bo‘lgan transport vositalariga ustuvorlik berish - ta'mirlash ustaxonalari ta'mirlashdan oldingi diagnostika vaqtida aniq alomatlari bo‘lgan transport vositalariga ustunlik berishlari kerak. Muammolarning tabiati va asosiy sababini aniqlash orqali texnik mutaxassislar darhol ko‘rinmasligi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash uchun aniqroq diagnostika qilishlari mumkin.

6. Tajribali texniklarni yollash - tajribali texniklar murakkab avtomobil muammolarini tashxislash va ta'mirlash uchun zarur ko‘nikma va tajribaga ega. Shu sababli, avtomobil do‘konlari keng qamrovli tayyorgarlikdan o‘tgan va avtomobil tizimlari bo‘yicha keng bilim bazasiga ega bo‘lgan tajribali texniklarni yollashlari kerak. Tajribali texnik mutaxassislar muammolarni tezda tashxislashi va ta'mirlashi, ta'mirlash xarajatlarini kamaytirishi va avtomobil ishonchliligini oshirishi mumkin.

7. Texnik xodimlarni tayyorlash - sertifikatlangan va tajribali texnik xodimlar ta'mirlashdan oldingi diagnostika ishlarini o‘tkazishda malakali. Tajriba va ta'limga ega bo‘lgan texnik xodimlar transport vositalaridagi muammolarni samarali tashxislashi va aniqlashi mumkin, bu esa ta'mirlash vaqtini va xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu sababli, texnik xodimlarni ta'mirlashdan oldingi diagnostika uchun keng qamrovli va muntazam treningdan o‘tishlarini ta'minlash juda muhimdir.

8. Mijozlar bilan muloqotni yaxshilash - ta'mirlashdan oldingi diagnostikada mijozlar bilan samarali muloqot qilish muhim ahamiyatga ega. Avtomobil do‘konlari mijozlarga aniqlangan muammolar va tavsiya etilgan echimlarni ta'kidlaydigan batafsil diagnostika hisobotlarini taqdim etishi kerak. Bundan tashqari, ta'mirlash bo‘yicha mutaxassislar muammoning mohiyatini va uni tuzatmaslik oqibatlarini tushuntirishlari kerak. Ushbu yondashuv mijozlarning ishonchini va sodiqligini oshiradi, bu esa biznesning rentabelligini oshiradi.

Shu bilan birga, nazoratni amalga oshirish uchun qo‘shimcha xarajatlar majburiy bo‘lmagan tartibga solish ishlarini olib tashlash va avtomobil muvaffaqiyatsizligi sonini kamaytirish orqali vaqtni qisqartirish bilan qoplanishi kerak. Diagnostikaning optimal chastotasi haqiqiy ish vaqti birligi uchun mablag‘larning muayyan xarajatlarini minimallashtiradi:

Sud = (yuz + N) / kg * TXK - > min,

Stor-umumiy ta'mirlash va ta'mirlash xarajatlari, Stor = Sd + Sb + Cf;

– diagnostika xarajatlari: SD = td * n * CD;

- texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish xarajatlari sob = tob * n * Cob;

Cfc-ehtiyot qismlar va materiallar qiymati,

P-ishlash uzaytirish yoki ruxsat etilgan ortiqcha transport yoki zaxira avtomobilsini jalb qilish xarajatlari tufayli mahsulot yo‘qotilishi,

Kg = (to-TV)/to – tayyorlik koeffitsienti,

to-umumiy ish vaqti tashkiliy sabablarga ko‘ra uzilishlar tashqari avtomobil,

Tv-belgilangan vazifani bajarishda to‘satdan buzilishlarni bartaraf etish vaqti,

td-umumiy diagnostika vaqti,

tob-texnik va ta'mirlash operatsiyalarining umumiy muddati,

n-ijrochilar soni;

Avtomobillarning yonilg‘i tejamkorligi va dinamik ko‘rsatkichlarini oshirish

Avtomobillarning yonilg‘i tejamkorligini, dinamik ko‘rsatkichlarini oshirish, zamonaviy avtomobillar uchun mavjud ekologik xavfsizlik me’yorlarini ta’minlash maqsadida ishlash jarayonini kompyuter yordamida boshqarish tizimi qo‘llaniladi. Bu dvigatellar bazida kompyuterlashgan deyiladi.

Benzinli komryuterlashgan dvigatellarda yonilqini ketma-ket sachratish tizimi samarali bo‘lib, u avvaldan qo‘llanilayotgan dvigatellarni ishini markazdan va yonilg‘i sachratishni boshqarishning noketma-ket taqsimlash kompyuter tizimiga nisbatan yonigi sarfini 12-15% ga kamaytiradi va ishlash jarayonida 18-20% ga avtomobillarning

Ko‘pgina avtomobillarda elektr nasosi xosil qiluvchi bosm kamida 0,30-0,35 MPa ni tashkil qiladi. Diagnostikalash skaneri yordamida kompyuter tizimining texnik holati (kodlar va ularning tavsifi) to‘liqroq aniqlanadi, bu vaqda yonilg‘i-xavo tarkibi va o‘t oldirishning ilgarilatish burchagi va x.k. bo‘yicha to‘g‘rilash ishlarini bajarishga imkon tugiladi.

Benzinli va gazoballonli dvigatellarning ishini boshqarish tizimi elementlari bo‘yicha quyidagi ishdan chiqishlar ko‘proq e’tiborlidir: kontaktlarning oksidlanishi va o‘tkazgichlarning uzilishi (35%), yonilg‘i nasosi (22%), salt yurish klapani (10%), o‘t oldirish tizimi elementlari (9%), forsunkalar (8%), kislorod datchigi (7%), datchiklar va relelar (6%), elektron boshqarish bloki (3%).

Dvigatelni ishini boshqarish tizimining texnik holatini tiklash avtomobillarni ishlab chiqaruvchi tomonidan xar bir nosozlik uchun ishlab chiqilgan algoritmlar (diagnostikalash xaritalari) yordamida bajariladi.

Diagnostikalash xaritasi komryuter tizimini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish ketma-ketligini belgilab beradi. Bu ishlarni ATK va TXKS dagi diagnostikalash rostlarida maxsus tayyorlangan xodimlar bajaradi. Rostlar asboblar to‘rlami va moslamalar bilan jihozlanadi. NEKSIYA dvigateli uchun bu to‘rlam o‘z ichiga quyidagilarni oladi: elektrik aniqlagich, maxsus testr, ossilograf-multimetr, ulagichlar, razrdnik, forsunka zanjiri uchun aniqlagich, yonilg‘i monometri, forsunkani tekshirish asbobi, vakum nasosi, yoqori kuchlanishli o‘tkazgichlarni

Kompyuterli dizel dvigatellarining texnik holatini aniqlash va tiklash uchun yuqarida ko‘rilgan kabi diagnostik lampa orqali o‘qiladigan nosozlik kodlaridan, texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish texnologiyasidan, nosozliklarni izlash va bartaraf qilish algoritmlaridan foydalaniladi.

Benzinli va dizel dvigatellarida yonilg‘i bosimini avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish va ta’mirlash jarayonida egiluvchan monometr yordamida nazorat qilinadi. Manometr yordamida tekshirish texnologiyasi avtomobildan yonilg‘i nasosini, filtrni, yonilg‘i bosimni sozlagichni (reduksion kiapanni) va forsunkani yechmasdan turib tekshirishni nazarda tutadi. Forsunka yechilganda maxsus jihoz yordamida uning yonilg‘ini davriy yetkazib berish kattaligi va uning purkash sifati tekshiriladi, siqilgan xavo va kerosinli yoki dizel yonilg‘isili sig‘im yordamida esa uning germetikligi aniqlanadi.

Benzinni purkab beruvchi ta’minlash tizimi

Benzinni purkab beruvchi tizim jadallik bilan an’anaviy karbyuratorli tizimlarni siqib chiqarmoqda. Benzinni purkab beruvchi tizimning karbyuratorli tizimga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

- yonilg‘i va havoni ajratilgan holda me’yorlash, berilayotgan havoga mos ravishda yonilg‘ini turlicha berilishi;
- me’yorlashning asosiy dasturini ko‘plab omillar bo‘yicha korreksiyalash (yuklanishlar va tezliklar rejimiga, havo va sovitish suyuqligining haroratiga, atmosfera bosimiga va boshqalarga qarab);
- ishlatilgan gazlarni λ - zondli tizimlarda neytrallash uchun aralashmani talab etilgandek aniq moslash;
- dvigatelning tejamkorligi, quvvati foiz ko‘rsatkichlarini 5-15 foizga yaxshilash, tashhislash, o‘ziga-o‘zi tashxis qo‘yish;

Purkab beruvchi tizim karbyuratorli tizimga nisbatan qimmatligi, tuzilishi va foydalanish jarayonida xizmat ko‘rsatishning murakkabligi bu tizimning kamchiligidir.

Benzin yuborilishiga siklik (davriy) purkash davomiyligini o‘zgartirish yo‘li bilan rostlanadigan, elektron boshqariladigan tizimlar ko‘proq qo‘llanilgan.

Foydalaniladigan elektromagnit forsunkalar soniga qarab bu tizimlar quyidagicha tasniflanadi:

- har bir silindr uchun alohida forsunkali bo‘ladi, (taqsimlangan purkash);
- barcha silindrlar uchun bitta forsunkali (markaziy purkash) bo‘ladi;

To‘rt taktli dvigatellarda kiritish taktida benzinni 0,15-0,4 Mpa bosim ostida elektromagnit forsunkalar bilan purkovchi tizimlar keng tarqalgan.

Avtomobil dvigatellari silindrlariga benzinni bevosita purkash amaliy jihatdan ham qo‘llanilmoqda. Bunga asosiy sabab forsunkaning ishlash sharoitini yomonligi, uni yonish kamerasiga joylashtirish qiyinligi hamda purkash bosimini balanndligidir (3,5-10,0 Mpa). 2.3-rasmda benzinni taqsimlangan purkash tizimi ko‘rsatilgan.

Markaziy purkash tizimi ham shunga o‘xshash rasmga ega bo‘lib barcha silindrlarga benzin yuboruvchi bitta forsunkaga ega bo‘ladi. Forsunka kiritish quvur yo‘lining kirish qismiga o‘rnatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'mirlashdan oldingi diagnostika avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatishning muhim jihati bo‘lib, ta'mirlashdan oldingi diagnostika samaradorligini oshirish uchun ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalarga amal qilish juda muhimdir. Kompyuterlashtirilgan diagnostika vositalarini qo‘llash, texnik xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish, muntazam texnik xizmat ko‘rsatish, OEM qismlarini ishlatish va aniq belgilarga ega bo‘lgan transport vositalariga ustuvorlik berish orqali ta'mirlashdan oldin aniq tashxis qo‘yish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Bu, o‘z navbatida, tez ta'mirlashga, ta'mirlash xarajatlarini kamaytirishga va avtomobilning ishlash muddatini uzaytirishga olib keladi.

Adabiyotlar

[1]. A.Muxitdinov va boshq. Avtomobillar. Konstruktsiya asoslari. “Istiqlol nuri” nashriyoti. T: 2015, 332 b.
[2]. A.Muxitdinov va boshq. Transport vositalarining tuzilishi. Design of vehicles.- T.: “Ta’lim”nashriyoti, 2014. 160 b.
[3]. A. Muxitdinov, O.K. Qosimov, R.T.Xalikov. Transport vositalarini loyixalash va xisoblash. T:2014,187b
[4]. В.К. Вахламов. Техника автомобильного транспорта: Подвижной состов и эксплуататсионные свойства М: Издательский тсентр “Академия”. 2004-528с
[5]. Rasulov G‘.G‘. “Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi” fani-dan masalalar to‘plami, Toshkent, TAYI, 2010y.

MASHINASOZLIKDA ROBOTLARNI AHAMYATI VA ROBOTLARGA DASTURIY TA’MINOT TUZISH YO‘LLARI

R.K. Tadjiboev

Farg‘ona Politexnika Instituti, (r.tojiboyev@ferpi.uz)

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Mazkur maqolada xulosa qilib aytganda, robotlar haqida va ularga dastutriy ta'minot tuzish yo'llari ko'rsatilib o'tilgan. Xozirgi kunda o'ylash mumkin hozirgi kunda sanoat robotlari va ularga dasturiy ta'minot tuzish juda ham dolzarb bo'lib turibdi, hatto u haqida qisqacha o'ylab ko'rsak ham, bu juda ko'p joyni egallaydi. Ishonch bilan aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan har birimiz tez orada o'zimizning aqlli robotimizga ega bo'lishimiz mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *Robot, sanoat, korxona, avtomatlashtirish, ishlab chiqarish, tizim.*

Вкратце, в этой статье рассказывается о роботах и о том, как создавать для них программное обеспечение. В наше время можно подумать, что промышленные роботы и создание программного обеспечения для них в наше время очень актуальны, даже если вкратце подумать, это занимает много места. Можно с уверенностью сказать, что с быстрым развитием информационных и коммуникационных технологий было показано, что вскоре у каждого из нас будет свой собственный интеллектуальный робот.

Ключевые слова: *Робот, промышленность, предприятие, автоматизация, производство, система.*

In summary, this article tells about robots and how to create software for them. It can be thought that industrial robots and software creation are very relevant nowadays, even if we think about it briefly, it takes up a lot of space. It is safe to say that with the rapid development of information and communication technologies, it has been shown that each of us can soon have our own intelligent robot.

Key words: *Robot, industry, enterprise, automation, production, system.*

Robotlardan mashinasozlik korxonalari uchun bir nechta muhim vazifalarni bajarishda foydalaniladi. Quyidagi mavzular robotlarning korxonalarida o'rnini ko'rsatadi:

Ish jarayonining avtomatlashtirilishi: Korxonalar avtomatlashtirilgan jarayonlarga ega bo'lishadi. Robotlar, qo'llaniladigan mashinalarni ishga solishda va ish jarayonlarini o'zaro bog'lashda ishga tushiriladi. Ular, avtomatik ravishda materiallarni qabul qilish, qaytarish va joylashtirish, harakatli konveyer tizimlarida ish bajarish, xatolarni aniqlash va ortidan kaldirish va boshqa avtomatlashtirilgan vazifalarni bajarishda foydalaniladi.

Mahsulot ishlab chiqarish: Korxonalar robotlardan ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanadi. Robotlar, otomobillarni yig'ish va to'plamalarini tashkil qilish, elektronik qurilmalarni yig'ish va tuzish, qayta ishlash jarayonlarini bajarish, ishlab chiqarish o'rtasida chiptalarni joylashtirish, xatolarni identifikatsiya qilish va tuzatish kabi vazifalarni o'zlashtirishda ishlatiladi.

Sifatni monitoring qilish: Robotlar, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini monitoring qilishda muhim o'rin tutadi. Ular, texnologik parametrlarni monitoring qilish, laboratoriya testlari va sinovlar o'tkazish, xatoliklarni aniqlash va ta'mirlash, omborda sifatni kuzatish va xaridorlar uchun yangi sifatni belgilashda yordam beradi.

Ishchi nazorati: Korxonalar robotlari, xodimlarining ish faoliyatini monitoring qilish va boshqarishda foydalaniladi. Ular, xodimlarining harakatlarini kuzatish, ish rejalarini amalga oshirish, ish bandligini belgilash, ishchi xodimlarini yo'nalishga yo'naltirish va xodimlar bilan kommunikatsiyada qo'llaniladi.

Tarkibiy qurilma boshqarish: Robotlar, korxonalar tarkibiy qurilmalarini boshqarishda ham muhim o'rin o'ynaydi. Ular, energiya tizimlarini monitoring qilish, tizimlarni boshqarish, avtomatik bo'limlarni boshqarish, tarkibiy qurilmalar va qurilmalar orasidagi bog'lanishlarni bajarish va muhassasa tizimlarini boshqarishda foydalaniladi.

Konservatsiya va to'liqotlash: Korxonalar robotlari, mahsulotlar va materiallarni saqlash, konservatsiya qilish va to'liqotlashda muhim o'rin tutadi. Ular, sovuq xonalarida, o'zgartirishli atmosfera sharoitida mahsulotlar saqlash, paketlash va branding qilish, sanoat qoidalari va standartlarga muvofiq to'liqotlashni ta'minlash kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Shundaylik, korxonalar robotlari bir nechta vazifalarni bajarishda foydalaniladi va bu, ish faoliyatining avtomatlashtirilishi, tashqi va ichki xavfsizlik, logistika, texnik xizmat, datani tahlil qilish, sifatni monitoring qilish, ishchi nazorati, tarkibiy qurilma boshqarish,

konservatsiya va to‘liqotlash kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa korxonalar uchun samarador va tashqi rivojlanishda ahamiyatli hisoblanadi.

Shunday qilib, robotlar korxonalar uchun avtomatlashtirilgan vazifalarni bajarishda muhim o‘rin tutadi va jarayonlarni yaxshiroq, tezroq va samaradorroq qilishda qo‘llaniladi.



rasm. Sanoat robotlari [2].

Aynan qanday mashinalar robot, deb atalishi mumkinligi haqida aytadigan bo‘lsak, odatiy robot quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi:Tabiiy emas, ya’ni ongli mavjudot tomonidan yasalgan.Atrof-muhitni kuzata oladi (ko‘rish orqali kuzatishi shart emas; boshqa tur sezgi ham bo‘lishi mumkin).Atrof-muhit bilan interfaol munosabatda bo‘la oladi.Qandaydir darajada aqlli, ya’ni (mustaqil yoki oldindan dasturlangan) qaror qabul qila oladi.Dasturlana oladi.Aylanish yoki parallel ko‘chish o‘qlari bilan harakat qila oladi.Epchil manipulatsiyalarni bajara oladi.Irodasini namoyish qila oladi (bu sifat muhim emas, zero antropomorfizmga taalluqlidi

Xulosa qilib aytganda, robot haqida uzoq o‘ylash mumkin, hatto u haqida qisqacha o‘ylab ko‘rsak ham, bu juda ko‘p joyni egallaydi. Ishonch bilan aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan har birimiz tez orada o‘zimizning aqlli robotimizga ega bo‘lishimiz mumkin. Axir, mobil qurilmalar uchun eng mashhur operatsion tizim,

Zamonaviy robotlar tashqi ko‘rinishi va dizayni jihatidan juda farq qilishi mumkin. Bugungi kunda sanoat korxonalarida tashqi ko‘rinishi (texnik yoki iqtisodiy sabablarga ko‘ra) "inson" dan uzoq bo‘lgan turli xil robotlardan foydalanilmoqda. Bundan tashqari, uni robot yoki operator boshqarishi yoki oldindan o‘rnatilgan dastur orqali boshqarishi mumkin.

Zamonaviy robotlarning namunalari - o‘zini o‘zi boshqaradigan mexanik odamlarning birinchi amaliy qo‘llanilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ellinistik davrga to‘g‘ri keladi. O‘sha paytda to‘rtta oltin suv bilan qoplangan ayollar haykali Faros orolidagi mayoqqa o‘rnatildi. Kun davomida ular quyoshda porlaydilar, kechalari esa har doim uzoqdan yaxshi ko‘rinish uchun yorqin ranglarda yoritib turiladi. Biroz vaqt o‘tgach, ushbu haykallar burilib, signal beradi; tunda ular karnay-surnay chalib, suzuvchilarni qirg‘oq bo‘yi haqida ogohlantiradilar.

Mavjud va ixtiro qilingan hayoliy robotlar shu qadar ommalashib ketdiki, 2003 yilda Robot Shon-sharaf zali tashkil etildi - www.robothalloffame.org. Robotlar shon-sharaf zali 2003 yilda AQShning Pitsburg shahridagi Karnegi Mellon shahridagi kompyuter fanlari maktabi tomonidan tashkil etilgan.

Robotlar shon-shuhrat zali yaratilishidan maqsad robototexnika rivojlanishiga asos bo‘lgan robotlar sohasida erishilgan yutuqlarni va haqiqiy robotlar ishlab chiqarishga ilhom bergan ilmiy fantastikadagi robotlar tasvirlarini abadiylashtirish edi. Robotlar shon-sharaf zaliga kirishni istagan har bir kishi robotlarni qo‘shishni tavsiya qilishi mumkin. Uni kiritish to‘g‘risida qarorni olimlar, yozuvchilar va tadqiqotchilar hakamlar hay’ati qabul qiladi. Birinchi robotlar panteonining vakillari 2003 yil 10 noyabrda Karnegi Ilmiy Markazida (Pitsburg) bo‘lib o‘tgan tadbirda e’lon qilindi.

Manipulyatorlar, robotik sistemlerde obyekt va obyektlarni boshqarish uchun ishlatiladigan mekanik strukturalar hisoblanadi. Bu strukturalar, elektr yuritmalardan foydalanarak harakatni boshqarish va mekanik kuchni aylantirish uchun elektr yuritmalardan foydalanadi. Aks holda, manipuliatorlarda keng qo‘llanadigan elektr yuritmalardan ba’zilari quyidagilardir:

1. Servo motorlar: Servo motorlar, harakatni chuqurlik darajasi bilan boshqarishga moslashtirilgan DC motorlardir. Ular robotning belli bir pozitsiyada turishini ta’minlayish uchun bir regulyator tizimiga ega. Servo motorlar, yuritish qutisi orqali boshqariladi va elektronik sinxronizatsiya tizimi bilan ishlaydi. Bu, manipuliatorning istalgan nuqtada to‘g‘ri ishlashini ta’minlayadi.

rasm. Servo motorlar [3].

2. Step motorlar: Step motorlar, diskret (qadamli) harakat uchun ishlatiladigan elektr yuritmalardir. Ular diskret qadamli darajada harakatlanish uchun ishlatiladi. Step motorlarda, pulsatsiyalar orqali harakatni boshqarish mumkin. Bu yuritma turi, manipuliatorlarda pozitsionlashish va boshqarish buyumlari uchun keng qo‘llaniladi.

3. Lineyka motorlar: Lineyka motorlar, uzunlikda harakatni ta’minlash uchun ishlatiladigan elektr yuritmalardir. Ular lineyka maydonga asoslangan bo‘lib, o‘zlarining stator va rotorini o‘rtasida o‘zaro sinxronizatsiya bilan ishlaydilar. Lineyka motorlar, manipuliatorning uzunlik bo‘yicha ko‘chalarning boshqarishiga imkon beradi.

rasm. Lineyka motorlar [5].

Bu faqat ba’zi elektr yuritmalarning misollaridir, va boshqa elektr yuritmalarni ham manipuliatorlarda foydalanish mumkin. Har bir manipuliatorning xususiyatlariga va maqsadiga qarab, moslashtirilgan elektr yuritmalarni tanlash kerak. Bunda manipuliatorning yuritish tartibini, to‘g‘ri harakatni va maqsadlangan tashqi kuchlarni amalga oshirish imkonini ta’minlash kerak.

Boshqaruv qurilmalari.Robotlarning kontrollerlari, robotning harakatini, ishlashini va boshqarishini boshqarish uchun muhim komponentlardir. Kontrollerlar, robotning sensorga kelgan ma’lumotlarni o‘qish, qaytarish, qaror qabul qilish, yuritish jarayonini boshqarish va kommunikatsiya bilan tashqariga axborot almashish uchun ishlatiladi. Quyidagi turdagi kontrollerlar robotik sistemlar uchun o‘rtacha turdagi kontrollerlardir:

1. Mikrokontrollerlar: Mikrokontrollerlar, kichik o‘lchamdagi kompyuter tizimi hisoblanadi va sensorlarni boshqarish, xabar almashish, ma’lumotlarni saqlash va o‘zaro aloqalarni boshqarish uchun ishlatiladi. Ular kuchli, kompaktdir va o‘rtacha darajada vazifalarni bajarish uchun qulaydir. Mikrokontrollerlar, robotlarda, avtomobillarda, avtomatlashtirishida va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi.

rasm. Mikrokontroller [4].

2. PLC (Programmable Logic Controller): PLC, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari uchun maxsus tuzilgan boshqaruv kontrolleridir. Ular sanoat sohalarida ishlaydigan qurilmalarda, xususan, avtomatlashtirilgan ishlar uchun ishlatiladi. PLC, sensorlarni o‘qish, ma’lumotlar bazasiga murojaat qilish, buyruqlar berish va boshqa amallarni bajarish uchun maxsus muharrir dasturlash orqali sozlash imkonini beradi.

rasm. PLC (Programmable Logic

3. PC-based kontrollerlar: Bu kontrollerlar, shaxsiy kompyuterlarga asoslangan va muharrir dasturlash orqali ishlaydigan kontrollerlardir. Ular katta ma’lumotlar ishlovchisi va boshqaruv vositalari sifatida ishlaydi. PC-based kontrollerlar, keng qo‘llanadiganlik, kuch va boshqa ma’lumotlar ishlovchi imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilan bilan shuningdek muhim vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi.



rasm. PC-based kontrolleri [4].

4. FPGA (Field Programmable Gate Array): FPGA, rekonfiquratsiya qilinadigan loyihalar yaratish uchun ishlatiladigan boshqaruv kontrolleridir. Ular sifatli qurilmalarni ishlatadigan va muhim talablar bilan shuhrat qiladigan xususiyatlarga ega. FPGA, sensorlarni o‘qish, boshqarish buyruqlarini yaratish va ishlovchi logikani bajarish uchun keng qo‘llaniladi.

1. Algoritmlar va dasturlash: Mashinasozlik robotlarida dasturiy taminot yaratish uchun to‘g‘ri algoritmlarni va dasturlash tillarini tanlash kritik ahamiyatga ega. Bu, robotning maqsadlarini, vazifalarini, muhit bilan bog‘liq ma’lumotlarni tushunishni va uni qabul qilishni aniqlashda muhimdir. Algoritmlar va dasturlash tillari yaxshi tanlanganda, robotning boshqa masalalarni hal qilishda osonlik va samarali ishlayishi mumkin.

rasm. FPGA (Field Programmable Gate Array) platasi.[5].

2. Muhitning tasviri:

Mashinasozlik robotlari uchun dasturiy taminotning bir masalasi muhitning to‘g‘ri tasvirini olish va uni tushunishdir. Bu, sensorlardan olingan ma’lumotlarni muhitdagi ob’ektlarni tushunish, ularga o‘xshash ob’ektlarni farq qilish va muhitning o‘zgarishlarini tushunishga aylantirishni talab qiladi. Bu, kamera, lidar, radar, ultrasonik sensorlar va boshqa sensorlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. O‘rganish va adaptivlik: Mashinasozlik robotlari o‘rganish va adaptivlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu, muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish, yangi vazifalarni o‘rganish, o‘z-o‘zini to‘g‘ri qilish va talablarini o‘zgartirish qobiliyatini ta’minlayadi. O‘rganish algoritmlari, ma’lumotlarni tahlil qilish, xususiyatlarni o‘rganish va qaror qabul qilishda yordam beradi.

4. Qo‘llanuvchilar bilan o‘zaro aloqa: Mashinasozlik robotlarining qo‘llanishida foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqaning oson va samarali bo‘lishi zarurdir. Foydalanuvchilar robotlarni osonlik bilan boshqarish, vazifalarni bajarish, muhitdagi ob’ektlarni tushunish va ularga bo‘lgan ta’sirchanlikni tushunish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Bu uchun foydalanishga qulay interfeyslar, o‘zgartirishlarni qabul qilishning oson yollari va foydalanuvchilar bilan o‘zaro bog‘lanish imkonini ta’minlaydigan kommunikatsiya tizimlari kerak.

5. Xavfsizlik va etik masalalar: Mashinasozlik robotlarida dasturiy taminot yaratishda xavfsizlik va etik masalalar muhim ahamiyatga ega. Robotlarning ishlash jarayonlarida xavfsizlikni ta’minlash, o‘zgartirishlarni qabul qilishda foydalanuvchilar va muhitning xavfsizligini o‘zida saqlab qolish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va etik normalar bilan muvofiq ishlashni ta’minlash lozim.

6. Ma’lumotlar va o‘qitish: Mashinasozlik robotlari uchun ma’lumotlar katta ahamiyatga ega. Dasturiy taminot, muhim ma’lumotlar va o‘qitish jarayonlarini o‘rganishni talab qiladi. Bu, ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, o‘zlashtirish va o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bunda ma’lumotlar tahlil algoritmlari, mexanika o‘qitish usullari, yadroviy o‘qitish, tajribaviy o‘qitish va boshqalar ishlatilishi mumkin.

7. Platformalar va integratsiya: Dasturiy taminot, mashinasozlik robotlarining integratsiyasini va platformalar orqali oson birlashtirishni talab qiladi. Bu, o‘zaro bog‘liq tizimlarni, dasturlash tillarini, interfeyslarni va xizmatlarini osonlik bilan birlashtirishni ta’minlaydi. Mashinasozlik robotlarini xar bir platformada yaxshiroq integratsiya qilish, ularning o‘zaro ta’sirchanlik va o‘zlashtirishni oshiradi.

8. Ta’minot va qo‘llanma muhofazasi: Dasturiy taminot jarayonida ta’minot va qo‘llanma muhofazasi muhimdir. Bu, dasturlar va ma’lumotlarning yomon foydalanish, talqinlarni to‘g‘ri qabul qilmaslik, noyobliklardan kelib chiqish va boshqalar kabi ta’minot xatoliklarini oldini olishni ta’minlashni talab qiladi. Ta’minot uchun ma’lumotlar va dasturlar nusxalari, ma’lumotlar himoyasi protokollari va ta’minotli kommunikatsiya vositalari ishlatilishi mumkin.

9. Testlash va optimallashtirish: Dasturiy taminot yaratishda testlash va optimallashtirish muhim jarayonlardan biridir. Bu, dasturlarning xatolarini aniqlash, ishlashni sifatliroq qilish, boshqarish va samarali optimallashtirishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Testlash protsessi dastur davomida yoki uni boshlangich holatida amalga oshirilishi mumkin va optimallashtirish jarayoni joriy etilgan maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.Ularning hal qilinishi, mashinasozlik robotlarining samarali ishlashini, foydalanuvchilar bilan muvofiqligini va maqsadlarini erishishini ta’minlayadi.

Xulosa

Mazkur maqolada xulosa qilib aytganda, robotlar haqida va ularga dastutriy ta’minot tuzish yo‘llari ko‘rsatilib o‘tilgan. Xozirgi kunda o‘ylash mumkin hozirgi kunda sanoat robotlari va ularga dasturiy ta’minot tuzish juda ham dolzarb bo‘lib turibdi, hatto u haqida qisqacha o‘ylab ko‘rsak ham, bu juda ko‘p joyni egallaydi. Ishonch bilan aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan har birimiz tez orada o‘zimizning aqlli robotimizga ega bo‘lishimiz mumkinligi ko‘rsatilgan.

Adabiyotlar

[1]. Tadjibayev Rasul Karimovich, & Rakhmonov Zaylobiddin Obbosbek o'gli. (2023). PREPARATION FOR MODERNIZATION OF VERTICAL CNC MILLING MACHINE FP-17SMN4. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *4*(04), 820–828. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/CYEGQ

[2]. Tadjibayev Rasul Karimovich, & Rakhmonov Zaylobiddin Obbosbek O'gli. (2023). MODERNIZATION OF CNC MACHINES. *European International Journal Multidisciplinary Research and Management Studies*, *3*(04), 107–113. https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/740

[3]. Rakhmonov , Z. O. o'g'li, & Jaloliddinova , S. O. qizi. (2023). GENERAL INSIGHT INTO COMPOSITE MATERIALS IN SCIENCE. SCHOLAR, 1(20), 20–28. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/4476

[4]. Xomidov , I. O. o'g'li, Rakhmonov , Z. O. o'g'li, & Xomidov, I. O. o'g'li. (2023). 16K20F3 LATHE CNC MACHINE UPGRADE TO MILLING CNC MACHINE. SCHOLAR, 1(20), 29–35. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/4477

[5]. Siddiqov, B., & Rahmonov , Z. . (2023). GAZ DVIGATELLARIDA SOVUTISH TIZIMINING NAZARIY TAXLILI. *Молодые ученые*, *1*(13), 11–17. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/20509

[6]. Tadjibayev Rasul Karimovich, Homidjonov Ma`murjon Ma`rufjon o`g`li. (2023). PROCESSING OF LARGE LENGTH SHAFTS. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(4), 813–818. https://doi.org/10.5281/zenodo.7860944

ПАХТА ҒАРАМИНИ БУЗИШ ЖАРАЁНИДА ХОМАШЁГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРНИ НАЗАРИЙ ЎРГАНИШ

Д.У. Турғунов, М26-22а гуруҳ магистранти М.М. Холмуротов

Фарғона политехника институти
mirolimxolmurotov5@gmail.com
(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Пахтани узатишдаги нотекислик ғарам бузиш жараёнида пайдо бўлиши ва унинг даражаси тажрибавий тадқиқотлар ёрдамида аниқланди.

Калит сўзлар: *Пахта, ғарам, бронза, бурчак тезлик, тезланиш, куч, вақт, масса, қувват, криставина, урилиш нуқталари.*

В процессе хлопкоочистки возникает неравномерность передачи хлопка, уровень которой определен экспериментальными исследованиями.

Ключевые слова: *Хлопок, тепло, бронза, угловая скорость, ускорение, сила, время, масса, мощность, кристалл, точки удара.*

Unevenness in cotton transfer occurs during ginning process and its level was determined by experimental research.

Key words: *Cotton, heat, bronze, angular velocity, acceleration, force, time, mass, power, crystal, impact points.*

Кириш

Пахта тозалаш корхоналарида чигитли пахта ғарамини бузиб, ишлаб чиқаришга узатиш механик усулда РП, РБХ, РБА маркали ғарам бузгичлар ёрдамида амалга оширилиши ҳақида аввалроқ айтиб ўтганмиз.

Ғарамни бузиш ва ҳаво транспортиқувурига узатиш жараёнида ғарам бузгич олдинга ва орқага ҳаракатланиб туришига тўғри келади. Бунда ҳаво қувури узунлигини тўхтовсиз ошириш ёки камайтириш зарурати бўлиб, акс ҳолда ғарам бузгичдан чиққан пахта қувур оғзига тўғри келмай қолади. Шунинг учун, ғарам бузгич ҳаракат йўналишига параллел қилиб, узунлиги 4-7 м гача бўлган кўчма горизонтал транспортёр ўрнатилади ва пахта шу транспортёр лентасига ташлаб берилади [30; 4-5 б.]. Ҳаво қувури оғзи лентадан тушаётган пахтага мослаб жойлаштирилади. Натижада, ғарам бузгич шунча масофага силжигунчақувур узунлигини

ўзгартиришга хожат қолмайди [31; 125-127 б]. 1 - расмда пневмотранспорт тизими ускуналар мажмуаси ишжараёнидаги схемаси келтирилган.

МУОММОНИ ЎРГАНИЛГАНЛИК ДАРАЖАСИ

Олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра пахта зичликининг энг юқори катталиги пахта хомашёси ва чамбаракнинг амалдаги параметрларида 38.6 кг/м^3 ни ташкил этишини кўрсатмоқда. Қозиқчалар оралиғида зичлик 38.2 кг/м^3 гача пасаяди. 2- қозиқча урилганда зичлик яна максимал қийматга кўтарилиб, яна кескин пасаяди. Бу ҳолат барча қозиқчаларда қайтарилади ва охирги қозиқчадан кейин пахта транспортёр лентаси юзасига тушади ва унинг зичлики тахминан 37.8 кг/м^3 даражасида ўзгаришсиз қолади.

М.Р.Хасанов олиб борлган назарий таҳлиларга кўра, ғарамланган пахта қатламидан пахтани ажратиб олишда ғарам қатлами билан ажратиб олинаётган чамбарак қозиқчасига таъсир этувчи реакция кучини юзага келтиради [49; 44-47 б.]. Ўзаро акс таъсир қонунига мувофиқ бу куч катталиги пахта бўлаги билан қозиқча орасида ҳосил бўлувчи зарба кучига тенг бўлади. Ушбу кучнинг қийматини камайтириш мақсадида қуйидаги назарий таҳлилларни амалга оширдик.

Тадқиқотлар ғарам бузгичнинг пахтани бир текисда узатиб бермаслиги ва ғарамни бузиш жараёнида маълум миқдорда чигитни шикастлашини кўрсатмоқда. Бу камчиликлар амалий жиҳатдан ғарам бузишни кучли зарбали таъсир ва машина ишчи органлари констуктив хусусиятлари билан изоҳлансада, жараён назарий жиҳатдан етарлича ўрганилмагани натижасида юқоридаги камчиликларнинг назарий томондан изоҳи топилган эмас.



1–расм. Пневмотранспорт тизими дастлабки қисми умумий кўриниши.

МУОММОНИНГ ҚЎЙИЛИШИ

Ушбу масалага аниқлик киритиш мақсадида ғарамни механик бузиш жараёни ва қозиқлар орасида жойлашган пахта массасининг ҳаракатини ўрганиб чиқамиз. Бунинг учун, жараённи чамбарак пахта ғарамига тўлиқ ҳолда таъсир этадиган вазиятни назарда тутиб, жараён стационар ҳолатда, деб қабул қиламиз. Бу ҳолат маълум t вақт оралиғида даврий равишта такрорланиб туради. Ушбу жараён схемаси 2-расмда кўрсатилган.

Ғарам бузгич чамбараги редуктор орқали ҳаракатни ускуна хартуми бўйлаб жойланган вал ва унга муфта орқали уланган матордан олади. Чабарак валига келувчи қувват $N_ч$ матор қувватига боғлиқ:

$$N_ч = \eta_1 \cdot \eta_2 \cdot N_m \qquad (1)$$

Бу ерда: η_1 ҳаракат узатгич(вал ва муфта) ФИК η_1 =0,98;

η_2 –редуктор ФИК η_2=0,91

N_m=7,5 kVt –чамбаракни айлантирувчи матор қуввати.

Хисоб ишларини олиб бориш учун стандарт усул сифатида механика қонунларидан қувват тенгламасини ёзамиз:

$$N = \frac{A}{T} = \frac{M}{R} \cdot \frac{l}{T} = \frac{M}{R} \cdot v_n \quad , \qquad (2)$$

Бу ерда; А-чамбарак бажарадиган иш, Жоул;
М-буровчи момент, $N \cdot m$;
l-кўчиш, м;
t-вақт, сек $v_l = 0{,}8 м/сек$; чамбарак чизиқли тезлиги;
R-чамбарак радиуси, м=0,55 м

$$M = \frac{N \cdot R}{V_n}; \qquad (3)$$

Иккинчи тарафдан

$$M = F \cdot R; \qquad (4)$$

Ўрнига қўйсак

$$M = F \cdot R = \frac{N \cdot R}{V_n}, \quad \text{бундан}$$

Чамбаракнинг пахтага урилиш кучи:

$$F = \frac{N_ч}{v_л}, \qquad (5)$$

Берилганларга кўра

$$F = \frac{7{,}5 \cdot 0{,}98 \cdot 0{,}91}{7{,}2} = 0{,}93 \text{ кН}$$

Бундан келиб чиқадики, чамбарак қозиқчалари пахта қатламига 0,93 кН куч билан урилар экан.

Тасаввур қилайлик абсалют қаттиқ жисм шу $F_з$ кучи билан эластик жисм билан таъсирлашади.



2-расм. Чамбарак қозиқчасининг пахта ғарами билан зарбали таъсирлашуви схемаси.

3-расм. Чамбарак қозиқчасининг пахта қатламига таъсир схемаси.

$$\omega = \frac{n\pi}{30} = \frac{125 \cdot 3{,}14}{30} = 13{,}08\ \frac{1}{c}$$

$$v_1 = \omega \cdot R = 13{,}08 \cdot 0{,}55 = 7{,}2\ м/с$$

Ҳаракат миқдорининг ўзгариш қонунига мувофиқ:

$$m_1 . v_1 - m_2 . v_2 = (F_i + F_q)t_з, \quad (6)$$

Кинетик энергиянинг ўзгариш қонунига мувофиқ эса:

$$m_1 . \frac{v_1^2}{2} - m_2 . \frac{v_2^2}{2} = A = (F_i + F_q)l_з, \quad (7)$$

Бу ерда: m_1 ва m_2 чамбарак қозиқчасининг дастлабки ва кейинги массаси,кг;
v_1 ва v_2 мос равишта чамбаракнинг тезликлари, м/с;
$t_з$-зарба вақти, сек;
А-чамбарак қозиқчаси бажарадиган иш, Жоул;
F-зарба кучи, Н;
$l_з$-зарба ёйи узунлиги, м;
F_i-ишқаланиш кучи, Н;
F_q-пахтанинг қаршилик кучи, Н;

Чамбарак қозиқчаси пахта ғарамига урилганда унга пахтанинг маълум бир бўлаги илашиб чиқади. Шунинг учун, пахтанинг зарба охиридаги массаси пахтанинг дастлабки массаси m_1 билан пахта массаси m_n га тенг бўлади:

$$m_2 = m_1 + m_n \quad (8)$$

Зарба муддати қисқа муддатда рўй бергани учун, зарбадаги ишқаланиш кучининг таъсирини хисобга олмаймиз.

$$F_i \approx 0$$

У ҳолда тенглама бироз соддалашади. Агар (7) ни (8) га бўлсак:

$$\frac{0{,}5m_1 v_1^2 - 0{,}5m_2 v_2^2}{m_1 v_1 - m_2 v_2} = \frac{l_з}{t_з}$$

Бу ерда: L-қозиқчанинг пахта билан таъсирлашуви узунлиги, мм; l-қозиқчани пахтага ботиши ёйи узунлиги, мм; α-қамров бурчаги, град; h-ишчи қозиқнинг пахтага ботиш баландлиги, мм.

ХУЛОСА

Ишлаб чиқариш шароитида ўтказилган изланишлар ҳаво транспортига пахтани узатишдаги нотекислик юқори ва у пахта ҳажмий зичлики ва намлигига боғлиқ ҳолда ўзгаришини ҳамда ғарам бузгич пахтани зарур даражада титиб, бир меъёрда узатиб бера олмаслигини кўрсатди.

Адабиётлар

[1]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Ш.Мнинг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони. Адолат нашриёти. Тошкент, 2017. стр.112.2.

[2]. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3559 от 23 февраля 2018 года «О мерах по кардинальному совершенствованию деятельности акционерного общество «Paxtasanoat Ilmiy Markazi».- Ташкент, 2018.
[3]. Аъзамов М., Саттаров Т.С., Максумова Ш.Д. Снижение механических повреждений волокна и семян при очистке хлопка-сырца от крупных сорных примесей. // Ж. Хлопковая промышленность. 1992, №2, С. 24-25.
[4]. Мурадов Р., Саримсаков О. Повышение эффективности пневмотранспорта хлопка путем равномерного питания. // Тезисы докладов межд. конференции ТИТЛП. Тошкент, 1996., 124-126 с.
[5]. Амиров Р. Исследования влияния средств механизации и пневмотранспортных установок на качество волокна: Дисс…канд.техн.наук: - Ташкент, 1976. – 176 с.
[6]. А.А. Умаров, Д.М. Курбанов. Пахта саноатида муҳандислик таҳлил. Услубий қўлланма. Наманган 2021., 1-144 б.
[7]. Жабборов Г.Ж. ва бошқалар. Чигитли пахтани дастлабки ишлаш технологияси. // Т.: Ўқитувчи, 1987. - 328 б.
[8]. А. Умаров, И. Мухсинов. Лойиҳалаш тизимида замонавий дастурлардан фойдаланиш. Ўқув қўлланма. Наманган 2019., 1-352 б.
[9]. O.SH.Sarimsakov, D.U.Turg'unov, S.T.Saminjon // Determination of the strength of a module breaker circle in the solid works software. Journal of Computer Science Engineering and Information Technology Research (JCSEITR). Vol:12, Issue:2, November 2022. India, 59–64 p.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ НАТЯЖЕНИЯ НИТИ У БЕГУНКА ПРИ КРУЧЕНИЯ НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКА ИЛИ КОМПЛЕКСНЫХ ХИМИЧЕСКИХ НИТЕЙ НА КОЛЬЦЕКРУТИЛЬНЫХ МАШИНАХ

Ш.Д. Дадажонов[1], О.А. Ахунбабаев[1], Г.Д. Закиров[1], М.М. Ниязалиева[2]

[1]Узбекский научно-исследовательский институт натуральных волокон margilon shoyi@yahoo.com, tel. mob. 99891 657 01 27, 99891 659 69 75
[2]Ферганский политехнический институт
muhayyo.niyazalieva@ferpi.uz, *+99890272-72-71*

В данное статье приведены результаты исследовательских работ по определению натяжения нитей на бегунке кольцевой крутильной машины, в частности на кольцевой тростильно-крутильной машине ТКМ-8-12 при переработке нитей из натурального шелка и комплексных химических нитей. На основе приведенных исследований разработана формула для определения натяжения нити на бегунке, также разработаны расчетные таблицы коэффициентов K_1 и K_2, где приводится расчетные цифровые значений этих коэффициентов.

Ключевые слова*: натяжения, кручение, трощение, крутка, кольца, бегунок, натуральный шелк, комплексные химические нити, коэффициент, расчетные значения, сила*

This article presents the results of research work on determining the tension of threads on the runner of a ring twisting machine, in particular on the TKM-8-12 ring reed-twisting machine when processing threads from natural silk and complex chemical threads. Based on the above studies, a formula has been developed to determine the tension of the thread on the runner, and calculation tables of coefficients K1 and K2 have also been developed, which provide the calculated digital values of these coefficients.

Keywords: *tension, torsion, caning, twist, rings, runner, natural silk, filament chemical yarns, coefficient, calculated values, force*

Ушбу мақолада халқали эшиш дастгохларида, хусусан ТКМ-8-12 русумли қўшиш-эшиш дастгохларида табиий ипак ва кимёвий комплекс ипларни эшиш вақтида югуртак билан ўрам орасидаги ипларни таранглигини аниқлаш бўйича ўтказилган илмий тадқиқот ишларининг натижалари келтирилган. Ўтказилган тадқиқотлар асосида югуртак билан ўрам орасидаги ип таранглигини аниқлаш формуласи ишлаб чиқилган, шунингдек формула таркибига кирган K_1 ва K_2 коэффициентларнинг хисоблаш жадваллари ва ушбу коэффициентларнинг хисобланган миқдорлари келтирилган

Калит сўзлар: *таранглик, эшиш, қўшиш, бурам, халқа, югуртак, табиий ипак, кимёвий комплекс ип, коэффициент, хисобланган миқдор, куч*

ВВЕДЕНИЕ

Кручение нитей в системе текстильного производства занимает особое место, так как не кокой нить без кручения не может бить использована в производстве тканей или иных изделий для бытовых или технических нужд. Технология и теория кручения текстильных нитей бурно развивался начиная с второго половины XIX века и до 80-ых годов XX века. В этот период очень быстро развивался и производства химических волокон и нитей для нужд текстильной промышленности. В системе теории кручения текстильных нитей рассматриваются ряд характеристики нитей и среди них отдельное место занимает натяжения нитей при кручения.

С теоретическими исследованиями натяжения текстильных нитей занимались многие русские учение такие как, проф. Н.Е.Жуковский, П.Ф.Ерченко, Н.А.Васильев, А.П.Минаков, В.В.Линде, В.А.Усенко, В.Е.Зотиков, И.В.Будников, Г.Н.Кукин и многие другие ученый. Например, Н.Е.Жуковский еще 1878 году исследовал теория ровновесия сгибающейся нитей, а П.Ф.Ерченко в 1906 году выводил уровнения кривого баллона. В 1918 году Н.А.Васильев рассмотрел динамические условия равновесия нитки и бегунка в баллоне. В 1929 году А.П.Минаков вывел уровнение кривой баллона с учетом всех сил, действующих на нить. Теоретические исследований проф. А.П.Минакова до сих пор служит основанием при выводе формул для практического рассчета натяжения текстильных нитей.

ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ

Целью работы является разработка теоретические формулы для определения силы натяжения нити у бегунка кольцевой тростильно-крутильной машины при переработке нитей натурального шелка и комплексной химической нити. Поставленная цель достигается путем разработки формулы для определения натяжения нити в бегунке, созданием таблиц с расчетными цифровыми значениями коэффициентов K_1 и K_2. Разработанные таблицы позволяет достаточно точно определит величины натяжения нити в бегунке кольцевой тростильно-крутильной машине типа ТКМ-8-12.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В работе применены теоретические и экспериментальные методы исследования. Методологической основой исследований явились работы ученых в этой области и методы математического анализа. Обработка результатов экспериментальных исследований произведена методами математической статистики.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

В практике, на шелкокрутильных предприятиях натяжения нити на кольцевых тростильно-крутильных машинах устанавливает опытным путем, подбирая массу используемого бегунка в зависимости от вида и линейной плотности перерабатываемой нити. При этом необходимо устанавливать такое натяжение нити, при котором была бы обеспечена нормальная плотность намотки нити на катушку и минимальная обрывность нити в процессе кручения. Натяжения нити не должно оказывать отрицательного влияния на физико-механические свойства крученых нитей, линейную плотность, разрывную нагрузку и удлинение нитей, особенно равномерность нитей по удлинению, и на упругие свойства [1]. На натяжение нити оказывают влияния многие фактори, например, высота баллона, диаметр намотки, атмосферные условия цеха и многие другие. Рассмотрим силы, действующие на бегунок. Многие ученые рассмотрели силы, действующие на бегунок при прядение хлопкового волокна на кольцепрядильных машинах и эти расчеты приведены на учебниках по хлопкопрядению [2]. Расчет сил, действующие на бегунок на кольце крутильных машинах рассматривается впервые.

На бегунок, находящейся в движение, действуют несколько сил, которые схематично приведены на рис. 1



Рис. 1. Силы, действующие на бегунок тростильно-крутильной машины типа ТКМ-8-12. где: 1-веретено; 2 – катушка; 3 – кольцо; 4 – кольцовая планка; 5 – бегунок; 6 – направляющий крючок; 7 – нить.

Из рис. 1 видно, что ***первая сила***, действующая на бегунок называется центробежной силой и отмечается буквой *C*. Центробежная сила *C* действует в горизональной плоскости в радиальном направлении по отношению к веретену и определяется по ниже следующему формулу:

$$C = m\upsilon^2 / r = m\varpi^2 \cdot r \qquad (1)$$

где: m - масса бегунка, *g*; υ - линейная скорость движения бегунка по кольцу, *sm/c*; r - радиус кольца, *sm*; ϖ - угловая скорость бегунка вокруг веретена, c^{-1}

Вторая сила называется силой натяжения и обозначается буквой *N*. Сила натяжения нити *N* между бегунком и выходной паковкой действует в горизонтальной плосткости по касательной к наматываемой паковке под углом α , и разлагается на – радиальную N_1 и тангенциальную N_2 силы натяжения. Эти силы определяются по слудующим формулам:

$$N_1 = N\cos\alpha;$$

$$N_2 = N\sin\alpha;$$

Третая сила также называется силой натяжения и обозначается с буквой Q_1. Эта сила действует в нижной части баллона и связана с натяжением нити *P* следующим равенством:

$$N = T_1 e^{f\beta} \qquad (2)$$

где: f - коэффициент трения нити о бегунок; β – угол обхвата нитью дужки бегунка

Обычно сила T_1 в два раза меньше чем сила N .

Четвертая сила, называется силой трения бегунка о кольцо и обозначается буквой F . Эта сила действует в горизонтальной плосткости по касательной к кольцу против движения бегунка.

Пятая сила, называется силой реакции кольца и обозначается буквой R . Это сила действует в вертикальной плоскости, проходящей через ось веретена. Предположим, что бегунок в двух точках касается кольца, при этом точки касания расположены так, что в одной из них возникает гозизонтальная сила реакция R_1 , а другой вертикальная сила реакции R_2 и что в точках касания соответственно образуются силы трения F_1 и F_2 .

Отсюда можна написать:

$$F_1 = R_1 \cdot \mu; \quad F_2 = R_2 \cdot \mu;$$

где: μ - коэффициент трения бегунка о кольца

В этое случае силы F_1 и F_2 направлены по касательной к кольцу против движения бегунка. Тогда суммарная сила трения определяется по следующей формуклой:

$$F = F_1 + F_2 = \mu(R_1 + R_2) \qquad (3)$$

Далее рассмотрим проекции на вертикальную ось силы, действующие на бегунок. Для этого спроектируем на вертикальную ось все силы, действующие на бегунок. Наряду с другими силами на бегунок действует сила собственной массы бегунка, направленная вертикально вниз. Однако, эта сила по сравнению с другими силами, действующие на бегунок, имеет очень маленкую величину, поэтому при анализе ее можно неучитывать.

Тогда на вертикальную ось проектируем силы T_1 и R_2. Угол между направлением силы T_1 и вертикальной осью обозначим буквой γ, тогда получим следующую уравнению:

$$Q_1 \cos\gamma - R_2 = 0$$

Учитывая, что угол γ имеет небольшую величину можно принять $\cos\gamma = 1$. Отсюда получим:

$$T_1 = R_2$$

На радиальную ось проектируем силы N, C, R_1 и T_1. Однако проекция силы T_1 - величина незначительная, поэтому ее можно неучитывать. Потому следующая равенства будет справдевлива:

$$C - N\cos\alpha - R_1 = 0$$

$$R_1 = C - N\cos\alpha$$

На ось, направленную по касательной к кольцу, проектируют силы N и F. Следовательно получают следущих уравнений:

$$N\sin\alpha - F = 0$$

$$F = N\sin\alpha$$

В посленую выражению подставив значений из предыдущих формул, получают следующую уравнению:

$$N\sin\alpha = \mu(C - N\cos\alpha + T_1) \quad (4)$$

Поставив в формулу (4) вместе T_1 его значения из формулы (2) выводят следующую формулу:

$$N\sin\alpha = \mu(C - N\cos\alpha + T / e^{f\beta})$$

или

$$N(\sin\alpha + \mu\cos\alpha - \mu / e^{f\beta}) = C\mu$$

отсюда

$$N = C /(\sin\alpha / \mu + \cos\alpha - 1/ e^{f\beta}) \quad (5)$$

Поставив в формулу (5) вместе N и C их значений из предедущих формул получают следующую формулу:

$$T_1 = \frac{n \cdot \varpi^2 \cdot R}{e^{f\beta}(\frac{\sin\alpha}{\mu} + \cos\alpha) - 1} \quad (6)$$

Анализ формулы (6) показывает, что натяжения нити прямо пропорционально квадрату угловой скорости бегунка, его радиусу и массе. С увеличением коэффициента трения между бегунком и кольцом натяжение нити увеличивается. Оно также зависит от соотношения между радиусом намотки и радиусом кольца, т.е. зависит от угла α

При этом допушены следущим ограничениям, около бегунка баллон имеет вертикальную касательную, также не учитывается сопротивления воздуха. От уголя α также зависит и величина $e^{f\beta}$ которая изменяется по мере обхвата нитью бегунка, и определяется по [3]:

$$e^{f\beta} = 2{,}5 - 0{,}8\sin\alpha \quad (7)$$

здесь: $\sin\alpha = \frac{r}{R}$

где: r – радиус намотки; R – радиус кольцо

Отношение $\sin\alpha = \frac{r}{R}$ на тростильно-крутильных машинах марки ТКМ-8-12 изменяется в очень больших приделах и состаляет величину от 0,394 до 0,736 и эти показатели ровны уголам от 23°12' до 47°24'. Для упрощения расчетов величину $e^{f\beta}$ обозначим через $К_1$, а величину $e^{f\beta}\left(\frac{\sin\alpha}{\mu}+\cos\alpha\right)$ через $К_2$, тогда формула (6) приобретает следующий вид:

$$Q_1 = \frac{С}{К_2 - 1} \qquad (8)$$

Для определения величин $К_1$ и $К_2$ состалены расчетные таблицы, которые позволяет достаточно вычислят натяжения нити у бегунка. Расчетные значений величин $К_1$ и $К_2$ приведены в таблицах 1 и 2.

Таблица 1.

Величина коэффициента $К_1 = e^{f\beta}$

$\frac{r}{R}$	Сотая доля величины									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0	2,500	2,492	2,484	2,476	2,468	2,460	2,452	2,444	2,436	2,428
0,1	2,420	2,412	2,404	2,396	2,388	2,380	2,372	2,364	2,362	2,348
0,2	2,340	2,332	2,324	2,316	2,308	2,300	2,292	2,284	2,276	2,268
0,3	2,260	2,252	2,244	2,236	2,228	2,220	2,212	2,204	2,196	2,188
0,4	2,180	2,172	2,164	2,156	2,148	2,140	2,132	2,124	2,116	2,108
0,5	2,100	2,092	2,084	2,076	2,068	2,060	2,052	2,044	2,036	2,028
0,6	2,020	2,012	2,004	1,996	1,988	1,980	1,972	1,964	1,956	1,948
0,7	1,940	1,932	1,924	1,916	1,908	1,900	1,892	1,884	1,876	1,868
0,8	1,860	1,852	1,844	1,836	1,828	1,820	1,812	1,804	1,796	1,788
0,9	1,780	1,772	1,764	1,756	1,748	1,740	1,732	1,724	1,716	1,708
1,0	1,700									

Таблица 2.

Величина коэффициента $К_2 = K_1\left(\sin\frac{\alpha}{\mu}+\cos\alpha\right)$

$\frac{r}{R}$	Сотая доля величины									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0	4,946	4,928	4,913	4,897	4,881	4,865	4,850	4,834	4,818	4,802
0,1	4,786	4,770	4,755	4,739	4,723	4,707	4,691	4,675	4,660	4,644
0,2	4,628	4,612	4,496	4,581	4,565	4,549	4,533	4,517	4,501	4,486
0,3	4,470	4,454	4,438	4,422	4,406	4,391	4,375	4,359	4,343	4,327
0,4	4,312	4,296	4,280	4,264	4,248	4,232	4,217	4,201	4,185	4,169
0,5	4,153	4,137	4,122	4,106	4,090	4,074	4,058	4,043	2,027	4,011
0,6	3,995	3,979	3,963	3,948	3,932	3,916	3,900	3,884	3,868	3,853
0,7	3,837	3,821	3,805	3,789	3,774	3,758	3,742	3,726	3,710	3,694
0,8	3,679	3,663	3,647	3,631	3,615	3,599	3,584	3,568	3,552	3,536
0,9	3,520	3,505	3,489	3,473	3,457	3,441	3,425	3,410	3,394	3,378
1,0	3,362									

Примечание: при расчете по вычислениям данных табиц 1 и 2 средное значением угла β принята в 34°30′, для других значений угла β коэффициенты $К_1$ и $К_2$ долны вычилят

занова. На технологичеких оборудованиях ТКМ-8-12 значения угла β изменяется от 23°12' до 47°24'.

При составлении выше приведенных таблиц не учетены сопративления воздуха, а при аналитических расчетах принята натяжение нити в вертикаль-ное направление. Если учитывать соправтивления воздуха, то фактическая натяжения нити будет выше на 6,0-10,0 % по сравнению с расчетным.

Аназиз выше изложенных формул показывает, что несмотря на ровномерной работы бегунка, с увеличеним скорости веретена увеличивается и натяжения нити. Также увеличения высоты баллона, уменьшения отношения $\frac{r}{R}$, качества обработки кольца и бегунка, влияющие на изменению коэффициента трения f (для обработанных колец $f = 0{,}65 - 0{,}00004\,n$, где $n -$ число оборотов веретена (мин$^{-1}$)) являются причиной увеличения натаяжение нити.

Здесь еще необходимо отметить, что на тростильно-крутильных машинах типа ТКМ-8-12 угол β изменяется в больших пределах. Поэтому по определению коэффициентов K_1 и K_2 для угла β от 23°12' до 47°24' необходимо составлят 2904 таблиц. Исходя из этого нами были разработаны программы обеспечения определения значения коэффициентов K_1 и K_2 и за патентованы в Патентное ведомства Республики Узбекистан.

ВЫВОДЫ

1. Впервые выведана формула для расчета натяжения нити у бегунка на кольцевой торостильно-крутильной машине типа ТКМ-8-12, которая позволяет более точное определение натяжение нити у бегунка на кольцекрутильных мшинах.

2. Также составлены таблицы с расчетными значениями коэффициентов K_1 и K_2, которые являются основными составными частями формулы для определения натяжения нити у бегунка на кольцекрутильных машинах типа ТКМ-8-12.

3. По определению коэффициентов K_1 и K_2 для угла β от 23°12' до 47°24' будут необходимо составлят 2904 таблиц. По этой причине разработаны программы обеспечения определения значения коэффициентов K_1 и K_2 и запатентованы в Патентное ведомстве Республики Узбекистан.

Список литературы

[1]. Дадажонов Ш.Д. – Современное состояние технологии производство и переработки натурального шелка и комплексных химических нитей и теории кручения текстильных нитей //Монография, Фергана, изд. “Classic”, 2022, 168 с.

[2]. Усенко В.А. – Шелкокручение . Изд. 2-е перераб. и допол. Учебник для ВУЗов. https//rusneb.ru >catalo

[3]. Терюшнов А.В. и др. – Прядение натуральных и химических волокон. Часть 2, учебник для студентов ВУЗов. https://irbis. kraslib.ru>cqi-bin>cqiirbis 64 >S21STR….

ЮҚОРИ ҲОСИЛДОР, ПИЛЛА ХАЖМИ ЙИРИК ВА ИПАК ЧИҚИШИ ЮҚОРИ БЎЛГАН ИПАК ҚУРТИ УРУҒЛАРИДАН ПИЛЛА ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

А.М.Турғунбеков[1], У.О.Ахунбабаев[2], Ш.Д. Дадажонов[2], М.М.Ниязалиева

[1]Фарғона политехника институти
muhayyo.niyazalieva@ferpi.uz, *+99890272-72-71*
[2]Ўзбекистон табиий толалар илмий тадқиқот институти
(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Маколада юқори ҳосилдор, пилла ҳажми йирик ва ипак чиқиши юқори бўлган ипак қурти зот ҳамда дурагайлари танланиб, улар саноат уруғларини (ўртача ҳосилдорлик 75-80 кг бир қутисидан)

кўпайтириш ва ипак момиғи ишлаб ва ипакчилик кластерлари ҳудудларида пилла етиштиришга ихтисослаштириш бўйича аниқ йўналишли тавсиялар ишлаб чиқиш хамда уни технологияси жорий қилиш келтирилган.

Калит сўзлар: *зот, дурагай, тут ипак қурти, пилла, хом ипак, чизиқли зичлик, йирик калибр, ишлаб чиқариш.*

В статье приведены породы и гибриды тутового шелкопряда с высокой урожайностью, крупным размером кокона и высоким выходом шелка, а также даны конкретные рекомендации по селекции промышленных семян (средняя урожайность 75-80 кг на ящик) и специализации на производстве шелковой ваты, выращивание кокона на территориях кластеров шелководства, разработка и внедрение его технологии.

Ключевые слова: *порода, гибрид, тутовый шелкопряд, кокон, шелк-сырец, линейная плотность, крупный калибр, производство.*

The article presents breeds and hybrids of silkworms with high productivity, large cocoon size and high silk yield, as well as specific recommendations for the selection of industrial seeds (average yield 75-80 kg per box) and specialization in the production of silk wool, cocoon cultivation in the territories of sericulture clusters, development and implementation of its technology.

Key words*: breed, hybrid, silkworm, cocoon, raw silk, linear density, large caliber, production.*

Ўзбекистон табиий толалар илмий тадқиқот институтининг тажриба қуртхонасида Ипакчилик илмий тадқиқот институтида яратилган тут ипак қуртининг Линия 300 (Л 300) ва Линия 301 (Л 301) тизимлари уруғлари боқилди ва пилла хосили олинди. Тут ипак қуртининг Л 300 ва Л 301 тизимлари Ипакчилик институтининг Наслчилик лабораторияси селекционерлари Б.У.Насириллаев, С.Х.Худжаматов ва М.Ш.Жуманиёзовлар томонидан 2019-2022 йиллар давомида олиб борилган тадқиқотлар натижасида яратилган. Яратилган янги селекцион тизимлар йирик пиллали моновольтин зотлар сирасига киради. Бу зотлар бахор мавсумида боқишга мослаштирилган бўлиб, республикамизнинг деярли барча вилоятларида парваришлаш учун тўғри келади. Ушбу зотларнинг уруғи кул рангли, йирик хажмга эга, янги жонлантирилган қуртлари қорамтир рангли бўлиб, қуртлар ёшлари бўйича ўсиб катталашгани сари оқариб боради ва улар катта ёшга етганда оппоқ рангга киради. Л 300 тизими қуртларининг бош қисмида ***нақши*** ва танасида ***яримойсимон белгиси*** бор. Л 301 тизими пиллалари оқ рангли, ғумбаги жигарранг, капалаги қаймоқ рангли оддий тусга эга. Ушбу нав пиллалари йирик калибрли, оппоқ, қобиғининг донадорлиги йирик, пилласи овал шаклидаги кўринишга эга бўлади. Л 300 навли тут ипак қурти пиллалари узунчоқроқ кўринишга эга бўлади. Л 300 ва Л 301 тизим ипак қурти уруғларини парваришлаш агротехникаси оқ пиллали зот уруғларини парваришлаш агротехнологиясига мос келади. Уларнинг 1 қути уруғини парваришлаш учун 1000 кг тут барги сарфланади[1-2]. 1 килограмм наслли пилладан 5055 г наслли уруғ олиш имконияти мавжуд. 1-жадвалда янги яратилган тут ипак қурти тизимларнинг етакчи селекцион белгилари келтирилган.

1-жадвал. Селекцион тизимларни биологик ва технологик кўрсаткичлари

Т/р	Кўрсаткичларнинг номланиши	Линия 300 (Л 300)	Линия 301 (Л 301)
1	Тухум қуймасидаги тухумлар сони, дона	743 ± 7,2	706 ± 8,7
2	Тухум қуймаси вазни, мг	458 ± 9,8	420 ± 6,4
3	Физиологик нуқсонли уруғ улуши, %	1,1 ± 0,2	1,25 ± 0,2
4	Тухумларни жонланиши, %	93,7 ± 1,20	97,0 ± 0,58
5	Қуртларнинг хаётчанлиги, %	94,3 ± 0,93	90,6 ± 3,51
6	Касаллик даражаси, %	1,84 ± 0,13	3,9 ± 1,27
7	Тирик пилла вазни, г	2,05 ± 0,008	1,93 ± 0,026
8	Тирик пилла ипакчанлиги, %	20,1 ± 0,06	20,8 ± 0,2
9	Қуруқ пилла вазни, г	0,745	0,697
10	Пилла қобиғи вазни, мг	412 ± 1,22	402 ± 3,8
11	Хом ипак чиқиши, %	42,74	42,25
12	Ипак махсулотлари чиқиши, %	50,74	50,65
13	Пилла ипининг узлуксиз чувилиш	933	1067

	узунлиги, м		
14	Пилла ипининг умумий узунлиги, м	1008	1067
15	Пилла ипининг метрик номери	3279	3559
16	Пилла ипининг чизиқли зичлиги, текс	0,305	0,281
17	Пилланинг чувилувчанлиги, %	84,2	83,4

Юқорида келтирилган жадвалдаги кўрсаткичларни тахлилидан кўриниб турибдики, хар иккала тизим пиллалари бўйича олинган синов натижалари бир бирига жуда яқин, улар бир бирларидан сезиларли даражада фарқ қилмайди, баъзи бир кўрсаткичлар бўйича Л 300 зот пиллалари баъзи бир кўрсаткичлар бўйича Л 301 зот пиллалари бир оз устунликка эга. Бу зотларни пиллаларига уларни тажриба ва саноат боқуви натижасида етиштирилган пиллаларни синови натижаларини тахлил қилиш вақтида баҳоланади. Бу зотлар синов натижаларидан келиб чиққан холда тажриба ва саноат боқувига тавсия қилиш ўринли бўлади.

Танлаб олинган Л-300 (3 қути уруғ) ва Л-301 (4 қути) зот уруғлари 2023 йил бахор мавсумида 1 қутиси ЎзТТИТИнинг тажриба қурхонасида, 6 қутиси “Фергана Силк Роад СО” МЧЖ қўшма корхонасинингқуртхонасида боқилди ва улардан пилла етиштирилди. Пилла етиштириш учун дастлаб ипак қурти уруғлари жонлантирилди ва уруғларнинг жонлантирилиш кўрсаткичи 92,85 % Л-300 нави бўйича, 96,01 %, Л-301 нави бўйича миқдорни ташкил этди. Ипак қуртини қуртхоналарда боқиш жараёни институт мутахассислари назоратида бўлди ва ортиқча қийинчиликларсиз ўтди. Ипак қуртининг тажриба уруғларини боқиш институт томонидан яратилган агротехнология қоидалари асосида бажарилди. Қуртлар институтнинг тажриба участкасидаги ва ФерганаСилкРоад СО” МЧЖ ҚК тутзорларидаги тут барглари билан озиқлантирилди. Қутхоналардаги харорат ва хаво намлиги амалдаги стандартлар талаби асосида ушлаб турилди[3-4]. Қуртларни боқиш жараёнида қуртларда касалликка чалиниш холатлари кузатилмади. Қуртлар тўлиқ пилла ўраб бўлганидан кейин пилла хосили йиғиштириб олинди. Йиғиб олинган пилла хосили институтнинг синов лабораторияси томонидан текшириб борилди. Тажриба боқувида ипак қурти зот ва дурагайларидан олинган пилла хосилдорлиги хақидаги маълумотлар қуйидаги 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал. Тажриба боқувида ипак қуртини зот ва дурагайларидан олинган пилла хосидорлиги

Т/р	Зот ёки дурагайни номланиши	Бир қути уруғдан олинган тирик ва қуруқ пилла			Мавсумда боқилган уруғ қутиси, дона	Олинган пилланинг умумий миқдори, кг
		Тирик пилла хосилдорлиги	Қуриш коэф-фициенти	Қуруқ пилла		
1	Линия 300 (Л-300)	78,8	2,53	31,15	3	93,45
2	Линия 301 (Л-301)	75,2	2,58	29,15	4	116,60
Жами					7	210,05

2-жадвалда келтирилган натижаларнинг тахлилидан кўриниб турибдики, иккала зот уруғларидан хам жуда яхши натижа олинган. Л-300 зот уруғларининг хар бир қутисидан ўртача 78,8 кг пилла хосили олинган бўлса, Л-301 зот уруғларининг хар бир қутисидан 75,2 кг-дан пилла хосили олинган.

Пилла хосили йиғиштириб олингандан кейин улардан намуналар олиниб институтнинг синов лабораториясида пилларни технологик ва сифат кўрсаткичларини аниқлаш мақсадида комплекс лаборатория синовларидан ўтказилди. Лаборатория синовлари амалдаги давлат стандартлари талаблари ва услублари асосида амалга оширилди.

Етиштирилган пиллаларнинг технологик ва сифат кўрсаткичлари институт-нинг синов лабораториясида амалдаги стандартлар талаблари ва услублари асосида амалга оширилди . Лаборатория синовлари вақтида пиллаларнинг вазни, ипак махсулотларини

чиқиши, пилла ипларининг чизиқли зичлиги, узлуксиз чувилиш ва умумий узунликлари каби кўрсаткичлари амалдаги усуллар бўйича аниқланди.

Етиштирилган пиллаларни зотлари бўйича калибрлари ва ипакчан-лигини аниқлаш.

Етиштирилган пиллаларни зотлари бўйича ипакчанлигини аниқлаш амалдаги стандарт услублари асосида институтнинг синов лабораториясида амалга оширилди. Амалдаги стандарт талаби бўйича олинган пилла намуналари дастлаб қаттиқлиги бўйича сараланади, ундан кейин пиллалар ўлчамлари бўйича синовдан ўтказилади. Саралаш вақтида ностандарт, доғли ва бошқа нуқсонли пиллалар ажратиб олинади ва уларни намунадаги фойизлари аниқлаб олинади. Шундан кейин навли пиллалар калибрлари бўйича саралаб олинади. Пиллаларни калибрини аниқлаш учун махсус калибрлаш қутиларидан фойдаланилади. Махсус лаборатория қутиси қопқоғида махсус тирқишлар қилинган, бу тирқишлар пиллаларнинг калибрларига мос келади. Амалдаги стандарт талаблари бўйича пиллалар *майда, ўртача, йирик* ва *йирикдан йирик* каби тўртта калибрга бўлинади[6-8]. Барча пиллалар махсус қутининг тирқишларидан ўтказиб кўрилади ва калибрлар фойизларда хисоблаб чиқилади. Қуйидаги 2.3 - жадвалда синов боқувидан олинган пиллаларнинг лаборатория синовлари натижасида аниқланган калибрлари келтирилган.

3.-жадвал - Тажриба пиллаларини калибрлаш синовлари натижалари

Т/р	Зот ёки дурагайни номланиши	Пиллаларни калибрлари бўйича миқдорлари, %			
		майда	ўртача	йирик	йирикдан йирик
		14-15 мм	16-19 мм	20-22 мм	23 мм ва орт.
1	Л-300	-	4,5	77,8	17,7
2	Л-301	-	8,9	69,9	21,2

1 – жадвалда келтирилган синов натижаларини тахлилидан кўриниб турибдики, хар икки тажриба навлари пиллаларининг абсолют катта қисми (мос равишда 95,5 ва 91,1 %) йирик ва йирикдан йирик калибрлардан иборат.

Пиллаларнинг калибрлари аниқлаб олингандан кейин уларни ипакчанлигини аниқлаш бўйича синовлар ўтказилди. Пиллаларни ипакчанлиги амалдаги стандарт бўйича уларни қобиғини кесиш, қобиқ ва ғумбакни алохида-алохида тортиб кўриш ва уларни хисоблаш орқали %-ларда аниқланади. Бунинг учун хар бир пилла диагонали бўйича ўткир кескич билан кесилади ва пилла қобиғи хамда ғумбаги ажратиб олинади, кейин улар алохида-алохида аналитик тарозиларда тортиб чиқилади. Тортилган қисмлар жадвалга киритилади ва кейин хисоблаб чиқилади. Қуйидаги 4-жадвалда пиллаларнинг ипакчанлигини аниқлаш бўйича ўтказилган лаборатория синовлари натижалари келтирилган.

4.-жадвал. Тажриба пиллаларини ипакчанлигини аниқлаш бўйича ипакчанлигини аниқлаш бўйича синовлари натижалари

Т/р	Зот ёки дурагайнинг номланиши	Қуруқ пилла-нинг ўртача вазни, г	Пилла қобиғи-нинг ўртача вазни, г	Пилла ғумбагини ўртача вазни, г	Қуруқ пилланинг ўртача ипакчанлиги, %
1	Л-300	0,814	0,435	0,379	53,48
2	Л-301	0,798	0,401	0,397	50,27

4-жадвалда келтирилган синов натижаларини тахлилидан тажриба пиллаларнинг вазни анча юқори бўлиб, ипакчанлиги хам анча юқори эканлигини кўриш мумкин. Бунда қуруқ пиллалар зотлари бўйича ўртача вазни 0,814 г-дан 0,798 г-гачани ташкил этган бўлса, ипакчанлиги 53,48 %-дан 50,27 %-гачани ташкил этади. Бундан пилла ғумбагининг зотлар бўйича вазни 0,379 г ёки 46,52 %, 0,397 г ёки 49,73 % эканлигини кўриш мумкин.

Етиштирилган пиллаларнинг технологик кўрсаткичларини аниқлаш.

Етиштирлган тажриба пиллаларини технологик ва миқдор кўрсаткичлари институтда ишлаб чиқилган “Тут ипак қурти пиллаларини ЛК русумли лаборатория доналаб чувиш

дастгохида доналаб чувиш. Услубий қўлланма” асосида УзНИИШП тизимидаги ЛК русумидаги пиллаларни доналаб чувиш лаборатория дастгохида аниқланди .

Пиллаларни ЛК русумли доналаб чувиш лаборатория дастгохида пилла ипларининг чизиқли зичлиги, узлуксиз чувилиш ва умумий узунликлари, пиллалардан хом ипак ва ипак махсулотларини чиқиши ва бошқа кўрсаткичлари аниқланади.

Пилла иплари чизиқли зичлиги ва бошқа кўрсаткичларини аниқлаш учун ажратиб олинган пиллалар олдин алохида қозонда пишириб олинади ва уларни учи топилгандан кейин, лаборатория дастгохининг чувиш қозонига олиб ўтилади ва пилла ипи ип тахлагич механизмининг кўзчасидан ўтказилиб дастгохнинг чархига ўралади. Пилла ипларининг 50 ёки 100 метри ўраб бўлинганидан кейин пилла иплари 5 мм-га ёнбош томонга ўтказилади ва пилла ипи бошқатдан ўрала бошлайди. Пилла ипидан яна 50 ёки 100 м ўралгандан кейин жараён яна қайтарилади. Бундай пилла ипини ўраш пилла ипини биринчи узилишигача давом этади, пилла ипи узилгандан кейин, пилла ипи янги калавачага ўралади ва пилла ипи охиригача ўралади. Пилла иплари охиригача ўралиб бўлганидан кейин калавачалардаги иплар чархдан чиқариб олинади, дастлаб улар аналитик тарозида якка холда тортиб олинади, тортиш тугатилгандан кейин барча калавачалар биргаликда тортилади. Тортиш ишлари тугатилгандан кейин пилла ипининг кўрсаткичлари формулалар ёрдамида хисоблаш йўли билан аниқланади. 2.5-жадвалда зотлари бўйича тажриба пиллалари ипларини ўртача чизиқли зичлиги ва ўртача метрик номерларини аниқлаш бўйича синов натижалари келтирилган[8-9].

5-жадвал. Пилла ипларини ўртача чизиқли зичлиги ва ўртача метрик номерларини аниқлаш натижалари

Т/р	Зот ёки дурагайнинг номланиши	Пилла ипининг ўртача чизиқли зичлиги	
		Тексда	Метрик номерда
1	Л-300	0,378	3945
2	Л-301	0,397	3419

5-жадвалда келтирилган синов натижаларини тахлилидан кўриниб турибдики, тажриба пиллаларининг чизиқли зичликлари саноат пиллаларинникига нисбатан анча йўғон бўлиб, бир бирларига анча яқин. Бундай пиллаларни 3,23 текс ва ундан йўғон бўлган хом ипак ишлаб чиқариш, ёки улардан ипак момиғи ишлаб чиқариш учун қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади. Қуйидаги 6-жадвалда эса тажриба пиллаларини зотлари бўйича пиллаларни доналаб чувиш усулида олинган узлуксиз чувалиш ва умумий узунликлари келтирилган.

6-жадвал. Тажриба пиллаларини зотлари бўйича пиллаларни доналаб чувиш усулида аниқланган узлуксиз чувалиш ва умумий узунликлари

Т/р	Зот ёки дурагайнинг номланиши	Тажриба пиллаларини ЛК дастгохида доналаб чувиш усулида аниқланган ўртача узунликлари	
		Ўртача узлуксиз чувилиш узунлиги, м	Ўртача умумий узунлиги, м
1	Л-300	833	990
2	Л-301	803	985

6-жадвалда келтирилган синов натижаларини тахлилидан иккала зот пиллалари хам жуда яхши кўрсаткичларга эгалиги ва уларнинг кўрсаткичлари бир бирига жуда яқинлигини кўришимиз мумкин.

Юқорида олинган натижалар пиллаларни лаборатория дастгохида якка чувиш усулида олинган, бу пиллаларни саноат дастгохларида чувиш вақтида бу кўрсаткичлар пасайиши мумкин. Қуйидаги 7-жадвалда тажриба пиллаларидан ипак махсулотларини чиқиши бўйича олинган синов натижалари келтирилган.

7-жадвал. Тажриба пиллаларидан ипак махсулотларини чиқиши бўйича олинган синов натижалари

Т/р	Зот ёки дурагайнинг номланиши	Ипак махсулотларининг чиқиши, %						Пилла қобиғи чувилувчанлиги, %	Пилла солиштирма сарфи, кг/кг
		Хом ипак	Пилла лоси	Пленка қобиғи	Жами ипак махсулотлари	Ғумбак	Эрувчи махсулотлар		
1	Л-300	37,49	8,12	2,79	48,40	47,21	5,08	84,78	2,67
2	Л-301	39,97	4,62	2,98	47,57	47,39	2,70	85,65	2,50

7-жадвалда келтирилган лаборатория синови натижаларини тахлилидан иккала зот пиллалари хам жуда яхши технологик кўрсаткичларга эга эканлигини кўришимиз мумкин. Аммо тажрибадаги Л-301 зотли ипак қурти пиллалари хом ипак, пилла лоси чиқиши (мос равишда 39,97 ва 4,62 %) бўйича Л-300 зотли ипак қурти пиллалари кўрсаткичларига (мос равишда 37,49 ва 8,12 %) нисбатан сезиларли даражада устунликка эга эканлигини кўришимиз мумкин. Бу нав пиллаларида эрувчи махсулотлар миқдори хам анча паст. Буларни хисобга олган холда ушбу нав пиллаларини районлаштирилганда Л-301 зот уруғларига кўпроқ ён бериш мақсадга мувофиқ бўлади деб хулоса чиқариш мумкин.

Адабиётлар

Прессование смеси материалов для создания начальных форм (плит) под высоким давлением;

Создание компактных заготовок с желаемой формой и размерами;

Процесс обработки в высокотемпературной печи для улучшения структуры и термоэлектрических свойств материала;

Охлаждение и стабилизация структуры;

Механическая обработка: Обработка материалов для придания им необходимой формы и размеров.

Технология изготовления образцов существенно влияет на их термоэлектрические свойства, и метод порошковой металлургии может предоставить более однородные образцы с улучшенными микроскопическими характеристиками. Оптимизация параметров прессовки, таких как давление, температура и время выдержки, представляет сложную задачу для достижения однородности и желаемых свойств материалов. Успешные исследования в этой области могут привести к созданию более эффективных термоэлектрических материалов и устройств.

Эксперименты проводились на термоэлементах с определенными размерами и использованием твердых растворов в качестве термоэлектрических материалов: для p-типа: 70 вес. % Sb_2Te_3 и 30 вес. % Bi_2Te_3. В качестве легирующей добавки был выбран кадмий. Кадмий использован в тройном дырочном сплаве для повышения подвижности, исключая другие примеси (Zn, Sn, Pb), которые могут привести к падению подвижности при увеличении концентрации носителей тока. Кадмий добавлялся в тигель после каждого слоя теллура. Диапазон концентрации кадмия в тройном сплаве: от 0,1 вес. % до 0,4 вес. %. Установлено, что материал с составом 70 вес.% Sb2Te3 – 30 вес.% Bi2Te3 и легированный 0,25 вес.% Cd показывает изменение термоэлектрической добротности от $1{,}9\cdot10^{-3}$ K^{-1} (293 K) до $0{,}3\cdot10^{-3}$ K^{-1} (573 K). Максимальное значение термоэлектрической добротности $Z=2{,}1\cdot10^{-3}$ K^{-1} достигается при использовании метода прессования порошка при 323 K [3-5, 7-10].

На рисунке 1 показаны термоэлектрические свойства полученных легированных материалов.



Рис.1. График зависимости значений σ, α, $\alpha^2\sigma$ от величины концентрации вес. % Cd.

Согласно графику, видно, что концентрация легирующей добавки имеет линейную связь с изменением термоэлектрических характеристик полученных материалов. Как известно, с увеличением концентрации легирующей добавки (кадмия) удельная электропроводность и коэффициент термоЭДС изменяются линейно. Особый интерес представляет температурная динамика изменения термоэлектрических свойств полуэлементов в зависимости от концентрации введенной легирующей добавки – кадмия.

Вывод. На основе вышеизложенного можно сделать следующие выводы. Как указано, изменения термоэлектрических свойств материалов линейно зависят от концентрации легирующей добавки кадмия. Это свидетельствует о прямой корреляции между содержанием кадмия и удельной электропроводностью, а также коэффициентом термоэлектрической ЭДС. В контексте интереса к температурной зависимости изменения термоэлектрических свойств

от концентрации кадмия, возможно, стоит дополнительно рассмотреть какие-то конкретные температурные диапазоны или изменения при различных температурах для получения более полного представления о поведении материала. Линейные изменения графика подчеркивают эффективность легирования для контроля и настройки термоэлектрических свойств материалов. Это важное обстоятельство для разработки материалов с определенными термоэлектрическими характеристиками. Понимание линейной зависимости между концентрацией легирующей добавки и термоэлектрическими свойствами материалов также подчеркивает важность тщательной оптимизации технологического процесса производства для достижения желаемых свойств материалов. Температурные изменения и другие факторы могут требовать дополнительных исследований для более глубокого понимания и точной настройки термоэлектрических материалов. В целом, данное обсуждение подчеркивает важность тщательного исследования и оптимизации процесса легирования для достижения желаемых свойств термоэлектрических материалов, а также выявляет потенциал для дополнительных исследований в области температурных изменений и других параметров.

Список литературы

[1]. Иоффе А.Ф. Полупроводниковые термоэлементы. –М.;Л.: Изд-во АН СССР, 1960. -188 с.

[2]. Е.К. Иорданишвили Термоэлектрические источники питания, М., Изд-во Советское радио, 1968, стр.184.

[3]. Латипова М.И., Хомиджонов З.М., Усмонов Я., Набиев М.Б., Исследование термоэлектрических полупроводниковых материалов для высокоэффективных термоэлектрогенераторов, Научно-технический журнал наманганского инженерно-технологического института, ТОМ 5 - №1, 2020, с.125-131

[4]. Усмонов Я., Способ получения полупроводниковых материалов для термопреобразователей /Усмонов Я., Набиев М., Ахмедов Т., Набиева Н., Юлдашева И.И.//Актуальные вопросы высшего профессионального образования, сборник научных трудов Международной научно-методической конференции, Уфа, Издательство УГНТУ, 2017. с. 108-112.

[5]. Nabiev M.B., Khomidzhonov Z.M., Latipova M.I., Abdullaev A.A., Obtaining and researching of thermoelectric semiconductor materials for high-efficienting thermoelectric generators with an increased efficiency coefficient, Проблемы современной науки и образования, 2019, №12 (145). Часть 2, Научно-методический журнал, с. 77-81

[6]. Гольцман, Б. М. Полупроводниковые термоэлектрические материалы на основе Bi_2Te_3 / Б. М. Гольцман, В. А. Кудинов, И. А. Смирнов. М.: Наука, 1972. 320 с.

[7]. Латипова Мухайё Ибрагимжановна, Усмонов Якуб, Набиев Махмуд Базарович, Технология получения низкотемпературных термоэлектрических материалов на основе BiTeSe-BiSbTe под давлением инертного газа//Universum: технические науки. 2020. №10-3 (79).

[8]. Латипова М.И. Исследование эффективного метода сплавления с последующим легированием низкотемпературных термоэлектрических материалов на основе Bi_2Te_3-Bi_2Se_3, Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2022, спец выпуск №2, стр.188-191.

[9]. Latipova M.I. (2022). Termoelektrik o‘zgartirgichlar uchun vismut telluridi asosidagi yarimo‘tkazgichli materiallarni olish texnologiyasi. Involta Scientific Journal, 1(6), 129–134.

[10]. Касимахунова А.М., Усмонов Я., Латипова М.И., Bi_2Te_3 асосидаги термоэлектрик материалларни олиш технологияси, Монография, ISBN: 978-9943-8501-9-4, Классик нашриёти, 2022.

УДК 620.9

САНОАТДА ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШГА РАҒБАТЛАНТИРИШНИ УМУМЛАШГАН САМАРАДОРЛИК КЎРСАТКИЧИ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ

Н.Н. Садуллаев, М.О. Ғафуров, Р.А. Султонов

Фарғона политехника институти.,
Бухоро муҳандислик-технология институти
mirzohidgafur@gmail.com,
(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Мақолада энергия самарадорликни ошириш мақсадида қайта тикланувчи энергия

манбаларидан фойдаланиш энергия истеъмоли обектлари учун иқтисодий самарадорликни таъминлай олмаётганлиги, энергия самарадорликни ошириш учун сарфланган маблағлар ўзини қоплаши ва келажакда энергия истеъмолчиларга фойда келтириши учун оқилона рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *энергия ресурслари, энергия самарадорлиги кўрсаткичлари, энергия манбалари кў'рсаткичлари, энергия узатиш кўрсаткичлари, атроф-муҳит кўрсаткичлари, иқтисодий самарадорлиги кўрсаткичи, энергия сиғим.*

В статье использование возобновляемых источников энергии в целях повышения энергоэффективности не может обеспечить экономическую эффективность объектов энергопотребления, разработана разумная система стимулирования, чтобы средства, затрачиваемые на повышение энергоэффективности, окупались и приносили пользу потребителям энергии в будущее.

Ключевые слова: *энергоресурсы, показатели энергоэффективности, показатели источников энергии, показатели передачи энергии, микросети, экологический показатель, показатель эффективности экономики, энергоемкость.*

In the article, the use of renewable energy sources to improve energy efficiency cannot ensure the economic efficiency of energy consumption facilities; a reasonable incentive system has been developed so that the funds spent on improving energy efficiency pay off and benefit energy consumers in the future.

Key words: *energy resources, energy efficiency indicators, energy source indicators, energy transmission indicators, microgrids, environmental indicator, economic efficiency indicator, energy intensity.*

Энергия самарадорликни ошириш ва муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш атмосферага зарарли газларни чиқаришни камайтиришни самарали йўли ҳисобланади. Ўзбекистон электр энергияси ишлаб чиқариш бўйича жаҳонда 44 –ўринни, жон бошига электр энергияси ишлаб чиқариш бўйича 88-ўринни эгаллаган бўлса ҳам жон бошига ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ишлаб чиқариш бўйича 146-ўринни эгаллайди. Бундан ташқари, Ўзбекистон атроф-муҳити энг ифлосланган 20 та давлатлар қаторига киради. Энергияга тўловлар арзон бўлганлиги сабабли энергия сиғими катта ва арзон маҳсулотлар ҳам кенг ишлаб чиқарилмоқда. Бу маҳсулотлар асосан атроф – муҳитни ифлослантириш даражаси юқори бўлган иссиқлик электр станциялари энергиясида ишлаб чиқарилгани сабабли атроф-муҳитни ёмонлашувига олиб келмоқда. Ишлаб чиқариш корхоналарда энергия самарадорликни ошириш мақсадида энергия таъминоти тизимида қайта тикланувчан энергия манбаларидан (ҚТЕМ) фойдаланиш даражаси ошиб бормоқда. Аммо, ушбу ўзгаришлар асосан буйруқни бажариш тартибида амалга ошириляпти ва ушбу тадбирлар корхонага иқтисодий самарадорликни таъминлай олмаяпти. Корхонада энергия самарадорлик маҳсулотнинг энергия сиғими билан аниқлангани учун ҚТЕМдан фойдаланиш ушбу кўрсаткични деярли ўзгартирмайди. Бу ўз навбатида энергия таъминоти тизимида ҚТЕМ жорий этишга мотиватсияни сўндиради. Ҳолибуки, қайта тикланувчан энергия манбаларидан фойдаланиш бирламчи энергия ресурслардан фойдаланишни ва атроф-муҳит ифлосланиш миқдорини камайтиради, яъни энергия самарадорлик кўрсаткичини оширади [7]. Бу ноаниқликни бартараф этиш учун корхонадаги энергия самарадорликни баҳолашда корхонадаги энергетик қурилмаларнинг ФИК билан эмас, балки корхонада бирламчи ёқилғи-энергия ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини аниқлаш орқали баҳолаш мақсадга мувофиқ бўлади [8]. Энергия самарадорликни ошириш учун сарфланган маблағлар ўзини қоплаши ва келгусида корхонага фойда келтириши учун оқилона рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш зарур. Корхонада энергиядан фойдаланиш самрадорлигини комплекс баҳоловчи умумлашган самарадорлик кўрсаткичини ишлаб чиқиш энергия самарадорликни рағбатлантиришни самаралироқ тизиминини яратиш имконини беради.

Энергия самарадорликни комплек баҳолаш бўйича кўплаб тадқиқотлар ўтказилган. И.Козлов ва бошқалар тадқиқотларида саноат корхонаси иссиқлик таъминоти тизимининг (ИТТ) умумлашган самарадорлик кўрсаткичини келтириб чиқариш бўйича натижалар берилган [5]. Бунда, ИТТ самарадорлик кўрсаткичи: энергия манбаининг, энергияни узатиш

тизимининг ва истеъмолчиларнинг самарадорлиги кўрсаткичларини умумлаштириш орқали аниқланган. Барча кўрсаткичлар нисбий бирликда бўлиб меъёрлаш орқали олинган бўлиб, аммо, энергия истеъмолининг атроф-муҳитга таъсири эътиборга олинмаган. Энергия ишлаб чиқаришда энергия манбаларининг атроф-муҳитга таъсири бўйича кўплаб тадқиқотлар ҳам мавжуд бўлиб уларни баҳолаш услубиёти ҳамда меъёрий кўрсаткичлари ишлаб чиқилган [4]. Аммо, бу кўрсаткичлар нисбий бирликда бўлмаганлиги сабабли уларни умумлаштириш имкони йўқ. Жумладан, экологик энергия коеффитсиенти ишлаб чиқарилган электр энергияси нархининг атроф-муҳитга чиқарилган зарарли моддалар миқдорига кўпайтмаси билан аниқланган. Бу бошқа кўрсаткичлар билан интеграллашув жараёнини қийинлаштиради. Айрим тадқиқотларда иссиқхона газларини чиқаришнинг интеграл кўрсаткичи ишлаб чиқилган [1]. Бунда корхонада бевосита ва билвосита чиқарилаётган барча чиқиндиларни CO_2 массасига келтирилган эквивалент қийматга келтириш услубиёти баён қилинган. Бу кўрсаткич экологик умумлатирилган кўрсаткич бўлиб асосан экологик самарадорлик индексни аниқлашга қаратилган. ФИК ва “яшил энергетика”ни қўллаш харажатлари ва самарадорлиги етарлича таҳлил қилинмаган. Энергия самарадорликни атроф-муҳитга таъсирини аниқлаштирувчи тадқиқотларда экологик инновациялари жорий этиш самарадорлигини баҳолаш услубиёти тавсия этилган. Бунда, экологик самарадорлик уч йўналишда таҳлил қилинади [6]. Ҳар бир йўналишдаги меъзонлар алоҳида жадвалларда келтирилади. М.В.Глухова томонидан олиб борилган тадқиқотларда энергия тежаш тадбирлари натижаларини экологик ва ижтимоий омилларни эътиборга олиб баҳолаш мақсадида соф дисконтланган фойда методида, иқтисодий кўрсаткич сифатида қуйидаги умумлашган самарадорлик кўрсаткичи таклиф этилган [2]. О.Г.Дружинина томонидан яна бир ўлчовли кўрсаткич –шартли ёқилғи миқдори билан ўлчанадиган кўрсаткич -технологик экологик сон (технологическое экологическое число) ишлаб чиқилган бўлиб у бирлик маҳсулотни ишлаб чиқаришда ажралиб чиқадиган зарарга қиймати жиҳатидан эквивалент шартли ёнилғи миқдорига айтилади [3]. Бу зарар маҳсулотни энергия сиғими таркибига киритилади. Яъни, маҳсулот ишлаб чиқаришда атроф муҳитга қанча кўп зарарли моддалар чиқарса шунча энергия сиғими ошиб боради. Агар яшил энергетикани қўллаб зарарли моддалар чиқарилиши камайтирилса келтирилган энергия сиғими камайиб боради.

Корхона энергия самарадорлигини ошириш вазифаси электр таъминоти тизими ва энергия истеъмоли режимлари кўрсаткичларини энергия самарадорликга бевосита ёки билвосита таъсир этувчи кўрсаткичларини аниқлаш ва уларни ягона энергия самарадорлик кўрсаткичига таъсирини аҳамиятлилик даражасига бўйича умумлаштириш масаласига олиб келади. Энергия самарадорлик кўрсаткичларини шакллантиришда маълум бир қатъий талаблар қўйилади. Бунда самарадорлик кўрсаткичи мақсадга эришиш даражасининг ўлчови сифатида қаралади ва унга қуйидаги талаблар қўйилади:

-кўрсаткичда жараёнда мақсадга эришиш даражаси акс этиши лозим;

-самарадорлик кўрсаткичи моҳияти тушунарли бўлиши лозим;

-самарадорлик кўрсаткичи қиймати аниқ бир шкалада ўлчаниши лозим;

-самарадорлик кўрсаткичи кўп бўлмаган ташкил этувчилардан иборат бўлиши лозим.

Умумлашган самарадорлик кўрсаткичини шакллантириш асосан икки йўналишда: ўлчов бирлиги билан ва ўлчовсиз кўринишда ишлаб чиқилади.

Бу кўрсаткичлар турли ўлчов бирликларига эга бўлгани учун кўрсаткичларни нисбий мейёрлаш орқали ўлчовсиз бирликка келтирилади. Бу усул кўрсаткичларни уларни $F_u = (f_1^u, \cdots, f_j^u, \cdots f_n^u)$ идеал қийматларига нисбатан келтиришга асосланган бўлиб, ўлчовсиз шаклдаги векторга келтиришга асосланган:

$$E = (e_1^н, \ldots, e_j^н, \ldots, e_n^н) = \left(\frac{f_1}{f_1^u}, \cdots, \frac{f_2}{f_j^u}, \cdots, \frac{f_n}{f_n^u}\right) \quad (1)$$

Бу ерда: e_1^u – n–кўрсаткични идеал қийматига келтирилган нисбий қиймати; f_n – кўрсаткичнинг жорий қиймати; f_1^u – кўрсаткичнинг идеал қиймати.

Энергия истеъмоли объектининг (ЭИО) умумлашган самарадорлик коэффициенти уни ташкил этувчи самарадорлик кўрсаткичларини умумлаштириш орқали қуйидаги ифода билан қўшиш орқали аниқланади:

$$K_{mex} = \sum_{n=1}^{n} \alpha_i \cdot K_i, \quad (2)$$

Бу ерда: $K_i -$ ЭИО нинг n- самарадорлик коэффициентининг тартиб рақами; $\alpha_i -$ кўрсаткичнинг аҳамиятлик даражасини белгиловчи вазн коэффициенти; $i -$ самарадорлик коэффициентини сафланишдаги тартиб рақами.

Бу ифодадаги $\alpha_i -$ вазн коеффициентлари бўлиб, масалан, Фишбрен формуласи билан қуйидагича аниқлади:

$$\alpha_i = \frac{2(n-i+1)}{n(n+1)}, \quad (3)$$

Бу ерда: $\alpha_i - 1 -$ кўрсаткич учун вазн коэффициенти; $i -$ кўрсаткич тартиб рақами, $n -$ кўрсаткичлар умумий сони.

Кўрсаткичларни умумлаштиришда уларни навбатланиш тартибини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Бунда, муҳим кўрсаткичларнинг вазн коэффициентлари каттароқ бўлади. Кўрсаткичларни аҳамиятлилик даражасини аниқлашда кўпинча “эксперт баҳолаш” ёки қайсидир меъзон асосида уларни фарқлаш усулларидан фойдаланилади. Экспертлар ўз тажрибасидан келиб чиқиб кўрсаткичларни аҳамиятлиги даражаси бўйича сафлайди ва асослайди. Кейинги босқичда кўрсаткичларни техник ёки иқтисодий меъзонлар асосида аҳамиятлиги текширилади. Бунинг учун ҳар бир кўрсаткич бир хил қийматга ўзгартирилади ва техник (масалан, исрофлар) ва иқтисодий (масалан, харажатлар миқдори) ўзгариши салмоғи қиёсий таҳлил қилинади ҳамда натижалар бўйича сафлантирилади. Кўрсаткичларни навбатланиш тартиби ва вазн коэффициентларнинг қийматлари “Экспертларни ўртача баҳолашини аниқлаш”, “Меъзонларни аҳамиятлик даражаси бўйича сафлаш” ва “Иерархик таҳлил” ва “Фишберн формуласи” усулларидан фойдланиб аниқланди. Экспертлар иштирокида “Экспертларни ўртача баҳолашини аниқлаш”, “Меъзонларни аҳамиятлик даражаси бўйича сафлаш” усулларида ҳисобланиб вазн коэффициентларининг қийматлари қабул қилинади.

ЭИО нинг умумлашган самарадорлик кўрсаткичини ишлаб чиқиш энергетика соҳасининг ҳозирги кундаги долзарб муаммолари ечимига қаратилиши лозим. ушбу долзарб муаммолар сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

1. Ёқилғи энергия ресурсларнинг етишмовчилиги туфайли электр энергияси ва иссиқлик энергиясининг тақчиллигининг мавжудлиги;
2. Энергияни ишлаб чиқариш ва энергия истеъмоли туфайли келиб чиққан экологик инқирозни кучаётганлиги;
3. Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотининг энергия сиғимининг юқорилиги. Яъни, саноатда асосан арзон, энергия сиғими юқори ва атроф муҳитни кўп ифлослантирувчи маҳсулот ишлаб чиқарилаётганлиги;
4. Айрим гуруҳ истеъмолчиларига электр энергияси таннархидан арзон сотилаётганлиги туфайли соҳага инвестицияларни жалб қлишдаги қийинчиликлар;
5. ҚТЭМлар нархининг нисбатан юқорилиги ва капитал харажатларни қоплаш муддатининг кўплиги туфайли уларни жорий этишдаги муаммолар.

Ушбу муаммоларни комплекс ҳал қилиш учун қуйидаги вазифалар ҳал қилиниши керак:

1. Энергетика тизимида ёқилғи энергия ресурсларини талаб этмайдиган ҚТЭМ ларни жорий этиш ва энергияни ишлаб чиқаришда ҳамда истеъмол қилишда энергия тежамкор технологияларни қўллашни кенгайтириш;
2. Бирлик қийматдаги маҳсулот таннархидаги атроф-муҳитга етказиладиган зарар

салмоғини камайтириш ва юқори қўшимча қийматли инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқаришга ўтиш;

3. Соҳани фойда кўриб фаолият олиб боришини таъминлайдиган ва бозор иқтисодиёти тамойиллари асосида аниқланган электр энергияси нархини аниқлаш ва жорий этиш;

4. Ишлаб чиқаришда ва ташкилотларда энергия самарадорликни оширган ҳамда ҚТЭМ ларни ўрнатган истеъмолчиларга имтиёзлар тизимини ишлаб чиқиш орқали уларни рағбатлантириш.

Энергетика тизимидаги мавжуд вазиятни хорижий давлатлар тажрибаси асосида илмий таҳлил қилишни ва ислоҳотларни натижадорлигини ошириш учун истеъмолчиларни ислоҳотларда фаол иштирокини таъминловчи рағбатлантириш механизмларини ишлаб чиқаришни тақозо қилади. Ҳозирги кунда, энергия истеъмоли объектларида муқобил энергия манбалари (иссиқлик қозонлари, қуёш ФЭС, шамол ЭҚ, дизел генератор ва бошқалар) ўрнатилиб энергия манбалари диверсификациялаш амалга оширилмоқда. Ҳар бир йирик истеъмол объектларни гибрид энергия манбаи, энергияни узатиш ва тақсимлаш тизими ҳамда энергия истеъмолчиларидан иборат кичик автоном микро энергия тармоғи сифатида қараш мумкин (1-расм). Ушбу схемага асосан корхона истеъмол қиладиган энергия қайта тикланувчан ва тикланмайдиган энергия ресурслардан фойдаланиб корхона ҳудудида ҳосил қилинади. Тармоқдан олинадиган электр ва иссиқлик энергияси корхона қайси манбадан таъминланишига қараб микро электр станция ёки иссиқлик манбаи сифатида қабул қилинади. Энергия истеъмоли объектларини бундай таркибда қабул қилиниши корхонадаги энергия истеъмолини атроф-муҳитга таъсирини аниқлаш унинг энергия самарадорлигини комплекс баҳолаш имконини беради.



1-расм. Гибрид энергия манбали автоном энергия тармоғининг структуравий схемаси.

2-расм. Гибрид энергия манбали микро энергия тармоқнинг тузилмавий схемаси.

2-расмда электр тармоқ, қуёш ФЭС, шамол ЭҚ, энергия заҳиралагичлар иборат микротармоқни схемаси келтирилган. Гибрид электр энергияси манбаи энергия оқимларни мувофиқлаштирувчи контроллер билан бошқарилади. Энергия таъминоти тизимининг ушбу модели ЭИОни энергия самарадорлик бўйича тўлақонли тавсифловчи умумлаштирилган энергия самарадорлик кўрсаткичини шакллантириш ва уни ҳисоблаш учун қулай

имкониятлар яратади. Бунда энергия манбалари ва энергия узатиш тизими яққол ажратилган ҳолда бўлиб энергия истеъмолини атроф-муҳитга таъсирини ҳам эътиборга олиш мумкин.

Гибрид энергия манбали автоном микро энергия тармоқдан ташкил топган ЭИОни умумлашган (комплекс) самарадорлик кўрсаткичини аниқлаймиз. Бунинг учун ўлчов бирлигисиз кўринишига келган самарадорлик кўрсаткичларини шакллантирамиз. Дастлаб, гибрид энергия манбасини умумлашган самарадорлик коэффициентини аниқлаймиз.

Гибрид энергия манбасининг энергия ресурслардан фойдаланмаслик самарадорлиги кўрсаткичи энергия таъминотида ёқилғи-энергия ресурслардан фойдаланиш салмоғи билан аниқланади ва электр ва иссиқлик энергия манбалари кўрсаткичларини бир хил бирликка, яъни кВт·соат ёки т.ш.ё. бирлигига келтирилиб ҳисобланади. ЭИОда ёқилғи-энергия ресурслардан фойдаланиш салмоғи қанчалик кам бўлса ушбу кўрсаткич шунчалик юқори бўлади ва қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{эр} = 1 - \frac{W_{er} + Q_{er}}{(W_{er} + Q_{er}) + (W_{qt} + Q_{qt})}, \quad (4)$$

Бу ерда: W_{er} ва Q_{er} –мувофиқ равишда ёқилғи - энергия ресурслардан фойдаланиб олинган электр ва иссиқлик энергияси миқдори, кВт·соат; W_{qt} ва Q_{qt} –мувофиқ равишда корхонада қайта тикланувчан манбалардан фойдаланиб олинган электр ва иссиқлик энергияси, кВт·соат.

Гибрид энергия манбасининг ФИК. Бу самарадорлик кўрсаткичи ҳам шу тартибда бирлаштирилади. Яъни барча энергетик қурилмаларнинг ФИК лари электр ва иссиқлик энергиялари бир ўлчов бирлигига (кВт·соат ёки т.ш.ё.) келтирилиб қуйидаги кўринишда умумлаштирилади:

$$К_{\eta} = \frac{\sum_{i=1}^{i} W_i \cdot \eta_i + \sum_{i=1}^{i} Q_k \cdot \eta_k}{\sum_{i=1}^{i} W_i + \sum_{i=1}^{i} Q_i} = \frac{(W_1 \cdot \eta_1 + W_2 \cdot \eta_2 + \cdots + W_i \cdot \eta_i) + (Q_1 \cdot \eta_1 + Q_2 \cdot \eta_2 + \cdots + Q_i \cdot \eta_k)}{(W_1 + W_2 + \cdots + W_i) + (Q_1 + Q_2 + \cdots + Q_k)}, \quad (5)$$

Бу ерда: i-энергетик қурилманинг тартиб рақами; Wi-энергетик қурилма ишлаб чиқарган электр энергияси, минг кВт·соат; ηi –электр энергетик қурилманинг ФИК. k-энергетик қурилманинг тартиб рақами; Qk-иссиқлик энергетик қурилмаси ишлаб чиқарган иссиқлик энергияси, минг кВт·соат; ηk –энергетик қурилманинг ФИК.

Энергия истеъмоли объектининг экологияга таъсири индекси қуйидаги тартибда умумлаштирилади. Гибрид энергия (электр ва иссиқлик) манбасида турли ёқилғида (табиий газ, кўмир, бензин ва ҳ.к.) ишловчи барча энергетик қурилмалар учун атроф –муҳитга етказилган зарар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{э.и} = \frac{С_{ес.\Sigma}}{П_{й}} = \frac{С_{ес.ээ} + С_{ес.иэ}}{П_{й}}, \quad (6)$$

Ушбу ифодадан кўриш мумкин, экологияга зарар миқдори ошиб бориши билан таъсир индекси ҳам ошиб боради ва самарадорлик камайиб боради. Ушбу кўрсаткичга тескари мутаносибликда ўзгарувчи кўрсаткични самарадорлик кўрсаткичи сифатида қабул қилинади қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{эр} = 1 - \frac{С_{ес.\Sigma}}{П_{й}}, \quad (7)$$

Бу ерда: $С_{ес.\Sigma}$-йил давомида гибрид энергия манбаи томонидан атроф муҳитга етказилган зарар миқдори, у.е; $П_{й}$-йил давомида ишлаб чиқарилган маҳсулот қиймати, у.е.

Энергия таъминоти тизимининг энергияни узатиш тармоғининг (ЭУТ) муҳим кўрсаткичларидан бири электр энергиясини минимал исрофлар билан узатиш қобилияти ҳисобланади. ЭУТ ФИКи корхонада энергияни узатишдаги исрофлар йиғиндиси билан қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$K_{\eta.tr} = \frac{W_{ис}}{W_{ич}} = \frac{W_{ич} - \Delta W_{\Sigma ут}}{W_{ич}}; \quad (8)$$

Бу ерда: Wич ва Wис-корхонада ишлаб чиқарилган ва истеъмолчилар қабул қилган энергия, кВт·соат; $\Delta W_{\sum ут}$ – энергияни узатиш тизимидаги исрофлар йиғиндиси, кВт·соат.

ЭИО нинг энергетик қурилмаларининг умумий ФИКи энергияни ишлаб чиқаришдаги ва узатишдаги умумий ФИК йиғиндисига тенг бўлади.

$$К_{\eta.эио} = К_{\eta.pr} \cdot К_{\eta.tr} \quad (9)$$

ЭИО нинг иқтисодий самарадорлик самарадорлик кўрсаткичи барча босқичларидаги иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини йиғиндисидан иборат бўлади. Яъни:

$$К_{и.иқ} = K_{ес.pr} + K_{ес.tr} + K_{ес.con} = 1 - \frac{Z_{pr}+Z_{tr}+Z_{con}}{П_{уг}}, \quad (10)$$

Бу ерда: Z_{pr}, Z_{tr} ва Z_{con}–энергияни ишлаб чиқаришда, узатишда ва истеъмол жараёнларидаги харажатлар, у.е; $Пуг$-корхонада бир йилда ишлаб чиқарилган маҳсулот қиймати, у.е.

ЭИО нинг диверсификация коэффициенти энергия манбалари учун қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{д} = \frac{\sum_{n=1}^{n} P_i - P_{i.max}}{P_{ес}} \quad (11)$$

Бу ерда: n-энергия манбалари сони, дона; Pi-энергия истеъмолида иштирок этаётган энергия манбаи ёки заҳиралаш қурилмасининг номинал қуввати, кВт; $Pi.max$-максимал қувватли энергия манбаи қуввати, кВт; $Рес$-ЭИОнинг йиллик ўртача истеъмол қуввати, кВт.

Касрнинг сурати (қолган энергетик манбалар қувватлар йиғиндиси) корхона истеъмолидан катта бўлса заҳиралаш коэффициенти 1 га тенг деб олинади.

Ўлчов бирлигисиз кўринишга келтирилган самарадорлик кўрсаткичларини умумлаштириб комплекс самарадорлик кўрсаткичига келтирамиз. ЭИО нинг умумлашган самарадорлик коэффициенти уни ташкил этувчи самарадорлик кўрсаткичларини қуйидаги ифода билан қўшиш орқали аниқланади:

$$K_{мех} = \sum_{n=1}^{n} \alpha_i \cdot K_i, \quad (12)$$

Бу ерда: ЭИО нинг $n-$ самарадорлик коэффициентининг тартиб рақами; αi - кўрсаткичнинг аҳамиятлик даражасини белгиловчи вазн коэффициенти; i-самарадорлик коэффициентини сафланишдаги тартиб рақами.

Кўрсаткичларни умумлаштиришда навбатланиш тартибини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Кўрсаткичларни аҳамиятлилик даражаси юқорида келтирилган долзарб вазифаларни ҳал қилувчи кўрсаткичларга эътибор қаратиб “эксперт баҳолаш” усулидан фойдаланиб кўрсаткичлар қуйидагича сафланди:

1. ЭИО нинг энергия ресурслардан фойдаланмаслик коэффициенти-Кэрф
2. ЭИО нинг экологияга таъсири коэффициенти-Кэк
3. ЭИО нинг иқтисодий самарадорлик самарадорлик кўрсаткичи-Кэс
4. ЭИО нинг энергетик қурилмаларининг умумий ФИК -Кη
5. ЭИО нинг диверсификация коэффициенти-Кдв

Кўрсаткичларнинг вазн коэффициентлари қийматлари Фишбрен формуласи асосида аниқлаб қуйидаги ифода олинди:

$$K_{гэм} = \sum_{n=1}^{n} \alpha_i \cdot k_i = \frac{5}{15} \cdot K_{эрф} + \frac{4}{15} \cdot K_{эки} + \frac{3}{15} \cdot K_{ис} + \frac{2}{15} \cdot K_{\eta} + \frac{1}{15} \cdot K_{дв}, \quad (13)$$

Ушбу кўрсаткичдан энергия самарадорликни оширишни рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқишда фойдаланамиз.

ЭИОлари умумлашган самарадорлик кўрсаткичининг жорий қийматига қараб рағбатлантирилади ёки жарима солинади. Ушбу кўрсаткичнинг мейёрий қийматини аниқлаймиз. Бунинг учун энергия самарадорлик талабларга тўла жавоб берувчи идеал ва паст самарадорликка эга бўлган ЭИОнинг умумлашган самарадорлик кўрсаткичини аниқлаймиз. Идеал ЭИО энергия самарадорлик бўйича қуйидаги имкониятларга эга деб ҳисоблаймиз:

1. Корхона тўлиқ ҚТЭМ лардан энергия истеъмол қилади ва атроф-муҳитга зарарли моддалар чиқармайди. Бу ҳолда энергия ресурслардан фойдаланмаслик коэффициенти ва экологик индекс бирга тенг бўлади. Яъни, Кэрф=1 ва Кэки=1;
2. Корхона юқори қўшимча қийматли инновацион маҳсулот ишлаб чиқаради ва маҳсулот таннархидаги энергия харажатлар 15-20% дан ошмайди. Бу ҳолда иқтисодий самарадорлик коэффициенти Кис=0,85-0,8 атрофида бўлади.
3. Корхонада энергия фақат ҚТЭМ лар воситасида ишлаб чиқарилгани учун ҚТЭМларнинг ўртача ФИКлари орқали аниқланади. Бунда, қуёш иситкичларининг ФИК 90%, қуёш ФЭС ларнинг ФИК 20%, шамол ЭС ларнинг ФИК 30% кўринишда қабул қилинади ва ўртача ФИК 40% қабул қилинади. Яъни, Кη=0,4 бўлади;
4. Корхонада қуёш панеллари ва шамол электр станциялари тенг қувватда ўрнатилгани ҳамда марказлашган электр тармоқга уланган учун диверсификация коэффициенти бирга тенг бўлади. Яъни, Кдв=1.

Ушбу коэффициентлар қийматларини ифодага қўйиб идеал ЭИО нинг умумлашган самарадорлик кўрсаткичини ҳисоблаймиз:

$$K_{эио.\max} = \frac{5}{15} \cdot 1 + \frac{4}{15} \cdot 1 + \frac{3}{15} \cdot 0.8 + \frac{2}{15} \cdot 0.4 + \frac{1}{15} \cdot 1 = 0.869$$

Юқоридаги талаблар бўйича паст самарадорлик кўрсаткичларга эга бўлган ЭИО имкониятларини тавсифлаймиз:

1. Корхона тўлиқ ЁЭРда ишловчи энергия манбали марказлашган электр энергияси ва иссиқлик тармоғига уланган ва ҚТЭМ лар ўрнатилмаган. Бу ҳолда энергия ресурслардан фойдаланмаслик коэффициенти нолга тенг бўлади. Яъни, Кэрф=0;
2. Корхона бир миллион сўмлик маҳсулот яратганда атроф-муҳитга 200 минг сўм зарар етказилади. бунда атроф-муҳитга таъсир индекси 0.2 ва самарадорлик индекси эса 0.8 га тенг бўлади. Яъни, Кэки=0,8;
3. Корхона паст қўшимча қийматли маҳсулот ишлаб чиқаради ва маҳсулот таннархидаги энергия харажатлар 45-50% атрофида. Бу ҳолда иқтисодий самарадорлик коэффициенти Кис=0,45-0,5 атрофида бўлади.
4. Корхонада энергия фақат марказлашган энергия тармоғидан энергия истеъмол қилгани учун газ-буғ турбинали электр станциянинг ўртача ФИК қабул қилинади. Яъни, Кη=0,4 бўлади;
5. Корхона марказлашган электр тармоқга уланган ва корхонада кўмирда ва дизел ёқилғисида ишловчи хусусий энергия манбалари билан 30% га заҳираланган. Яъни, Кдв=0.3.

Юқоридаги коэффициентлар қийматларини ифодага қўйиб энергия самарадорлик кўрсаткичлари ёмон бўлган ЭИО нинг (корхонанинг) умумлашган самарадорлик кўрсаткичини ҳисоблаймиз:

$$K_{эио.\min} = \frac{5}{15} \cdot 0 + \frac{4}{15} \cdot 0{,}8 + \frac{3}{15} \cdot 0.4 + \frac{2}{15} \cdot 0.4 + \frac{1}{15} \cdot 0.3 = 0.433$$

Энг юқори ва энг паст кўрсаткичларни ўртача қийматини аниқлаб ЭИОнинг умумлашган самарадорлик кўрсаткичини ўртача (мейёрий) қийматини қуйидаги ифодадан аниқлаймиз:

$$К_{эио.ўр} = \frac{К_{эио.мах} + К_{эио.min}}{2} = \frac{0.869 + 0.433}{2} = 0.651$$

Умумлашган самарадорлик кўрсаткичи ушбу кўрсаткичдан юқори қийматга эга бўлган корхоналар имтиёзлар олади ва ушбу қийматдан паст бўлган корхоналар эса жарималар олади. Агар умумлашган самрадорлик кўрсаткичини ўртача қийматини унинг мейёрий қиймати деб қабул қилсак ушбу имтиёзлар ёки жарималар қиймати қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$\Delta W_{im} = С_0 \cdot W_{kor}(K_{эио.ж} - K_{эио.м}) = С_0 \cdot W_{kor}(K_{эио.м} - 0{,}651)$$

Бу ерда: $Со$ – энергияга тўлов ставкаси; $W\Sigma$ –корхона истеъмол қилган йиллик энергия истеъмоли; $Кэио.ж$ ва $Кэио.м$ - корхона умумлашган самарадорлик кўрсаткичининг жорий ва мейёрий қиймати.

Агар қиймат мусбат бўлса ушбу қийматдаги маблағ корхонага рағбатлантириш кўринишида берилади ёки корхонанинг энергия тўловидан чегирма қилинади. Агар қиймат манфий бўлса ушбу қийматдаги маблағ корхонага жарима кўринишида ундирилади ёки корхонанинг энергия тўловига қўшимча тўлов қилинади.

Масалан, корхонада марказлашган энергия тармоғидан истеъмол қилинган электр энергиясига тўлов қуйидаги ифода орқали аниқланади:

$$U_{ee} = С_{0.ээ} \cdot W_{мт} - С_{0.ээ} \cdot W_{\Sigma}(K_{эио.ж} - K_{эио.м})$$

Бу ерда: $Wмт$ – корхона ҳудудидан ташқаридан, марказлашган электр тармоғидан олинган электр энергияси, кВт·соат; $Со.иэ$ – электр энергиясига тўлов ставкаси, сўм/кВт·соат; $W\Sigma$ –корхона истеъмол қилган йиллик энергия истеъмоли, кЖл.

Ушбу ифодадан кўриш мумкинки, тўлов манфий ҳам чиқиши мумкин. Бунда ушбу қийматдаги тўлов суммаси корхонага имтиёз сифатида корхонага берилади. Ушбу ҳолат корхона истеъмол қилаётган энергиянинг асосий қисмини ҚТЭМ лари томонидан ишлаб чиқилган энергия ташкил қилса. Бундай рағбатлантириш корхонада ҚТЭМларини ўрнатишни жадаллаштиради ва “яшил энергетика”ни ривожланишига туртки бўлади.

Шу тартибда, корхонада марказлашган энергия тармоғидан истеъмол қилинган иссиқлик энергиясига тўлов ҳам қуйидаги ифода орқали аниқланади:

$$U_{ee} = С_{0.иэ} \cdot Q_{мт} - С_{0.иэ} \cdot Q_{\Sigma}(K_{эио.ж} - K_{эио.м})$$

Бу ерда: Qмт – корхона ҳудудидан ташқаридан, марказлашган иссиқлик тармоғидан олинган иссиқлик энергияси, кЖл; Со.иэ – иссиқлик энергиясига тўлов ставкаси, сўм/кЖл; WΣ –корхона истеъмол қилган йиллик энергия истеъмоли, кЖл.

Корхона марказлашган энергия тармоғидан энергия истеъмол қилмаса, яъни, барча энергия қайта тикланувчан энергия манбаларидан ёки корхонанинг хусусий энергия манбаларидан истеъмол қилинса ушбу маблағ рағбатлантириш кўринишида корхонага давлат томонидан берилади.

Умумлашган самарадорлик кўрсаткичи асосида рағбатлантириш тизимини Бухоро муҳандислик-технология институти мисолида кўриб чиқамиз. Муассасанинг электр энергияси истеъмоли ва самарадорлик кўрсаткичлари 1-жадвалда келтирилган. Энергия истеъмоли маълумотлари 2022 йил бўйича олинган. 2023 йилда институтга 315 кВт қуёш

панеллари ўрнатилган. Ҳисоблашларни 2 вариантда бажарамиз. 1-вариант - 2022 йилдаги истеъмол, 2-вариант-2023 йилдаги истеъмол олинган. Жадвалнинг 3-устунида рағбатлантириш жорий этилмагандаги натижалар ва 4 устунида эса рағбатлантириш жорий этилгандаги натижалар келтирилган.

$$K_{эио.1} = \frac{5}{15}\cdot 0 + \frac{4}{15}\cdot 0.68 + \frac{3}{15}\cdot 0.9 + \frac{2}{15}\cdot 0.35 + \frac{1}{15}\cdot 0.1 = 0.408$$

$$K_{эио.2} = \frac{5}{15}\cdot 0.66 + \frac{4}{15}\cdot 0.88 + \frac{3}{15}\cdot 0.9 + \frac{2}{15}\cdot 0.31 + \frac{1}{15}\cdot 0.7 = 0.71$$

Жадвалда келтирилган кўрсаткичлар асосида умумлашган самарадорлик кўрсаткичларини вариантлар бўйича ҳисоблаймиз:

1-жадвал.

№	Энергия истеъмоли кўрсаткичлари	Рағбатлантириш жорий этилмаганда		Рағбатлантириш жорий этилганда	
		I-вариант	II-вариант	I-вариант	II-вариант
1.	Эл.тармоқдан истеъмол Энергия, млн. кВт·соат	780	245	780	245
2.	ҚТЭМ дан истеъмол Энергия, млн кВт.соат	-	535	-	535
3.	Жами истеъмол энергияси (2022 й.) , млн. кВт·соат	780	780	780	780
4.	$К_{эрф}$-ЁЭРдан фойдаланмас-лик коэффициенти	-	0.66	-	0.66
5.	$К_{эти}$-экологига таъсир индекси	0.68	0.88	0.68	0.88
6.	$К_{ис}$-иқтисодий самарадорлик коэффициенти	0.9	0.9	0.9	0.9
7.	$К_{\eta}$-ЭИОнинг ФИК	0.35	0.31	0.35	0.31
8.	$К_{дв}$-диверсификация коэф.	0.1	0.7	0.1	0.7
9.	$К_{уск}$-умумлашган самарадорлик коэф.	0.408	0.71	0.408	0.71
10.	$К_{уск.м}$-мейёрий умумлашган самарадорлик коэф.	0.6	0.6	0.6	0.6
11.	$К_{уск.м}$ - $К_{уск}$-фарқи	0.192	-0.11	0.192	-0.11
12.	Энергияга тўлов, млн сўм	780	245	780	245
13.	Имтиёз, млн.сўм	-	-	-	85
14.	Жарима, млн сўм	-	-	149	-
15.	Якуний тўлов, млн сўм	780	245	929	160
16.	Йиллик самара, млн.сўм	-	535	-	769
17.	Қўшимча капитал харажатлар, млн сўм	-	3 150	-	3 150
18.	Қоплаш муддати, йил	-	5.88	-	4,09
19.	10 йиллик иқтисодий самара, млн.сўм	-	2200		4 540

Имтиёз ва жарималарни ифода бўйича аниқлаймиз. Жадвалдан кўриш мумкин, агар 2023 йилда ҚТЭМ ўрнатилмаганда 19,2 % (149 млн.сўм) жарима тўлар эди. ҚТЭМ ўрнатгани учун 11% (85 млн.сўм) имтиёз берилади. Қуёш панелларини ўрнатиш учун сарфланган харажатлар (3,15 млрд сўм) рағбатлантириш бўлмаганда 5,88 йилда, бўлганда эса 4,09 йилда қопланади.

Хулоса

Корхонанинг умумлашган самарадорлик кўрсаткичига салмоқли таъсир кўрсатувчи омил бу корхонага ҚТЭМ ларини ўрнатиш ҳисобланади. Бу вазн коэффициентлари юқори бўлган дастлабки иккита кўрсаткични: ёқилғи энергия ресурслардан фойдаланмаслик коэффициентини ва экологик таъсир индексини кескин ошириб юборади. Бу корхонага ҚТЭМларни ўрнатишга кучли мотивацияни беради. ЭИОларда умумлашган самарадорлик кўрсаткичи ўртача қиймати асосида имтиёзларни ва жарималарни жорий этиш қуйидаги натижаларни таъминлайди:

-корхоналарда энергия тежаш тадбирларини, замонавий энергия тежамкор технологияларни жорий этиш орқали маҳсулот энергия сиғимини камайтириш;

-корхоналар ва ташкилотларда ҚТЭМ манбаларини юқоридан келган буйруқ асосида эмас ўз ташаббуси билан ўрнатишга ҳаракат қилинади;

-корхоналарда атроф-муҳитни ифлосланишини камайтирувчи қурилмаларни, тозалаш иншоотларини ўрнатишни бўлган ҳаракатларни кучайтиради;

-корхоналарда инновацияларга асосланган юқори қўшимча қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқаришга ўтишга мотивация берилади;

-корхона фаолиятида рақамли технологияларни кенг қўлаш орқали ишлаб чиқариш ва энергия таъминоти тизимини тубдан модернизация қилиш.

Адабиётлар

[1]. Alenkova I.V., Mityakova O.I., Mityakov S.N., Ivanov S.S. Digital economy: new opportunities to implement eco-innovations at production enterprises.//Digital Economy and Finances. Advances in economics, business and management research: Proceedings of the III International Scientific and Practical Conference (ISPC-DEF 2020). 19–20th March 2020, St. Petersburg. Atlantis Press, 2020. V. 137. P. 108–111.

[2]. Глухова. Расчет финансового эффекта при внедрении ресурсосберегающих и природоохранных мероприятий в энергетике// Экономика и бизнес, 7, 77, (2003)

[3]. O.G. Drujinina, Development of algorithms and models for energy-environmental analysis of technological processes and assessment of energy costs on the example of metallurgical technologies (2008)

[4]. Казаков, Р.А. Прогноз выбросов парниковых газов на период до 2020 г. //Вторичные металлы №6/31, 2012. – С. 60-63.

[5]. Kozlov I., Kovalchuk V., Klymchuk O. Improvement of methods of comprehensive assessment of the operation efficiency of centralized heat supply systems in municipal heat power engineering. //Eastern-European Journal of Enterprise Technologies. 2021.– № 2/8

[6]. Gafurov M.O., Sadullaev N.N. Assessment of the impact of the industrial enterprise on the environment by determining the integrated (generalized) energy efficiency performance indicator.//AGRITECH-VIII E3S Web of Conferences.2023. – P. 390.

[7]. Kassem A.Al. A performance evaluation of an integrated solar combined cycle power plant with solar tower in Saudi Arabia.// Renewable Energy Focus, 2021. –V 39. – P. 123-128

[8]. Rustamov S., Uzakov G., Davlonov K. The results of the study of obtaining alternative fuels from biowaste in the experimental pyrolysis device. //AGRITECH-VIII E3S Web of Conferences. 2023– P. 390

O‘ZBEKISTONDA IQLIMNING QURIB BORISHI SHAHARSOZLIKDA LANDSHAFT ARXITEKTURALARIGA TA’SIRI

A.O. Sobirov

Farg‘ona politexnika instituti, anvarjonsobirov771@gmail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab iqlim o‘zgarishi natijasida vaqt o‘tgani sayin yer sayyorasining issiqlik harorati ko‘tarilib bormoqda, bu esa sayyoramiz qit’alarida quruq issiq iqlim muammolarini keltirib chiqarmoqda. Shunday muammo bizning O‘zbekistonda ham vujudga kelmoqda. Ya’ni mamlakatimizning ko‘plab hududlarida quruq issiq iqlim hukmronlik surishni boshladi. Bunday iqlim birinchi navbatda mamlakatimizdagi bir nechta sohalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, shaharsozlikda quruq issiq iqlimning ta’siri sezilarli darajada ta’sirga ega. Vujudga kelayotgan mumammo shaharsozlikning bir qismi hisoblangan landshaft arxitekturasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *Iqlim o‘zgarishi, landshaft, shaharsozlik, giper qurg‘oqchil zonalar, qurg‘oqchil, yog‘ingarchilik, hudud, turar-joy, issiqlik, loyiha.*

Сегодня в результате изменения климата во всем мире температура планеты Земля со временем повышается, что вызывает проблемы сухого жаркого климата на континентах нашей планеты. Такая проблема имеет место и в нашем Узбекистане. То есть во многих регионах нашей страны стал преобладать сухой и жаркий климат. Подобный климат, прежде всего, не преминет затронуть несколько секторов нашей страны. Влияние жаркого засушливого климата оказывает существенное влияние на развитие городов. Возникающую проблему мы видим в ландшафтной архитектуре, которая считается частью городского планирования.

Ключевые слова: *Изменение климата, ландшафт, градостроительство, гипераридные зоны, арид, осадки, территория, поселение, жара, проект.*

Today, as a result of climate change around the world, the temperature of the planet Earth is increasing over time, which causes dry hot climate problems in the continents of our planet. Such a problem is also occurring in our Uzbekistan. That is, in many regions of our country, a dry and hot climate began to prevail.

Such a climate, first of all, will not fail to affect several sectors of our country. The effect of hot dry climate has a significant effect on urban development. We can see the emerging problem in landscape architecture, which is considered a part of urban planning.

Keywords: *Climate change, landscape, urban planning, hyperarid zones, arid, precipitation, territory, settlement, heat, project.*

Ekologiya ko‘p qamrovli soha bo‘lib, bu sohadagi muommolar barchamizga daxldor hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan global muammolar tobora ortib bormoqda. So‘ngi yillarda global mummolar ichida takror va takror urg‘u berilayotgan muammo global isishdir. Vaqt o‘tgani sayin er sayyorasining issiqlik harorati ko‘tarilib bormoqda, bu esa sayyoramiz qit’alarida quruq issiq iqlim muammolarini keltirib chiqarmoqda. Shunday muammo bizning O‘zbekistonda ham vujudga kelmoqda. Ya’ni mamlakatimizning ko‘plab hududlarida quruq issiq iqlim hukmronlik surishni boshladi. Bunday iqlim birinchi navbatda mamlakatimizdagi bir nechta sohalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, shaharsozlikda quruq issiq iqlimning ta’siri sezilarli darajada ta’sirga ega. Muammoning dolzarbligiga keladigan bo‘lsak, vujudga kelayotgan mumammoni yuqorida aytib o‘tganimizdek shaharsozlikning bir qismi hisoblangan landshaftda ham ko‘rishimiz mumkin.

Qurg‘oqchil ya’ni quruq issiq iqlimli hududlarga mos keladigan landshaft elementlarini to‘g‘ri tanlash va ularni tabiiy rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bugungi kunga kelib shaharsozlik shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shaharsozlik bu – me’morlikning yirik sohasi; shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti – aholi yashaydigan hududlar (turar joylar)ni loyiha asosida rejalashtirishdir. Shaharsozlik o‘z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me’morligi, bog‘ barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo‘lingan.

Shaharsozlikda turar joylarning nafaqat me’moriy-badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki

obodonlashtirishga, ayniqsa, ko‘kalamzor hududlarni loyihalashga katta e’tibor qaratiladi. Shaharsozlik loyiha ishlarini amalga oshirishda landshaft arxitekturasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Landshaftni tashkil etishda hududning joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida o‘simliklarni to‘g‘ri tanlay olish hududning keyingi yillardagi landshaft arxitekturasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Boisi, hududlarning turli iqlim sharoitida uchrashi ko‘kalamzor elementlarning iqlimga moslab rejalashtirish kerakligini taqazzo etadi. O‘zbekistonning hududi ham iqlim tomonidan bir necha mintaqalarga bo‘linadi.

1-rasm. Quruq issiq iqlim sharoiti.

Shunday ekan bizda tabiiyki qurg‘oqchil iqlim haqida savollar paydo bo‘la boshlaydi. Xo‘sh, Qurg‘oqchil iqlim o‘zi nima? Qurg‘oqchil iqlimni shakllanishiga sabab nima? Atrof muhitga ta’siri qanday? Shu kabi savollar ortib boradi.

O‘simliklar va hayvonlar dunyosining o‘sishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan va to‘sqinlik qiladigan darajada suv etishmasligi kuchli bo‘lsa, mintaqa qurg‘oqchil deb ta’riflanadi (1-rasm). Qurg‘oqchil muhitlar tuproq, iqlim, suv balansi, o‘simlik, hayvonot dunyosi va inson faoliyati nuqtai nazaridan xilma-xildir va shuning uchun qurg‘oqchilikdan tashqari qurg‘oqchil hududni aniqlash uchun ishchi ta’rif mavjud emas. Qurg‘oqchilik harorat va yog‘ingarchilik funksiyasi sifatida ifodalanadi va P/ETP sifatida belgilanadi, bu erda:

P = yog‘ingarchilik

ETP = shamol, quyosh radiatsiyasi va atmosfera namligini hisobga olgan holda potensial evapotranspiratsiya.

2-rasm. Qurg‘oqchil(Arid) hududlar.

Giper qurg‘oqchil zonalar indeksi 0,03 dan kam bo‘lib, sayyoradagi quruqlikning 4,2% ni egallaydi, qurg‘oqchil zonalar 0,03-0,20 indeks diapazoniga ega va 14,6% ni egallaydi, yarim qurg‘oqchilik zonalari esa 0,20-0,50 indeks diapazoniga ega. Har yili yoz mavsumi yaqinlashishi bilan iqlimning qurib borishi insoniyatni tashvishlantirmoqda. Bundan tashqari qurg'oqchilik yil sayin muntazam ravishda davom etadigan joylar ham bor va u yozning o'zidayoq davom etadi. datda, qurg'oqchilik ikki jihatdan - meteorologik va gidrologik jihatlardan biri bilan bog'liq.

Meteorologiya nuqtai nazaridan qurg'oqchilik o'lchovdagi yomg'irning kamchiliklarini hisobga oladi. Har yilgi o'lchovlar keyinchalik "normal" miqdordagi yog'ingarchilik miqdori bilan belgilanadi va u erda qurg'oqchilik aniqlanadi. Gidrologik jihatdan qurg'oqchilik oqim va ko'l, suv ombori va suv osti suvlarini tekshirish orqali kuzatiladi. Yomg'ir yog'ishi bu erda ham ko'rib chiqiladi, chunki u suv sathiga hissa qo'shadi.
Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi qurg'oqlari ham o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatishi va turli turlarning tabiiy taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘pgina qurg‘oqchil hududlarda yil davomida 254 mmdan kamroq yog‘ingarchilik tushadi. Ko‘pgina qurg‘oqchil hududlar issiq va quruq bo‘lsa-da, qutbli mintaqalar ham qurg‘oqchil iqlim hisoblanadi, chunki ular qor shaklida ozgina namlik olgan. Qurg‘oqchil muhitda yog‘ingarchilik vaqti-vaqti bilan va asosan momaqaldiroq shaklida bo‘ladi. Tuproq quruq va ixcham, shuning uchun suvni tezda singdira olmaydi, bu esa toshqinlarga va haddan tashqari bug‘lanishga olib keladi.
Cho‘l iqlimidan keyingi eng qurg‘oqchil iqlim, ya’ni dasht deb ham ataladigan yarim qurg‘oqchil iqlim(2-rasm). U cho‘l iqlimiga qaraganda bir oz ko‘proq yog‘ingarchilik oladi. Dasht iqlimida yiliga 254 dan 508 mmgacha yog‘ingarchilik bo‘ladi va ko‘pincha cho‘l va nam iqlim o‘rtasidagi oraliq hisoblanadi. Hudud yarim qurg‘oqchil iqlim bilan tavsiflanadimi yoki yo‘qligini aniqlash uchun chegarani birinchi navbatda yil davomidagi o‘rtacha haroratni 20 ga ko‘paytirish, so‘ngra tegishli yil davomida olingan yog‘ingarchilik miqdoriga qarab 140 yoki 280 qo‘shish orqali aniqlash kerak.

Qurg‘oqchil iqlim orqali vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ularni echimlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Har bir hudud chuqur o‘rganilib, muammoga echim tayyorlanadi. O‘rganilgan hudud haqida to‘liqroq ma’lumot keltirilib, nisbatan bir- biriga o‘xshash hududlar taxlil qilinadi. Hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish uchun zarur bulgan elementlarninng tarkibiy qismlari va qo‘llanilishi bo‘yicha hulosa va takliflarni berish asosiy vazifalar sifatida ko‘rilgan. Yuzaga keladigan iqlim muammosi shaharning ko‘kalamzor va obodonlashtirish hududlariga, ya’ni landshaft arxitekturasiga jiddiy ta’sir o‘tkazishini ko‘rishimiz mumkin. Shaharning landshafti buzilishi oqibatida aholi salomatligi uchun zarur hisoblangan kislorod ham kamayib, shahar xavosi talab darajasida bo‘may qoladi. Bunday iqlimni o‘rganib, taxlil qilish orqali shahar xavo muhitini asrab qolishdek vazifa paydo bo‘ladi.

Landshaftni yaratishda yoki uni asrashda tabiiy ta’sirlardan tashqari inson omilini ham e’tiborga olish zarur. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni to‘g‘ri tashkil etish muhim hisoblanadi. Hududda aholining ko‘payishiva u bilan bog‘liq holda shaharlarning ham o‘sishi va kengayishi odamlarning tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriy aloqasining buzilishiga olib kelmoqda, natijada shahar aholisini yashash sharoitining yomonlashuvi yuz bermoqda.

Shu tufayli ko‘kalamzorlar, quyosh tushib turuvchi ochiq erlar va ulardan shahar aholisining har kuni foydalanishi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa turar-joy binolari tarkibiga ko‘kalamzorlashtirilgan maydonchalar va boshqa tabiat elementlarini kiritish imkonini beradigan tuzilishlarni izlab topish kerakligini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda O‘zbekistonning qurg‘oqchil iqlim sharoitlarida tashkil etiladigan landshaft elementlari, o‘simliklarni hududga mos ravishda tanlab olishni va joylashtirishni o‘rganish va mutaxassislarga tadbiq etishdan iborat. O‘rganib chiqilgan hududlarda elementlardan va o‘simliklardan foydalanish bo‘yicha tavsiya va takliflar berishni asosiy maqsadi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

[1]. A.Adilova “Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi”T-2011-y. I qism b.33-48
[2]. Щипачева Е.В Проектирование энергоэффективных гражданских зданий в условиях сухого жаркого климата. Учебное пособие -ТашИИТ, 2008 г.
[3]. Солдатов Е. Азизов П. Архитектурно-строителые средства повышения тепловой эффективности гражданских зданий – Ташкент, Узбекистан,1994 г
[4]. Строительная климаталогия и геофизика СНиП 2.01.01-82

[5]. www.worldatlas.com
[6]. ru.wikipedia.org.

УДК 574.63.66

LOYIHALANGAN SEXNING XAVFLI VA ZARARLI OMILLARINI TAHLILI

I.X. Domulajanov, Sh.I. Domulajanova, M.I. Latipova

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 4.02.2023 y.)

Maqola konsentrlangan sirka kislotasi sexining holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Texnologik jarayonda aniqlangan zararli va xavfli omillarni tahlil qilishda manbalardan ajralib chiqadigan zararli moddalar, masalan, sirka kislotasi, etil asetat va boshqalar aniqlandi. Shu bilan birga, sog‘lom va zararsiz sharoitlar yaratish, elektr tokidan himoya qilish va yong'in xavfsizligi masalalari ko‘rib chiqildi.

Kalit so'zlar. *Atmosfera, ustaxona, sirka kislotasi, korroziy suyuqliklar, hodisalar, shamollatish, elektr xavfsizligi, nollash, yong‘in, hodisa, asosiy vositalar, yong‘inga qarshi vosita.*

Статья посвящена анализу состояния цеха концентрированной уксусной кислоты. При анализе вредных и опасных факторов выявленных в технологическом процессе, выявлены вредные вещества, которые выделяются от источников, это такие вещества уксусная кислота, этилацетат и т.п. Наряду с этим рассматриваются вопросы создания здоровых и безвредных условий, защита от электрического тока и пожарная безопасность.

Ключевые слова. *Атмосфера, цех, уксусная кислота, агрессивные жидкости, мероприятия, вентиляция, электробезопасность, защитное заземления, зануление, пожар, мероприятие, первичные средства, огнетушитель.*

The article is devoted to the analysis of the state of the concentrated acetic acid shop. When analyzing harmful and dangerous factors identified in the technological process, harmful substances were identified that are released from sources, these are substances such as acetic acid, ethyl acetate, etc. Along with this, issues of creating healthy and harmless conditions, protection from electric current and fire safety are considered.

The practical value of the work is determined by the following. Software has been developed to increase efficiency and select the best electrical network structure and equipment composition, depending on the expected operating modes. For operating enterprises, regime analysis is provided in order to optimize energy consumption. In addition, the software package includes calculating the parameters of the power supply system in nominal and short circuit modes, taking into account and not taking into account the engine load, assessing the possibility of starting engines (self-starting), checking the correctness of the electrical equipment used, including thermal and dynamic stability, determining the main protection parameters, choosing portable grounding sections; an information system for the user is developed based on the use of a reference base of electrical equipment, which includes the parameters and characteristics of the main types of components of the power supply system of the oil refining complex; the software package is also used as a simulator for dispatching personnel of the oil refining complex. Main energy office at Lukoil LLC; The study of the operating modes of the power supply system of Lukoil with automatic calculation of the parameters and settings of emergency automation; the developed software environment is considered as an integral part of the unified software and technical complex of automated power management system and emergency automation.

References:

[5] Петровски Е.С., Кузнецов Е.Ю. «Особенност оценк эффективности инвестиционны проекто в развити электросетевы объектов». Материал 8-о международной научно-практической конференции «Актуальны проблем управлени - 2003 ». Вып. 6, ГУУ, М.: 2003 г. (0,3 п.л.).

[6] Кузнецов Е.Ю. «Проблем оценк экономическо эффективности электросетевых инвестиционны проекто в условия либерализации рынк электроэнергии». Сборник научных статей. Экономика. Управление. Культура. Вып. 11, часть 2, ГУУ, М : 2004 г. (0,3 п.л.).

[7] Кузнецов Е.Ю. «Принцип ценообразовани н услуг п передаче электроэнергии». Материал 19-о Всероссийской научно конференции молоды учены и студенто «Реформ в Росси и проблем управлени - 2004» Вып. 1, ГУУ, М., 2004 г. (0,17 п.л.)

[8] Кузнецов Е.Ю. «Финансово-экономически последстви реализации инвестици в электросетевы объекты». Материал 9-о международной научно-практическо конференци «Актуальны проблем управлени - 2004 ». Вып. 6, ГУУ, М.: 2004 г. (0,3 п.л.)

QUYOSH PANELLARINI SIMSIZ MONITORING QILUVCHI STENDINI ISHLAB CHIQISH

O.M. Mamatov, M15-20A – ET va EA guruhi magistranti Sh.M. Mamasidiqova

Farg‘ona politexnika instituti
shoiramamasidiqova@gmail.com , +998 93 9771115
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Annotatsiya: Maqolada quyish fotoelektrik panellarini simsiz monitoring qiluvchi stendining ishlab chiqish bosqichlari tahlil qilingan. Ushbu jarayonda boshlang‘ich loyihalash ishlari, prototiplarning ishlab chiqishni o’z ichiga oladi.
Kalit so’zlar: *fotoelektrik panellar, simsiz monitoring, modul va komponent.*
Аннотация: В статье анализируются этапы разработки стенда для беспроводного мониторинга литья фотоэлектрических панелей. Этот процесс включает первоначальные проектные работы, разработку прототипов.
Ключевые слова: *фотоэлектрические панели, беспроводной мониторинг, модуль и компонент.*
Abstract: The article analyzes the stages of developing a stand for wireless monitoring of photovoltaic panel casting. This process includes initial design work and prototype development.
Keywords: *photovoltaic panels, wireless monitoring, module and component.*

Quyish energiyasining foydalanishdada fotoelektrik panellar keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Bu panellarning ish samaradorligi xarorat va namlikga kuchli bog‘liq bo‘lib Bu parametrlarni uzluksiz o‘lchab borish birmuncha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli simsiz aloqa vositalaridan foydalangan holda qulay sharoitlarda atrof muxit o‘zgarishlarini kuzatib borish ancha qulaydir. Bu ishda “Quyish fotoelektrik panellarini simsiz monitoring qiluvchi stendini ishlab chiqish” mavzusi bo’yicha dastlabki tadqiqot va ishlab chiqish jarayonini tavsiflangan. Quyish fotoelektrik panellar va ularning monitoring qilish tizimlari to’g’risida ko’plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlarda panellar monitoringi uchun qulay bo’lgan yangi sensorlardan foydalanish zaruratini takidlaydi.

Quyish fotoelektrik panellarini simsiz monitoring qiluvchi stendining ishlab chiqish bo’yicha tadqiqot va ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan o’tib chiqiladi:



1-rasm. monitoring tizimining loyiha sxemasi.

1. Eksperimental loyihaning tuzilishi: Bu bosqichda, ushbu stendning qanday ishlashi, uni tashkil etish uchun qanday asbob-uskunalar, sensorlar va texnologiyalar foydalanilishi haqida rejalashtirish va qaror qabul qilinishi kerak.
2. Prototip ishlab chiqish: Har bir modul va

komponent prototiplari ishlab chiqiladi va ularning stendga qo'llanishi uchun sinovlar o'tkaziladi.

3. Dastlabki sinovlar: Prototiplar sinovlari va ularga tegishli ma'lumotlar to'plami, ushbu stendning qanday monitoring qilishini tushunishga yordam beradi.

4. Tadqiqot natijalari: Stendning dastlabki sinovlari natijalari, monitoring jarayonining qulayligi va to'g'ri ishlay olishi ko'rib chiqiladi.

5. Ma'lumotlar tahlili va natijalar: Monitoring jarayonining hisob-kitoblari, ma'lumotlarni saqlash va ularga monitoring qilishni o'z ichiga oladigan monitoring stendining arxivlash tizimi yaratiladi. Quyish fotoelektrik panellar quyish energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun xozirda keng tarqalmoqda lekin uni optimal ishlashini kuzatish yani monitoring tizimi panellarning ishchi holatini va quvvat uzatishni optimall qilish va tushuntirish uchun muhimdir.

Quyosh energiyasining yangi monitoring tizimlarining ishlab chiqish bosqichlari bo'yicha tajribalar otkazish u yordamida panellarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etishda foydalanish imkonini beradi ishchi xodimlar ishlab chiqarilayotgan energiya miqdorini kuzatish bilan birga quyosh batareyalarining xarorati, namlik miqdorini bilgan xolda xizmat ko'rsatish sifatini yahshilaydi. Bu qurilma kelejakda to'plangan o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish paneldan xatolarni osongina aniqlashga yordam beradi.Ma'lumotlarni yuborish uchun onlayn dasturiy ta'minot tizimi ishlab chiqilgan. Masalan, tok, kuchlanish,quvvat, harorat, namlik va bosim parametrlarini olish va tahlil qilishimiz mumkin. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 100 metr atrofidagi masofadan quyosh batareyalarining xarorati xaqidagi malumotlar olindi. Kelajakda olingan ma'lumotlarni internet hostingga joylab hamma uchun ochiq foydalanish imkoni bo'lgan xolatga keltirish ishlari rejalashtirildi.

Адабиётлар:

[1]. G. Vernon, Non-contact infrared thermometers, Br. J. Gen. Pract. 64 (629) (2014) 615,

[2]. A. Mayer, ''Basic Principles," Anat. Hear. by Multislice Comput. Tomogr., pp. 1–6, 2009, [3] K. Chrzanowski, Non-Contact Thermometry: Measurement Errors, SPIE Polish Chapter 7 (2001) 139.

[3]. N. Hakan, N. Okumus, M. Aydın, T. Küçüközkan, N. Tuygun, and A. Zencirog˘lu, ''The comparison of temporal temperature measurement method by noncontact infrared thermometer with other body temperature measurement methods," J. Dr Behcet Uz Child. s Hosp., no. January, 2017,

[4]. J.S. Robertson, Basic principles, Compart. Distrib. Radiotracers (2017) 11–28,

[5]. B. Layout and A. Setup, ''I2C interface for LCD Discription : Specification : Board Layout: I2C Address Setup:," 2017.

FARG'ONA VODIYSIDA SHO'RLASHGAN O'TLOQI SAZ TUPROQLAR VA SHO'RXOKLARNING BIYOKIMYOVIY XOSSALARI

A.O. Sobirov

Farg'ona politexnika instituti, anvarjonsobirov771@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqola markaziy Farg'ona sho'rlashgan o'tloqli saz tuproqlar va tarkibidagi elementlarning va unda kechadigan biyokimyoviy jarayonlar ko'rsatib berilgan. Sho'rlangan o'loqli saz tuproqlar hamda sho'rxoklarning mikroelement tarkibi va bu elementlarning biofilligi to'g'risida fikirlar keltirilgan. Tuproq tarkibida mikroelement saqlaydigan va o'simliklarning me'yorida o'sib rivojlanishi uchun kam miqdorda ishlatiladigan moddalarga mikroo'g'itlar tuproq, o'simlik va tirik opganizimlarda D.I.Mendileyevning elementlar davriy sistemasidagi ko'pchilik elementlari mavjud. Ammo, ular miqdorining o'lchovi juda keng doirani tashkil qilish to'g'risida.

Kalit so'zlar: *Sho'rlashganlik, mikroelementlar, davriy sistema, taksonomiya, saz tuproqlar, geokimyoviy spektrlari, potensial unumdorlik.*

В статье показан состав засоленных лугосазовых почв центральной Ферганы и биохимические процессы, протекающие в них. Приведены мнения о составе микроэлементов засоленных суглинистых сазовых почв и солончаков и биофильности этих элементов. Микроудобрения — вещества, запасающие микроэлементы в почве и используемые в небольших количествах для нормального роста растений.Почва, растения и живые организмы содержат большую часть

элементов периодической системы элементов Д.И.Мендилеева. Однако измерение их количества сводится к образованию очень широкого круга.

Ключевые слова: *Засоленность, микроэлементы, периодическая система, таксономия, торфяные почвы, геохимические спектры, потенциальная продуктивность.*

The article shows the composition of saline meadow soils in central Fergana and the biochemical processes occurring in them. Opinions are given on the composition of microelements in saline loamy saz soils and solonchaks and the biophilicity of these elements. Microfertilizers are substances that store microelements in the soil and are used in small quantities for normal plant growth. Soil, plants and living organisms contain most of the elements of D.I. Mendileev's periodic system of elements. However, measuring their quantity comes down to the formation of a very wide circle.

Key words: *Salinity, microelements, periodic table, taxonomy, peat soils, geochemical spectra, potential productivity.*

Sho‘rlangan tuproqlarga o‘simliklar uchun zararli miqdorda mineral tuzlar mavjud bo'lgan tuproqlar kiradi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining ezilishi profildagi tuz miqdori tuproq massasining 0,25% dan ortiq bo'lganda boshlanadi. Tuproqning chuqur namlanishi bo‘lmagan qurg‘oqchil cho‘l va chala cho‘l zonalarida tuzlarning to‘planishi ularning biogen to‘planishi, nurash, tuproq hosil bo‘lishi, shuningdek impuls hosil bo‘lishi (shamol o‘tishi) natijasida sodir bo‘lishi mumkin. Yarim cho'l va cho'l hududlarida natriy sulfatlari va xloridlari, gips va nitratlar hosil bo'lishi uchun qulay sharoitlar mavjud. Ba‘zida soda hosil bo'lishi va sho‘rlanishning sodali turi bilan tuproqlarning shakllanishi mumkin. Sho‘rlangan tuproqlar past, o‘rta va ko‘p sho‘rlangan, shuningdek, sho‘r, sho‘r, solodlarga bo‘linadi. Bir oz sho‘rlangan tuproqlarda suvda 0,25-0,4%, o‘rtacha sho‘rlanganda 0,4-0,7%, kuchli sho‘rlanganda 0,7-0,1% bo‘ladi. Hozirgi zamon biogeokimyosi landshaftning asosiy bloklari hisoblangan tuproqlarda, xususan sho‘rlangan gidromorf tuproqlarda, sho‘rxoklarda elementlar Tuproq, o‘simlik va tirik organizmlarda D.I.Mendeleevning elementlar davriy sistemasidagi ko’ pchilik elementlar mavjud. Ammo, ular miqdorining o‘lchovi juda keng doirani n "10-3- n "10-5 va xatto n " 10-9- n "10-10 % tashkil qiladi. Davriy sistemasidagi ko‘pchilik elementlarni miqdori, migratsiyasi, klarki, kontsentartsiya klarki, biologik singdirish koeffitsienti va bunda ularning harakatlanish qobiliyati, minerallarni hosil kilishi, radioaktivligi kabi kattaliklarni e‘tiborga olishini o‘rganadi. O‘tloqi tuproqlar tuproq tipi; kapillyar namlanishga sabab bo‘luvchi sathi yaqin (1–3 m) grunt suvlari ta’ sirida hosil bo‘ladi. Bunday tuproqlarda namlik ko‘pligi tufayli o‘simliklar yaxshi o‘sadi; o‘simlik qoldiqlarining aerob parchalanishi va tiklanish jarayoni suvli hamda unga yaqin gorizontlarning gleylanishiga sabab bo‘ladi. O‘tloqi tuproqlarning cho‘l zonasidagi, bo‘z tuproq va baland tog‘li mintaqlardagi tiplari farqlanadi. Cho‘l zonasi hamda bo‘z tuproq mintaqasidagi O‘tloqi tuproqlar grunt suvlar rejimi va ularning paydo bo‘lish sharoitiga qarab qayirallyuvial, allyuvial va saz (buloq)li bo‘ladi. Qayirallyuvial O‘tloqi tuproqlar (chirindi qatlami 20—40 sm) Amudaryo va Sirdaryoning delta qismida hamda boshqa daryolar qayiridagi terrasalarda tarqalgan. Ushbu nuqtai nazardan O‘zbekistonda shakllangan sho’ r tuproqlar, sho’ rxoklar va unda ularning harakatlanish qobiliyati, minerallarni hosil qilishi, radioaktivligi kabi kattaliklarni e’tiborga olishini nazarda tutish deyarli tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu maqola Markaziy Farg’ ona misolida yuqoridagilarni yoritish maqsadida yozildi.

Tuproqlarning element tarkibi ularning genezisi va kimyoviy, fizik-kimyoviy hamda boshqa jarayonlarini belgilab, tuproq tarkibi, unda sodir bo’ ladigan jarayonlarni to’ la-to’ kis tushuntiradigan bir butun g‘oya hozircha yo‘q. Bu sohadagi g‘oyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tuproq organik, organomineral va mineral moddalarining trasformatsiyasi jarayoni.
2. Tuproq profilini, aniqrog‘i alohida qatlamlarini shakllantiruvchi xususiy jarayonlar.
3. Tuproqdagi kimyoviy moddalar (oksidlar, tuzlar, asoslar, kislotalar) va elementlarni migratsiya jarayoni.

Bu o‘rinda eng murakkabi va ahamiyatlisi ham tuproqlarning birikma va element tarkibi hisoblanib, tuproq tarkibida D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasidagi ko‘pchilik elementlarini uchratish mumkin.

Tuproq uchun uning birinchi va asosiy tavsifi ham element tarkibi bo‘lib, o‘z navbatida tuproqni genezisini va unumdorligini belgilaydi. Ma’lumki Klark jadvalini chop etilganiga ham yuz yildan ko‘proq vaqt o‘tdi. Bu borada, ya’ni Yer, tuproq, o‘simlik qoplami, atmosfera, biosfera klarklari to‘g‘risida juda katta ishlar qilindi, ular qatoriga, eng avvalo, Vinogradov A.P. [1] ishlarini kiritish A.E.Fersman bu borada 1944 yili "Geokimyo dunyoning yangi konstantasini egalladi" deb bashorat qilgan edi. Unda buyuk olim kimyoviy elementlarni planetamiz bo’ ylab tarqalishi va kontsentratsiyalanishini nazarda tutgan edi. Bu holat, ya’ ni kimyoviy elementlarning hamma joyda tarqalishi Klark-Vernadskiy qonuni nomi bilan yuritiladi. Bevosita tuproqqa nazar tashlaydigan bo‘lsak undagi element tarkibi tushunchasi ko’ p hollarda yalpi kimyoviy tarkibi bilan asossiz ravishda almashtiriladi. Albatta, element tarkibi deganda alohida atomlarni, ionlarnitushunmoq darkor. Tuproqni element tarkibi uning paydo bo‘lish jarayonini o‘rganishda, unumdorligini belgilashda undagi jarayonlarni yo‘nalishini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu sohada ko‘plab misollar keltirish mumkin, ulardan biri element tarkibga qarab genetik qatlamlarini ajratishga e’ tibor beraylik. Masalan, S, N, R kabi elementlar ko‘p bo‘lsa, albatta, chirindili-akkumulyativ yoki chirindili qatlam deb aniqlash mumkin. Uglerod va kaltsiy ko‘p bo‘lib, N, R lar kam bo‘lsa yoki butunlay yo‘q bo‘lsa bunday qatlam karbonatli-illyuvial qatlam bo‘lishi mumkinligi aniqlangan va hokazo. Karbonatlar, gips miqdori ko‘p bo‘lgan qatlamlar maxsus barerlar rolini o‘ynashi ham bizga ma’lum. Har xil tuproqlarni potentsial unumdorligini belgilashda, sho‘rlanganlik, ifloslanganlik, zaharlanganlik va hokazo xususiyatlarini aniqlashda ham element tarkibi hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Shunday ekan bu elementlarni o‘rganish ularni tarqalishini, migratsiyasini tuproqda o‘rganish bu tuproqshunoslikni amaliy va nazariy muammolaridan biri bo‘lib, geokimyo, tuproq geokimyosi bilan uzviy bog‘ liq. Elementlarni tuproq tiplari, tipchalari, ayirmalaridagi migratsiyasi Yer po‘stini turli geomorfologik elementlarida har xil bo‘lgani kabi xilma-xildir. Elementlarning geokimyoviy xossalari ayni vaqtda ularning gaz, eritma, qattiq holatdagi moddalar hosil qilishi, ko‘rinishi bilan bog‘liq. Perelman A.I. [2], Glazovskaya M.A. [3] fikrlariga ko‘ra elementlarni geokimyoviy nuqtai nazardan tavsiflashda quyidagilarga e’tibor berish kerak.

1. Elementni migratsiyasini aniqlaydigan yoki belgilaydigan holat davriy sistemada tutgan o‘rni, atom tuzilishi, atom, ion radiusi, izotoplari, birikmalarining eruvchanligi, Eh, rN.
2. Har xil tizimdagi klarki, bunda turli genetik qatlamdagi kontsentratsiya klarkini qo‘shishimiz mumkin.
3. Elementni magmatik, gidrotermik va gipogen tizimdagi harakati, mexanik, fizik-kimyoviy, biogen migratsiyadagi o‘rni, harakat shakli.
4. Elementni geokimyoviy tarixi. Life Sciences and Agriculture 2.1 - 2020 67
5. Elementni noosferadagi roli: texnofilligi, muhitga ta’siri, meditsinadagi, qishloq xo‘jaligidagi o‘rni va ahamiyati.

Yuqorida ajratilgan guruhlarni tahlil qilgan holda elementlar Perelman A.I. [4], Orlov D.S. [5]lar tomonidan tasnif etilgan va ulardan biri quyidagi ko‘rinishga ega:

Orlov D.S. [5] tasnifiga to‘xtaydigan bo‘lsak, bu tasnif bevosita tuproqlar uchun tuzilgan bo‘lib, undagi, ya’ni tuproqdagi elementni miqdoriga va sifatiga tayangan va guruhlarga ajratgan:

1. Kremniy va kisloroddan iborat bo‘lib, ular birgalikda tuproqni 80-90 % ni tashkil qiladi. Shu bois bu guruhga kremniyli birikmalar guruhi ham deyish mumkin.
2. Al, Fe, Ca, Mg, K, Na, C guruhi bo‘lib, bular tuproqda 0.1 % dan bir necha foizgacha bo‘lishi mumkin.
3. Ti, Mn, N, R, S, H guruhi bo‘lib, mikroelementlardan makroelementlarga o‘tish guruhini tashkil qiladi.
4. Mikro- va ulьtromikroelementlar guruhi bo‘lib, bularga Ba, Sr, B, Rb, Cu, V, Cr,Ni, Co, Li, Mo, Cs, Se va boshqalar kiradi, ular miqdori tuproqda 10-3-10-1 % ni tashkil etadi.

D.S.Orlovning bu tasniflari ham kamchiliklardan xoli emas. Masalan: A.I.Perelьman tasnifi Yer po‘sti uchun tuzilgan, lekin tuproqni ana shu yer po‘stini eng usti qismidagi geomembrana deb

qaraydigan bo‘lsak, tasnifni ba’zi xususiyatlaridan foydalanish mumkin. D.S.Orlov tasnifida esa kamyob, onda-sonda uchraydigan nodir elementlar uchun joy ajratilmagan va hokazo.

Tuproqshunoslikda qo‘llash mumkin bo‘lgan tasniflardan yana biri bu ham A.I. Perelman qalamiga mansub bo‘lib, unda elementlar 2 katta guruhga ajratilgan
Havo migrantlari.
2. Suv migrantlari.
Havo migrantlari o‘z navbatida faol va passiv guruhlarga bo‘linadi: inert gazlar
passiv migrantlar; O, N, S, N, ya’ni biosferada kimyoviy birikmalar hosil qiluvchi
elementlar, faol migrantlar.
Suv migrantlari o‘z navbatida bir necha guruhga bo‘linadi:
1. Harakatchan va juda harakatchan elementlar: Sl, Br, S, Sa, Na, Mg, Sr, Ra, F, B.
2. Kuchsiz harakatlanuvchi kation va anionlar: K, Ba, Rb, Li, Ra, F, B.
3. Qaytariluvchi, gilli muhitda harakatchan elementlar: Fe, Mn, So.
4. Qaytariluvchi vodorod sulfidli muhitda inert, gilli, oksidlovchi
muhitlarda harakatchan va kuchsiz harakatchan: Zn, Su, Ni, Rb, Sd.
5. Kam harakatchan, ko‘pchilik tabiiy hollarda Al, Ti, Sr, Bi, V va lantanoidlar.
Bu elementlarning biofilligiga qarab Perelman A.I. [6] ularni maxsus qatorini tuzdi.
Demak, bizning tadqiqotlarimizda o‘tloqi saz tuproqlar va sho‘rxoklar
tarkibida har xil migratsiyalanuvchi elementlar guruhlari aniqlangan [7]. Hozirgacha to‘langan ma‘lumotlarga ko‘ra haydalgan yerlarga gumus miqdori dastlab kamaytirilishi kuzatiladi, buning sabablari ko‘p. Ayni vaqtda yana shunday ma‘lumotlar borki, sug‘oriladigan tuproqlarda ularning madaniylashganlik darajasi ortishi bilan gumus miqdori ortib boradi, lekin bu ortish ma‘lum. Biomakro va mikroelementlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘tloqisaz tuproqlarda Mg, K, Na, Mn, S o, Mo, B, Su, Zn, Sr aniqlangan bo‘lib, bular Life Ssienses and Agrisulture 2.1 –2020 ham miqdor va tarkib jihatdan tuproqning taksonomiyasiga muvofiq miqdorda tarqalgan [8].

Adabiyotlar

[1]. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных химических элементов в почвах. - М., 1957. -238 с.

[2]. Перельман А.И. Геохимия ландшафта: М., 1975, стр.341

[3]. Yuldashev G‘., Xoldarov D.M. Sho‘rlangan tuproqlar biogeokimyosi.: Monografiya.Farg‘ona, 2018. 78-84 betlar.

[4]. Xoldarov D.M. Markaziy Farg‘onaning sho‘rlangan o‘tloqi saz tuproqlari va sho‘rxoklari geokimyosi. Biologiya fanlari nomzodligi dissertatsiyasi T., 2006 yil, 89-bet.

[5]. Давлат ер кадастрини юритиш учун тупроқ тадқиқотларини бажариш ва тупроқ карталарини тузиш бўйича йўриқнома, Ердан фойдаланиш, ер тузиш ва ер кадастри бўйича меъёрий ҳужжатлар. -Тошкент, 2013.

XOMASHYONI QABUL QILISH SIFATINI BAHOLASHNING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

A.A. Abrolov

Farg‘ona politexnika instituti

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda mevachilik, sabzavotchilik va ularni qayta ishlash mahsulotlarini kafolatli realizasiyasi yo‘qligi shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy faktordir. Respublikamizning barcha hududlari va ayniqsa, janubiy rayonlari va Farg‘ona vodiysida meva va sabzavotlarni quritish qurilmalaridan keng miqyosda foydalanishga barcha shart-sharoitlar yetarli.

Kalit so‘zlar. *Meva, sabzavotlar, quritish, qurilma, mahsulotlar, suvsizlantirish, ikki bosqich, namlik, mexanik usul.*

В настоящее время отсутствие гарантированной реализации продукции садоводства, овощеводства и их переработки в Узбекистане является основным фактором, препятствующим развитию производств данного вида продукции. Все регионы нашей республики, особенно южные

районы и Ферганская долина, имеют все условия для масштабного использования оборудования для сушки фруктов и овощей.

Ключевые слова. *Фрукты, овощи, сушка, устройство, продукты, обезвоживание, две стадии, влажность, механический способ.*

Currently, the lack of guaranteed realization of fruit growing, vegetable growing and their processing products in Uzbekistan is the main factor preventing the development of production industries of this type of products. All regions of our republic, especially the southern regions and the Fergana Valley, have all the conditions for large-scale use of fruit and vegetable drying equipment.

Keywords. *Fruits, vegetables, drying, device, products, dehydration, two stages, humidity, mechanical method.*

Rangi. Xom ashyonilarning iste'mol qiymati va saqlanuvchanligiga ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri ularning rangi hisoblanadi. Xom ashyonilarning rangining intensivligi, ularning tarkibida qanchalik miqdorda rang beruvchi moddalar borligidan va ko‘pchilik hollarda esa pishib yetilganlik darajasidan dalolat beradi. Standartlarda meva va sabzavotlarning rangi aynan shu turga mos yoki mos emas deb qayd etiladi. Mahsulotning aniq rangi ko‘pchilik hollarda qayd etilmaydi. Ba‘zi birlari esa, masalan, pomidorlar osh, ko‘k, osh boshli karamlar esa – osh-binafsha, ko‘k-osh deb qayd etilishi mumkin.

Shakli. Ko‘pchilik ho‘l meva va sabzavotlar uchun ularning shakli ham muhim ahamiyat kasb etib, qayd etiladigan ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Standartlarda urug‘li va ko‘pchilik danakli mevalar shakli bo‘yicha aynan shu meva va sabzavot tipiga mos bo‘lishi ko‘rsatiladi. Ularning shakli bo‘yicha aynan shu tipga mos bo‘lmasligi esa, ularning pastki tovar navlariga o‘tkazilishiga asos bo‘ladi. Masalan, kechpishar lavlagilar shaklining aynan shu tipga mos bo‘lmasligi va o‘lchamlarining kichikligi, ularni ikkinchi navga, hatto uchinchi navgacha tushirishga olib keladi. Ba‘zi sabzavotlar uchun (karam, lavlagi, ko‘katlar) standartlarda shakliga talablar keltirilmaydi, ba‘zi sabzavotlar uchun (kartoshka) shakli har xil bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi, ba‘zilar uchun (sabzi, pomidor, petrushka) esa qo‘ng‘ir-qiyshiq shakllar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Lavlagi, sarimsoq, qalampir, baklajan, qovun, tarvuz, lavlagi singari sabzavotlar esa standart talabi bo‘yicha ma‘lum botanic navga mos bo‘lishi kerak.

Meva va sabzavotlarning yangiligi. Meva va sabzavotlarning yangiligi ahamiyatli ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Yangi terib olingan mevalar va yig‘ishtirib olingan sabzavotlar suvini yo‘qotmagan bo‘lganligi uchun ham yuqori iste‘mol qiymatiga va saqlanuvchanlikka ega bo‘ladi. Umuman meva va sabzavotlar yangi, so‘lib lavlagigan bo‘lishi kerak. Yangi terib olingan meva va sabzavotlardan suv bug‘lanib chiqishi natijasida ular xujayrasida suvda eruvchan quruq moddalarning kontsentratsiyasi oshib ketadi. Natijada bu jarayon fermentlarning faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularda xayot jarayonlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida meva va sabzavotlarning noqulay muhitga nisbatan tabiiy kurashuvchanligini yo‘qotib, ularning mikrobiologik va fiziologik kasalliklar bilan kasallanishini keltirib chiqaradi.

Meva-sabzavotlarning katta-kichikligi. Bu ko‘rsatkich ba‘zi bir mevalar va sabzavotlar uchun uzunlik o‘lchov birliklarida va ba‘zi birlari uchun esa massa o‘lchov birliklarida ifodalanadi. Masalan bodringlar uchun bu ko‘rsatkichni aniqlaganda standart talabi bo‘yicha bodringning uzunligi (sm hisobida) asos qilib olinsa, lavlagi, nok va shu singari mevalarda esa meva katta kesimining diametri asos qilib olinadi. Karam boshlari uchun bu ko‘rsatkich massa o‘lchov birliklarida o‘rnatiladi(bir bosh karamning massasi necha kg dan kam bo‘lmasligiga qarab).

Mahsulot sifatining xususiy ko’rsatkichlari. Xususiy ko‘rsatkichlari xom ashyolar biologiyasining o‘ziga xosligi bilan asoslanadi. Bularga quyidagilar kiradi: poliz mahsulotlarning pishib yetilganlik darajasi, mahsulot zichligi va tozalanganlik darajasi, lavlagilarda po‘stining qalinligi, qayta ishlanadigan kartoshkalarda kraxmal miqdori va boshqalar [1-2].

Lavlagi O‘zbekistonda xo‘raki lavlagining faqat bitta Bordo 237 navi rayonlashtirilgan. Bu nav o‘rtapishar, hosildor, ildizmevasi yumaloq shaklli, to‘qosh rangda bo‘ladi.

Chakana savdo tarmoqlarida aholiga sotilayotgan lavlagilar GOST 26766- 85 standarti talabiga javob berishi kerak. Biz quyida chakana savdo tarmoqlarida aholiga sotiladigan lavlagilarning GOST

26766-85 standarti bo‘yicha qanday talablarga javob berishini keltiramiz. Bu standart talabi bo‘yicha lavlagilar sifatiga qarab saralangan va saralanmagan tovar navlariga bo‘linadi.

Standart talabi bo‘yicha lavlagilarning ikkala tovar navi ham yangi, butun, sog‘lom, toza, qishloq xo‘jalik zararkunandalari bilan zararlanmagan ortiqcha namliklarsiz, yorilmagan, shakli va rangi bo‘yicha shu botanik navga mos, uzilganda o‘zida qolgan bandining uzunligi 2,0 smdan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Lavlagilarning ham o‘lchamlari katta ko‘ndalang kesimining diametriga qarab aniqlanadi. Saralangan lavlagilarda katta ko‘ndalang kesimining diametri 5,0-10,0 sm bo‘lishi kerak.

Bu ko‘rsatkich saralanmagan lavlagilar uchun esa 5,0-14,0 sm qilib belgilangan. Lavlagi ildizmevalariga yopishib qolgan tuproq miqdori 1,0% dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Usulni mohiyati shundan iboratki, namunaning ma‘lum qismini og‘irligi o‘zgarmay qolguncha quritib, boshlang‘ich va so‘ngi og‘irligini farqiga qarab mahsulotdagi namlik miqdori aniqlanadi.

Qurutilgan qapqoqli va shisha tayokchali byukslari analitik tarozida tortiladi va unga 10 gr qizdirilgan qumdan solinadi, yana 0,01 g aniklikkacha tortiladi. Qopqoqni byuksga qo‘yib qum bilan quritish shkafiga solinadi va o‘zgarmas orirlikkacha qizdiriladi. Byuksni olib qapqog‘ini yopib, eksikotorga solinadi va tortiladi. Shundan tayyorlangan shisha tayokchali qumli byuksga 5-6 gr maydalangan mahsulot solinadi va yana 0,01 gr aniqlikda tortiladi, so‘ngra qapqog‘ini ochib quritish shkafiga 100-105ºC da to‘rt soat davomida quritiladi.Qaytadan quritish 2 soat davomida olib boriladi.

Hisoblash quyidagi formula asosida olib boriladi:

$$C = q_3-q_1 \ / \ q_2-q_1*100\ \%$$

bu yerda: q_1 — byuksni tayokcha bilan boshlang‘ich og‘irlig, gr q_2- idishni quruq mahsulot bilan og‘irligi, gr q_3- idishni xo‘l mxsulot bilan og‘irligi, gr

Butun quritish jarayoni 6-8 soat vaqtni talab qiladi. Agar og‘irligi ortib keta boshlasa, keyingi quritishlarni to‘xtatib, oxirgi o‘lchovdagi orirlikni o‘zgarmas og‘irlik deb qabul qilinadi.

Quritish yo‘li bilan quruq moddalar miqdorini aniqlash uslubi.

Toza va quruq byuksni yoki fosfor idishga 12 gr qizdirilgan qum solib, shisha tayoqcha bilan o‘zgarmas og‘irlikkacha qizdiriladi, eksikatorda sovitilib, analitik tarozida 0,01 gr aniqlikda tortiladi. Qum bilan quritilgan byuksga analitik tarozida 5-6 gr tekshirish uchun olingan mahsulot tortilib, namunani kum bilan aralashtirib byuks tubiga bir xilda tarqatib qo‘yiladi. Qapqog‘ni byuks yoniga qo‘yiladi, so‘ngra qurituvchi shkafga solib 88-100°S da 4 soat davomida qurutiladi. Byuksni og‘zini qapqoq bilan yopib, eksikatorda 20-30 minut sovutib, 0,01 gr aniqlikda tortiladi va jadvalga yoziladi. Hisoblash ishlarini yuqorida berilgan formulalar asosida olib borildi.

Adabiyotlar

[1]. Жадан В.З. Теплофизические основы хранения сочного растительного сырья на пищевых предприятиях. – М.: Пищевая промышленность, 1976. – 238 с.
[2]. Кришер О. Научные основы техники сушки. – М.: И.Л., 1961. – 539 с.

УЗУМНИ ОДДИЙ АТМОСФЕРАЛИ МУҲИТДА САҚЛАШДА САҚЛАНУВЧАНЛИГИ ВА ТОВАРБОПЛИГИГА ТАЪСИРИ

Н.Ш. Юсупов[1], О.Н. Сулаймонов[2], Х. Холматова[2]

[1]Халқаро қишлоқ хўжалиги институти, [2]Фарғона политехника институти

(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Maqolada Farg‘ona viloyatida yetishtirilgan turli uzum navlarining agrobiologik va texnologik saqlash xususiyatlarining ta’siri o‘rganilgan..

Калит сўзлар: *товарбоп узум миқдори, вазн йўқотиши, сақлаш муддати, сақлаш давомийлиги, компонентлар миқдори, эриган қуруқ модда.*

В статье рассмотрено влияние агробиологических и технологических особенностей хранения различных сортов винограда, выращиваемых в Ферганской области.

Ключевые слова: *количество товарного винограда, потеря массы, срок хранения, продолжительность хранения, количество компонентов, растворенные сухие вещества.*

The article examines the influence of agrobiological and technological features of storage of various grape varieties grown in the Fergana region.

***Key words**: quantity of marketable grapes, weight loss, shelf life, storage duration, number of components, dissolved solids.*

Аҳолини йил давомида хўраки узумга бўлган талабини қондириш ва экспорт салоҳиятини ошириш мақсадида стандартларга мос равишда сақлашни ташкил этиш узум етиштирувчи мамлакатлар учун муҳим аҳамиятга эгадир. Ҳозирги кунда жаҳонда узум етиштириш ҳажми 72,7 млн. тоннани ташкил этмоқда. Жумладан, Туркияда 353,167 минг тонна, АҚШда 332,760 минг тонна, Эронда 122,595 минг тонна, Грецияда 72,861 минг тонна, Чилида 51,128 минг тонна, Жанубий Африкада 37,049 минг тонна етиштирилган. Узум етиштириш бўйича биринчи ўринда дунёнинг ривожлан мамлакатларидан «Испания давлатида 966 минг гектар бўлиб, ҳосилдорлик 56,9 ц/га, иккинчи ўринда Хитой давлатида 855 минг гектар, ҳосилдорлик 154 ц/га, Италияда 782 минг гектар, ялпи ҳосили 102,3 ц/га, кейинги ўринларда Туркия 436 минг гектар, ялпи ҳосил 96,3 ц/га ва АҚШ 408 минг/га, ялпи ҳосил 163,7 ц/га ни ташкил этган» лигини ҳисобга олсак, етиштирилган узумни сақлашда инновацион технологияларни амалиётга жорий этишни тақозо этади. Шу жиҳатдан узумни етиштириш ва уни сақлашда замонавий технологиялардан фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Узумнинг барча навлари учун унинг товарбоплиги, вазн йўқотиши ва сақлаш муддати муҳим кўрсаткичлари ҳисобланади. Узумни сақлашдан кейинги товарбоплиги таҳлили натижалари 1-жадвалда берилган.

1-жадвал.

Узумни совитиш камераларида сақлаш вақтида сақланувчанлиги (2020 – 2021 йй.).

Навлар	Сақлаш давомий-лиги	Сақлаш натижалари, %				
		Товарбоп узум чиқиши	Вазн йўқотилиши	Узум доналари тўкилиши	Чиқинди	Умумий йўқотиш
“Нимранг”	130	88,7	8,7	3,3	8,0	20,0
“ Ризамат”	95	84, 1	9, 1	7,7	8,2	25,0
“Хусайне белый”	140	92, 2	8,4	2,5	5,3	16,2
“Кишмиш Согдиана”	100	86, 1	9,6	5,9	8,0	23,5
“Андижанский чёрный”	95	84,8	9,3	7,1	8,1	24,5
“Победа”	120	89,0	9,1	3,3	7,7	20,1

Узум товарбоплик хусусиятлари таҳлили маълумотларидан кўриниб турганидек, ўрганилган навлар товарбоплиги, вазн йўқотиш даражаси, чиқиндилар чиқиши, буришганлари, шунингдек умумий йўқотишлар миқдори жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади [1,2].

Энг кўп товарбоп маҳсулот қолиши “Хусайне белый” ва “Нимранг” навларида кузатилди ва мос равида 92,2% ва 88,7% кўрсаткичлар қайд этилди. Энг кам кўрсаткич эса “Андижанский чёрный” ва “ Ризамат” навларида бўлиб, мос равишда 84,8% ва 84,1% ни ташкил этди. Бошқа навларда эса қуйидаги кўрсаткичлар қайд этилди: “Победа” навида - 89,0% ва “Кишмиш Согдиана” - 86,1%.



1-расм. Узумни сақлагандан кейин қолган товарбоп узум миқдори, %
(2020 – 2021йй.).

Узумнинг сақлаш давридаги кимёвий таркибидаги ўзгаришлар тўғрисидаги маълумотлар 1-жадвалда келтирилган. 2-жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, ўрганилган навларда эриган қуруқ модда миқдори, қандлиги, титрланадиган кислота ва С витамини миқдори бир-биридан фарқ қилади.

Тажриба давомида бу кўрсаткичларнинг ўзгариб бориши ҳам навига қараб турлича бўлди. Эриган қуруқ модда миқдоридан қаттиқ моддалар масса улушининг энг юқори миқдори “ Ризамат”навида – 18% ва “Победа” навида кузатилди–17,2%. Бу кўрсаткич “Нимранг” навида – 15,6%, “Кишмиш Согдиана” навида –15,6%, “Андижанский чёрный” навида– 16,4% ва “Хусайне белый” навида – 16,0% ни ташкил этди. Эриган қуруқ моддаларнинг асосий қисмини қанд ҳисобланади (2-жадвал).

2-жадвал

Сақлаш даврида кимёвий таркибнинг асосий компонентлари миқдорининг ўзгариши. (2020-2021 йй.).

Навлар	Сақлаш давомий-лиги, кун	Эриган қуруқ моддаларнинг масса улуши,%		Масса улуши				С витамини, мг%	
				Қанд миқдори,г/ 100см^3		Титрланган-даги кислота миқдори,г /дм^3			
		1	2	1	2	1	2	1	2
“Нимранг”	130	16.2	15.6	14.9	13.7	7.8	6.6	5.5	2.73
“ Ризамат”	95	18.0	16.2	16.9	14.9	9.2	8.1	5.9	2.85
“Хусайне белый”	140	16.0	14.9	14.6	13.6	7.7	6.4	5.6	2.85
“Кишмиш Согдиана”	100	15.4	14.0	14.2	12.4	7.2	6.1	5.6	2.82
“Андижанский чёрный”	95	16.4	14.7	15.1	13.3	6.9	6.0	5.7	3.01
“Победа”	120	17.2	15.8	16.0	14.4	6.6	5.8	5.4	3.44

Изоҳ: 1 – сақлашдан олдин; 2 - сақлашдан кейин.

Узум таркибидаги органик кислоталар унинг мазасини шакллантиришга хизмат қилади. Шу сабабли органик кислоталар миқдорини аниқлаш муҳим жараёнлардан бири ҳисобланади.

Узумни сақлаш жараёнида аскорбин кислотаси - С витамини миқдори ҳам сезиларли даражада ўзгармоқда. Сақлаш жараёнида С витамини таркиби кимёвий таркибнинг бошқа таркибий қисмларига нисбатан кучли ўзгарди. Сақлаш пайтида унинг йўқотишлари сақлашдан олдинги миқдорга нисбатан 40-50% ёки ундан кўпини ташкил этди ва қуйидаги навлар бўйича қуйидагича бўлди: Нимранг – 51,4 %, Ризамат – 48,3% дан, Хусайне белый – 49,2%, Кишмиш Согдиана – 49,7%, Андижанский чёрный – 47,2% ва Победа – 36,3%. Узум доналари такрибидаги С витаминининг миқдорининг камайиши унинг сақланувчанликка таъсир кўрсатиши бўйича ҳолат аниқланмади.

Адабиётлар:

[1]. Абдусатторов Б.А., Юсупов Н.Ш. Совиткичли омборларда сақланганда узумнинг “Ризамат” нави кимёвий таркибининг ўзгариши // “Agro ilim” илмий иловаси. – Тошкент, 2021. – №1 (71) сон. – Б. 39-40. (06.00.00, №1).

[2]. Азизов А.Ш., Юсупов Н.Ш., Бозарова Г.Ш. Узумнинг Фарғона вилояти Олтиариқ туманида етиштирилган “Ҳусайни” (келинбармоқ) нави механик, кимёвий ва физиологик жараёнларининг сақлашдан олдинги ва кейинги ўзгаришларни назорат қилиш // “O’zbekiston qishloq xo’jalig jurnali” журналининг “Agro ilm ” илмий иловаси. – Тошкент, 2022. – № 1 (79) сон. – Б. 28-29. (06.00.00, № 1).

AYRIM OZIQ-OVQAT QO‘SHILMALARI VA ULARNING INSON ORGANIZIMIGA XAVFLI TA’SIRI

F.A. Aliyeva

Farg‘ona politexnika instituti,
email: aliyevafarizaxon@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada iste’mol maxsulotlarini ishlab chiqarishda keng foydalanilayotgan oziq-ovqat qo‘shilmalari va ularni inson organizmiga salbiy ta’siri hamda ushbu qo‘shimchalar turkumidagi konservantlar, antioksidantlar va rang beruvchi sintetik qo‘shilmalarning ruxsat etilgan me’yorlariga ahamiyat berish muhimligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *E indeksi, konservantlar, ekstraktlar, emulgator podslastitellar, rang beruvchi sintetik bo‘yoq moddalar, aromatizatorlar, tabiiy konsentratlar, ekstraktlar.*

В данной статье рассмотрены пищевые добавки, широко используемые в производстве потребительских товаров, их негативное воздействие на организм человека, а также важность придания значения допустимым нормам содержания консервантов, антиоксидантов и красящих синтетических добавок в этих добавках.

Ключевые слова: *индекс Е, консерванты, экстракты, эмульгаторы, подсластители, красящие синтетические красители, ароматизаторы, натуральные концентраты, экстракты.*

In this article, food additives widely used in the production of consumer products and their negative effects on the human body, as well as the importance of giving importance to the permissible standards of preservatives, antioxidants and coloring synthetic additives in these additives covered about.

Key words: *E index, preservatives, extracts emulsifier podslastilitels, coloring synthetic dyes, flavorings, natural concentrates, extracts.*

Oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘llash ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida har bir ingrediyent uchun oldiga “E” harfi qo‘yilgan va ramziy ma’noli uch yoki to‘rtta raqamdan iborat quyidagi maxsus belgilar joriy etilgan:

E100-182 – tus beruvchi qo‘shimchalar. Oziq-ovqat rangini ravshanlashtiradi yoki tiklaydi;

E200-299 – konservant *(konservalangan oziq-ovqatni buzilishdan saqlovchi modda)*lar. Mahsulotni mikroblar va zamburug‘lardan himoyalab, saqlanish muddatini uzaytiradi;

E300-399 – oksidlanishga qarshi qo‘shimchalar. Oziq-ovqatni oksidlanishdan asraydi;

E400-499 – turg‘unlashtiruvchi qo‘shimchalar. Mahsulotning me’yoriy zichligini ta’minlaydi, quyuqlashtiruvchi qo‘shimchalar esa ularning qayishqoqligini oshiradi;

E500-599 – emulgator *(emulsiya yuzaga kelishiga ko‘maklashuvchi)*lar. O‘zaro singishmaydigan ikki xil suyuqlikdan, masalan, suv va yog‘dan bir turdagi o‘xshash qorishma hosil qiladi;

E600-699 – ta’m va hidni kuchaytirgichlar;

E700-800 – zaxira indeks *(shartli belgi)*lar;

E900-999 – ko‘pik so‘ndirgichlar. Mahsulotlarda g‘ovaklar paydo bo‘lishi oldini oladi yoki kamaytiradi, ularning tashqi ko‘rinishiga zeb bag‘ishlaydi.

Qiyomli qatlam bilan qoplab jilo beruvchi, nimshirinlashtiruvchi, yumshatuvchi, kislotalik darajasini maromida ushlab turuvchi ziravorlar yuqorida ko‘rsatilgan barcha guruhlarga, shuningdek, yangi E1000 guruhiga kiradi.

E100-199 kodli qizil va sariq tus beruvchi oziq-ovqat qo‘shimchalari, masalan, konfetlar, muzqaymoqlar, qandolatchilik mahsulotlari, ichimliklar tayyorlashda ishlatiladigan tartrazin (E102) ko‘pincha oziq-ovqat allergiyasini qo‘zg‘aydi. Zaharlovchi ta’sirga ega E127 kodli ziravor esa qalqonsimon bezlar kasalligini sun’iy ravishda yuzaga keltiradi.

Hammaga ma’lum konservantlar sirasiga kiruvchi nitritlar (E250) va natriy nitritlari (E251) turli allergiya va yallig‘lanishlarga bog‘liq ta’sirchanlik uyg‘onishiga, bosh og‘rig‘i, jigar sanchishi, serjahllik va madorsizlikka sababchi bo‘ladi. Uzoq muddat saqlanadigan kolbasalar, go‘sht mahsulotlari va konservalar ishlab chiqarishda foydalaniladigan E231 va E232 kodli qo‘shimchalar terining ofatidir. Go‘sht va qandolatchilik mahsulotlariga solinadigan E126 va E127 indeksli rang beruvchi va konservant qo‘shimchalar esa organizmning kasal yuqmaydigan, uncha-muncha zahar ta’sir qilmaydigan tizimini izdan chiqaradi. Oqibatda ichaklar tabiiy mikroflorasiga putur yetadi, moddalar almashinuvi buzilib, jigar holdan toyadi. Pirovardida onkologik va yurak-tomir xastaliklari paydo bo‘lishi kuzatiladi.

E300-399 kodli antioksidantlar yog‘li va moyli emulsiyalardagi oksidlanish jarayonini susaytiradi. Natijada yog‘lar taxirlashmaydi va vaqt o‘tishi bilan rangini o‘zgartirmaydi. Biroq E311 kodli qo‘shimcha allergiya va astma xurujiga turtki berishi mumkin. Bu dardni tarkibiga yog‘li mahsulotlar va chaynaladigan rezinalar kiradigan E320 va E321 kodli qo‘shimchalar ham sun’iy tarzda qo‘zg‘atishi ehtimoldan xoli emas. Yog‘lar organizmdagi suvni saqlab turadi va xolestrin miqdorini ko‘paytiradi.

E400-499 kodli quyuqlashtiruvchi va turg‘unlashtiruvchi oziq-ovqat qo‘shimchalari asosan kam yog‘li – mayonezli hamda yogurtli yeguliklarga aralashtiriladi va ko‘zni chalg‘ituvchi, hazm tizimi kasalliklariga sababchi bo‘ladigan “sifatli taom” hozirlanadi.

E500-599 kodli emulgatorlar jigar va oshqozon kushandasiga aylanadi**.** Bu jihatdan, ayniqsa, E510 va E527 kodli emulgatorlar o‘ta xavflidir.

E600-699 kodli ta’m kuchaytiruvchi ziravorlar go‘sht, qo‘ziqorin va dengiz mahsulotlarini tejashga xizmat qiladi. Eski va past navli go‘shtdan pishirilgan ovqatga tabiiy masalliqning maydalagan paylari yoki uning ekstrakti (*organik to‘qimalardan kimyoviy yo‘l bilan olingan modda)* hamda qo‘shimchalardan istagancha solib, ta’m kuchaytiriladi. So‘ngra obdon niqoblanadi. Ta’m kuchaytirgichlar deyarli barcha baliq va tovuq go‘shti, qo‘ziqorin, soya o‘simligi yarimfabrikatlarida, chipslar, qoq nonlar, qaylalar, turli-tuman quritilgan ziravorlar, sho‘rvabop vositalar va quruq sho‘rvalar tarkibida bor. Ba’zi mamlakatlardagi tez ovqatlanish shoxobchalarida jamiki yeguliklar ular asosida tayyorlanadi. Ana shu jarayonda belgilangan me’yorlardan chetga chiqish hollari ham tez-tez ro‘y berib turadi. Holbuki, taomni “sifatli” ko‘rinishga keltiruvchi qo‘shimchalar miqdorining keskin oshirilishi hazm tizimi kasalliklariga “doyalik” qilishi tayin.

Biz E harfi bo‘lgan ingredientlarga ishonchsizlik bilan munosabatda bo‘lishga odatlanganmiz. Va bu ko‘pincha behuda: ulardan ba'zilari nafaqat zararsiz, balki foydalidir. Ammo ekspertlar boshqalarning xavfini kam baholaganga o‘xshaydi. Masalan, amerikalik olimlar aniqladilarki, mutlaqo zararsiz deb hisoblangan E319 (tert-butilgidrokinon) oziq-ovqat qo‘shimchasi zararli bo‘lib chiqdi. Bu inson immunitetini pasaytiradi. Agar inson ushbu qo‘shimchani o‘z ichiga olgan ovqatlarni muntazam iste'mol qilsa, kasallikka chidamliligi keskin pasayadi, tuzalishi qiyinlashadi va asoratlar ehtimoli oshadi. Tadqiqotchilar laboratoriya kemiruvchilariga tajriba o‘tkazdilar. Hayvonlarga oziq –ovqat qo‘shilmalaridan E216 ozuqa sifatida berildi, Jarayon davomida immunitet tizimining sezilarli zaiflashuvi aniqlandi. Kemiruvchilarning tanasi hatto eng oddiy viruslar bilan ham kurasha olmadi. Mutaxassislar mahsulotlarni tanlashda imkon qadar mas'uliyatli bo‘lishni, ularning tarkibini diqqat bilan o‘rganishni tavsiya qiladi. Endi bu qo‘shimchani har qanday joyda topish mumkin: o‘simlik yog‘ida, muzlatilgan qulay ovqatlarda, krakerlarda, yong‘oqlarda va chiplarda. Hamma ishlab chiqaruvchilar ham vijdonan maxsulot yorlig‘idagi oziq-ovqat qo‘shimchalarini ochiq ko‘rsatmaydi. Ko‘pincha mahsulot tarkibida konservantlar, oziq -ovqat ranglari va ta'm stabilizatorlari borligi yoziladi. Bu umumiy so‘zlar oshqozon uchun xavfli birikmalarni yashirishi mumkin

Xulosa qilib aytganda, uzoq vaqt davomida oziq-ovqat qo‘shimchalarisiz deyarli hech qanday ishlab chiqarish yo‘q. Xuddi shu ta'mlar hatto biz tabiiy deb hisoblagan mahsulotlarda ham mavjud - masalan, sharbatda. "Masalan, pastırma bilan chiplar - bu erda haqiqiy bekon haqida gapirish mumkin emasligi aniq. Bularning hammasi ta'mni kuchaytiruvchi va xushbo‘y moddalardir. Ushbu qo‘shilmalardan foydalanishda me’yorlarga etibor berish hamda iste’mol maxsulotlarini xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

[1]. 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 – sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni

[2]. СанПиН № 0366-19. Санитарные правила, нормы и гигиенические нормативы. Гигиенические нормативы безопасности, Издание официальное. Ташкент – 2019. https://ssv.uz/ru/documentation/gigienicheskie-normativy-bezopasnosti-pischevoj-produktsii.

[3]. Анализ пищевых продуктов : [учеб. пособие] / н. в. лакиза, л. к. неудачина ; М-во образования и науки рос. Федерации, урал., федер. ун-т. — екатеринбург : изд-во урал. ун-та, 2015. — 188 с..

[4]. Обзор синтетических пищевых красителей. https://www.giord.ru/articles/obzor_sinteticheskikh_pishchevykh_krasiteley/.

[5]. Гигиенические требования по применению пищевых Добавок: Санитарно-эпиде миологические правила и нормативы. — М.: Федеральной центр .- 417 с. https://files.stroyinf.ru/Data2/1/4293834/4293834154.pdf.

UDK: 633.34/577.112

STORAGE OF FRUITS AND VEGETABLES IN SEASONAL AND PERMANENT WAREHOUSES

D.T. Yigitaliyev

Farg'ona politexnika instituti
yigitaliyevdilmurod22@g.mail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Various methods are used to store fruits, vegetables and dairy products. In particular, storing products in trenches and heaps in field conditions is considered an ancient method. This method is widely used in farms, households, as well as in preparation offices that do not have enough storage space for storing root vegetables.

Keywords. *Fruits, vegetables, fruits, products, storage, storage, refrigerator, permanent storage, storage capacity, potatoes, onions, shelf life.*

Meva, sabzavot va poliz mahsulotlarini saqlashda turli usullar qo'llaniladi. Jumladan, mahsulotlarni dala sharoitida xandaq va uyumlarda saqlash qadimiy usullardan hisoblanadi. Bu usul xo'jaliklarda, xonadonlarda shuningdek, ombor yetishmagan tayyorlov idoralarida ildiz mevalilarni saqlashda keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar. *Meva, sabzavot, poliz, mahsulot, saqlash, ombor, sovutgich, doimiy ombor, ombor sig'imi, kartoshka, piyoz, saqlash muddati.*

Для хранения фруктов, овощей и молочных продуктов используются различные методы. В частности, древним методом считается хранение продуктов в траншеях и кучах в полевых условиях. Этот метод широко применяется в фермерских хозяйствах, домашних хозяйствах, а также в подготовительных отделениях, не имеющих достаточного количества складских помещений для хранения корнеплодов.

Ключевые слова. *Фрукты, овощи, фрукты, продукты, хранение, хранение, холодильник, постоянное хранение, емкость для хранения, картофель, лук, срок годности.*

Introduction. Permanent fruit and vegetable warehouses are different depending on storage conditions. They differ in size, storage mode, ventilation systems, mechanization of work and product placement methods. Warehouses are divided into the following depending on storage conditions, including the level of equipment:

1. Simple warehouses with natural ventilation.
2. Warehouses that are actively ventilated by means of a powerful fan.
3. Refrigerators (warehouses with artificial cooling).
4. Air atmosphere controlled coolers.

Storage of products for different purposes, the material and technical capabilities of farms, as well as the choice of a method that is suitable for different conditions depends on its economic and technological indicators.

From a technological point of view, it is important to have a deep understanding of how to follow a storage regime under moderate conditions and the possibilities of extending the shelf life with less waste. Such information is reflected in warehouse documents and consists of approximate calculations, which often do not correspond to practice. To further define a storage method, research is first conducted and storage methods are tested. Only after the basic technological characteristics of this storage method have been developed, it is possible to draw a conclusion about its suitability for the intended task. For example, if you plan to store potatoes or onions until May-June, you should build a refrigerator. Therefore, if the storage period is set until January, then a warehouse with natural ventilation or cooling using outside air with the help of a fan is enough.[1]

Methods. In the development of vegetable and fruit storage technology, the main attention is paid to the creation of warehouses equipped with a storage system and mechanized means under moderate conditions. Then the construction of warehouses, capital funds spent on their equipment, can be quickly recouped due to the reduction of labor costs and losses. In agricultural enterprises,

methods of product storage in field conditions are widely used. In recent years, many modern fruit and vegetable warehouses and refrigerators have been built.[2]

Permanent warehouses. Warehouses intended for vegetables and fruits are fundamentally different from each other, they are planned depending on what kind of product is intended for storage, its size, structural features, system of regulating storage conditions, placement methods, mechanization of loading and unloading operations and economical indicators are given importance. [3]

Design and planning features. There will be warehouses for storing potatoes, root vegetables, cabbage, onions, grapes and fruit. Usually, different types of products are not stored in the same place, because their storage conditions and placement methods are different. For example, potatoes and root vegetables cannot be stored with cabbage, and grapes with onions and garlic. In universal warehouses designed to store many types of products, mainly packaged products are stored only for a short time. It is taken into account that some types of vegetables cannot be kept together. Sample warehouses are small, medium and large, with a capacity of 5-10 tons to 100-800 tons. A large-scale warehouse is economical, that is, less money is spent per ton of stored products than a small-scale warehouse. For example, if the capacity of the warehouse increases three times, its storage cost per ton of products will decrease by approximately 30%.

The level of vehicular access and deep underground are the most important planning features. It is better if a modern warehouse has a way for vehicles to enter from one side and exit from the other, because then it will be possible to deliver the product directly to the place of storage. When determining the depth of the basement warehouse, first of all, the depth of the seepage water is taken into account (it should be at least 2 m deep from the bottom of the basement). If the basement warehouse is deep, the storage temperature and relative humidity will be stable. But in the construction of deep warehouses, it is necessary to carry out large-scale excavation works.

Conclusion: Currently, reliable heat-insulating materials have been created. The walls and roofs of the above-ground warehouses can be well protected from heat and cold without being too thick. Some warehouses have two floors, the lower floor of which is the basement, and the second is the upper floor. They have all the conveniences of underground and surface warehouses.

A warehouse for fruit storage is often built on the ground, because a bright building or a sheltered porch is built next to it to carry out the work of bringing products to a marketable state. Therefore, if the building is deepened, it becomes difficult to build such utility rooms. Onion storage is also placed on the ground, because it is not difficult to create low air humidity in such buildings.

References

[1]. M.K. Abduraximov O‘simlikshunoslik. Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. Samarqand 2021 y.
[2]. Наумова Т.В. Растениеводствою. Уссурийск: ПГСХА, 2018. Режим доступа: www.elib.primacad.ru
[3]. Shaumarov X.B. Islamov S.YA. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi”, O‘quv qo’llanma - Toshkent, 2020.

CHIGITLI PAXTA XOM ASHYOSINI QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

D.U. Turg‘unov, M26-22 *a* guruh magistranti B.Q. Qobilov

Farg‘ona palitexnika instituti, bahodirjonqobilov96@gmail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Maqola paxtani o‘z vaqtida qabul qilish, to‘g’ri jamlash, markazlashtirilgan holda quritish va tozalash, lozim bo‘lgan holda saqlashni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan chora tadbirlar haqida.

Kalit so‘zlar: *Zonalar, namlik, konditsion vazn, klassikatorlar, ayvonlar, g‘aram maydonlari, namuna, nuqtali namuna, birlashgan namuna, o‘rtacha kunlik namuna, ifloslanganlik.*

В статье говорится о мерах, принимаемых для обеспечения своевременного поступления хлопка, правильного сбора, централизованной сушки и очистки, правильного хранения.

Ключевые слова: *Зоны, влажность, условная масса, классификаторы, навесы, зерновые площади, проба, точечная проба, групповая проба, среднесуточная проба, засоренность.*

The article is about the measures taken to ensure timely receipt of cotton, proper collection, centralized drying and cleaning, and proper storage.

Key words: *Зоны, влажность, условная масса, классификаторы, навесы, зерновые площади, проба, точечная проба, групповая проба, среднесуточная проба, засоренность.*

KIRISH

Ma’lumki, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yilning muayyan mavsumida yetishtiriladi, shu sababli ularni uzoq vaqt saqlash va qayta ishlashni tashkil qilmagan holda aholini yil bo‘yi turli mahsulotlar bilan ta’minlash masalasini hal qilib bo‘lmaydi. qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish ko‘paygan sari ularni saqlash va qayta ishlash ham takomillashtirilib borilmoqda, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanib, mahsulotni iste’molchilarga sifatli yetkazib berishning eng so‘nggi usullaridan keng foydalanilmoqda.[5] Respublikada paxtachilik - xalq xo‘jaligining eng yirik tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodida, xalqning moddiy farovonligini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Respublika iste'mol fondining katta qismi paxtachilik xom ashyosidan ishlab chiqariladigan sanoat mollaridan tashkil topadi. Sanoat va oziq-ovqat mollarini ishlab chiqarishda chigitli paxta eng kerakli xom ashyo turlaridan biri hisoblanadi. U o‘zining ahamiyati jihatidan davlat iqtisodiyotida g‘alla, oltin, neft va boshqa mahsulotlar uchun g‘oyat muhim xom ashyo turlari bilan bir qatorda turadi.

Paxtani qabul qilishga tayyorlash va qabul qilish, jamlash

Paxtani o‘z vaqtida qabul qilish, to‘g’ri jamlash, markazlashtirilgan holda quritish va tozalash, lozim bo‘lgan holda saqlashni ta’minlash bo‘yicha paxta tozalash zavodi va tayyorlov punktining zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- xo‘jaliklar bilan paxta sotish uchun kontraktsiya shartnomalari tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- xo‘jaliklarda paxtani yuqori sifatli qilib mashinada va qo‘lda terishni tashkil qilish va ta’minlash hamda uni navlarga to‘g’ri ajratish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
- xo‘jaliklarni amaldagi respublika standartlari, paxta xarid narxlarining preyskurantlari va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlash;
- ko‘rinarli joyda respublika standartlarining asosiy qoidalarini, paxtaning xarid narxlarini, xavfsizlik texnikasidagi yong’indan saqlanish texnikasi bo‘yicha ogohlantiruvchi yozuvlarni ilib qo‘yishi;
- paxtani qabul qilish, g’aramlash, tashish va saqlashda mexanizmlardan to‘liq foydalanish;
- Transport, omborlar, maydonchalar, tarozi xo‘jaligi, brezentlar, laboratoriya uskunalari, asboblar, o‘rash va boshqa materiallardan oqilona va tejamli foydalanish;
- paxtani respublika standartlariga rioya qilgan holda o‘z vaqtida beto‘xtov qabul qilib olish;
- qabul qilingan paxtani selektsion va sanoat navlari, sinflari bo‘yicha bir xil to‘dalarga jamlab, urug’lik chigitni reproduktsiyalar (avlodlar) va dala guruhlari bo‘yicha alohida to‘dalarga ajratish;
- quritish-tozalash tsexining unumli ishlashini ta’minlash;
- qat’iy buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish;
- xo‘jaliklar bilan qabul qilingan paxta uchun o‘z vaqtida va to‘g’ri hisob-kitob qilish, tayyorlangan butun paxtani to‘g’ri saqlash va uni tayyorlov punktidan dastlabki ishlab chiqarish uchun zarur miqdor va assortimentda paxta zavodiga o‘z vaqtida tashishni tashkil qilish;
- saqlash-quritish, tozalash va tashishda paxta sifatining buzilishi va nobudgarchiligining oldini oluvchi tadbirlar qo‘llash;
- Tayyorlov punktida paxtani qabul qilish, saqlash, tozalash va uni paxta zavodiga tashish bilan bog’liq bo‘lgan xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- Tayyorlov ishining hamma bosqichlarida maxsus yo‘riqnomalarga muvofiq yong’inga qarshi tadbirlar o‘tkazish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etish;

- qabul qilingan va saqlanayotgan paxtani, albatta, tortib hisoblash va uni tayyorlov punktidan jo‘natishda va paxta zavodida qabul qilishda sifatini to‘g’ri aniqlash.

Tayyorlov punktlarining raxbariyati xo‘jalik xodimlarini amaldagi qonunchilikka asoslangan respublika standartlari, standart namunalari va paxtaga haq to‘lash tartibi bilan tanishtirishi shart. Shu maqsadda terim boshlanishidan kamida 10 kun avval xo‘jaliklarda fermerlar, mexanizatorlar va topshiruvchilar ishtirokida paxtani sifatli terish hamda uni tayyorlov punktiga topshirish bo‘yicha kengash (seminar) o‘tkazilishi kerak [7]. Paxta topshiruvchilardan qabul qilganda uning sifati faqat tayyorlov punktining laboratoriyasi tomonidan aniqlanadi. Agar paxta namunalarini tanlash va sifatini tahlil qilish shu tayyorlov punktining laboratoriyalari tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, ular haqiqiy emas deb xisoblanadi. Paxtaning konditsion vazni katta klassifikatorga boysinmaydigan laboratoriya belgilaydigan namligi va iflosligi kursatkichlariga bog‘liqligini hisobga olib, katta klassifikator paxtani laboratoriya tahlilidan o‘tkazishda ishtirok etishi mumkin. Agar olingan laboratoriya natijalaridan rozi bo‘linmasa, katta klassifikator paxtaning sifatini takror tahlil etilishini talab qilishga xaqli. Bu haqda qabul paytida namunalar oluvchi katta klassifikator yoki klassifikator laboratoriya qayd daftariga yozib qo‘yadi. Bunday holda laboratoriya klassifikator ishtirokida qayta tahlil o‘tkazilib, uning natijasi jurnalda «takroriy» deb yoziladi [3]. Agar takroriy tahlil natijasi dastlabki belgilangan chegaralarda bajarilgan bo‘lsa, unda dastlabki aniqlangani to‘g‘ri hisoblanib, katta klassifikator bunga rozi yoki norozi bo‘lishidan qat’i nazar, topshiruvchi bilan hisob-kitob qilish uchun buxgalteriyaga beriladi.

XULOSA

O‘tkazilgan adabiyot taxlillaridan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tayyorlov punkti laboratoriyasi tahlillarining natijalari topshiruvchi hamda paxtani qabul qiluvchi klassifikator uchun majburiy ma’lumot hisoblanadi. Agar topshiruvchi klassifikator tomonidan aniqlangan paxtaning navi, namligi va iflosligiga rozi bo‘lmasa, bahs tayyorlov punktining laboratoriyasi tomonidan xal etiladi, buning uchun ular ishtirokida tayyorlov punkti laboratoriyasining vakili paxta sifatini asboblar bilan sinash uchun o‘rta namuna tanlaydi.

Adabiyotlar

[1]. Sarimsakov O. Sh. The Change in Air Pressure Along the Length of the Pipeline Installation for Pneumatic Conveying of Raw Cotton. Journal Engineering and Technology/ 2016; 3(5): 89-92/http://www.aascit.org/journal/et

[2]. Д.У. Турғунов 1., О.Ш.Саримсаков2, Н.М. Саттаров1. Горизонтал таъминлагичнинг иш унумдорлиги ҳамда пахтанинг сифатига таъсирини ўрганиш // FarPI "Journal of Scientific Technology" STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2021, Т.25, №4. Р.118-122

[3]. Саримсаков, О. Ш., Турдиев, М., Саттаров, Н. М. У., & Турғунов, Д. У. У. (2022). Ленточный питатель для подачи хлопка в пневмотранспорт. *Universum: технические науки*, (9-3 (102)), 11-14.

[4]. Turgunov, D., No'Monova, R., & Toirov, U. (2022). Distribution of cotton mass by air transport pipe length and cross-section. *Science and innovation*, *1*(D8), 280-285.

[5]. Sarimsakov Olimjon, S., Sattarov Nurillo, M. U., & Turgunov Dilmurod, U. U. (2022). Theoretical and Practical Examination of the Process of Transfer of Cotton to the Pipes of the Air-Carrying Device. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, *6*(2), 799-802.

[6]. Umarali o‘g‘li, T. D., Sharipjanovich, S. O., & Mahmudovich, M. B. (2021). Theoretical research of the effect of damage and air transport working parts on cotton raw materials. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, *2*(12), 65-76.

[7]. Ubaydullayev, M. M. (2022). Yangi defoliantlar hosildorlik garovi. Архив научных исследований, 2(1).

[8]. Mo’minjonovich, U. M. (2022). Effectiveness Of Defoliants. Eurasian Research Bulletin, 8, 9-12.

[9]. Mominjonovich, U. M., & Ogli, M. I. V. (2022). Study and analysis of technological processes of cotton drying in a cluster system. International Journal of Advance Scientific Research, 2(11), 6-10.

[10]. Ubaydullaev, M. M., & UT, T. (2022). Determination of appropriate norms and terms of defoliants. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(05), 18-22.

[11]. Ubaydullaev, M. M., & Makhmudova, G. O. (2022). Medium fiber s-8290 and s-6775 cotton agrotechnics of sowing varieties. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 49-54.

[12]. Ubaydullaev, M. M., & Komilov, J. N. (2022). Effect of defoliants for medium fiber cotton. International Journal of Advance Scientific Research, 2(05), 1-5.

[13]. Ubaydullaev, M. M., & Mahmutaliyev, I. V. (2022). Effectiveness of foreign and local defoliants on the opening of cups. International Journal of Advance Scientific Research, 2(05), 6-12.

ТУПРОҚНИНГ СУВ ЎТКАЗУВЧАНЛИГИНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ

А.М. Маруфжонов

Фарғона политехника институти
abduraxmonm1218@gmail.com
(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Тупроқнинг сув ўтказувчанлигини яхшилаш мақсадида сув ресурс тежамкор технологиялардан фойдаланган ҳолда томчилатиб суғориш усулини қўллаш орқали тупроқниннг унумдорлигини ошириш ҳамда тупроқнинг сув ўтказувчанлигини яхшилашга эришиш мумкин. Бундан ташқари ҳосилдорликни 20-30 % гача оширишга эришиш мумкин.

Калит сўзлар: *Тупроқ, сув ўтказувчанлик, суғориш технологияси, сув ресурс тежовчи технологиялар.*

Для улучшения водопроницаемости почвы можно повысить продуктивность почвы и улучшить водопроницаемость почвы, используя метод капельного орошения с использованием водоресурсосберегающих технологий. Кроме того, можно повысить производительность на 20-30%.

Ключевые слова: *Почва, водопроницаемость, технология орошения, технологии водоресурсосбережения.*

In order to improve the water permeability of the soil, it is possible to increase the productivity of the soil and improve the water permeability of the soil by using the drip irrigation method using water resource saving technologies. In addition, it is possible to increase productivity by 20-30%.

Key words: *Soil, water permeability, irrigation technology, water resource saving technologies.*

Тупроқнинг сув ўтказувчанлиги унинг механик таркибига, донадорлигига, зичлигига боғлиқ бўлади. Масалан, тупроқнинг механик таркиби енгил (қум, енгил, ўртача қумоқли), яхши донадор тупроқ ҳажм оғирлиги оз даражада бўлса тупроқ яхши сув ўтказади ва аксинча. Тупроқнинг сув ўтказувчанлиги маълум вақт ичида тупроқ орқали ўтган маълум сув билан аниқланади.

Тажриба даласи тупроғининг сув ўтказувчанлик хусусиятини аниқлаш учун бахорда уч нуқтада квадрат ромб усулида 6 соат давомида 25х25 см рамкага мензурка орқали ўлчаб сув қуйиб, сув сарфини аниқлаш орқали ўрганилди.

Тупроқнинг сув ўтказувчанлигини 1-жадвалда келтирилган. Олинган маълумотларга кўра тупроқнинг сув ўтказувчанлиги дастлабки биринчи соатда ўртача 238.1 мм/соат бўлса, бу кўрсаткич кейинг 6 соат давомида камайиб борди ва энг оз сув ўтказувчанлик 6-соатда бўлиб, 45.2 мм/соат бўлганлиги кузатилди. Умуман, жами 6 соатда тупроқнинг сув ўтказувчанлиги 625.3 мм/соатни ташкил қилиб, А.С.Астапов жадвалига мувофиқ тажриба даласи ўртача сув ўтказувчанлигига эга [1]

1-жадвал

Тажриба даласи тупроғининг сув ўтказувчанлиги, мм/соат.

Вариант	Соатлар						6 соатда	Ўртача бир соатда
	1	2	3	4	5	6		
1	238.1	120.1	91.4	61.1	53.0	45.2	608.8	101.5
2	251.3	116.5	96.2	72.0	65.3	42.8	644.1	107.3
3	265.4	113.5	89.6	65.4	50.5	38.3	622.6	103.8
Ўртача	251.6	116.7	92.2	66.2	56.3	42.1	625.3	104.2

Тупроқнинг чекланган дала нам сиғими (ЧДНС).

Тупроқнинг нам сиғими турли тупроқларда турлича бўлади. Тупроқ нам сиғими унинг механик таркибига, донадорлик холатига қараб хар хил бўлиши мумкин.

С.Н.Рижов (1948) маълумотларига кўра, механик таркиби оғир, лой ерлар тупроғининг дала нам сиғими юқори (27-28%) ва аксинча енгил қумлоқ, қум тупроқларда кам (22-23%) бўлади.

Тажриба даласи тупроғининг чекланган дала нам сиғимини аниқлаш учун А.С.Астапов кўрсатмасига мувофиқ даланинг ўртача ҳолатига тўғри келадиган еридан 3х3 метр кенгликда 25-30 см баландликда марза олиниб, сув тўлдирилди. Марзадаги сув сўрилиб кетгандан сўнг, унинг усти махсус плёнка билан ёпилиб, 3 кундан сўнг унинг намлиги аниқланди. [2]

Тажриба даласи тупроғининг чекланган дала нам сиғими 5-жадвалда келтирилган. Олинган маълумотларга кўра дала тупроғининг чекланган дала нам сиғими ўртача 0-50 см қатламда 24,3% ни, 0-70 см қатламда 24,7% ни ва 0-100 см қатламда 25,4% ни ташкил этди.

Суғоришдан олдинги тупроқ намлиги, суғориш меъёрлари ва муддатлари.

Тажриба даласидаги ғўза навларига амал суви бериш тупроқнинг суғоришдан олдинги намлигига қараб берилди. Ушбу тупроқ намлиги 5-жадвалда келтирилган.

Суғориш тартиби чекланган дала нам сиғимига нисбатан 60-70-60% бўлганда амалга оширилди. Бунда биринчи сувда тупроқнинг 0-50 см қатламидаги намлик ўртача 14,0% ни (тупроқ массасига нисбатан) ташкил этиб, бу ЧДНС га нисбатан 58,8% ни ташкил этди. Иккинчи сувда тупроқнинг 0-70 см қатламидаги намлик 17,1% ни ташкил этиб, ЧДНС га нисбатан 68,4% ни кўрсатди. Учинчи сувда тупроқнинг 0-100 см қатламидаги намлик 14,7% ни ташкил қилиб, ЧДНС га нисбатан 59,2% ни ташкил қилди.

Ғўза навларининг суғориш муддатлари 21-июнда, 10-июлда ва 24-август кунларида амалга оширилди. Биринчи сувда гектарига 1082,1 м^3, иккинчи суғоришда 1254,2 м^3 ва учинчи суғоришда 1074,4 м^3 сув сарф қилинди. Ғўза амал даври давомида жами 3410,7 м^3 сув сарфланди. [3]

Адабиётлар

[1]. Р.Мусаев. Фарғона вилоятининг ўтлоқи-соз, оғир қумоқ тупроқлари шароитида “Фарғона-3” ва “СоюзНИХИ-11” ғўза навларининг кўчат қалинлиги ва минерал ўғитлар меъёрини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1992, 1993 йиллар.

[2]. М.Хожиматов. Фарғона вилоятининг ўтлоқи соз, оғир қумоқ тупроқлари шароитида “Фарғона-3” ва С-6532 ғўза навларининг кўчат қалинлиги, озиқа ва тартибларини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1996-1998 йиллар.

[3]. Х.Юсупжонов, В.Исақов Фарғона вилоятининг ўтлоқи соз, оғир қумоқли тупроқлари шароитида С-6524 ғўза навининг кўчат қалинлигини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1989, 1990 йиллар.

[4]. Х.Юсупжонов. Ўтлоқи соз, оғир қумоқли тупроқ шароитида Тошкент-6 ғўза навининг агроехникасини ўрганиш. Илмий хисобот 1980-1983 йиллар.

[5]. Ш.Нурматов. “Юлдуз” ва “Гулсара” ғўза навларининг хосилдорлигига қўлланилган омилларнинг таъсири. 2003 йил. Мақолалар тўпланиши.

PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA CHANG HAVODAN IFLOSLIKLARNI USHLAB QOLISH QURILMASINI NAZARIY TAXLILI

D.U. Turg‘unov, M26-22a guruh magistranti A.B. Egamberdiyev

Farg‘ona palitexnika instituti, azizjonegamberdiyev3979#@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Quydagi maqolada paxta tozalash zavodlarida xamda yengil sanoat korxonalarida chang havodan ifloslikla rni ushlab qolish qurilmasini jadallashtirish asosida kichik gidravlik qarshilikka ega bo‘lgan chang tutqichni yaratish va chang tozalashni maqbul sxemasini amalyotga joriy etish asosiy ilmiy texnik masalasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *paxta, siklon, qurilma, havo, tola, sanoat, pnevmotransport,jin.*

Основной научно-технический вопрос создания пылеуловителя с малым гидравлическим сопротивлением и реализации оптимальной схемы пылеочистки на основе ускорения устройства для

улавливания пыли из воздуха на хлопкоочистительных предприятиях и предприятиях легкой промышленности исследуется в следующем. статья.

Ключевые слова: *хлопок, циклон, аппарат, воздух, волокно, промышленность, пневмотранспорт, жин.*

The main scientific and technical issue of creating a dust collector with small hydraulic resistance and implementing an optimal scheme of dust cleaning based on the acceleration of the device for capturing dust from the air in cotton gins and light industrial enterprises is studied in the following article.

Key words: *cotton, cyclone, device, air, fiber, industry, pneumatic transport, gin.*

KIRISH

Respublikamiz paxta tozalash zavodlarida xamda yengil sanoat korxonalarida asosan havoni bir pog'anali tozalash usuli qo'llaniladi. Bunda chang tutqich jixozlar sifatida turli konstruktsiyali siklonlar qo'llaniladi, ularni havoni tozalash samaradorligipast bo'lib zamonaviy ekologik talablarga to'liq javob beraolmaydi. Siklonlar yordamida havoni tozalash darajasi 54.5/86.6 oralig'ida.Bundan tashqari turli komponovkali ikki pog'anali qurilmalar sxemasi taklif etilgan.Lekin 2000Pa kuchli gidravlik qarshilikni qo‘llash pievmotransport tizimini faoliyat radiusini kamaytiradi, bu qo‘shimcha ko‘chma pievmotransport qurilmalarini qo‘llashga sabab bo‘ladi, bu esa energiya resurslarni o‘z navbatida ortiqcha sarf bo‘lishiga olib keladi.(3) Va yana bir chang o‘chog‘ini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ikki pog‘anali qurilmalarni komponovkalarini turli variantlari amaliyotda qo‘llanilishi shuni ko‘rsatadiki, ularni ikkinchi pog‘anasida VZP turidagi havo tozalagich yoki kichik diametrli siklon qurilmasi o‘rnatilganida sezilarli darajada sotsial iqtisodiy tomondan yuqori foyda bo‘ladi.Shuning uchun havo tozalagichni ikkinchi pog‘anasini ishlash samaradorligigaerishish uchun yetarli qulay sharoit bo‘lishi kerak. Yuqoridagilarga asosan kam energiya sarfiga ega bo'lgan chang cho'ktiruvchi kameralarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ammo paxta tozalash korxonalarida ular yordamida havoni tozalash darajasi tolali changni zichligini past bo'lganligi sababli bir muncha past (50%).

Chigitli paxtani qayta ishlash texnologik protsessida asosiy mahsulotlardan tashqari ko'p miqdorda tolali chiqindilar ham olinadi. Jin va linterlarning ish protsessida ajratib olingan o'luklar, siklon va chang kameralaridan olingan momiq,tola tozalagichlar va arrali barabanli tozalagichlardan olingan chiqindalar tolali chiqindalarni tashkil etadi. Tola tarkibidagi chiqindilarni qayta ishlash natijasida ajralib chiqgan tolalar to‘qimachilik sanoatida xamda xo‘jalikning boshqa tarmoqlarida xom ashyo sifatida xizmat qiladi.(3)Yuqorida aytganimizdek “tozalash zavodlarining tolali chiqindilari” GOST 6015-72 ga muvofiq sifatida qarab uch turga: tolali o'luk, regeneratsiyalangan (qaytadan ajratilagan) paxta tolasi, paxtamomig'iga bo'linadi.

Jin, tola tozalagich, birinchi linter batariyasigacha o'rnatilgan chigit tozalagich, regeneratorlardan (1 va 2 sort chigitli paxta tozalanganda) chiqqan va iflosliklardan tozalangan tolali chiqindalar tolali o'luk deb ataladi. Uning tarkibi har xil bo'lib, o'smay qolgan kasal chigitlar (o'luk), ularga ilashgan tola, erkin (ilashmagan) tolalar tolali chiqindilar va har xil xas-cho'plar organik va meniral qo‘shilmalar bo'ladi.

Jin kolosniklari orasidagi oraliq belgilangan o'lchamda bo'lib, o'luk koziryogi kerakli holatda rostlanib turilsa, jindan ajraladigan o'luklarning miqdori ishlanayotgan paxtaning sortiga bog'liq bo'ladi. 1va 2 sort chigitli paxta ishlanayotganda paxta og'irligiga nisbatan 0,2...0,3% 3 va 4 sort chigitli paxta ishlanayotganda esa 0,5...0,6 va ayrim hollarda 1,5% o'luk ajraladi.Jin kolosniklari o'rtasidagi oraliq belgilangan o'lchamdan kengroq bo'lgan taqdirda, chiqindilarga yirik chigitlar ham aralashishi mumkin. Chigitli paxta sortiga, tolalik darajasiga, iflosligiga, namligiga va rangiga qarab tolali o'luk ikki tipga bo'linib keltirilgan talablarga muvofiq bo'lishi shart.Yuqoridagilarga asosan tolali zarrachalarni cho'kish jarayonini jadallashtirish asosida kichik gidravlik qarshilikka ega bo'lgan chang tutqichni yaratish va chang tozalashni maqbul sxemasini amalyotga joriy etish asosiy ilmiy texnik masaladir. Ushbu apparat quyidagi qulayliklarga ega:

1. Apparatda xarakatlanuvchi qismlarning yo‘qligi;
2. Ichki qism maxsus qoplama bilan himoyalangan holda abraziv xususiyatlichang zarralarini tozalash mumkinligi;
3. Qurilma yuqori 500 °C haroratgacha ham ishlashi mumkin;

4. Qurilma doim bir xil gidravlik qarshilikka ega;
5. Changni quruq holda tozalash mumkin;
6. Chang xavoni yuqori bosimda ham tozalash imkoniyati bor;
7. Qurilmani tayyorlashda sodda konstruksiyadan foydalanilgan;

Turli fraksiyadagi changlarini tozalash mumkin.Kamchiligi:

1. Chang zarrasining razmeri 5 mkm dan kichik bo‘lganda tozalashni olibborishning qiyinligi;
2. Yuqori gidravlik qarshilik ko‘rsata olish qobilyatiga ega ekanligi: 1250-1500 Pa;
3. Yopishqoq hususiyatli changlarni tozalash imkoniyati yo‘q.

Siklonlarning asosiy konstruksiyalari quyida keltirilgan: siklonlar qo‘llanish usuliga qarab. Ular spiralsimon tangensial vintsimon va o‘qqa yo‘nalgan ko‘rinishdagi siklonlarga ajratiladi.Ularning ichida o‘qqa yo‘nalgan ko‘rinishda havoni berish rejimida ishlovchi siklonlaming tozalash samarasi past ammo gidravlik qarshilik ko‘rsatish qobilyati kam. Sanoatda keng qo‘laniladigan siklonlar turkumiga spiralsimon ko'rinishdagi siklonlar kiradi. Ammo amalyotda siklonlarning barchasiniham bir xil darajada ishlatilishi mumkin.

Siklonlarni ishlash prinsipi quyidagi chizmada keltirilgan. (5.4-rasm)

5.4-rasm. Siklonda havo harakati:



1 -chang havo kiruvchi trubka;
2 - chiqaruvchi trubka;
3 -silindrik kamera;
4 - konussimon kamera;
5 - chang tindirish kamerasi.

Chang havo siklonning ichida aylanma harakat qilib, yuqoridanpastga qarab harakatlanadi. Bunda chang havo tarkibidagi chang zarralari markazdan qochma kuch ta’siri tufayli chetga qarab otiladi va siklon devoriga urilib siklonning konus qismidan og‘irlik kuchi ta’sirida pastga qarab harakat qiladi.Siklonning chang zarralarini ushlab qolish samarasi havo bosimining tezligiga to‘g‘ri proporsional, diametriga esa teskari proporsionaldir. Siklonni ishlash jarayonni yuqori tezlikda hamda uncha kattabo‘lmagan diametrda olib borish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Biroq tezlik oshirib borishi tozalash jarayonida mayda zarralami atmosferaga chiqib ketishiga sabab bo‘ladi.Shuning uchun,tozalash samarasini oshirish uchun apparat diametrini qisqartirish yaxshisamara beradi. Siklonning balandligi va diametrini xaqiyqiy nisbati

H/Dts = 2 - 3 ga teng.

Yengil sanoatda siklonni yuqori samarali va yuqori unumli turlariga ajratish qabul qilingan. Birinchi tipdagi siklonlarning ishlashi samarali, lekin jarayonni amalga oshirish katta xarajatlarnii talab etadi.Ikkinchi tipdagi siklonlarning gidravlikqarshilik ko‘rsatishi kamroq ammo tozalash jarayonida mayda zarralar yaxshi ushlab qolaolmaydi.(1) Amalyotda konussimon (konus qismi uzunroq) va silindrik (silindr

qismi uzunroq) siklonlaridan keng foydalaniladi. Siklonlarni konussimonlari yuqori samarali silindrik siklonlar esa yuqori unumli hisoblanadi. Silindrik siklonlarni diametri 2000mm, konussimon siklonlarni diametri 3000mm dan o‘tmaydi.

Havo tozalash qurilmasi paxta tozalash korxonalaridagi paxtani quritish - tozalash bo‘linmalaridan hamda havo quvurlari yordami bilan paxta va paxta mahsulotlarini uzatish qurilmalaridan chiqayotgan ifloslangan havo tarkibidagi yirik changlarni ushlab qolishga va tashqariga chiqarib berishga mo‘ljallangan. Qurilmaning korpusi qalinligi 1,5 - 2,0 mm bo‘lgan temir tunukadan silindrsimon shaklda tayyorlangan bo‘lib, unda changli havo uchun kirish qismi (1) va chiqish qismi (3) teshiklari

xamda ushlangan yirik changlarni tashqariga chiqib ketish qismi (4) teshiklari mavjud.

Qurilma ikki seksiyaga bo‘lingan bo‘lib, har biri 6 m^3/s havo sarfiga mo‘ljallangandir.
Havo tozalash qurilmasida texnologik mashinalardan chiqayotgan changli iflos havodan yirik chang zarrachalarini ajratib olish jarayoni quyidagicha kechadi.
Changlangan havo qurilmaning kirish quvurchasidan silindr-simon shakldagi moslamaga tushadi va aylanma harakat oladi. Markazdan qochirma kuch chang zarrachalarini moslamaning ichki devoriga qisadi, yirik chang havo yordamida aylanma harakat qilib korpus tirqishining kesim yuzasiga kelganda, havodan ajralib tirqishga yondoshgan teshikdan tashqariga vakuum-klapan orqali chiqib ketadi. Havo oqimi mayda changlar bilan moslamadan teshik orqali chang ushlagichga yo‘naltiriladi.
Qurilmaning asosiy iqtisodiy samaradorligi elektr quvvatini 20% ga tejash va metallni 50% ga kamaytirilishi hisobidan kelib chiqadi. Changli havodan yirik chang zarrachalarini ajratib olish va tutib olish qurilmasining samaradorligi - 90% gacha, gidravlik qarshiligi -450 Pa bo‘ladi. Havo tozalash qurilmasi ikki pog‘onali chang tutgich tizimlarida birinchi bosqich vazifasini o‘taydi, ikkinchi bosqichda esa yuqori samaradorlik bilan ishlaydigan chang tutqich ishlatiladi. Natijada chang tutqichlarning chang tutish samaradorligi 1,5 - 2,0 % gacha oshadi.



2-Rasm. Tarkibida yirik changlarni ushlab qoluvchi-tushiruvchisi bo‘lgan havo tozalash qurilmasi. chang havo uchun kirish qismi; 2- silindrik qism; 3- chang havo uchun chiqish qismi; 4- iflos changlarni chiqarish qismi; 5- vakuum-klapan.

Qurilmaga berilishi mumkin bo‘lgan chang havoning miqdori soatiga 18 m^3 gachadir. Natijada qurilmaga ventilyatorning harakat doirasidagi hamma texnologik mashinalardan chiqayotgan chang havolarni berish mumkin bo‘ladi.
Asosiy ko‘rsatkichlari:

- havo bo‘yicha ish unumi - 18 m^3/s gacha;
- tozalash unumdorligi - 98 % va undan yuqori;
-gidravlik qarshiligi - 1730 Pa gacha.

XULOSA

O‘tkazilgan adabiyot taxlillaridan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak paxta tozalash zavodlarida xamda yengil sanoat korxonalarida chang havodan iflosliklarni ushlab qolish qurilmasini jadallashtirish asosida kichik gidravlik qarshilikka ega bo‘lgan chang tutqichni yaratish va chang tozalashni maqbul sxemasini amalyotga joriy etish asosiy ilmiy texnik masalasini o‘rgandim va taxlil qildim.

Adabiyotlar

[1]. Саноат чикиндиларини тозалаш технологияси асослари. Мусаев М (2011). 2.Texnologik jarayonlarni loyihalash. Babadjanov.M.A
[2]. Usmonov, J. M., Shakirov, S. M., Ubaydullayev, M. M., & Parmonov, S. O. (2021). Aluminum-based composition materials for processing aluminum scrap. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 590-595.
[3]. Убайдуллаев, М. М., Шакиров, Ш. М., Усмонов, Ж. С., & Пармонов, С. Т. (2021). Электр двигателларда қўлланиладиган углеграфитли материалларни ишлаб чиқариш технологиясини тахлил қилиш. Композицион материаллар", Тошкент ш, 103-107.
[4]. Кодиров, З. З., Ирискулов, Ф. С., Пулатов, А., & Убайдуллаев, М. (2018). Electronic libraries as a fact of contemporary information landscape. Экономика и социум, (3), 629-633.
[5]. Бекмирзаев, Ш., Саидмахамадов, Н., & Убайдуллаев, М. (2016). Получения Литье В Песчано-Глинистые

Методом. Теория и практика современной науки, (6-1), 112-115.
[6]. Пармонов, С. Т., Шакиров, Ш. М., Шарипов, К. А., Убайдуллаев, М. М., & Усмонов, Ж. М. Қаттиқ қотишма кукунларини преслаш жараёнига пластификаторлар ва уларнинг миқдорларининг таъсири. in конференция-симпозиум (p. 156)

ЎСИМЛИКЛАР ЎСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИДА СУҒОРИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИ

А.М. Маруфжонов

Фарғона политехника институти
abduraxmonm1218@gmail.com
(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Сув ўсимликлар ва тупроқ ҳаётида жуда ўрин тутади, унинг ёрдамида тупроқдаги моддаларнинг ҳаракати ва ўзгариши таъминланади. Сув ўсимликка пастки - илдиз ва юқори – барг қисмидан киради. Сув ўсимликнинг ўтказувчи тизими орқали озуқа моддалари ва минераллар оқимини таъминлайди.

Калит сўзлар: *Сув, ўсимлик, тупроқ, илдиз, барг, озуқа елементлари.*

Вода играет очень важную роль в жизни растений и почвы, с помощью которой обеспечивается движение и преобразование веществ в почве. Вода поступает в растение из нижней части корня и верхней части листа. Вода обеспечивает поток питательных веществ и минералов через транспирационную систему растения.

Ключевые слова: *Почва, водопроницаемость, технология орошения, технологии водоресур сосбережения.*

Water plays a very important role in the life of plants and soil, with the help of which the movement and transformation of substances in the soil is ensured. Water enters the plant from the lower part of the root and the upper part of the leaf. Water allows the flow of nutrients and minerals through the plant's transpiration system.

Key words: *Water, plant, soil, root, leaf, food elements.*

Сувнинг ўсимликлар ўсиши ва ривожланишида тутган ўрни

Сув ўсимликлар ва тупроқ ҳаётида жуда муҳимдир, унинг ёрдамида тупроқдаги моддаларнинг ҳаракати ва ўзгариши таъминланади. Ўсимликдаги ҳар қандай кимёвий ўзаро таъсирлар, жараёнлар фақат сув муҳитида пайдо бўлади. Сув ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланишида бевосита иштирок этади. Уларнинг ўсиш механизми охир-оқибат сувнинг сингиши билан боғлиқ. Бу ўсимликнинг экилишидан бошлаб уруғларнинг етилишигача бўлган даврда ўсимлик ҳужайраларида тургорни сақлаб туриши, тупроқдан ўсимликка озуқа моддаларини етказиб бериш, транспирация, тупроқ ва ўсимлик ҳароратини тартибга солиш, ферментлар фаоллиги ва бошқалар учун зарурдир. Ўсимликнинг баъзи қисмлари 80 дан 90% гача ёки ундан кўп сувни ўз ичига олади.[1]

Сув ўсимликка пастки - илдиз ва юқори – барг қисмидан киради. Ўсимликка сув киришида илдиз механизмининг ҳаракатлантирувчи кучи ички (илдиздаги) ва ташқи (тупроқ) эритмасининг осмотик босими ўртасидаги фарқга тенг. Бу механизм фақат тирик протоплазмага хосдир. Бунда осмотик босим 1-2 атмосферагача етади.

Барг транспирация жараёнлари билан боғлиқ ва 5-10 атмосферага қадар босимни ҳосил қилиши мумкин. Буғланувчи ҳужайралар баргнинг паренхимаси бўлиб, поянинг ўтказувчи томирларидан сув сўради, унинг охири пояда бўлади.

Ўсимликнинг сувга бўлган талаби жуд юқори. Қуруқ модданинг бир бирлигини яратиш учун улар юзлаб ва ҳатто мингдан ортиқ бирлик сув сарфлайдилар.

Ўсимлик буғланишга катта миқдорда сув сарфлайди, чунки у углерод билан озиқланишга бўлган эҳтиёжларини қондиришга мажбур бўлади (қуруқ модда умумий массасининг 45%). Ўсимликлар углеродни ҳаводан олади ва бу элемент ҳавода карбонат ангидрид шаклида фақат 0,03% ни ташкил қилади. Шунинг учун ўсимлик катта барг

майдонини ривожлантириши керак. Ҳаводан углероднинг ютилиши фақат ёруғлик иштирокида содир бўлиши мумкинлиги сабабли, у ўзининг яшил юзасини иложи борича қуёш энергиясини ўзлаштирадиган тарзда жойлаштиради.[2]

Ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжи транспирация коэффициенти, яъни маълум бир вақт ичида ўсимлик қуруқ массасининг бир бирлигини ҳосил қилиш учун сарфлаган сув бирликлари сони билан тавсифланади.

Турли ўсимликлар транспирация коэффициентларининг қийматлари бир-биридан сезиларли даражада фарқ қилади. Яъни, ғалла экинлари учун 450, ем-хашак ўтлари (кўп йиллик) учун – 700, Ўрта Осиё шароитида техник экинлар учун ўртача 600 – 800. Ғўза вегетация даврида 6000 – 8000 $м^3$/га сув сарфлайди. ҳар бир ўсимликнинг транспирация коэффициенти уларнинг ҳаёт шароитларига қараб кескин ўзгаради. Яхши ёруғлик, ҳавонинг нисбий намлиги юқори бўлса, намлик миқдори юқори бўлган йилларда ва озуқа моддаларининг яхши таъминланиши билан унинг қиймати пасаяди. Транспирация коэффициенти қийматларида қуйидаги қийматлар қайд этилган: буғдой учун: 473 - 559; маккажўхори: 315 - 717; беда: 651 - 963, пахта учун юқоридаги каби 600 - 800.[3]

Транспирация коэффициенти ўсимликларнинг қурғоқчиликка чидамлилиги кўрсаткичи бўла олмайди. Бундай ҳолда, ўсимлик илдиз тизими-нинг тупроққа кириш қалинлиги ва унинг чуқурлиги катта аҳамиятга эга.

Айнан шу ўсимликнинг намликка бўлган эҳтиёжи унинг ривожланиш фазаларига қараб ўзгаради. Ўсимлик ҳаётининг даврлари ёки уларнинг ўсимликларнинг сув таъминотига айниқса сезгир бўлган фазалари одатда критик даврлар деб аталади. Мисол учун, кузги буғдой учун критик давр трубкага чиқиш, бошоқлаш; маккажўхори - гуллаш, сут пишиш; дуккаклилар ва гречка - гуллаш; картошка - гуллаш ва дуккаклар шаклланиши ва бошқалар.[4]

Қишлоқ хўжалигида ўсимликлар ва тупроқнинг сув режимини тартибга солиш учун турли хил тадбирлар қўлланилади. Улар пассив ёки фаол бўлиши мумкин ва улар икки йўналишда амалга оширилади: 1) мелиорация ёрдамида тупроқдан ортиқча намликни олиб чиқиш ва 2) тупроқ намлигини максимал даражада тўплаш, авайлаб сақлаш ва ундан оқилона фойдаланиш.

Юқорида таъкидланганидек, сув ўсимликлар массасининг 95% ни ташкил қилади, барча ҳаётий жараёнлар ундан фойдаланиш орқали содир бўлади. Шунинг учун сув организмнинг ҳаёти учун зарурий шартдир. Сув етишмаслиги билан ўсимликнинг метаболизми бузилади.

1. Сув ўсимликнинг ўтказувчи тизими орқали озуқа моддалари ва минераллар оқимини таъминлайди.

2. Уруғларнинг униб чиқиши сувнинг мавжудлигига боғлиқ.

3. Сув фотосинтез жараёнида иштирок этади.

4. Ҳужайралар ва ҳужайраларо бўшлиқларни тўлдирадиган сувли эритмалар ўсимликни эластиклик билан таъминлайди, шунинг учун ўсимлик шаклини сақлаб қолади.

Кечаси ўсимлик намлик етишмовчилигини тўлдиради, чунки куннинг бу вақтида буғланиш камаяди.[5]

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳужайралар ва тўқималар сув билан етарли даражада тўйинмаган ҳолда ўсимликлар меъёрий ҳаёт фаолиятини кечира олмайди. Х.Х.Енилеевнинг фикрича, ўсимликка кирган сув кўпгина ҳаётий жараёнларга сарфланади. Бу сувнинг бир қисми ҳужайранинг тирик протоплазмасини озиқлантиради, бунинг натижасида ундаги ҳаёт жараёнларининг фаоллиги кучаяди, иккинчи қисми фотосинтез жараёнида мураккаб органик моддаларни ҳосил қилиш учун ишлатилади.

Адабиётлар

[1]. Р.Мусаев. Фарғона вилоятининг ўтлоқи-соз, оғир қумоқ тупроқлари шароитида “Фарғона-3” ва “СоюзНИХИ-11” ғўза навларининг кўчат қалинлиги ва минерал ўғитлар меъёрини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1992, 1993 йиллар.

[2]. М.Хожиматов. Фарғона вилоятининг ўтлоқи соз, оғир қумоқ тупроқлари шароитида “Фарғона-3” ва С-6532 ғўза навларининг кўчат қалинлиги, озиқа ва тартибларини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1996-1998 йиллар.
[3]. Х.Юсупжонов, В.Исақов Фарғона вилоятининг ўтлоқи соз, оғир қумоқли тупроқлари шароитида С-6524 ғўза навининг кўчат қалинлигини ўрганиш. Илмий хисоботлар 1989, 1990 йиллар.
[4]. Х.Юсупжонов. Ўтлоқи соз, оғир қумоқли тупроқ шароитида Тошкент-6 ғўза навининг агроехникасини ўрганиш. Илмий хисобот 1980-1983 йиллар.
[5]. Ш.Нурматов. “Юлдуз” ва “Гулсара” ғўза навларининг хосилдорлигига қўлланилган омилларнинг таъсири. 2003 йил. Мақолалар тўпланиши.

UDK: 633.34/577.112

CABBAGE CONTROLLED GAS ENVIRONMENT

D.T. Yigitaliyev

Farg‘ona politexnika instituti
yigitaliyevdilmurod22@g.mail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

In the process of storing vegetables, it is important to know their physical properties and to use these properties on a scientific basis. The physical properties of vegetables are of great importance in their collection, transportation and storage. The physical properties of vegetables are their evaporation and sweating. thermal properties, mechanical hardness, flowability. varieties by themselves include separation, porosity, etc. In the process of storage, products evaporate a lot of water, sweat, and as a result, wither. The amount of evaporation depends on the product type, variety, morphological structure and its chemical composition.

Keywords. *Fruits, vegetables, polys, products, storage, storage, refrigerator, permanent storage, storage capacity, cabbage, storage period.*

Sabzavotlarni saqlash jarayonida ularning fizik xossalarini bilish, saqlashda bu xossalardan ilmiy asosda foydalanish muhim xisoblanadi. Sabzavotlarning fizik xossalari ularni yig‘ib-terib olishda, tashishda hamda saqlashda katta ahamiyatga ega.Sabzavotlarning fizik xossalariga ularning suv bug‘latishi, terlashi. issiqlik xossalari, mexanik pishiqligi, to‘kiluvchanligi. o‘z-o‘zidan sortlarga ajralishi, g‘ovakliligi va boshqalar kiradi.Saqlash jarayonida mahsulotlar suvni ko‘p miqdorda bug‘latadi, terlaydi va natijada so‘lib qoladi. Bug‘lanish miqdori mahsulot turi, navi, morfologik tuzilishi hamda uning kimyoviy tarkibiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar. *Meva, sabzavot, poliz, mahsulot, saqlash, ombor, sovutgich, doimiy ombor, ombor sig‘imi, karam, saqlash muddati.*

В процессе хранения овощей важно знать их физические свойства и использовать эти свойства на научной основе. Большое значение при их сборе, транспортировке и хранении имеют физические свойства овощей.Физическими свойствами овощей являются их испаряемость и потоотделение. термические свойства, механическая твердость, сыпучесть. Сами по себе сорта включают расслоение, пористость и т. д. В процессе хранения продукты испаряют много воды, пота и, как следствие, вянут. Количество испарений зависит от вида, сорта, морфологического строения и химического состава продукта.

Ключевые слова. *Фрукты, овощи, полисы, продукты, хранение, хранение, холодильник, постоянное хранение, емкость для хранения, капуста, срок хранения.*

Introduction. At present, the method of keeping fruits and vegetables by controlling the gas environment is also widely used. The gas environment management method is divided into two main groups according to the composition of the gas:

- storage in normal gas environment (OGM) - in air environment:
- storage in a modified gas environment (MGM) - in an environment whose composition differs from that of air.

Storehouses that are not hermetically sealed can be used for storing products in a normal gas environment. In this case, the air is exchanged both naturally (naturally) and artificially (with the help of a fan). During storage in this way, the rapid change of air increases the physiological

activity of the products and quickly attracts various microorganisms. Therefore, the product cannot be stored for a long time in this way. The essence of modified gas storage is that the air atmosphere is modified and controlled. In general, the gas content inside the cells of fruits and vegetables is much higher in CO2 relative to O2 than in the surrounding air.[1]

Methods. The idea of storing agricultural products in a modified gas environment appeared 150 years ago. In 1821, the Frenchman Berard showed that the ripening of fruits in an oxygen-free atmosphere slowed down compared to normal conditions.

The method of storing fruits and vegetables in a modified gas environment is widely used in England, France, Holland, Australia, Italy, USA, Germany and other countries. In our country, the storage of products in this way is not widely implemented. [2]

Table 1

Modes of storage of fruits and vegetables in refrigerating chambers with a modified gas environment (MGM)

Product type	Temperature °C	Relative air humidity %	Gas environment	
			CO_2	O_2
Cabbage	0-+1	90-92	4-5	3-5
Carrot	+1	95 gacha	3-5	2-3

Storage of fruits and vegetables in a modified gas environment is classified according to the type of use, management method and methods of creating the environment.

According to the type of use, MGM is divided into the following groups:

- storage in the normal MGM method (in which the sum of the concentration of O2 and CO2 is equal to that of ordinary air, the amount of nitrogen does not change);

- storage in the subnormal MGM method (the sum of O2 and CO2 concentration is lower than that of normal air, nitrogen content is higher).

Subnormal MGM is three-component, that is, O2+CO2+N2, and two-component O2+N2 (the amount of CO2 is minimized with the help of technical weapons).

MGM can be managed or unmanaged. In the first case, the gas environment does not change during storage, that is, it is controlled. In the second case, MGM is variable.

MGM is produced by burning oxygen (in which CO2 is partially or completely absorbed) and chemical absorption of oxygen by sending it from special chambers with defined air composition. In addition, MGM is also formed during physiological respiration during hermetic storage of fruits and vegetables.

Currently, the active components of the gas environment are used in different proportions.

For normal MGM: O2 – 16%, CO2 – 5%, N2– 79% and O2 – 12%, CO2 – 9%, N2– 79%.

In this case, the amount of CO2 should not exceed 10%, otherwise physiological diseases may appear.

For subnormal MGM: O2 - 3%, CO2 - 5%, N2 - 92% and O2 - 3%, CO2 - 3-4%, N - 93-94%. [3]

The cessation of fruit ripening in a subnormal gas environment is explained by a decrease in the amount of oxygen and an increase in carbon dioxide.

According to L. V. Metlitsky, it is not desirable to decrease the amount of oxygen below 2%, because anaerobic respiration will increase. Cooling is used to extend the shelf life of products under MGM conditions. In MGM conditions, the air temperature can be from -10 C to -100 C. Storage in a controlled atmosphere is carried out only in hermetic containers or warehouses. The degree of sealing depends on the composition of the required atmospheric gas environment. If the atmosphere contains less oxygen, the temperature is lower, and the compartments are less full of fruits, the sealing should be stronger.

MGM units are smaller than ordinary refrigerators and must be equipped with special devices that control and manage the atmospheric gas environment. The capacity of the compartment is 200-

250 tons, and its height should not exceed 5-6 m. The doors of the compartment are hermetically sealed and have a hole to enter. Hermetic windows are placed to control the hole.

Refrigerators in MGM compartments do not differ from ordinary refrigerators. In order to keep air temperature and humidity stable, the temperature difference between the gas mixture in the compartment and the source of cooling in cold air should not exceed 6-8°C during the cooling period of fruits and 3-40°C during the storage period. The temperature, humidity and composition of the atmosphere in the compartments are regularly determined. A thermometer and a psychrometer installed in the compartments are used for this. The composition of the atmosphere is determined using automatic gas analyzers or chemical gas analyzers of GXM-3M, GXP-100 brands. Special attention is paid to the hermeticity of MGM compartments.

The gas exchange between the gas in the compartments and the external environment should not exceed 0.05-0.07 volumes per day for a normal gas mixture, and 0.02-0.03 volumes for a subnormal gas mixture. After completion of the compartments, their hermeticity is checked. With good sealing, the pressure in the compartment drops from 25 mmHg to 0 in 30 minutes. It is considered satisfactory if the pressure drops to 10 mm from 25 mm Hg within 10 minutes. The pressure in the compartment is measured with a manometer. To check the hermeticity of the compartments, the compartment is filled with CO2 gas (up to 10% concentration) and the concentration of CO2 mixed with a gas fan is determined for the first time, then the gas environment is measured for 3-4 days.

Fruits and vegetables are stored in MGM compartments for 7-8 months or more. The mode of storage of fruits and vegetables in controlled atmosphere depends on their variety, type and shelf life. To enter the compartment, a special anti-gas mask is worn in compliance with the technical safety rules. When the product is stored at MGM, it is stored in the compartments before sale in a normal atmosphere for 7-8 days at a temperature of 2-3oC. This increases the taste and aroma of the products. If the products are ripe, they are sent for sale quickly.

In addition to the controlled compartments in the gas environment, the method of keeping the gas environment is also widely used in the film beds that are placed on various packages and solid tares. Polyethylene bags, polyethylene-coated containers and boxes, polymer-coated (membrane) containers are used for this. The essence of this technology is that during the respiration of products, the concentration of carbon dioxide gas increases and the amount of oxygen decreases inside polyethylene films, the content of gases is controlled by means of membranes. A gas environment combined with artificial cold helps to preserve products for a long time without spoiling, their marketability and nutritional qualities.

References

[1]. O‘G, Yigitaliyev Dilmurod To‘lqin, and Elmurodova Sevinchxon Paxlavonjon Qizi. "O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda soya yetishtirish usullari." *Science and innovation* 2.Special Issue 6 (2023): 145-148.

[2]. Ogli, Yigitaliev Dilmurod Tolqin, and Maxsudova Gulsanam Umidjon Qizi. "Growth, development and yield of soya varieties in medium salty soils." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.5 (2022): 1337-1340.

[3]. Yusupaliyevich I. B. et al. Growth, Development and Productivity of Shade Varieties in Medium Salt Soils //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 6. – С. 85-88.

JIN USKUNASINING ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH

A. Raximjonov

Farg‘ona politexnika instituti , raximjonovazizbek15@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

PTKdagi o‘rta tolali chigitli paxtani chigitidan tolasini ajratish jarayoni arrali jin mashinasi yordamida amalga oshiriladi. Jin mashinasni arrali silindrini kalosnikdan chiqib turish

masofasini o‘zgartirgan holda jin mashinasini ish unumdorligini oshirish.

Kalit so‘zlar: *Jin, arrali slindr, kalosnik, tola, masofa*

Процесс отделения средневолокнистого семенного хлопка от семян на хлопкоочистительных заводах осуществляется с помощью джин-машины. Увеличение производительности пильного станка за счет изменения расстояния цилиндра пилы от пилорамы

Ключевые слова: *джин, пильный цилиндр, калосник, волокно, расстояние.*

The process of separating medium-fiber seed cotton from seeds at cotton gin plants is carried out using a gin machine. Increasing the productivity of a sawing machine by changing the distance of the saw cylinder from the sawmill

Key words: *dgin, saw cylinder, grid, fiber, distance.*

Chigitli paxtani dastlabki ishlashda asosiy bo‘g‘in bo‘lib chigitli paxtani jinlash, ya’ni chigitdan tolasini ajratish jarayoni hisoblanadi. O‘rta tolali chigitli paxtani jinlash arrali jinlarda amalga oshiriladi.

Hozirda mamlakatimizdagi arrali jinli paxta tozalash korxonalarida UMPD kamerali 3XDDM, DP-130, 4DP-130, 5DP-130 va DPZ-180 turidagi arrali jinlar ishlatilmoqda. Bu uskunalar bir biridan konstruktiv jihatdan unchalik farq qilmaydi. Bular asosan KRD turidagi ishchi kamerasi bilan jihozlangan.

CHigitli paxta quritish va tozalash bo‘limlarida konditsion namlikkacha quritilib, xas-cho‘plardan tozalangandan keyin korxonaning bosh binosiga jinlash uchun yuboriladi. Jinlash paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonining asosiy operatsiyasi hisoblanib, bunda paxta tolasi chigitidan ajratiladi.

Chigitli paxta korxonaning tozalash bo‘limida tozalanib, bosh ishlab chiqarish binosiga pnevmouzatish quvuri orqili separator bilan tortilib, taqsimlovchi shnekka tushadi. Taqsimlovchi shnek chigitli paxtani ta’minlagich ustiga o‘rnatilgan shaxtaga tashlab, undan so‘ng ta’minlagich uskunasiga beriladi.

Jin ustiga o‘rnatilgan ta’minlagichning asosiy vazifasi tolasini ajratishga berilayotgan chigitli paxtani jinning ishchi kamerasiga yaxshi titilgan xolda, bir tekisda uzatib berishdan iborat.

PD rusumli jin ta’minlagich ishlash jarayoni quyidagicha: chigitli paxta ta’minlagich ustiga o‘rntilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan ta’minlash valiklari chigitli paxtani shaxta dan bir tekisda olib qoziqchali barabanga uzatadi, bu baraban paxtani titkilab to‘rli yuza ustidan sudrab o‘tib chigitli paxtani mayda xas-cho‘plardan oxirgi marta tozalaydi. Tozalangan chigitli paxta qoziqchali baraban yordamida novga uzatiladi va jinning ishchi kamerasiga tushadi. Ajralgan ifloslik esa tasmali transportyor yordamida uskunadan olib ketiladi.

Arrali jinlash texnologik jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: Paxta tozalash korxonasining bosh ishlab chiqarish binosiga keltirilgan chigitli paxta separator va taqsimlovchi konveyer yordamida har bir jin ustiga o‘rnatilgan ta’minlagich shaxtasiga, so‘ngra jinning ish kamerasiga bir tekis kelib tushadi.



Ishchi kamerani tuzulishi.
1. Chigit tarog’i; 2.Arrali slindr o‘qi; 3.Qistirma; 4.Arrali disk; 5.Kolosnik; 6.Xomashyo valigi; 7.Ishchi kamera.

Ishchi kameraga paxta tushib, chigit tarog‘i yonida aylanayotgan arra tishlari bilan ilib olinib arra AB yoyi bo‘ylab kolosnikning ish qismiga olib boriladi. Arra tishlari bilan ilib olingan paxta bo‘lakchalari boshqa paxta bo‘lakchalari bilan bog‘liq bo‘lgani sababli ular arraning aylanishi bo‘yicha xarakatga keladi. Natijada, ishchi kamerasidagi xom ashyo massasi arraning chiziqli tezligi yo‘nalishida (bir tomonga) aylana boshlaydi. SHunday qilib, aylanuvchi xom ashyo massasi xom ashyo valigi xosil bo‘ladi. Xom ashyo valigi esa ish kamerasi ichida aylanish natijasida arra tishlarini doimo yangi paxta bilan ta’minlab turadi, ya’ni jinlash jarayoninng uzluksiz davom etishini

ta’minlaydi.

Arra tishiga ilashgan tola tutamlari kolosnik orqasiga olib o‘tilishi natijasida chigitdan ajraydi. Kolosnikning ishchi qismidagi tirqishi 2,8÷3,2 mm chigitning ko‘ngdalang o‘lchamidan kam bo‘lgani uchun chigit o‘ta olmasdan toladan ajrashga majbur bo‘ladi va kolosnikning yuzasi bo‘ylab sirg‘alib tepaga ko‘tariladi. Agarda chigit yuzasidan tola to‘liq olinmagan bo‘lsa, tolali chigit yana arra tishiga kelib yuqoridagi jarayon qaytariladi, to‘liq tolasi olib bo‘linmaguncha chigit bir necha marta xom ashyo valigida aylanadi. Yuzasidagi tolasi to‘liq olingan chigitlar xom ashyo valigi bilan muloqoti yo‘qolib jin ishchi kamerasidan sirg‘alib tushib ketadi. Uning tukdorligi esa, chigit tarog‘i orqali sozlab turiladi.

Arrali slindrni arra tishlari sinsa ta’mirlash bo‘limida yangidan tish ochiladi. Jin mashinasi uchun 2 marta yoki ko‘pi bilan 3 marta qaytadan tish ochiladi. Undan keyin bu arralar linter mashinasiga beriladi. Buning sababi arra tishlar kolosnikadan chiqib turish masofasi qisqaradi, Hom ashyo valigining aylanish tezligi kamayadi, bu o‘z navbatida ish unumdorligi kamayishiga olib keladi. Demak arra tishlari qancha ko‘p kolosnikdan chiqib tursa shuncha ish unumdorligi oshadi.



1-rasm. A birinchi holat . B ikkinchi holat.

Taklif qilinayotgan arrali slindrning kolosnikdan chiqib turish masofasini 15mm ga oshirish. Buning uchun arrali slindr valini xomashyo valigi tomonga siljitishimiz kerak. Bizga malumki, arrali slindrning kolosnikdan chiqib turish masofasi 47-52mm ni tashkil qiladi. Shu masofada arrali diskning x ta tishi ishchi kamerada xomashyo bilan uchrashadi. Biz shu masofani 60-65mm ga o‘zgartirsak **ishchi kameradagi tishlar soni ma’lum miqdorga ortadi. Buning natijasida jinning** ish unumdorligi oshadi.

S_1 =47-52 mm S_2=60-65mm

Tishlar sonini aniqlashimiz uchun bizga aylananing yoy uzunligining ushbu fo‘rmulasi kerak.

$$x = \frac{2\pi r\alpha}{360^\circ}$$

$$x = \frac{2 \cdot 3.14 \cdot 160 \cdot 115^\circ}{360^\circ} = 321$$

$$x' = \frac{2 \cdot 3.14 \cdot 160 \cdot 130^\circ}{360^\circ} = 362$$

$$\frac{x}{t} = \frac{x}{3.5} = \frac{321}{3.5} = 91 = z$$

$$\frac{x'}{t} = \frac{x'}{3{,}5} = \frac{362}{3{,}5} = 103 = z'$$

Bu yerda z_1 kalosnikdan chiqib turgan tishlar soninig dastlabki holatdagi soni. Z_2 esa keying holatdagi soni.

$$Z_2=103-91=14$$

Jin mashinasining ish unumdorligi 2000 kgni tashkil qiladi. Bundan bitta arrali diskni bir soatda necha kg tola ajratishini topamiz. n

$$n = \frac{2000}{130} = 15{,}4$$

Arrali diskning 280 ta tishlari bor. Arra tishlarining biriga ilingan tola o‘zidan keying 3ta tishni yopadi, shuning uchun har to‘rttadan bitta arra tishi tolani iladi xolos. Jin arralarida 280 ta tish bo‘lsada, asosiy faol ishlovchi arra tishlari soni 70 ta

$$b = \frac{280}{4} = 70$$

Asosiy faol tishlarning bittasi bir soatda 0,2 kg tola ajratadi.

$$m = \frac{15,4}{70} = 0,2$$

Biz hosil qilgan qo‘shimcha tishlar 14 tani tashkil qiladi. Ulardan 3 tasi asosiy tishlar qatoriga kiradi.

$$3 \times 0,2 = 0,6$$

3 ta tish bir soatda 1,8 kg tolani chigitdan ajratadi.

$$1,8 \times 130 = 234$$

Bitta jin mashina qo‘shimcha 234 kg tolani chigitdan ajratadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda ishchi kameradagi xomashyo valigini aylanishi arra disklarini kolosnikdan chiqib turish masofasiga bog‘liq. Demak masofani orttirish hisobiga arradan foydalanish samaradorligini orttirildi.

Adabiyotlar

[1]. Tillaev M. T Babadjanov M. A, “Paxtani dastlabki ishash texnologiasi va jixozlari”. Ma’ruza kursi. TTYeSI. Toshkent. 2009.

[2]. A. Rakhimjonov. The dependence of yarn density on spinning systems and quality indicators. International scientific research journal.

[3]. Azizbek Rakhimjonov. Promoting The Development Of Improved Cleaning Technology. Eurasian Journal of Engineering and Technology 17, 44-47.

[4]. Alisher Salimov , Shohida Khusanova , Otabek Salimov , Qosimjon Toshtemirov , Nosirjon Yakubov & Azizbek Rakhimjanov. Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. JOURNAL OF OPTOELECTRONICS LASER. 612-618.

Internet saytlar.

[1]. Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton

[2]. A Salimov, S Khusanova, O Salimov, Q Toshtemirov, N Yakubov, Journal of Optoelectronics Laser 41 (7), 612-618

[3]. The dependence of yarn density on spinning systems and quality indicators

[4]. A Rakhimjonov

[5]. Promoting The Development Of Improved Cleaning Technology

[6]. A Rakhimjonov, U Bakhtiyorova. Eurasian Journal of Engineering and Technology 17, 44-47

UDK 667.21.021.152.

PAXTA MAYDONLARINI TERIMGA TAYYORLASH, CHIGITLI PAXTANI TERISH TEXNOLOGIYASI

M.A. Mirzaikromov

Farg‘ona politexnika instituti, mirzaboburmirzaikromov77@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Chigitli paxtani qo‘lda va mashinada terish usullari mavjud. Qo‘l terimida yaxshi ochilgan chanoqlardan chigitli paxtani barmoqlar orqali shox shabbasiz, barglarsiz ajratib olinadi. Bunda chanoqlarda paxta bo‘lakchalari qolib ketmasligi va pishmagan yaxshi ochilmagan chanoqlardan paxtani olmaslik kerak bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *Chigitli paxta, ko‘sak, g‘o‘za, chanoq, defoliant, shpindel, Keys, o‘rta tolali paxta, ingichka tolali paxta, agrotexnika.*

Существуют способы ручной и машинной уборки хлопка-сырца. Из хорошо раскрытых коробочек пальцами без разветвлений и листьев удаляют семенную хлопчатнику. При этом необходимо не оставлять в стручках кусочки ваты и не брать вату из незрелых, не вскрывшихся должным образом стручков.

Ключевые слова: *Хлопок-семя, коробочка, хлопок, чанок, дефолиант, веретено, Ключи, средневолокнистый хлопок, тонковолокнистый хлопок, агротехника.*

Chigitli paxtaning yetilganligi g‘o‘zaning naviga, ekish muddatiga, metriologik sharoitlarga va agrotexnika darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘saklar avgust oyining o‘rtalaridan boshlab ochila boshlaydi, sentyabr oyining o‘rtalariga kelib ular yoppasiga ochiladi, qolgan ko‘saklar oktyabr oyining oxirigacha asta sekin ochilib boradi, noyabr oyining o‘rtalaridan boshlab g‘o‘za rivojlanishdan batamom to‘xtaydi.

G‘o‘zaning pastki shoxlaridagi ko‘saklar chanoqlar barvaqt ochila boshlaydi, ular yuqori shoxdagilarga nisbatan og‘irroq, tolasi esa pishiqroq bo‘ladi.

Paxtani terish (muddati 1,5-2 oy, ba’zan o‘ndan ko‘proqgacha cho‘ziladi). Paxtaning ketma-ket ochilishi chigitli paxtani 3-4 terimda uzluksiz yig‘ishtirilib olishga imkon beradi. [1].

Maydonlarni terimga tayyorlashdagi muhim tadbirlardan biri defoliatsiyani o‘z vaqtida o‘tkazish hisoblanadi. (g‘o‘za barglarini sun’iy to‘kish). Shundagina chanoqlar tezroq ochiladi va terim sonlarini ko‘payishiga imkon yaratadi.

Ushbu tadbir tufayli quyosh nurlari g‘o‘zaning pastki qismiga ham yetib boradi, ko‘saklarning chirishini oldi olinadi, terim mashinalarini ishi yengillashadi va eng muhimi chigitli tolaning ifloslanishi kamayadi.

Defoliantlar ekologik nuqtai nazardan zararli kimyoviy moddalar bo‘lganligi tufayli, ularni samoletlarda sepish o‘rniga traktorlarda sepish yo‘lga qo‘yildi. Bu tadbirning eklogik muxit muvozanatiga baribir ta’siri katta bo‘lganligi tufayli xozir biologik usulda barglarni to‘kish ustida katta tadbirlar olib borilmoqda. Bundan tashqari paxtaning tez yetiladigan navlarini ustida ishlayotgan olimlar tomonidan bargini yalpi to‘kadigan navlarni yetishtirish ustida keng ko‘lamli ilmiy tajribalar o‘tkazilmoqda. [2].

Chigitli paxtani qo‘lda va mashinada terish usullari mavjud. Qo‘l terimida yaxshi ochilgan chanoqlardan chigitli paxtani barmoqlar orqali shox shabbasiz, barglarsiz ajratib olinadi. Bunda chanoqlarda paxta bo‘lakchalari qolib ketmasligi va pishmagan yaxshi ochilmagan chanoqlardan paxtani olmaslik kerak bo‘ladi.

Qo‘l terimi mashaqqatli ish bo‘lib, juda ko‘p ishchi kuchini talab etadi. Bitta terimchi bir kunda o‘rtacha 70-110 kg paxta terishi mumkin. [3].

Mashina terimi 1959-60 yillardan boshlab O‘zbekistonda keng joriy qilina boshlandi. Hozirgi vaqtda o‘rta tolali paxtani 53,8%, ingichka tolali paxtani 27,5% mashinalar yordamida terib olinmoqda. Bitta mashina 70-100 terimchini o‘rniga paxta teradi. Terimga sarf qilingan mablag‘ 3-4 marta kamayadi.

Terim mashinalarining turli rusumlari mavjud: vertikal shpindelli SXM-48, MX-18-2, XVS-3;6.

Gorizontal shpindelli SXS-1;2.

Paxta terish mashinalari

Yaxshi ochilmagan yoki umuman ochilmagan chanoqlardan paxtani SKO-4, SKM-4M mashinalari yordamida terib olinadi.

Hozirgi paytda Amerikaning Keys kompaniyasining gorizontal shpindelli terim mashinalari O‘zbekiston paxta maydonlarida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tmoqda va yaxshi natijalar bermoqda.

Mashina terimiga chanoqlarning 50-60% ochilganda 1-terimga, 20-30% ochilganda 2-terimga kiritiladi, qolgan paxtalar esa ko‘rak teruvchi mashinalarda yig‘ishtirilib olinadi.

Mashina terimi natijasida paxta tolasi tarkibida yumshoq nuqsonlar miqdori ortib ketadi. Mashina terimi asosan o‘rta tolali paxtani terishda ko‘proq ishlatiladi. Ingichka tolali paxtani terishda mashina terimi yaxshi samara bermaganligi tufayli, ishlatilmaydi. [4].

Adabiyotlar

1. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik. Omonov F.B. taxriri ostida. - T.: Voris, 2008.
2. M.T. Hojiyev, S.A. Hamroyeva, A.M. Salimov, Tola sifatini aniqlash: o‘quv qo‘llanma. T.: O‘MKHTM, “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006.
3. Jabborov G’.J. va b. “Chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi”.T., “O’qituvchi”, 1987 y.
4. R. Murodov, A. Burxonov, A. Pirnazarov. Paxtani toshtutgichga urilish vaqtida mayda iflosliklarni ajratib olish ehtimolini tuzatish. // NamMPI. Ilmiy-amali respublikasi konferensiyasi. Namangan, 2005 yil.

1XK RUSUMLI IFLOSLIKLARDAN TOZALASH USKUNASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

U.T. Toyirov, 44-20 TTDIT guruh talabasi I.B. Tursunaliyev

Farg‘onapolitexnikainstituti, ulugbektoyirov4@gmail.com
Ixvoliddintursunaliyev85@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Paxta tozalash korxonalarida qo‘llaniadigan 1XK uskunasini tozalagichni o‘lchamini o‘zgartirmasdan barabanlar sonini ko‘paytirish orqali chigitli paxta tarkibidagi iflosliklarni tozalash va mahsulot sifatini oshirish.

Kalitso‘zlar: *tozalagich,o‘lcham,chigitli paxta,1XK,baraban, qoziqcha*

Оборудование 1XK применяется на хлопкоочистительных предприятиях для улучшения качества семенного хлопка за счет увеличения количества барабанов без изменения размеров очистителя.

Ключевые слова: *очиститель, калибровка, семенной хлопок, 1XK, барабан, ворс.*

1XK equipment used in cotton ginning enterprises to improve the quality of seed cotton by increasing the number of drums without changing the size of the cleaner.

Key words: *cleaner, size, seeded cotton, 1XK, drum, pile.*

Hozirgi kunda paxta tozalash sanoati korxonalarida chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalashda asosan qoziqchali baraban 1XK rusumli tozalagichlar ishlatilmoqda [1].

Ishlash jarayoni quyidagicha: Chigitli paxta ta’minlash valiklari ustiga o‘rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanuvchi ta’minlash valiklari chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir meyorda uzatadi. Qoziqchali baraban o‘z navbatida chigitli paxtani titkilab to‘rli sirt ustidan olib o‘tadi va ikkinchi barabanga uzatadi [2].

Shu tartibda chigitli paxta hamma barabanlarda tozalanishi natijasida mayda iflosliklardan ajratiladi. Ajratilgan iflosliklar barabanlar tagidagi to‘rlisirt teshiklari orqali iflosliklar bunkerlarining qiyadevorlari bo‘ylab pastga tushadi va pnevmatransport bilan so‘rib olinadi. Tozalangan chigitli paxta esa uskunadan chiqarilib keyingi texnologik jarayonga uzatiladi [3].

Paxta tozalash korxonalarida qo‘llanilib kelinayotgan chigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish 1XK uskunasining qoziqchali barabanlar soni sakkiztani tashkil qiladi va tozalash samaradorligi 40%. Bu esa chigitli paxtani tozalashdan so‘ng chigitli paxta va tola tarkibida aktiv



1-rasm: 1XK rusumli tozalagichning texnalogik sxemasi keltirilgan.
1-ta'minlash valigi; 2-qoziqchali baraban; 3-to'rli sirt (yuza);4-ifloslik bunkeri; 5-lotok(nov). 1XK rusumli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasining texnik harakteristikasi.

1. Ish unumdorligi, t/soat__5,0-7,0
2. Tozalash samaradorligi, %__40-45
3. Aylanish tezligi, ayl/daq
   a) ta'minlovchi valik__0-20
   b) qoziqchali baraban__480
4. Texnologik masofa (to'rli sirt bilan qoziqchali baraban oralig'i),
5. mm__14-16
6. 5.Istemol quvvati,kv/soat__16

aralashmalar (maydalangan quruq bargalar va boshqa jisimlar)ni yaxshi ajralmay qolishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tola sifatini tushishiga olib keladi. Paxta tolasining tarkibida iflosliklar miqdori qanchalik ko'p ozligi tolani sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi. 1XK uskunasining qoziqchali barabani va to'rli yuzani masofasi uzayishligi bilan chigitli paxta tarkibidagi iflosliklarni yaxshi tozalanishi ko'rib chiqilgan.

Xulosa: Paxta tozalash korxonalarida qo'llaniladigon 1XK uskunasini qoziqchali barabanlar sonini oshirib, tozalash samaradorligi (40-45) % bo'lgan uskunani 50 % gacha oshirish mumkin. Ushbu taklif qilinayotgan uskuna paxta tozalash korxonalarida chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi va mahsulot sifati oshirilishiga hizmat qiladi.

Adabiyotlar

[1]. M.A.Babadjanov. "Tehnologik jarayonlarni loyihalash". Darslik. T.:,Cho`lpon, 2009. – 182 bet.
[2]. E.Z. Zikriyoyev umumiy tahriri ostida «Paxtani dastlabki qayta ishlash» Toshkent "Mehnat", 2002 y. 3. M.T. Tillaev, "Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jixozlari" fanidan laboratoriyaishlarini bajarish uchun uslubiy qo`llanma. T., "TTESI", 2015 y.
[3]. M.A.Gapparova, M.E.Ruzmetov, T.O.To`ychiyev "Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash" fanidan o`quv qo`llanma. Toshkent, TTESI, 2018 y.

UDK 677.03/677.054.324.23

RAPIRALI TO'QUV DASTGOHLARIDA XOMASHYO SARFINI ANIQLASH VA KAMAYTIRISH

M.M. Abdullayev

Farg'ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Maqolada "Quva tekstil" MChJ da zamonaviy rapirali to'quv dastgohlarida ishlab chiqarilayotgan matolarga xomashyo sarfi, gazlamalar kesimida tahlil qilindi. Dastgoh konstruktiv tuzilishiga bog'liq bo'lgan va xomashyo sarfida sezilarli darajada yo'qotishga olib keladigan jarayon ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: *tanda, arqoq, ITEMA, sochiq, paxta, unumdorlik, chiqindi, to'qimachilik, xomashyo, dastgoh, rapira.*

В статье проанализирован расход сырья на ткани, производимые на современных рапирно-ткацких станках ООО" Кува текстиль", в разрезе тканей. Показан процесс, зависящий от конструкции станка и приводящий к значительным потерям в расходе сырья.

Ключевые слова: *основа, уток, ITEMA, полотенце, хлопок, производительность, отходы, текстиль, сырье, ткацкий станок, рапира.*

The article analyzes the consumption of raw materials for fabrics produced on modern rapier-weaving machines of Kuva Textile LLC, in the context of fabrics. The process is shown, depending on the design of the machine and leading to significant losses in the consumption of raw materials.

Keywords: *warp, weft, ITEMA, towel, cotton, productivity, waste, textiles, raw materials, loom, rapier.*

Yengil sanoat va to‘qimachilik sohasining rivojlanib borishi zaminida yangi texnologiyalar yaratilmoqda va bu korxonalarni modernizatsiya qiqlish, ya’ni mavjud dastgoh va uskunalarni muntazam ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizdagi ko‘plab to‘qimachilik korxonalari zamonaviy va yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan to‘quv dastgohlarini olib kelib, o‘rnatmoqdalar.

Viloyatimizning Quva tumanida joylashgan, “Quva tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatida ham 2022 yilda Italiyada ishlab chiqarilgan “Itema R9500” rusumli to‘quv dastgohlari o‘rnatildi va ishga tushirildi.

ITEMA – bu Sulzer va Vamatexning barcha tajribalarini birlashtirgan texnologiyaga ega mato to‘quvchi rapirali dastgohlarining eng ilg’or ishlab chiqaruvchisi.

Bundan tashqari, R9500-terry uchta asosiy xususiyatga ega bo‘lib, uni to‘qima mato ishlab chiqaruvchilari uchun eksklyuziv mahsulotga aylantiradi:

- R9500-terry o‘zidan oldingi Sulzer DT ning butun muvaffaqiyatli tarixini o‘z ichiga oladi, bu butun dunyo bo‘ylab 5000 donadan ortiq sotilgan eng mashhur sochiq mato ishlab chiqaruvchi rapirali to‘quv dastgohi;

-mustahkam pishiq asosga (stamina) o‘rnatilgan va ilg‘or texnologiya darajasidagi rapirali to‘quv dastgohi sifatida bozorda eng ko‘p sotilgan hodisa kabi namoyon bo‘ldi;

-Itema kompaniyasi R&D bo‘limi eng ilg‘or ishlanmalardan foydalanadi va o‘z oldiga mijozlar talabini bugungu hamda ertangi kunda qondirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Shu bilan bir qatorda mazkur dastgohlarda, bizning korxonalar uchun, mato tannarxiga sezilarli darajada ta’sir etuvchi omil mavjud. Bu rapirali dastgohlarda qo‘llaniladigan qirqib tashlanadigan qirg‘oq mavjudligi va bu qig‘oq to‘lig‘icha chiqindiga chiqib ketushidir.

Mamalakatimizda olib borilgan tadqiqonlar va turli manbalardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, xomashyoga sarflanadigan xarajatlar to‘qimachilik sanoat tarmoqlarida 70-80 foizni tashkil etadi [1]. Evropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 50-60 % atrofida hisoblanadi.

Mato yaratish uchun tola, ip yoki ip kabi xomashyolardan foydalaniladi. Xom ashyo narxi matoning umumiy narxining uchdan ikki qismini tashkil qiladi [2]. Bizda ishlab chiqariladigan manolar tannarxida xomashyoning ulushi 80-85% ni tashkil qilishini hisobga olganda bu omil bizning ishlab chiqaruvchilar uchun sezilarli ta’sirga ega.

Rasim 1. ITEMA R9500-terry dastgohida qo‘shimcha qirg‘oqning hosil qilinishi va qirqib tashlanishi.

Bugungi kunda Jahon bo‘yicha, shuningdek bizda ham, energiya ressurslarining oshib borishi ishlab chiqaruvchilar oldiga bir qator muammolarni qo‘ymoqda.

To‘qimachilik sohasida paxta tolasi narhi ham kundan kunga oshib bormoqda. Keyingi oylardagi paxta tolasining narxi ichki bozorda 23-27 ming so‘mni tashkil qilmoqda. To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, uning raqobatbardoshligidagi tannarxi oshib ketmasligini oldini olishda, bizning sharoitimizda, xomashyo sarfiga ko‘proq bog‘liq ekan.

Viloyatimizda joylashgan “Quva tekstil” MChJ da ishlab chiqarilayotgan momiq sochiqlar xomashyo sarfini o‘rganilganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

-momiq sochiqlar zamonaviy R9500-terry to‘quv dastgohlarida to‘qilayapdi, bu dastgohlar tuzilish jihatdan ikki chetida arqoq uchlarini ushlab qoluvchi qo‘shimcha qirg‘oqlariga ega;

-qo‘shimcha qirg‘oqlar (rasim 1) 32 ta tanda ipi va har bir arqoq ipining 12 sm gacha uzunligidan tashkil topadi [3] va bu qirg‘oq qirqib tashlanadi, ya’ni ko‘rsatilgan miqdordagi xomashyo chiqindiga chiqib ketadi;

“Quva tekstil” MChJ da ishlab chiqarilayotgan sochiq turlaridan bir nechtasini tahlil qilinganda quyidagi 1- jadvalda keltirilgan ma’lumotlar olindi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jami 10 ta 100 metrli matolarning umumiy massasi 893,338 kg bo‘lsa, shunga qo‘shimcha ravishda 16,67 kg xomashyo qirg‘oq iplarini ushlab qolishga vazifasini bajaruvchi qo‘shimcha qirg‘oqqa sarf bo‘lar ekan, bu esa 1,9 % ni nashkil qiladi.

Jadval 1. Qirqib tashlanadigan qirg‘oq uchun sarflanadigan xomashyo.

№	Sochiq artikuli	Sochiq o‘lchami, sm	100 m bir en mato massasi, kg	100 m qirqilgan qirg‘oq massasi, kg	Qirg‘oq massasining mato massasiga nisbati, %
1	KT-605 D	80x150	107,620	1,1	1,0
2	KT-606	60x90	103,310	1,11	1,1
3	KT-608-3	80x135	88,814	1,06	1,2
4	KT-611-3	80x150	123,601	1,14	0,9
5	KT-700-A1	80x150	106,810	1,08	1,0
6	KT-700	115x185	94,324	1,04	1,1
7	KT-815	160	125,770	1,03	0,8
8	Vafelniy	200	48,400	1,41	2,9
9	Vafelniy	240	53,807	1,30	2,4
10	Byaz	340	40,882	6,4	1,6
	Jami		**893,338**	**16,67**	**1,9**

Agar “Quva tekstil” MChJ bir yilda 1953000 m^2 xom mato [4] ishlab chiqaradigan bo‘lsa, bo o‘rta hisobda 781200 kg mato bo‘ladi. 781200 kg matoning 1,9 fiyizi 14843 kg ni tashkil qiladi.

Xulosa:

1. ITEMA R9500-terry dastgohi yuqori ish unumdorligiga ega bo‘lsada, to‘qilayotgan mato yuza zichligi pasaygan sari, qirqilqdigan qirg‘oq xomashyosi sarf hajmi ortib boraverar ekan.

2. Dastgohning ana shu qirg‘oq iplarini tutib qoluvchi qismida ish olib borilsa va bunda ijobiy natijaga erishilsa, bir yilda sal kam 15 tonna xomashyoni tejab qolish imkoniyatiga erishish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

[1]. Ro‘zimetov D.R. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari. G.f.n. ilmiy darajasi olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, “Izhtimoy geografiya va mintaqaviy Iqtisodiyot”.

[2]. [https://silverbobbin.com/how-much-does-fabric-cost/].

[3]. Абдуллаев М.М. и др. Методика по нормированию расхода основных видов сырья в текстильной и шелковой промышленности. –Т.: “Наука и технология”, 2015, 88 с.

[4]. https://madeinuzbekistan.ru/quvatekstil.

[5]. Абдуллаев М. М., Особенности определения ширины и длины штучных

[6]. махровых изделий., European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-09, Nov. - 2022

[7]. M.M. Abdullaev. (2022). Features of calculating the consumption of raw materials in the production of terry fabrics on rapier looms. International Journal of Advance Scientific Research, 2(07), 1–9.

UDK 677.21.021.2.

URUG‘LIK PAXTALARNI QABUL QILISH TARTIBI, NAZORAT QILISH USULLARI VA JAMLASH QOIDALARI

M.A.Mirzaikromov

Farg‘ona politexnika instituti, mirzaboburmirzaikromov77@gmail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Urug‘lik paxtaning sifati ko‘saklarning tupda joylanishiga, zarakunanda va kasalliklar bilan zararlanishiga bog‘liq. G‘o‘za tupining o‘rta va pastki qismida, ikkinchi va qisman uchinchi konusda joylashgan ko‘saklar eng qimmatlidir. Bu ko‘saklardan sifatli urug‘lik chigit olinishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *urug‘lik paxta, yarus, gommoz, davlat standarti, g‘aram, tabiiy quritish, aprobatsiya, reproduksiya, defoliatsiya, brezent, tuksizlantirilgan urug‘.*

Качество семенного хлопка зависит от расположения коробочек на кусте, поражения вредителями и болезнями. Наибольшую ценность представляют коробочки, расположенные в средней и нижней части хлопкового куста, во второй и частично в третьей шишках. Из этих стручков можно получить качественные семена.

Ключевые слова: *семенной хлопок, отводок, гоммоз, госстандарт, гарам, естественная сушка, одобрение, размножение, дефолиация, брезент, депилированные семена.*

Urug‘lik paxtani terish ham o‘zining xususiyatlariga ega. G‘o‘za ko‘sagining yarus bo‘ylab ochilishi uni yig‘ib-terib olishni ancha qiyinlashtiradi. Urug‘lik paxtaning sifati ko‘saklarning tupda joylanishiga, zarakunanda va kasalliklar bilan zararlanishiga bog‘liq. G‘o‘za tupining o‘rta va pastki qismida, ikkinchi va qisman uchinchi konusda joylashgan ko‘saklar eng qimmatlidir. Bu ko‘saklardan sifatli urug‘lik chigit olinishi mumkin. Urug‘lik paxtani terish va uni topshirish O‘zRST talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sifatli urug‘lik olish uchun faqat sog‘lom va normal ochilgan ko‘sakdagi paxta terib olinadi. Urug‘lik paxt sentyabir oyining 15-kunidan, oktyabr oyining 15- kunigacha teriladi. Urug‘lik paxta faqat qo‘lda terilib 3-yarusdan 9-yarusgacha teriladi, uni yetishtirishda agrotexnik tadbirlar ko‘proq olib boriladi va o‘g‘itlar ham 20% ga ko‘proq ishlatiladi.

Kemiruvchi zararkunandalar bilan zararlangan ko‘saklar chiriydi va undan sifatli paxta tayyorlab bo‘lmaydi. Odatda bunda paxta tolasi sarg‘ish hamda kulrang tusda bo‘ladi. Paxta biti bilan shikastlangan paxta qora tusda bo‘ladi. Gommoz bilan kasallangan ko‘saklarning paxtasi pishmagan, sarg‘ish tusli bo‘ladi. Vilt yuqqan g‘o‘zalardan ham sifatli urug‘ olinmasligi isbotlangan. Urug‘lik paxta faqat qo‘lda bir-ikki marta terib olinadi. Urug‘lik paxtani sifatli yig‘ishtirib olish uchun paxta terish me’yori asosiy mahsulot uchun teriladigan paxta me’yoridan 20-25 % ga kamaytirilgan. [1].

Ikkinchi reproduksiya ekilgan maydonlardan urug‘lik paxtani mashina bilan terib olishga ruxsat etiladi. Mashina terimiga g‘o‘za barglarining defoliatsiyadan keyin kamida 80 % to‘kilganda va ko‘saklarning o‘rtacha 70-75 % i ochilganda kirishiladi. Bunday paxtalarni mashinada terishdan oldin rivojlanmagan, zararkunanda va kasallik bilan zararlangan paxta hamda ko‘saklar qo‘lda terib olinadi.

Mashinada terilgan urug‘lik paxtadan shikastlangan chigitlar miqdori 1 % dan oshmasligi kerak.

Elita va birinchi reproduksiya urug‘lar tayyorlov punktiga yangi qoplarda tortilib jo‘natiladi. Bunda har bir qop ichiga navi, reproduksiyasi va yetishtirilgan joy ko‘rsatilgan yorliq solib qo‘yiladi va qop ustiga ham shu mazmundagi yorliq yopishtiriladi. Tayyorlov punktlarida urug‘lik paxtani paxta maydonlaridagi aprobatsiya natijalariga muvofiq qabul qilinadi.

Tayyorlov punktlarida urug‘lik paxta namligi va ifloslanganligi chegaralangan me’yordan oshiq bo‘lganda qabul qilinmaydi. Shuningdek, yaxshi rivojlanmagan hamda zararkunanda va kasalliklar bilan zararlangan paxtalar aralashgan urug‘lik paxta tozalash uchun xo‘jaliklarga qaytarib yuboriladi. [2].

Urug‘lik chigitlar to‘dalar bo‘yicha qabul qilinadi. Har qanday miqdordagi urug‘lik chigit sifati bir xil bo‘lib, bitta kuzatuv hujjati bilan rasmiylashtirilgan bo‘lsa, to‘da deb hisoblanadi. Iflosligi yoki mexanik shikastlanganligi, yoxud tukdorligi I kategoriya uchun me’yoridan oshib ketgan holda urug‘lik chigit II kategoriyaga, shu holda namlik me’yoridan oshganda esa belgilangan. Urug‘lik bo‘yicha 596-raqamli Davlat standartiga binoan chigitlar miqdori qabul qilinadi.

Urug‘lik paxta 250-300 tonnali bunt qilib joylanadi. Bir xil urug‘lik material olish uchun sentyabr oyida terilgan urug‘lik paxta oktyabr oyida terilgan urug‘lik paxtadan alohida partiya qilib qabul qilinadi va joylashtiriladi, demak, sifati har xil bo‘lgan urug‘lik paxta aralashib ketmasligi uchun ular alohida omborlarda saqlanadi. Birinchi reproduksiya urug‘larining massasi 200 t dan ortiq bo‘lsa, ular ochiq maydonlarda bunt qilinib yangi brezent yopilib saqlanadi. Bunda sentyabr oyida terilgan paxtani partiya qilib joylashtirish 15-20 kundan, oktyabrda terilgan paxtani esa partiya qilib joylashtirish 10-15 kundan oshmasligi kerak. [3].

Urug‘lik paxtani 5 oygacha saqlash mumkin. Urug‘lika ajratilgan paxta g‘aramlarda saqlanganda harorat yuqori bo‘ladi. G‘aramdagi paxtaning harorati uni g‘aramga joylash paytidagi havo haroratiga bog‘liq bo‘ladi. masalan, sentyabr boshlarida g‘aramlarga joylangan paxtaning harorati keyingi kunlarda joylanganiga nisbatan birmuncha yuqori bo‘ladi., paxtaning namligi 8 % bo‘lganida g‘aramdagi harorat 30^0-38^0 C gacha ko‘tariladi. qishda g‘aramdagi urug‘lik paxtaning harorati me’yordan oshmagan holda yuqori bo‘lishi chigitning yaxshi yetilishiga va binobarin uning sifati yaxshilanishiga imkon beradi.

Bizga ma’lumki, fermer xo‘jaliklaridan keltirilgan nam chigitli paxtalar 2 xil usulda quritiladi. Quritish jarayonida chigitli paxtaning boshlang‘ich tabiiy xususiyatlari o‘zgarmasligi shart. Nam chigitli paxtani quritishni tabiiy quritish usulida - qo‘l bilan terilgan chigitli paxtani dala sharoitida ochiq maydonchalarda quyosh nuridan (oftobda) quritish. Quritish jarayoni bir-biriga bog‘liq va bir vaqtda kechadigan kompleks jarayonlardir.

1. Urug‘lik chigitning nav tozaligi dala sharoitida ekib, o‘simliklarning sofligini tasdiqlovchi nazorat hujjatlari asosida aniqlanadi.

2. Qoplangan urug‘lik chigitni tashish uchun turli xildagi usti yopiq, tegishli qoidalarga javob beruvchi transport vositalaridan foydalaniladi.

3. Agar urug‘lik chigit ochiq transport vositalarida tashilsa, qoplarning usti brezent bilan yopilishi kerak. [4].

Dorilanmagan R2, R3 avlodlarning chigitini uyulgan holda tashish mumkin. Chigit dorilash bo‘limi paxta tozalash korxonasi hududida joylashgan bo‘lsa (bunda bu bo‘lim sex korxona bosh korpusidan 100 m uzoqlikda joylashishi kerak), hamma avlod chigitlarini bu bo‘limga uzatish uzluksiz ravishda yoki boshqa transport vositasida uyulgan holda amalga oshiriladi. Bu holda chigitlarning to‘kilishiga va shikastlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Urug‘lik chigit quruq va yaxshi shamollatib turiladigan omborlarda saqlanadi. Ochiq maydonchalarda urug‘lik chigitni saqlash man etiladi. Urug‘lik chigitning R2 va R3 avlodini dorilanguncha uyulgan holda atrofiga shu chigitdan qoplanib, to‘siq yasalgan holda saqlashga ruxsat etiladi.

5. Tuksizlantirilgan urug‘lik chigitni qoplanmagan holda saqlash mumkin emas.

Urug‘lik chigit joylashgan qoplar to‘dalarda alohida-alohida qilib yog‘och tagliklar ustida taxlanib saqlanadi. Yuqori sifatli urug‘lik chigit yetilishi uchun g‘o‘za tuplarining normal qalinlikda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. U o‘simlik rivojini tezlashtiradi, mo‘l va ertagi hosil to‘planishida asosiy omil hisoblanadi. Tayyorlangan urug‘lik materialning to‘g‘ri saqlanishi ham yuqori sifatli urug‘lik chigit olishda muhim rol o‘ynaydi. Urug‘lik chigitning sifatini oshirish uchun barcha agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish kerak. Shu bilan birga, chigitni saralash bilan ham sifatini oshirish mumkin. Terilganidan to ekilgunicha yaxshi saqlangan yuqori sifatli chigitdangina mo‘l va sifatli hosil beradigan bog‘liq g‘o‘za ko‘chati olish mumkin. Urug‘lik paxtani terish, tayyorlash va saqlashni ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida olib borish urug‘lik chigit sifatini oshirishning bosh omilidir. Urug‘lik uchun ekilgan paxta maydonlaridagi barcha tadbirlar sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan urug‘lik chigit olishdan iborat. [5].

1-Jadval

Urug‘lik paxtani g‘aramlarda saqlashning chigitning unib chiqishi va hosildorligiga ta’siri

Saqlash usuli	Chigitning unib chiqish quvvati, %	Unib chiqishi, %	Chigitning dala sharoitida unib chiqishi, %	Ko‘chat qalinligi, ming/ga	Paxta hosili, sr/ga
Omborda	55	88	42,2	65,9	40,6
G‘aramda	84-97	91-98	51,1-65,8	75,7-84,3	42,9

Adabiyotlar

[1]. Yakubov M.M., va boshqalar. Paxtani tayyorlash va saqlash texnologiyasi - ToshDAU, 2002.
[2]. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi. Zikiryoev E.Z. taxriri ostida. - T.: Mexnat, 2002.
[3]. Zikiryoev E.Z. Paxtani dastlabki qayta ishlash. - T.: Mexnat, 2002.
[4]. Dr. P.G. Patil & Er. V. G. Arude Recent Advances in Cotton Ginning Technology in India, 2014 y.
[5]. Jabborov G.J., Otametov T.O., Xomidov A.X. Chigitli paxtani ishlash texnologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1984.

CHIGITLI PAXTANI ISHLAB CHIQARISHGA UZATISHDA GORIZONTAL TA’MINLAGICHNING PAXTANI UZATISH SIFATIGA TA’SIRI

O’.A. Baxtiyorova, X.X. Imomnazarov

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan paxta pnevmotransporti quvuriga uzatuvchi gorizontal ta’minlagich taxlil qilingan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *lenta, baraban, paxta tolasi, texnologiya, zichlik, ifloslik, chigit, uluk.*

Abstract: *In this article, the horizontal feeder to the cotton pneumatic transport pipeline used in cotton ginning enterprises is analyzed and recommendations are given.*

Key words: *tape, drum, cotton fiber, technology, density, dirt, seed, great.*

В данной статье проанализирован горизонтальный питатель к трубопроводу пневмотранспорта хлопка, используемый на хлопкоочистительных предприятиях, и даны рекомендации.

Ключевые слова: *лента, барабан, хлопковое волокно, технология, плотность, грязь, семена.*

Bugungi kunda paxta tolasiga bo‘lgan talabning o‘sishi paxta tozalash zavodi uskunalarini takomillashtirishni va ularni texnologik jarayonlarini taxlil qilishni taqozo etadi. Paxta tozalash korxonasining asosiy birinchi bosqichi g‘aramlangan chigitli paxtani ishlab chiqarish bo‘limiga uzatishdan iborat. Agar chigitli paxtani g’aram buzgich yordamida sifatli buzib-titib gorizontal ta’minlagichga uzatish orqali va gorizontal ta’minlagichning yuzasida bir tekis qatlam pnevmotransport quvurlariga uzatish orqali ishlab chiqarish bo’limlarini unumdorligini oshirishga olib keladi. Amalda qo’llanilib kelayotgan g’arambuzgichning ishlash jarayonlarini tahlil qilishda bir qancha kamchiliklari aniqlandi. Ushbu kamchiliklardan biri uzatilayotgan paxta massasining harakat yo‘nalishi bo‘ylab notekis taqsimlanishi, yoki boshqacharoq ifodalasak, paxtani notekis uzatilishidir. Buning sababi paxta g‘aramda saqlanganda zichligi oshgani uchun g‘arambuzgich bilan ko‘chirilganda katta-kichik bo‘laklar tarzida ko‘chadi va shu holda quvurga uzatiladi. Natijada quvur bo‘g‘zida, toshtutgichda, separatorda tiqilishlar yuz beradi. Biz avvalgi tadqiqotlarimizda bu jarayonni batafsil o‘rganganmiz va paxtani bir tekis ta’minlab beradigan pnevmomexanik ta’minlagich konstruksiyasini taklif etganmiz.

Paxtani pnevmotransport quvuriga uzatishda ishlatiladigan navbatdagi uskuna yuqorida aytilgan lentali ko‘chma transportyordir. Paxtani bir tekisda uzatishni ta’minlaydigan gorizontal ta’minlagich aynan shu transportyor negizida yaratilgan. Ishlab chiqarish jarayonida tashuvchi

mashina lentali moslamaning ish unumdorligi lentaning kengligi, uning birlik yuzasidan foydalanish koeffisiyenti, lenta chiziqli tezligi hamda unda harakatlanayotgan material qatlamining namligi va zichligiga bog‘liq [1].

Biz loyihalayotgan ta’minlagich paxtani dastlabki ishlash texnologik zanjirining bosh qismida joylashadi va uning ish unumi butun texnologik zanjirning ish unumini belgilab beradi. Lenta (2) yuqorisida baraban (5) dan oldin, tekislovchi baraban (4) o‘rnatilgan. Ta’minlagich oxirida quvur (7) ga ulangan voronka (6) joylashgan. Voronka (6) og‘ir aralashmalarni olib tashlash uchun olinuvchan qilib o‘rnatilgan. Voronka (6) va to‘plovchi tortma devorlariga teshiklar ochilgan. Bu havo oqimini chiqib ketishi uchun moslangan. Ta’minlagich paxta g‘aramini buzish mashinasining (sxemada ko‘rsatilmagan) chiqarish lentasi (1) tagida joylashgan. Lenta (1) tezligi lenta (2) tezligidan yuqori tanlangan [2].Shuning uchun yangi ta’minlagichning ish unumdorligini hisoblash katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ta’minlagichning paxta uzatish unumdorligi tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-rasm. Gorizontal ta’minlagich sxemasi (M.G. -1694727). 1-uzatish lentasi; 2-gorizontal lenta; 3-valik; 4-tekislovchi baraban; 5-qoziqli baraban; 6-voronka; 7- quvuri; 8-to‘plagich; 9- yetaklovchi baraban; 10-yetaklanuvchi baraban.

$$U=k\cdot vl\cdot V\cdot h\cdot \gamma \quad (1)$$

Bu yerda: ***vl***–lenta tezligi, m/s; ***V***–lenta kengligi, m; ***h***–o‘tadigan paxta qatlamining balandligi, m; ***kx***–lenta yuzasidan foydalanish kooeffisiyenti; **γ** -paxta qatlami zichligi, kg/s3

Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra lenta tezligi **vl=5,8 m/s;** lenta kengligi **V=0,4 m**; paxta qatlamining zichligi γ **=40 – 60 kg/m3.** Ammo, bu ko‘rsatkich **(**γ**)** paxtaga mexanik ta’sir qilish jarayonlarida 1.5-2 barobar kamayadi. Hozirgacha o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, lenta yuzasidan foydalanish koeffisiyenti **k=0,3 – 0,5** atrofida bo‘ladi. O‘tayotgan paxta qatlamining balandligi esa tekislovchi baraban tashqi aylanasi bilan lenta orasidagi masofaga bog‘liq. Bu oraliq **h = 150** mm ga teng. Ammo, u lenta yuzasida o‘rnatilgan qanotchalar va paxta qatlami plankali baraban plankalari orasidagi ilashish kuchi hisobiga kamayadi. O‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijasiga bog‘liq ravishda bu balandlikni h = **0,1 m** deb qabul qilamiz. Paxta qatlami zichligini γ**=30 kg/m3**, lenta yuzasidan foydalanish koeffisiyentini esa **k=0,45** deb olamiz. Olinganlarga ko‘ra ta’minlagichning paxtani uzatish unumdorligini hisoblaymiz.

$U=k\cdot vl\cdot V\cdot h\cdot \gamma=0{,}45\cdot 5{,}8\cdot 0{,}4\cdot 0{,}1\cdot 30=3{,}132$ kg/s.

yoki 1 kg/s=3600kg/soat=3,6 t/soat bo‘lgani uchun $U=3{,}132\cdot 36=11{,}28$ t/soat bo‘ladi.

Paxta tozalash korxonalarida texnologik jarayonning ish unumi 8 – 12 t/soat atrofida o‘zgaradi. Hisob-kitob yo‘li bilan olingan natija shu oraliqqa tushadi va shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yangi ta’minlagich hozirgi paxta tozalash korxonalarida muvaffaqiyat bilan qo‘llanilishi mumkin. Havo yordamida tashuvchi qurilmada paxtani tashish jarayonini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida unda tashilayotgan paxta sifatining buzilishi aniqlangan. Sifat buzilishlari asosan chigitning quvur ichida harakatlanishi vaqtida uning devorlariga urilishi oqibatida olgan zarbalar hisobiga yuz beradi. Havo yordamida tashuvchi qurilmada namligi 9,2%, iflosligi 1,2% bo‘lgan paxtaning tezligi V=24-26 m/s bo‘lganda, 1,2-1,4% chigitning sinishi yuz beradi [3]. Natijada paxta tolasi nuqsonlari 0,3-0,4% ga ortib ketadi. Syexlardan uzoq masofada joylashgan paxta g‘aramlaridan paxtani tashishda havo yordamida tashuvchi qurilmaning ta’sir qilish radiusini uzaytirish zaruriyati tug‘iladi. Bu esa yuqoridagi chigit sinishi va tolada har xil nuqsonlarning hosil bo‘lishi ehtimolini oshiradi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra lenta tezligi **vl=5,8 m/s;** lenta kengligi **V=0,4 m**; paxta qatlamining zichligi γ **=40 – 60 kg/m3.** Ammo, bu ko'rsatkich **(**γ**)** paxtaga mexanik ta'sir qilish jarayonlarida 1.5-2 barobar kamayadi. Hozirgacha o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, lenta yuzasidan foydalanish koeffisiyenti **k=0,3 – 0,5** atrofida bo'ladi. O'tayotgan paxta qatlamining balandligi esa tekislovchi baraban tashqi aylanasi bilan lenta orasidagi masofaga bog'liq. Bu oraliq **h = 150 mm** ga teng. Ammo, u lenta yuzasida o'rnatilgan qanotchalar va paxta qatlami plankali baraban plankalari orasidagi ilashish kuchi hisobiga kamayadi. O'tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijasiga bog'liq ravishda bu balandlikni **h = 0,1 m** deb qabul qilamiz. Paxta qatlami zichligini γ**=30 kg/m3**, lenta yuzasidan foydalanish koeffisiyentini esa **k=0,45** deb olamiz. Olinganlarga ko'ra ta'minlagichning paxtani uzatish unumdorligini hisoblaymiz.

$$U=k\cdot vl\cdot V\cdot h\cdot\gamma=0,45\cdot5,8\cdot0,4\cdot0,1\cdot30=3,132 \text{ kg/s}..$$

yoki 1 kg/s=3600kg/soat=3,6 t/soat bo'lgani uchun U=3,132·36=11,28 t/soat bo'ladi. Paxta tozalash korxonalarida texnologik jarayonning ish unumi 8 – 12 t/soat atrofida o'zgaradi. Hisob-kitob yo'li bilan olingan natija shu oraliqqa tushadi va shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yangi ta'minlagich hozirgi paxta tozalash korxonalarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin. Havo yordamida tashuvchi qurilmada paxtani tashish jarayonini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida unda tashilayotgan paxta sifatining buzilishi aniqlangan. Sifat buzilishlari asosan chigitning quvur ichida harakatlanishi vaqtida uning devorlariga urilishi oqibatida olgan zarbalar hisobiga yuz beradi. Havo yordamida tashuvchi qurilmada namligi 9,2%, iflosligi 1,2% bo'lgan paxtaning tezligi V=24-26 m/s bo'lganda, 1,2-1,4% chigitning sinishi yuz beradi. Natijada paxta tolasi nuqsonlari 0,3- 0,4% ga ortib ketadi. Syexlardan uzoq masofada joylashgan paxta g'aramlaridan paxtani tashishda havo yordamida tashuvchi qurilmaning ta'sir qilish radiusini uzaytirish zaruriyati tug'iladi. Bu esa yuqoridagi chigit sinishi va tolada har xil nuqsonlarning hosil bo'lishi ehtimolini oshiradi.

Bunday bo'lishiga asosiy sabab g'aramlardan paxtani quvurga notekis uzatilishidandir. RBX markali g'aram buzuvchi mashinaning qoziqli frezasi paxtani bo'laklab lentaga beradi. Lenta ustida notekis taqsimlangan bo'lakchalar [4].ko'rinishida paxta quvurga uzatiladi Bunday holat quvur ichida paxtaning notekis joylashuvi va harakatini keltirib chiqaradi. Notekis harakat nafaqat quvurda paxta sifatini buzilishiga sabab bo'ladi, balki texnologik jarayondagi barcha mashinalarning bir tekisda ishlashiga xalaqit beradi. Bunday holat ularning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha notekis uzatish natijasida qayta ishlash mashinalarining ishchi organlarida paxtaning tiqilib qolish hollari yuz beradi. Bu o'z navbatida mashinalarning ma'lum bir muddatga to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, paxtaning tiqilib qolishi hisobiga mashina ishchi organlari tez ishdan chiqadi. 2-rasmda havo yordamida tashuvchi qurilmada paxtani notekis tashilishi natijasida chigit sinishining havo oqimi tezligiga bog'liqligi har xil namlikdagi paxta qo'llanganidagi grafiklar asosida kursatilgan.



2-расм. Хар хил намликдаги пахтанинг ташиш жараёнидаги шикастланиши.

Yuqoridagi grafikda yaratilgan modellarning paxta gorizontal ta'minlagich mashina ishchi elementlari **yordamida xomashyoni qabul qilish va paxtani uzatish jarayo**nini tugri ifodalab berayotg chikarishga joriy etish paxta xom ashyosining sifat kursatkichini pasayishini oldini oladi. Ishlab chikaruvchi uchun xomashyoning shikastlanganlik darajasi pasayishini kamaytirish xar qanday ishlab chiqaruvchining iqtisodiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa yakunida maqolada quvur yo‘lida tekis harakatini ta’minlaydigan xomashyoni uzatish nazariyasi ishlab chiqildi. Xomashyoni bir tekisda uzatish uchun gorizontal lenta bilan tekislash barabanining birga ishlashi kerakligi ilmiy asoslandi.

Adabiyotlar

[1]. A.Salimov, Sh.A.Xusanova, O.Salimov, Q.Toshtemirov, N.Yakubov.A.Rakhimjanov. Research of The Procyess of Preparation and Storage of Raw Cotton. Journal of optoyelectronics laser. ISSN: 1005-0086. Volume 41 Issuye 7, 2022. DOI: 10050086.2022.07.73 http://www.gdzjg.org/index.php/JOL/article/viyew/754. 612-618 betlar

[2]. A.Sh.Khusanova. Optimization of geometric dimensions of ginning elements of selective technologies // FarPI "Journal of Scientific Technology" Issue 4. “Optimization of geometric dimensions of ginning elements of selective technologies” Fergana-2020 P.158-160

[3]. A.Salimov, Sh.A.Khusanova. Analysis of experience in the introduction of modern information and communication technologies in ginneries. Republican scientific-technical conference International scientific-educational electronic journal. №A3-21.10.2020.

[4]. Shohida, K., & Khurshidbek, I. (2022). Investigation of ways to increase the speed of the raw material roller on the ginning equipment. Universum: технические науки, (2-7 (95)), 40-42.

МЕТОДИКА ПОЛУЧЕНИЯ ПОРОШКООБРАЗНЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ХИМИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ И ОТХОДОВ ПРОИЗВОДСТВ

Д.Н. Абдукаримова

Ферганский политехнический институт

(Получена 18.11.2023 г.)

Mahalliy xomashyolar chiqindilarini maydalash va kukunsimon holga ot‘kazish orqali kimyoviy kompozitsion preparatlar olish. Maydalangan xomashyolar preparatnint fizik-kimyoviy xossalarini yahshilash uchun qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar. *Gommoz, ildiz chirishi, kasallik, paxta, preparat, reagent,maydalash, kukunsimon, ciqindi, aralashma.*

Получение химических композиционных препаратов путем измельчения и измельчения отходов из местного сырья. Измельченное сырье используют для улучшения физико-химических свойств препарата.

Ключевые слова. *Гоммоз, корневая гниль, болезнь, хлопок, препарат, реагент, измельчение, порошкообразный, отходы, смесь.*

Preparation of chemical composite preparations by grinding and crushing waste from local raw materials. Crushed raw materials are used to improve the physicochemical properties of the drug.

Keywords. *Gommosis, root rot, disease, cotton, drug, reagent, grinding, powdery, waste, mixture.*

В республике проводятся ряд исследование по защите выходов от опасных заболеваний, как гоммоз и корневые гнили. Корневая гниль хлопчатника – очень распространённое заболевание. В стратегии для дальнейшего развития нового Узбекистана «...поднятие промышленности на качественно новый уровень, глубокая переработка местных источников сырья, ускорение производства готовой продукции, освоение новых видов продукции и технологий...»[1] были определены важные задачи. В связи с этим большое значение имеют научные исследования, направленные на создание и совершенствование новых эффективных композиционных химических реагентов и технологии получения на их основе препаратов для предпосевной обработки семян хлопчатника.

Для производства химических препаратов необходимо разработать водорастворимых реагентов. Для этого необходимо выбрать методы получения и испытания образцов.

В первую очередь, все твердые ингредиенты подвергаются сушке в сушильном шкафу при 105±5^{0}C в течение 2 часов до остаточной влажности не более 2%. Затем они

подвергаются диспергированию на измельчительном установке до крупности частиц 20-50 мкм. На рисунке 2.3 показана схема установки для диспергирования ингредиентов[1].



Рис.1. Схема установки для диспергирования ингредиентов.1-патрубок; 2- корпус; 3-крышки; 4,6-диск; 5-элемент; 7-электродвигатель; 8-пальцы; 9-выходное окно; 10-рама.

Основной принцип работы измельчителя заключается в следующем: высушенный алюмак подается в измельчитель, состоящий из загрузочного патрубка 1, корпуса 2, крышки 3, внутри которой имеется неподвижной диск 4 с закрепленными на нем концентрично по окружности элементами 5, подвижного (вращающего) диска 6, и закрепленного на валу электродвигателя 7. Диск 6 на торцевой плоскости содержит пальцы 8, концентрично расположенные по окружности диска. Пальцы диска входят в зазор между окружностями концентрично расположенных сегментов. Внизу корпуса 2 имеется выходное окно 9. Измельчитель установлен на раме 10.

Процесс измельчения алюмака - из патрубка 1 материал, попадая в зону вращающегося диска 6, подвергается ударному воздействию благодаря элемента 5 и быстровращающихся пальцев 8. Недопал в измельченном виде выходит через окно 9.

Образцы композиционных химических реагентов, содержащих алюмака, приготавливаются следующим образом: на аналитических весах взвешивается 20 граммов алюмака с точностью ±0,5 г. Затем взвешивается 80г порошкообразного химреагента марки ПКР на основе госсиполовой смолы. Взвешенные компоненты тщательно перемешиваются в механической ступке (рис.1) до образования однородного порошка[2].



Рис.2. Схема механической ступки. 1-корпус; 2-диск; 3-чашка; 4-стержень; 5-съемный груз.



Рис. 3. Схема установки для получения химических растворов. 1-емкость; 2-мешалка; 3-рама; 4-вентиль; 5-привод.

Стрежень 4 совершает дугообразные горизонтальные колебания, что обеспечивает хорошее истирание и перемешивание химреагентов в чашке 3. Стержень 4 снабжен съемными грузами 5, обеспечивающими различную степень истирания материалов.

Принцип работы механической ступки: в чашку 3 засыпаются различные химреагенты, включается в работу ступка 4. После тщательного перемешивания и измельчения полученной композиции ступка останавливается, чашка освобождается от композиции и процесс повторяется.

Химические растворы получали на установке, схема которой показана на рис. 2. Установка состоит из емкости 1, мешалки 2, рамы 3, вентиля 4, привода мешалки 5 и загрузочного патрубка 6.

Процесс приготовления химических растворов заключается в следующем: в загрузочный патрубок 6 заливается растворитель, засыпается порошок и при помощи вращающей мешалки 2 происходит полное растворение порошка. Готовый раствор при открывании вентиля 4 уходит из емкости 1.

Из полученной композиции отбирается образец-проба для приготовления химических растворов. В зависимости от необходимой плотности, вязкости, водоотдачи, степени напряжения сдвига и толщины коркообразования готовится раствор различной концентрации на установке (рис.3) путем растворения в воде. Отобранной пробы при комнатной температуре в необходимом количестве для проведения комплексных исследований физико-химических и технологических свойств образцов химических растворов, полученных на основе композиционных химических реагентов[3-5].

Список литературы

[1]. Аскаров М.А.,Негматов С.С., Абдукадирова Н.М., Абдукаромова Д.Н. Возбудители болезней растений и пути их распространений // Композиционные материалы. -Ташкент, 2017. -№3. - С.96.

[2]. А.С. 1119622 (СССР). Способ обработки семян хлопчатника / Махкамов К.М., Каримов Х.Х., Кадырова Д.Х. и Краков В.Э.// Б.И. - 1984. -№39.

[3]. Аскаров М.А., Негматов С.С., Абдукадирова Н.М., Эгамбердиев Б. Роль химических препаратов при возделывании хлопчатника, пшеницы и других сельхозкультур // Композиционные материалы. - Ташкент,2017. - №1. - С.25-26.

[4]. Абдукаримова Д.Н., Негматова К.С., Эминов Ш.О. Исследование физико-химических и технологическихсвойств na-карбосиметилцеллюлозы и композиционной порошкообразной госсиполовой смолы от их концентрации // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2020. №5(74).

[5]. Эминов Шерзод Олимжонович, Абдукаримова Динара Нуритдиновна Исследование влияния электрофизической природы и концентрации наполнителей на процесс электризации композиционных полимерных покрытий при взаимодействии с хлопком-сырцом. //Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2020. №6(75).

ҚУМЛИ ТУПРОҚЛАРДА ЛОВИЯ ВА ЕРЁНҒОҚНИ ҲАМКОР ЭКИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Н.Б. Усмонов

Фарғона политехника институти

(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Сув-физик, агрохимик ҳиссалари ўта ёмон бўлган чўл қумли тупроқлари шароитида ловия ва ерёнғоқ экинларини ҳамкор парваришлаш орқали сув ва минерал ўғитларни, экинларни парваришлаш ҳаражатларини тежаган ҳолда ерёнғоқдан 25,2-30,4, ловиядан 16,9-19,2 ц/га дан ҳосил етиштирилган. Шунингдек, тупроқ ва ўсимликка ноқулайлик туғдирмай экинларни 1:1 нисбатда дарё ва зовур сувларида суғориш орқали ҳудудга ҳос бўлган сув етишмовчилиги бартараф этилган.

Калит сўзлар: *Қумли тупроқ, ҳамкор экиш, ловия, ерёнғоқ экини, агротехнология.*

В условиях пустынных песчаных почв с очень плохими водно-физическими и агрохимическими свойствами при совместном выращивании фасоли и арахис, за счет экономии воды и минеральных удобрений себестоимость выращивания сельскохозяйственных культур составляет 25,2-30,4 ц у нута и 16,9-19,2 ц. с из фасоли.Собран с га. Также специфичный для региона дефицит воды устранен за счет орошения посевов в соотношении 1:1 речной и озерной водой, не причиняя неудобства почве и растениям.

Ключевые слова: *песчаная почва, совмещение культур, фасоль, арахис, агротехника.*

In conditions of desert sandy soils with very poor water-physical and agrochemical properties, by co-cultivation of beans and peanuts, by saving water and mineral fertilizers, the cost of growing crops is 25.2-30.4 c from chickpeas and 16.9-19.2 c from beans. Harvested from ha. Also, water shortage specific to the

region has been eliminated by irrigating crops in a ratio of 1:1 with river and lake water without causing inconvenience to the soil and plants.

Key words: *sandy soil, intercropping, beans, peanuts, agrotechnology.*

Мавзуни долзарблиги: Дунё миқёсида аҳоли сони юқори суръатларда ўсиб бораётганлигидан, озиқ-овқат, айниқса оқсилли ва мойли маҳсулотлар таъминоти глобал муаммога айланиб бормоқда.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг маълумотига кўра, дунё аҳолиси XXI аср бошига (2019 йилга) 7,7 миллиард кишини ташкил этгани ҳолда, аср охирига 11 миллиард кишига етиши кутилмоқда [1].

Шу боис, оқсил ва мойга бой бўлган маҳсулотлар етиштиришни кўпайтириб бориш муҳим ва ўта долзарб вазифа бўлиб қолди.

Бу борада ловия (оқсил 20-31, мой 0,7-3,6 %) ва ерёнғоқ (оқсил 26-28, мой 48-50 %) каби кенг истеъмолбоп ўсимлик маҳсулотлари етиштиришни кўпайтириш ғоят муҳим аҳамият касб этади [2,3].

Уларни айниқса, кам унумдор қумли тупроқлар шароитида етиштиришни йўлга қўйиш янада катта аҳамиятга эга.

Чунки, ер куррасининг улкан қисми (900 млн га) қумликлардан ва қумли тупроқлардан иборат [4] бўлгани ҳолда улардан мутлақо самарасиз фойдаланилади.

Мазкур шароитда ловия ва ерёнғоқ экинлари парваришлашни йўлга қўйиш орқали маҳсулот етиштиришни кўпайтириб бориш билан бирга, қумли тупроқ унумдорлигини ҳам ошириб бориш мумкин бўлади.

Ўзбекистон шароитида бу икки қимматли экинни кетма-кетликда парваришлаш орқали дон ҳосили етиштириш мумкин. Фақат, бунда ерёнғоқ ҳосилининг сифат ва салмоғи куз фаслининг об-ҳаво шароитига боғлиқ бўлиб қолади. Куз ойлари салқин ва серёғин келиши, ерёнғоқ ҳосилининг сифати ва салмоғини пасайтириб юборади. Айниқса, иқлим шароитларида бўлиб турадиган, эрта совуқ келишидан ерёнғоқ экини ҳосили жиддий зарарланиши ва ҳатто нобуд бўлиши мумкин.

Тадқиқот мақсади: Сув-физик, агрокиёвий хоссалари ўта ёмон бўлган чўл қумли тупроқлари шароитида ерёнғоқ ва ловия экинларини ҳамкор экиш орқали сув ва минерал ўғитларни, парваришлаш ҳаражатларини тежаган ҳолда, ловия ва ерёнғоқ экинларидан юқори ҳосил етиштириш агротехнологиясини ишлаб чиқиш.

Тадқиқот ўтказиш услуби ва шароити. Дала тажрибалари Марказий Фарғона чўл минтақасида кенг тарқалган қумли тупроқлар шароитида олиб борилди.

Тупроқнинг механик таркиби жуда енгил бўлиб, бир метрлик қатламда майда қум заррачалари 71,10-80,34, физик лойқа миқдори 7,96-9,17 % ни ташкил этади.

Шу боис, тупроқни сув ўтказувчанлиги жуда юқори бўлиб, сув тупроқ қатламлари бўйлаб “ғалвирдан ўтганидек” сингиб кетади. Нам сақлаш қобилияти ҳам ёмон бўлиб, чекланган дала нам сиғими 0-30 см тупроқ қатламида 7,2; 0-50 да - 8,1; 0-70 да - 8,7; 0-100 да - 9,4 % га тенг.

Ҳажм оғирлиги 0-30 см да 1,38-1,43; 30-50 да 1,39-1,45; 50-70 да 1,43-1,47; 70-100 да 1,32-1,38 г/см^3 дан иборат. Тупроқ ғоваклиги мос ҳолда 43,7-45,6; 42,9-45,3; 42,1-43,7 ва 45,6-48,0 % ни ташкил этади.

Гумус миқдори эса 0,342; 0,274; 0,293 ва 0,318 % га тенг.

Озиқа элементлари билан жуда кам таъминланган бўлиб, қишлоқ хўжалик экинларини парваришлаш учун ўта ноқулай.

Чўл минтақасида сув таъминоти оғир бўлганидан экинларни суғоришда, айниқса жазирама ёз ойларида зовур сувларидан фойдаланишга тўғри келади.

Шу боис, тажрибаларимизда ушбу омил ҳам инобатга олинди.

Тадқиқот натижалари: Қумли тупроқлар шароитида ловия ва ерёнғоқ экинлари яхши ўсиб ривожланди.

Айниқса, ўғитлаш $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га меъёрларда ўтказилганида ва ловия йиғиштириб олингач ерёнғоқ экини 50 кг/га меъёрда 2 маротаба азотли ўғитлар билан

озиқлантирилганида, экинлар дуркин ўсиб ривожланди ва бунда кучсиз минераллашган сувлар билан суғоришни экинларнинг ўсиши ва ривожланишига салбий таъсири кузатилмади.

Жумладан, 2017-тадқиқот йилида, ловия соф ҳолда экилиб (12.04) $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га меъёрда озиқлантирилгани ҳолда, фақат дарё сувида суғорилганида, бўйи 68,6 см ни, шохлар сони 9,6 ва мева дуккаклари сони 16,0 донани ташкил этди.

Ловия экини ичига ерёнғоқ экилиб (1.06), экинлар $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га ўғитлаш меъёрида 1:1 нисбатда дарё ва зовур сувларида суғорилганида бу кўрсаткичлар мос ҳолда 67,3 см, 9,4 ва 15,7 донадан иборат бўлди.

Ҳамкор экиш шароитида ўғитлаш меъёрини $N_{120}P_{120}K_{60}$ кг/га қадар камайтирилганида, ловия экинининг ўсиши ва ривожланишида кескин ўзгариш кузатилмагани ҳолда, ўсиш ва ривожланиш кўрсаткичлари 64,7 см, 8,7 ва 12,9 донага тенг бўлди.

Кейинги тадқиқот йилларида ҳам шу каби боғлиқли фарқланишлар кузатилди.

Ерёнғоқ ҳам ловия экини ичига экилгани ҳолда 1:1 нисбатда дарё ва зовур сувларида парваришланганида, яхши ўсиб ривожланди ва бўйи 52,6-56,1 см ни, туплар сони 7,4-7,7, мева дуккаклари сони 19,8-22,3 донани ташкил этди.

Ерёнғоқ ловия ҳосили йиғиштириб олингач, ўрнига экилгани ҳолда, фақат канал сувида суғорилганида, бу кўрсаткичлар мос ҳолда 51,3 см дан, 6,5 ва 17,1 донадан иборат бўлди.

Дарҳақиқат, ерёнғоқ ловия экини билан ҳамкор экилиб, ўғитлаш $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га меъёрларда ўтказилганида ва ерёнғоқ ловия ҳосили йиғиштириб олингач қўшимча 2 марта 50 кг/га азот билан озиқлантирилиб, 1:1 нисбатда дарё ва зовур сувларида парваришланганида, 3 йил давомида ўртача 30,4 ц/га ерёнғоқ ҳосили етиштирилди.

Эътиборлиси, ерёнғоқ ловия экини ичига экилгани ҳолда, ўғитлаш $N_{120}P_{120}K_{60}$ кг/га меъёрларда ўтказилганида ва ловия ҳосили йиғиштириб олингач ерёнғоқ экини бир маротаба 50 кг/га меъёрида азотли ўғит билан озиқлантирилганида ҳам юқори ҳосил (27,9 ц/га) етиштирилди.

Ерёнғоқ ловия ҳосили йиғиштирилиб олингач, ўрнига экилганида эса ўғитлаш меъёри $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га бўлишига ва фақат канал сувида суғорилишига қарамай ҳосилдорлик ўртача 25,2 ц/га ни ташкил этди.

Ловия экинидан ҳам қумли тупроқлар шароити учун салмоқли ҳосил етиштирилди.

Жумладан, ловия экини $N_{160}P_{160}K_{80}$ кг/га ўғитлаш меъёрида, фақат канал сувида суғорилиб парваришланганида, 3 йил давомида ўртача 19,8, худди шу ўғитлаш меъёрида 1:1 нисбатда канал ва зовур сувларида парваришланганида 19,2, мазкур суғориш усулида ўғитлаш меъёри $N_{120}P_{120}K_{60}$ кг/га камайтирилганида 16,9 ц/га ловия дони ҳосили етиштирилди.

Ҳулоса: Демак, чўл қумли тупроқлари шароитида ловия ва ерёнғоқ экинларини ҳамкор экиш орқали:

1) Сув ва минерал ўғитлар сарфини, экиш ва парваришлаш ҳаражатларини қисқартириш;
2) Сув тақчиллиги кучаядиган ёз ойларида 1:1 нисбатда дарё ва зовур сувларидан фойдаланган ҳолда, экинларни суғориш тупроқ ва ўсимликка ноқулайлик туғдирмай экинлардан мўл ҳосил етиштириш мумкин бўлади.

Адабиётлар

[1]. www.kun.uz сайти.
[2]. https://uz.wikipedia.org/wiki/Loviya
[3]. Аманова М ва бошқалар. “Ерёнғоқ экинини етиштириш агротехникаси бўйича тавсиянома”. “NISIM”, 2016.
[4]. Sandy soils, ФАО Soils Bulletin, Rome, 2001
[5]. Доспехов В.А. “Методика полевого опыта” 5-ое изд.с доп. и перераб. М.Агропромиздат, 1985.
[6]. “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”. М. Колос, 1971.
[7]. Методы агрохимических агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах.СоюзНИХИ. Ташкент, 1963.

CHIGITLI PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASH TEXNOLOGIYASINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

H.E. Turdiyev

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada milliy boyligimiz chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida yirik va mayda ifloslikdardan tozalashda turli muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni yechimini toppish maqsadida chigitli paxtani mayda ifloslikdardan tozalash mashinasi boshqa modellarga nisbatan yetarli darajada samaradorliroq ekanligi tahlil qilish natijasida aniqlandi.

Kalit so‘zlar. arrali baraban, kolosnikli panjara, to’rli yuza, ta‘minlovchi valik, cho’tkali baraban, ifloslik bunkeri.

В данной статье наше национальное богатство сталкивается с различными проблемами переработки хлопка-сырца от крупных и мелких примесей. Чтобы найти решение этих проблем, в результате анализа было установлено, что машина для очистки семенного хлопка от мелких примесей более эффективна, чем другие модели.

Ключевые слова. Пильный барабан, колосниковая решетка, сетчатая поверхность, подающий ролик, щеточный барабан, грязевой бункер.

In this article, our national wealth is faced with various problems in the processing of seed cotton from large and small impurities. In order to find a solution to these problems, it was determined as a result of the analysis that the machine for cleaning seed cotton from small impurities is more efficient than other models.

Keywords. saw drum, colosnik grid, mesh surface, supply roller, brush drum, dirt hopper.

Kirish. Respublikamizda yetishtirilayotgan asosiy paxta xom ashyosini miqdori yuqori navlarga to‘g‘ri kelishini inobatga olsak, va ularda 8-9 % namlik mavjud bo‘lib, ularni quritishda sovuq havodan foydalanib quritiladi yoki umuman quritish barabanlaridan o‘tkazilmaydi. Namlik 9-10 % bo‘lganda esa, 1-2% namlikni qochirish uchun quritish barabanlarida paxta xom ashyosini qayta ishlanadi. Bu uslub bilan paxta quritilganda ko‘p sarf harajat talab qiladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishga qo‘yilayotgan talablarga bu uslubda paxtani quritish javob bermaydi. Shuning uchun bunday namlikdagi paxta xom ashyosini boshqa uslublarda quritish jarayonini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonasining ish unumdorligi va samaradorligini oshishi, pasayishi chigitli paxtani quritish tozalash, texnologik jarayonlariga bog‘liq. Xozirgi kunda paxta navlarini turlarini ko‘payishi va qiyin tozalanuvchi deb ataluvchi aloxida navlarini kelib chiqishi sababli chigitli paxtani mayda ifloslikdardan tozalash texnologiyasi va texnikasini takomillashtirishni talab etmoqda.

Xozirgi kunda paxta tozalash koxonalarining tozalash bo‘limlarida 1XK va 6A-12M rusumli paxtani mayda ifloslikdardan tozalash uskunalaridan keng foydalanilmoqda. 1XK uskunasining boshqa uskunalardan afzallik tomoni ish unumdorligi va tozalash samaradorligining yuqoriligidir. Shuningdek 1XK rusumli uskunaga xizmat ko‘rsatish va uni qayta ta’mirlash birmuncha oson.

Respublikamizda yetishtirilayotgan asosiy paxta xom ashyosini miqdori yuqori navlarga to‘g‘ri kelishini inobatga olsak, va ularda 8-9 % namlik mavjud bo‘lib, ularni quritishda sovuq havodan foydalanib quritiladi yoki umuman quritish barabanlaridan o‘tkazilmaydi. Namlik 9-10 % bo‘lganda esa, 1-2% namlikni qochirish uchun quritish barabanlarida paxta xom ashyosini qayta ishlanadi. Bu uslub bilan paxta quritilganda ko‘p sarf harajat talab qiladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishga qo‘yilayotgan talablarga bu uslubda paxtani quritish javob bermaydi. Shuning uchun bunday namlikdagi paxta xom ashyosini boshqa uslublarda quritish jarayonini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Chigitli paxta xom ashyosini mayda ifloslikdardan tozalash uskunasida quritish jarayonini amalga oshirish asosida 1XK tozalash uskunasini takomillashtirish maqsad qilindi.



1-rasm. 1XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash uskunasining sxemasi. 1-taominlash valiklari; 2-qoziqchali-parrakli barabanlar; 3-to‘rli sirt (yuza); 4-ifloslik bunkeri; 5-nov.



2-rasm. Taklif etilayotgan quritish tozalash jarayonlari mavjud bo‘lagn 1XK uskunasining ko‘ngdalang qirqim sxemasi. 1-ta’minlovchi valiklar, 2-issiq havo berish quvuri, 3-qoziqchali baraban, 4-to‘rli yuza, 5-ifloslik bunkeri, 6-tuynuk, 7-chiqish bo‘g‘zi.



3-rasm. 1XK tozalash uskunasiga issiqlik berish quvuri sxemasi.

1XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash uskunasining ishlash jarayoni quyidagicha: Chigitli paxta ta’minlash valiklari ustiga o‘rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanuvchi ta’minlash valiklari chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir tekis o‘zatadi. Qoziqchali baraban soat strelkasi bo‘yicha aylanib o‘z navbatida chigitli paxtani titkilab turli sirt ustidan olib o‘tadi va ikkinchi barbanga uzatadi. Shu tartibda chigitli paxta hamma barabanlarda tozalanib mayda iflosliklardan ajratiladi. Ajratilgan iflosliklar barabanlar tagidagi turli sirt teshiklari orqali ifloslik bunkerlarining qiya devorlari buylab pastga tushadi va pnevmatransport bilan so‘rib olinadi. Tozalangan chigitli paxta esa uskunadan chiqarilib keyingi texnologik jarayoniga uzatiladi.

Qoziqchali barabanlarga (2) paxta tushadi va qoziqchalar bilan titilib, to‘rli yuzaga (3) uriladi.

Natijada chigitli paxta silkitilib, mayda iflosliklardan tozalanadi. To‘rli yuza orqali ajralib chiqqan iflosliklar bunkerlarga (4) tushib, yig‘uvchi shnek yordamida tashqariga chiqarib ketadi.

1-XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash mashinasini texnalogik jarayonlar takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazildi va tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki birinchi qoziqli barabandan hosil bo‘lgan havo oqimi tarkibida mayda iflosliklar (tuproq va g‘o‘za bargining zarachalari) havo bilan aralashib keyingi bo‘limlarga o‘tishi va yana paxtaga tushishi aniqlandi. Shu muamolarni o‘rganish maqsadida birinchi qoziqli baraban tepa qismiga barabanda aylanishda hosil bo‘lgan xavoni so‘rib oluvchi moslama tayyorlandi va tajriba sinovlari o‘tkazildi.

Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasining qoziqchali barabanlari ustidan issiq havo berish orqali namligi past bo‘lgan (8-9%) paxtani quritishni taklif qilndi.

XULOSA

1-XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash mashinasini texnalogik jarayonlar takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazildi va tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki birinchi qoziqli barabandan hosil bo‘lgan havo oqimi tarkibida mayda iflosliklar (tuproq va g‘o‘za bargining zarachalari) havo bilan aralashib keyingi bo‘limlarga o‘tishi va yana paxtaga tushishi aniqlandi. Shu muamolarni o‘rganish maqsadida birinchi qoziqli baraban tepa qismiga barabanda aylanishda hosil bo‘lgan xavoni so‘rib oluvchi moslama tayyorlandi va tajriba sinovlari o‘tkazildi.

Adabiyotlar

[1]. F.B.Omonovning umumiy taxriri ostida tayyorlangan. “Paxtani dastlabki ishlash” bo‘yicha spravochnik(ma’lumotnoma). Toshkent - “Voris” - 2008 y.
[2]. Y.Z.Zikriyoyev “Paxtani dastlabki qayta ishlash” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Mehnat” 2002 y.satdi
[3]. Балтабаев С.Д., Парпиев А.П. “Сушка хлопка-сырца”. Учебник. Ташкент. “Ўқитувчи”, 1980г.

MOYLI KUCH TRANSFORMATORLARIDA HOSIL BO‘LGAN QISMAN RAZRYADLANISH ORQALI TEXNIK HOLATINI BAHOLASH

I.K. Ismoilov

Farg‘ona politexnika instituti, E-mail: i.ismoilov@ferpi.uz
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Maqolada qisman zaryadsizlanishlarni o‘lchash usuli yordamida kuch transformatorlarining izolyatsiya holatini diagnostika qilishning dolzarb muammosi ko‘rib chiqiladi. Ish sharoitidagi moyli kuch transformatorlarida qisman zaryadsizlanishlarni eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqdim etadi. Qisman razryadlarning elektr signallarini tahlil qilish asosida biz moyli kuch transformatorlarning izolyatsiya nuqsonlari darajasi va xarakterini baholash imkonini beradi. Maqola moyli quvvat transformatorlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch t so’zlar: *Moyli kuch transformatori, kuchlanish, qisman zaryadsizlanish*

В статье рассмотрена актуальная проблема диагностирования состояния изоляции силовых трансформаторов методом измерения частичных разрядов. Представлены результаты экспериментальных исследований частичных разрядов в силовых масляных трансформаторах в условиях эксплуатации. На основе анализа электрических сигналов частичных разрядов можно оценить степень и характер дефектов изоляции силовых масляных трансформаторов. Статья имеет практическое значение для повышения надежности и безопасности масляных силовых трансформаторов.

Ключевые слова: *Масляный силовой трансформатор, напряжение, частичный разряд.*

The article discusses the current problem of diagnosing the insulation state of power transformers by measuring partial discharges. The results of experimental studies of partial discharges in power oil transformers under operating conditions are presented. Based on the analysis of electrical signals of partial discharges, it is possible to assess the degree and nature of insulation defects in power oil transformers. The article is of practical importance for increasing the reliability and safety of oil-based power transformers.

Key words: *Oil power transformer, voltage, partial discharge*

Moyli kuch transformatorlari kuchlanish va quvvat oqimning samarali ta’minlovchi elektr energiya tizimlarining asosiy elementi hisoblanadi [1-48]. Ular elektr energiyasini uzatish va taqsimlashda, elektr jihozlarining barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [1, 2, 5, 7, 7, 15, 20, 25, 33-44]. Moyli kuch transformatorlarni ishlab chiqish, takomillashtirish, samaradorligini oshirish, ishonchliligi va xavfsizligiga nisbatan tez o‘zgaruvchan talablarni hisobga olgan holda, energetika sanoatida dolzarb masalalar hisoblanadi [1-48]. Moyli kuch transformatorlarning izolyatsiyasi, ishlashi va chidamliligiga ta’sir qiluvchi asosiy qisimlardan biridir. Qisman zaryadsizlanishlar moyli kuch transformator izolyatsiyasida paydo bo‘ladi va qisqa muddatli elektr zaryadlarini ifodalaydi, bu esa izolyatsiyaning buzilishiga va natijada uskunaning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin [1. 3, 5, 6, 15, 17, 20-25]. Shuning uchun, qisman zaryadsizlanish tekshiruvi va monitoringi moyli kuch transformatorlarining ishonchli ishlashini

ta’minlash uchun muhim vazifalardir. Ushbu tadqiqotda moyli kuch transformatorlarida qisman zaryadsizlanish masalasini ko‘rib chiqadi. Qisman zaryadsizlanish paydo bo‘lishining sabablari va mexanizmlari, ularning transformatorlarning holatiga ta’siri, shuningdek, ushbu hodisani tahlil qilish va monitoring qilish usullari o‘rganiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi qisman zaryadsizlanish muammosini ochib berish, elektr energiya tizimlarining samaradorligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradigan qisman zaryadsizlanish orqali moyli kuch transformatorlarning texnik holatini baholash haqida ma’lumot berishdir.

M4202 (Siemens) qurilmasi qo‘llash orqali moyli kuch transformatorida hosil bo‘lgan qisman razyadlanish texnik holatini diagnostikalash maqsadida aniqlandi.

Barcha o‘lchov ishlari ishchi holatdagi moyli kuch transformatorida amalga oshirildi. Ushbu olingan natijalar orqali moyli kuch transformatorining izolyatsiyasini tahlil qilish orqali texnik holatiga baho berildi va rivojlanayotgan nuqsonlar bashorat qilindi.

Quyidagi yuqori kuchlanishli moyli kuch transformatorlarida tajriba ishlari olib borildi.

AT1.АТДТН-125000/330/110-У1, 2010 yilda ishlab chiqarilgan va 2011 yilda ekspluatatsiyaga qo‘yilgan;

Olingan tajriba natijalar.

moyli kuch transformatorlarining quyidagi nuqtalarida qisman zaryadsizlanish holatini aniqlash uchun tajriba tadqiqotlar o‘tkazildi.

Qisman razyadlanish zaryad miqdorining kattaligi M4202 qurilmasi (Siemens) tomonidan moy kuch transformatorining bakida va yuqori kuchlanish izolyatorida aniqlandi;

Moyli kuch transformatori bakining yuqori kuchlanish tomoni har bir fazaning quyi, o‘rta va yuqori aloqa nuqtalarida;

Moyli kuch transformatori bakning quyi kuchlanish tomoni har bir fazaning quyi, o‘rta va yuqori nuqtalarida;

Moyli kuch transformatori bakining yuqori kuchlanishli kirish izolyatorlarining har bir fazasi uchun masofadan turib:

Eksperimental tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalarga olindi:

AT1.АТДТН-125000/330/110-У1, markali transformatorda olingan qisman razryadlanish zaryad miqdorining qiymatlari (1-grafik)

1-grafik



Ushbu moyli kuch transformatori 12 yil ishlagan. Qisman razryadlanish miqdori ishchi kuchlanishi va quvvatiga qaraganda juda yaxshi. Tajriba payitida tashqi havo harorati 32^0C, yuklamasi nominal (quvvatiga qaraganda 70 % yuklama ostida). Ushbu transformatorda avariya

holatlari kuzatilmagan. O‘rnatilgan joyi havo harorati mo‘tadil, ya’ni – 20^0C dan 45^0C gacha harorat o‘zgarishi kuzatiladi

Nazariy jihatdan qisman razryad hosil bo‘lishi uchun qattiq va suyuq izolyatsiya shikastlanishi kerak yoki shikastlanish rivojlanayotgan bo‘lishi lozim. Boshqa tomon izolyatsiya ideal bo‘lmaydi, shu sababli qisman razryadlanish har doim kuzatiladi. Moyli kuch transformatorlarida qisman razryadlaning yuzaga kelishi ehtimollar nazariyasiga ko‘ra hisoblash mumkin. Unga ko‘ra quyidagicha ifodalaymiz [21-27]:

$$P = A \cdot exp(-\frac{W}{kT}); \quad (1)$$

Bu yerda: P_{PD} – qisman razryadlanishni yuz berish ehtimolligi, A –koeffitsiyent, moyli kuch transformator xarakteristikasiga va elektr yuklama rejimiga bog‘liq., W - razryad hosil bo‘lishning minimal miqdor energiyasi, k – Boltsman doimiysi ($8.617333262145 \cdot 10^{-5}$ eV/K), T – harorat(K).

Qisman razryadlanish yuzaga kelish ehtimolligi formulasidagi A koeffitsiyent moyli kuch transformatorning geometrik holati, elektr xarakteristikalari, moy ichidagi gaz tarkibiga bog‘liq bo‘lib bir payta ularning texnik holatini ifodalaydi. (1) ifoda emperik formula hisoblanadi, laboratoriya sharoitida olingan natijalarga ko‘ra aniqlangan. Bu koeffisiyentni Gurevi-Shumyakov modeliga ko‘ra quyidagicha aniqlashimiz mumkin [34-38].

$$A = 3.2 \cdot 10^{10} \cdot (\frac{p}{p_0}) \cdot (\frac{B}{B_0}) \cdot (\frac{E}{E_0})^2 \cdot (\frac{d}{d_0})^2; \quad (2)$$

Bu yerda: p – gaz muhitining bosimi, B – magnit induksiya, E – elektr maydon kuchlanganligi, d – elektrodlar orasidagi masofa.

p_0, B_0, E_0, d_0 – gost bo‘yicha standar qiymat sifatida qabul qilinadigan doimiy kattaliklar.

Quyidagicha xisoblash mumkin:

- $A = 1 \cdot 10^{-5}$ (keltirilgan birlikda);
- $W = 1 \cdot 10^{-18}$ eV;
- T=300 K (normal sharoitdagi harirat):

Hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan qisman razyadlanishning extimolligi:

$$P = 1 \cdot 10^7 exp\left(-\frac{1 \cdot 10^{-18}}{8.617333262145 \cdot 10^{-5} \cdot 300}\right) = 0.0000765.$$

Qiymatlarni almashtirib, hisob-kitoblarni amalga oshirgandan so‘ng, biz qisman zaryadsizlanish ehtimolini olamiz. Ushbu qiymat transformatorning holatini tashhislash va qisman zaryadsizlanish xavfini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

(1) va (2) formulalar yordamida qisman oqizishning paydo bo‘lishini extimolligini aniqlash mumkin. Qisman zaryadsizlanishning ortishi moyli kuch transformatorida rivojlanayotgan nuqsonlar paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Ushbu nuqsonlar kirish izolyatsiyasining holati, transformator moyi, harorat, gaz bosimi va moy bilan to‘ldirilgan quvvat transformatorining magnit o‘zagi bilan bog‘liq.

Xulosa.

Transformator bakida hosil bo‘lgan qisman tushirish 21 nuqtada o‘lchandi. Qisman razryadlanish bak bo‘ylab taqsimlanadi, shuning uchun bitta moy bilan to‘ldirilgan transformator bakining barcha nuqtalarida zaryad darajasi bir-biridan katta farq qilmaydi. Tajribada aniqlagan moyli kuch transformatorida 210 pC maksimal zaryad miqdori qayt etilgan. Qisman zaryadsizlanishlar qiymati kichik bo‘lganligi sababli, ushbu transformator izolyatsiyasining texnik holati juda yaxshi holatda.

Adabiyotlar.

[1]. A. Akbari, P. Werle, H. Borsi, and E. Gockenbach, “Transfer function-based partial discharge localization in power transformers: A feasibility study,” IEEE Electr. Insul. Mag., vol. 18, no. 5, pp. 22–32, 2002.

[2]. M. Meira, C. R. Ruschetti, R. E. Álvarez, and C. J. Verucchi, “Power transformers monitoring based on electrical measurements: State of the art,” IET Gener. Transm. Distrib., vol. 12, no. 12, pp. 2805–2815, 2018.
[3]. A. R. Abbasi, M. R. Mahmoudi, and Z. Avazzadeh, “Diagnosis and clustering of power transformer winding fault types by crosscorrelation and clustering analysis of FRA results,” pp. 4301–4309, 2018.
[4]. S. M. Bhatt, D. Kumar, and K. Patel, “Partial Discharge Analysis in Time and Time-Frequency Domain of Solid Dielectric in Power Transformer,” 2018 5th IEEE Uttar Pradesh Sect. Int. Conf.
[5]. Electr. Electron. Comput. Eng. UPCON 2018, 2018.
[6]. A. Santosh Kumar, R. P. Gupta, K. Udayakumar, and A. Venkatasami, “Online partial discharge detection and location techniques for condition monitoring of power transformers: A review,” Proc. 2008 Int. Conf. Cond. Monit. Diagnosis, C. 2008, pp. 927–931, 2008.
[7]. A. J. M. Cardoso and L. M. R. Oliveira, “Condition monitoring and diagnostics of power transformers,” Int. J. COMADEM, vol. 2, no. July 1999, pp. 5–11, 1999.
[8]. S. Li and J. Li, “Condition monitoring and diagnosis of power equipment: Review and prospective,” High Volt., vol. 2, no. 2, pp. 82–91, 2017.

YOG‘ SANOATIDA MAXSAR URUG’I VA UNI YETISHTIRISH ISTIQBOLLARI

G.K. Najmitdinova

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqola Maxsar (Carthamnus) — murakkab-guldoshlarga mansub bir, ikki va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, moyli ekin. Aksariyati O‘rta dengiz atroflari, G‘arbiy va O‘rta Osiyoda o‘sadigan 19 turi ma’lum. Dehqonchilikda C.tinctorius (bo‘yoqli M.) turi ekiladi. Vatani — Efiopiya va Afgoniston. O‘rta Osiyoda qadimdan, Misr, Hindi-ston, Xitoyda miloddan avvalgi, Yevropada 18-asrdan yetishtiriladi.

Kalit so’zlar: *yog’, moy, fizik, kimyoviy, maxsar, kunjara, ekin, o’simlik, poya, sterollar.*

В данной статье махсар (Carthamnus) - группа однолетних, двулетних и многолетних травянистых растений, относящихся к семейству сложноцветковых, масличных. Известно 19 видов, большинство из которых произрастают в Средиземноморском регионе, Западной и Центральной Азии. Вид C.tinctorius (краситель М.) культивируется в сельском хозяйстве. Родина — Эфиопия и Афганистан. Культивируется в Средней Азии с древнейших времен, в Египте, Индии, Китае до нашей эры, в Европе с 18 века.

Ключевые слова: *масло, масло, физическое, химическое, растение, растение, стебель, стерины.*

In this country, Mahsar (Carthamnus) is a group of annual, biennial and perennial herbaceous plants belonging to the family of Compositae, oilseeds. There are 19 known species, most of which originate from the Mediterranean, Western and Central Asia. The species C.tinctorius (M. dye) is cultivated in agriculture. Homeland: Ethiopia and Afghanistan. Cultivated in Central Asia in ancient times, in Egypt, India, China and Europe in the 18th century.

Key words: *oil, oil, physical, chemical, plant, plant, stem, sterols.*

O‘rta Osiyoda qadimdan, Misr, Hindi-ston, Xitoyda miloddan avvalgi, Yevropada 18-asrdan yetishtiriladi. Yovvoyi hoddao‘sishi kuzatilmagan. Hindiston, Turkiya, Eron, Xitoy, Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa mamlakatlarda, shuningdek, O‘rta Osiyoda faqat O‘zbekistonda — Jizzax, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida (lalmi yerlarida) ekiladi. Bir yillik issiqsevar, qurg‘oqchilikka juda chidamli ekin. Bo‘yi 60— 120 sm, poyasi silliq, barglari nashtarsimon, tikanli va tikansiz. To‘pguli savatcha, sariq, jigarrang. Mevasi pista, urugi oqish. 1000 dona urugi vazni 25—50 g. Asosan chetdan changlanadi. O‘suv davri 95—135 kun. Tuproqtanlamaydi. Urugi 1—2° da una boshlaydi, maysalari —6, —7°C sovuqqa bardosh beradi. Urugi tarkibida 47—61% gacha oziq-ovqatga ishlatiladigan moy bor. Maxsar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan moyli ekin bo’lib, qurg’oqchilikka chidamli hisoblanadi. Maxsar O’zbekistonda ham moyli ekin sifatida ekiladi. O’simlikning urug’lari tarkibida 25-45% yarim quriydigan moy mavjud. Moyi oziq-ovqatda, margarin tayyorlashda, texnikada foydalaniladi. Maxsar kunjarasi tarkibida oqsil va yog’ mavjud.

Qobiqli tarzda bosilgan kunjarada 17% xom oqsil va 7% xom yog' mavjud. Qobiqsiz holatda bosilgan kunjarada esa 46% miqdorda xom oqsil va 8-9% miqdorda xom yog' mavjud. Yog'ning olinishidan keyin qoladigan oqsilga boy maxsar kunjarasi sigir, qo'y va qo'zilarni boqishda qo'shimcha yem sifatida ishlatiladi. Kunjarasini ozuqa ratsioniga aralashtirilib chorva hayvonlariga berish mumkin. O'simlikning gullaridan esa ikki xil rang moddasi olinadi. Birinchisi suvda eriydigan sariq rangni beruvchi qolgani esa suvda erimaydigan olovrang qizil rangni beruvchi modda hisoblanadi. Guldagi bu rang moddalari ozuqa va mato bo'yashda ishlatiladi [1].

1-rasm. Maxsar o'simligi mevasining umumiy ko'rinishi.

2-rasm. Maxsar o'simligining umumiy ko'rinishi.

Morfologiyasi Maxsar bir yillik uzun kun o'simlik bo'lib, o'sish davri o'rtacha 130-150 kun. Haddan tashqari shoxlanuvchi o'tsimon va tuya tikaniga o'xshash bu o'simlikning urug'lari kichik kungaboqarga o'xshaydi. Poyasi tuksiz, sershox, baquvvat silindrsimon tuzilishga ega. O'simlik bo'yi nav xususiyati va yetishtirish agrotexnikasiga bog'liq holda 80-120 sm ga yetadi. Asosiy poyada 15-20 sm uzunlikda yon shoxlar vujudga keladi.

Barg. Barglari bandsiz, tuksiz, lansetsimon, kengligi 2,5-5 sm uzunligi esa 10-15 sm atrofida o'zgaradi. Barglar tananing pastki qismida odatda katta va o'tkir tishli bo'ladi. Gullarning atrofini o'rab olgan qaychi barglari tuxum shaklida va qattiq tuzilishga ega. Barglardagi tikanlilik turga xoC xususiyat bo'lib tikanli turlarda pastdan tepaga qarab ko'payadi.

Maxsarning gul tuzilishi kungaboqar o'simligiga o'xshaydi. Odatda gullar doirasimon, yassi savatcha shaklga ega. Gul savatchasi asosiy poya va shoxlarning uch qismidan chiqadi. Birlamchi shoxlar ikkilamchi shoxlarga nisbatan erta gullaydi. Gullash o'simlikning asosiy poya uchidagi gullarda boshlaydi va uning ortidan yetilgan birlamchi shoxlar davom ettiradi, ortidan esa ikkilamchi va uchinchi darajali shoxlar keladi. O'simlikda jami gullash davri 10-40 kun atrofida o'zgarib turadi.

3-rasm. Maxsar urug'ining umumiy ko'rinishi.

Bu davrning uzunligi atrof-muhit sharoiti tufaylidir. Savatcha hajmi 1,25-4 sm oralig'ida o'zgaradi. O'simlikdagi savatcha soni esa 5-50 atrofida bo'ladi. Gullash odatda savatchaning chetlaridan boshlaydi va markazga qarab boradi bir savatchada gullash 3-5 kun oralig'ida bo'ladi. Urug'. Qalin qattiq va tolali meva po'stlog'iga ega. Odatda donida po'stloq miqdori 50% atrofida bo'ladi. Urug' po'stlog'ining rangi oq rangi hisoblanadi. Meva po'stlog'ida tikan bo'lmasligi bilan birgalikda ba'zi tikanli turlarda nozik kam tikanni uchratish mumkin.1000 dona urug' vazni esa 40-50 gr oralig'ida bo'ladi [2].

Maxsar asosan issiq iqlim sharoitida o'suvchi o'simlik bo'lib qurg'oqchilikka va juda issiqqa chidamli. Urug'i 2-5 °C da unib chiqadi, maysalari -7 °C gacha sovuqqa bardosh beradi.

Gullash va pishish davrlarida issiqlikka juda talabchan bo'ladi. Kurtaklanish va gullashdan keyin issiqlik 0 °C dan pasaymasligi lozim. Gul kurtaklari yuzaga kelgandan so'ng esa 0 °C dan past havo harorati gul va meva hosiliga negativ ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, poya hosil qilgandan so'ng 40-45 °C ga yetuvchi issiqliklardan zarar ko'rmaydi. Qurg'oqchilikka chidamli o'simlik hisoblangan maxsar bir qancha o'simliklar foydalana olmaydigan tuproq namligidan ildiz tuzilishi orqali juda yaxshi foydalanadi. Mamlakatimizda asosan lalmi yerlarda Jizzax, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ekiladi. Yog'ingarchilikning katta qismi gullash fazasigacha bo'lgan davrga to'g'ri kelsa, hosildorlik birmuncha yuqori bo'ladi. Yog'ingarchilikning haddan tashqari ko'p bo'lishi va namlikning ortishi zamburug' kasalliklarini ko'paytiradi. Gullash davrida yuzaga kelgan yog'ingarchilik changlanishga negativ ta'sir ko'rsatadi. Tuproqqa talabi. Maxsar o'simligi tuproqqa talabchan emas. Ammo botqoqlashgan va nordon tuproqlarda yetishtirilmaydi. Kislotali tuproqlar ildiz chirishi kasalligiga olib keladi. Boshqa tomondan ko'pgina o'simliklarni yetishtirib bo'lmaydigan tuproqlarda maxsar yetishtirish mumkin.

Maxsar tojbarglarining butunlay qurishi pistalarining oqargani va barglarning jigarrangga o'zgargani hosilni yig'ish muddati kelganini anglatadi. Bu davrda urug'dagi namlik darajasi 10 foizdan pasayadi.

Maxsar odatda iqlim sharoitiga va o'tkazilgan agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda gullashdan 35-45 kun o'tgandan so'ng pishib yetiladi. Hosilni yig'ish kombayn yordamida amalga oshiriladi. Maxsar o'simligida donli ekinlar singari hosilni yig'ish davrida donlarning to'kilishi kuzatilmaydi [3].

Adabiyotlar

[1]. Qodirov Y., Ravshanov D., Yunusov O. O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014. 315 bet.

[2]. Арутунян Н.С., Корнена йе.П. и др. Технология перработки жиров. Москва, Пишепромиздат, 1999, 452 с.

[3]. Практическойе руководство по переработки и испольъзованию подсолнечника. Под.ред. Дейвира э.,Ериксона М. :Максентр,2002,652 с.

[4]. Голдовский А.М. Реоретическийе основи производство растителъних масел. М. Пишепромиздат, 1988, 312 с.

[5]. Авт. свид. № 1673594, С 11 В 3/00, Способ рафинатсии растителъних масел и мисселл. Арутюнян Н.С., Казарян Р.В., Пихалова С.Д. и др., 1991, Бюл. № 32

[6]. Кадиров Ю.К, Хамракулова М.Х., и др. Исследованийе протсесса рафинатсии растителъних масел // Узб.хим.жур., 2002, № 4, с. 64-66.

[7]. Волотовская С.Н., Стерлин Б.Я., Игнатъйева Л.М., Влиянийе режима смешения масла С водой на степенъ виведения фосфорсодержаших вешеств. Масло жировая промишленностъ, 1973, №1, С 16-18.

YOVVOYI OLXO'RIDAN XUSHBUY SOUS YARIMFABRIKATLARNING ISHLAB CHIQARISHNI TAKOMILASHTIRISH

D.D. Abdusamatova

Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston, adilnozaxon93@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada meva asosida funktsional vazifani bajaruvchi yangi turdagi sous-pasta yarimfabrikatlarining retseptlarini yaratish, ularning asosida yangi souslar tayyorlash, shuningdek sous-pasta yarimfabrikatlari va tayyor souslar assortimentini kengaytirishdan iborat.

Kalit so'zlar: *Osh tuzi, asal, yalpiz, monosaxaridlar, bakteritsid.*

Данная статья заключается в создании рецептур новых видов соусов-полуфабрикатов и паст на основе фруктов, приготовлении новых соусов на их основе, а также расширении ассортимента соусов-полуфабрикатов и готовых соусов.

Ключевые слова: *Поваренная соль, мед, мята перечная, моносахариды, бактерицид.*

This article consists in creating recipes of new types of semi-finished sauce-pasta products based on fruit, preparing new sauces based on them, as well as expanding the assortment of semi-finished sauce-pasta products and ready-made sauces.

***Key words**: Table salt, honey, peppermint, monosaccharides, bactericide.*

Umumiy ovqatlanishni sanoatlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu-yuqori tayyorgarlik darajasida bo'lgan yarimfabrikatlar va pazandachilik taomlari bilan kompleks ta'minlash xisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoatidagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, yarimfabrikatlar tayyorlashdagi barcha jarayonlarni yuqori mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarida bajarilishi ijtimoiy va iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofidir. Bunda korxonalarda mavjud bo'lgan yuqori unumdor texnologik jixozlardan mavsum oralig'ida foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Umumiy ovqatlanish tizimi korxonalari yarimfabrikatlardan foydalanganda yuqori samaradorlikka erishadi: tayyorlov bo'limlariga extiyoj qolmaydi, taomlarni tayyorlash vaqti qisqaradi, korxonalarning sanitariya xolati yaxshilanadi.

Yovvoyi olxo'ridan xozirgi paytda asosan povidlo va kompotlar ishlab chiqarilmoqda, ammo bu turdagi xomashyolardan ishlab chiqarilgan maxsulotlar assortimenti tor doirada. Yovvoyi olxo'ridan xushbo'y ziravor ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etilmoqda. Oziqaviy qo'shimcha sifatida yanchilgan kashnich, qizil qalampir, tuz ishlatildi. Osh tuzi konservant hisoblanadi, bijg'ituvchi mikroorganizmlar, mog'or, zamburug'larni yo'qotadi va mahsulot rangini o'zgartiruvchi fermentlarni saqlovchi olxo'ri polifenollarining ingibitori. Kashnich tarkibida 0,2-1,6 % efir moylari tutadi, shuningdek, 16-18% ni tashkil qiluvchi moy kislotalari, alkaloidlar, pektin, kraxmal, oqsil moddalar, sterinlar, steroid birikmalar, askorbin kislota va b. moddalardan iborat [1]. Tarkibidagi moddalar, ayniqsa efirlar tufayli muhim ahamiyatga ega, uning tarkibida asosan linanol bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega, ishtaxani ochadi, ovqat hazmini yaxshilaydi, o't haydash, yaralarni bitirish hususiyatiga ega. Kashnichni singaga qarshi, antiseptik va og'riq qoldiruvchi sifatida ishlatish tavsiya etilgan. Qizil qalampir S vitamini manbai (250*mg%*), efir moylari 0,7% dan 2,6 gacha tashkil qiladi. O'tkir achchiq ta'm uning tarkibida kapsaitsin alkoloidi (0,5 dan 1% gacha) borligi sababli vujudga keladi. Karotinoidlar miqdori bo'yicha qizil qalampir sabziga yaqin turadi. Qizil qalampir tarkibida R-vitamin faolligiga ega bo'lgan flavonoidlar (kvartsetin va lyuteopin glikozidlari) mavjud. Rutin miqdorining ko'p bo'lishi tufayli qizil qalampirni iste'mol qilish qon tomirlarini mustahkamlaydi, samarali antisklerotik ta'sir ko'rsatadi. Bu vitaminlar qon tomirlari o'tkazuvchanligini me'yorlashtirib, devorlar elastikligini tiklaydi, xolesterinning tomirlardan chiqib ketishini ta'minlaydi.

Yuqorida nomlangan barcha oziqaviy qo'shimchalar bundan tashqari, qizil qalampir va kashnich aromatik moylar tufayli o'ziga xos xushbo'ylikka ega. Xosil qilingan xushbo'ylik olxo'rini protirkalash va issiqlik ishlovi berishda ham yo'qolmaydi. Efir moylarining uchuvchanligini yo'qotib turadigan komponent sifatida olxo'rida NaCl, pektin,organik kislotalar qatnashadi. Maxsulotda komponentlarning nisbati organolentik ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. [2]

Yovvoyi olxo'ridan xushbuy sous yarimfabrikatlarning ishlab chiqarishda biz asal va yalpiz kabi qo'shimchalarni tanladik. Olxo'ri va o'rik mevalarida NaCl-ning massa ko'chishini o'rganish bizga ularga ishlov berishning muqobil rejimlarini tanlash imkonini berdi. Olxo'rilar uchun 8-10% NaCl eritmasida tutib turish kifoya qildi. NaCl eritmasi meva etidan u erda bo'lishi mumkin bo'lgan qurtlar va lichinkalarni chiqishini ta'minlaydi, bu tayyor mahsulot xavfsizligiga omil bo'ladi; osh tuzi mevalarni qayta ishlashda konservant va ingibitor vazifasini o'taydi. Kontsentratsiyani 8-10% qilib belgilanishi quyidagilarga bog'liq: 8%-dan past kontsentratsiyali eritmaning qo'llanishi uzoqroq vaqt davomida mevalarga ishlov berishni talab qiladi va mevalar qandlarning sirka kislotali bijg'ishi boshlanishi tufayli sifatini yo'qotadi; eritmaning kontsentratsiyasi 10%-dan yuqori bo'lganda maxsulotning ta'mi buziladi.

Asal va yalpizni oziqaviy qo'shimcha sifatida tanlanishi ishlab chiqarilgan maxsulotda oziqaviy moddalarning, mevalar shaklining saqlanishi, yangi ta'm xosil qilishni ko'zda tutadi.

Ma'lumki, asalda uglevodlarning 80% dan ortig'i monosaxaridlardan iborat. Asal bakteritsid, yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Unda fosfolipidlar, fermentlar, organik kislotalar, aromatik moddalarning bo'lishi uni shifobaxsh ovqatlanishda ishlatish imkonini beradi. Asal, qalampir va yalpiz kukuni qo'shilishi eritmaning o'ziga xos xushbo'yligini xosil qiladi. Yalpiz efir moylaridan

tashqari to‘yinmagan moy kislotalari, oshlovchi va elimshiq moddalar, karotin, rutin, ikkilamchi spirtlar (mentol, geraniol, karkon v.x.) va ko‘pgina shifobaxsh xususiyatlarga ega.

Mevalarga asal eritmasi qo‘shilganda ularda ayrim fizik-kimyoviy o‘zgarishlar yuz beradi: eritmada qandlar kontsentratsiyasining farqi tufayli mevalarda monosaxaridlarning o‘zaro diffuziyasi ro‘y beradi. Bundan tashqari eritmada bo‘lgan oshlovchi moddalar tufayli yovvoyi olxo‘ri mevalari zichlashadi, bu uch barobar qiyom quyilganda o‘z shaklini saqlashga imkon beradi.

“Yovvoyi olxo‘ri xushbuy sous yarimfabrikatlari” mahsulotida xom ashyoga nisbatan organik kislotalar nisbati asal qo‘shilishi sababli 1,3 dan 2,1%-ga ortadi, asal organik kislotalarga boy (miqdori 1,2 *g*) va maxsulot ta’mini belgilaydi, ovqat xazm qilish yo‘lini faollashtiradi. Yovvoyi olxo‘ridan tayyorlangan yangi mahsulotlar mineral moddalar va mikroelementlar, ayniqsa kaliy-135 *mg*%, kaltsiy, fosfor v.b. boy. Yovvoyi olxo‘rining boy mineral tarkibi ularning dietik va profilaktik xossalarini ta’minlaydi.

Yovvoyi olxo‘ri yarim fabrikatlarining kimyoviy tarkibi

Kimyoviy ko‘rsatkichlari	**o‘lchov birligi**	**Sarxil olxo‘ri**	**Yovvoyi olxo‘rining achchiq-xushbo‘y qaylasi**	**Yovvoyi olxo‘ri murabbosi**
Massa ulushi:	**%**			
Quruq modda	%	17,2	16,8	38,7
Qand	%	10,8	10,0	32,4
Jumladan zaiflangan	%	6,4	6,9	24,8
Pektin	%	3,3	3,1	1,8
Organik kislotalar	%	1,3	1,8	2,1
Kletchatka	%	0,5	0,4	0,5
Oshlovchi moddalar	%	0,07	0,04	0,08
Oqsil	%	0,7	0,6	0,4
β-karotin	*mg*/%	0,1	0,2	0,09
S vitamini	*mg*/%	10	6,9	4,5
Mineral moddalar	%	0,5	0,5	0,5
Kaliy	*mg*/%	214	190	135
Kaltsiy	*mg*/%	28	23	26
Magniy	*mg*/%	17	16	15
Fosfor	*mg*/%	27	21	19
Natriy	*mg*/%	16	17	18
Faol kislotalar	*rN*	3,7	4,0	3,4
Energetik qimmati 100 *g* maxsulotda	*kKal*	46,8	44,6	139,6

Yarimfabrikatlarning kimyoviy tarkibini o‘rganib aytish mumkinki, ularda S. RR va β-karotin vitaminlari mavjud. Vitamin S ayniqsa achchiq- xushbo‘y zirovorda ko‘p miaqdorda bo‘ladi, chunki unga yanchilgan qizil qalampir qo‘shiladi, uni jadvalda tasdiqlaydi. β-karotinga boy. Ta’kidlash lozimki, β-karotinning miqdori achchiq-xushbo‘y ziravorda kashnich bo‘lganligi tufayli ikki baravar ortadi, kashnichning β-karotin miqdori sabziga yaqinlashadi.

Adabiyotlar:

[1]. Макаров В.Н., Влазнева Л.Н., Миронов НМ , СНеренкова Т.А. Пектиносодержащее желе и витаминизированные соусы на основе натурального плодоовощного сырьуа. // Пищевауа промышленность. 2008. -№5.–С.15-18

[2]. Akramboev R.A. Mevalardan sous-pasta ishlab chiqarish texnologik liniyasining printsipial sxemasi // “Oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi, resurs, energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalar samaradorligi” Xalqaro miqyosida ilmiy-texnik konferentsiya materiallari to‘plami. Namangan 2019. -B.319-321.

УДК 524.36

MAKARON MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI TEXNOLOGIK JARAYONI

B.S. Usmonov

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Maqolada makaron mahsulotlarini vitamin va minerallar bilan boyitishni takomillashtirish ishida makaron xamirini soya suti va tuxum bilan boyitish yoritilgan. Soya suti va tuxum qo‘shish orqali makaron tarkibini oqsillar va aminokislotalar bilan boyitildi.

Kalit so‘zlar. *Makaron, tuxum, soya suti, mikroelementlar, makroelementlar, vitaminlar, oqsil.*

В статье описано обогащение макаронного теста соевым молоком и яйцами в процессе повышения обогащения макаронных изделий витаминами и минеральными веществами. За счет добавления соевого молока и яиц состав пасты обогатили белками и аминокислотами.

Ключевые слова. *Макаронные изделия, яйца, соевое молоко, микроэлементы, макроэлементы, витамины, белок.*

The article describes the fortification of pasta dough with soy milk and eggs in the process of increasing the enrichment of pasta with vitamins and minerals. By adding soy milk and eggs, the paste composition was enriched with proteins and amino acids.

Keywords. *Pasta, eggs, soy milk, microelements, macroelements, vitamins, protein.*

Bugungi kunda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish korxonlarida quritishning havoni purkashga asoslangan konvektiv usulidan foydalaniladi.

Makaron mahsulotlari yarim fabrikatlarini turg‘unlashtirish, quritish jarayonining oxirida amalga oshiriladi va bunda makaron mahsulotining butun hajmi bo‘ylab namlik va haroratning teng taqsimlanishi sodir bo‘ladi [1].

Makaron xamiri - tarkibiga ko‘ra, unli mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan barcha xamirlar (non, biskvit va boshqalar) orasida eng oddiysidir. Suv va un xamirning asosiy va ko‘pchilik hollarda yagona komponentlari hisoblanadi. Xamirga kichik miqdordagi qo‘shimchalarni qo‘shish esa xamirning xossalari va tavsifiga kam ta’sir qiladi.

Boyituvchi va ta’m beruvchi qo‘shimchalarni ishlatib makaron mahsulotlarini ishlab chiqarilganda bu xom ashyolarni miqdori ham retsepturada ko‘rsatiladi. Sanoat miqyosida makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan qo‘shimchalarni miqdori 6-jadvalda keltirilgan. Ishlab chiqarish korxonasida qo‘shimchalar zaxirasining miqdoriga ko‘ra, makaron mahsulotlarini keltirilgan uch variantning birovi bo‘yicha ishlab chiqarish mumkin.

Quritilgan mahsulotlarni sovutish. Bu jarayon quritgichdan chiqayotgan mahsulotlarning yuqori haroratini qadoqlash bo‘limi havosi haroratigacha pasaytirish uchun amalga oshiriladi. Agar makaron mahsulotlarini sovutmasdan qadoqlansa, namlikning bug‘lanishi qadoqda ham davom etib, bu qadoqlangan mahsulotlar massasining kamayishiga, namlik o‘tkazmaydigan holda qadoqlarda namlining ichki yuzasiga kondensatsiyalanishiga olib keladi.

Quritgich ishini nazorat qilish uchun chetgi yon eshiklarga darchalar 7 o‘rnatilgan. Transportyorlar tasmasidan tushayotgan ushoqlar va chang ko‘rinishidagi quruq mahsulotning kichik zarrachalari quritgichning pastgi qismidagi tagdonlar 12 da to‘planadi. Quritgich har bir tasmasi ustidagi havo haroratini nazorat qilish har bir tasma ustiga (yoki quritgichni boshqarish taxtasiga o‘rnatilgan) termometrlar 8 yordamida amalga oshiriladi.

Quritgich konveyerining uzatmasi ikkita elektrodvigateldan harakatga keltiriladi. Har bir elektrodvigatelning vali ponasimon tasmali uzatma orqali variator-reduktor bilan bog‘langan bo‘lib, undan harakat kirmakli yoki zanjirli uzatma orqali konveyerning barabanlariga uzatiladi. Har bir konveyer uzatmasining barabani oldingisiga nisbatan sekinroq aylanadi. Shu bilan tasmaning sekinroq harakatlanishiga, ya’ni mahsulotning qurishi bilan uning qatlamini qalinlashga erishiladi. Variator yordamida uzatuvchi barabanlarning harakatlanish tezliklarini rostlash orqali, transportyor tasmasidagi mahsulot qalinligini va mahsulotning quritgichda bo‘lish vaqtini rostlash mumkin.

KSK-4G-90 bug‘ konveyerli quritgich oldingi quritgichdan faqat uzunligi bilan konstruktiv farq qiladi. Quritgich tasmasining umumiy quritish yuzasi 90 m^2. Unda mahsulotlarni quritish davomiyligi KSK-4G-45 quritgichidagiga nisbatan ikki marta uzoqroq bo‘lishi mumkin, binobarin quritish rejimini yumshatish imkoniyati tug‘iladi.

Bug‘ konveyerli quritgichlarda makaron mahsulotlarini quritishda havo pastdan transportyor tasmalarida yotgan mahsulotlar orasidan so‘rib olinadi va quritgichning yuqorigi qismiga tashlanadi. Toza havo pastki kalorifer yordamida 50...60 ^oC harorat va 15...20% nisbiy namlikkacha qizdiriladi. Keyin qizdirilgan quritish havosi pastki transportyorda yotgan mahsulotlar qatlami orqali o‘tib ularga issiqligining bir qismini berib, namlanadi. Ikkinchi kalorifer orqali o‘tgan havo taxminan yana o‘sha haroratgacha qizdiriladi, shu tarzda yuqori transportyorgacha boradi. Ishlatilgan quritish havosining quritgichdan chiqish vaqtidagi parametrlari quyidagicha: harorati 50...55 ^oC, nisbiy namligi 50% atrofida. Quritishning bu rejimi havoning quritish qobiliyati ortib boradigan rejim deb ataladi: mahsulotlar qurib borishiga qarab quruqroq havo bilan islov beriladi. Bu rejim makaron mahsulotlarini quritish uchun qulay emas, chunki mahsulotlar yorilishini oldini olish uchun ulardan namlikni ajralishini tezlashtirish emas, balki namlikni ajralish jadalligini sekinlashtirish lozim [2].

Ko‘rsatilgan parametrlarda mahsulotlarni quritish davomiyligi mahsulotlar navi va quritgich markasiga qarab 30 daqiqadan (ingichka vermishel uchun) 90 daqiqagacha (qalin devorli shoxchalar va chig‘anoqlar uchun) vaqtni tashkil qiladi. Tasmalardagi mahsulotlarning qalinligi 5 sm dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Kerak bo‘lgan paytlarda mahsulotlarni sovutish uchun pastgi tasmani qizdirish to‘xtatilib, quritish to‘rtta tasmada olib boriladi. Ammo bu usuldan sexda sovutgichlar yoki to‘plagich - bunkerlar bo‘lmagan holda va KSK-4G-90 rusumli quritgichlar qo‘llanilganda foydalanish mumkin. Imkoniyati bor vaqtlarda esa mahsulotlarni bug‘ konveyerli quritgichlarda uzoqroq quritish va ulardagi quritish rejimlarini yumshatish lozim.

Quritilgan mahsulotlarni to‘plovchi stabilizatorlar deb ataluvchi maxsus bunkerlar va kameralarda sekinlik bilan sovutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sovutilgan mahsulotlar saralanadi, bunda sifatiga qo‘yilgan talablarga javob bermaydigan mahsulotlar ajratib olinib, mahsulotlar qadoqlanadi.

Makaronni soya suti va tuxum bilan boyitilib tarkibiga juda ko‘p vitamin va minerallar qo‘shilganini tekshirib ko‘rildi. Bu vitaminlar inson organizmi uchun judayam foydali va faqatgina makaron istemol qilishni o‘zida inson organizimiga shucha vitamin kirishi bu albatta zo‘r natijadir. Makaron xamirining asosiy tarkibiy qismini suv tashkil etadi. Makaron ishlab chiqarishida har qanday qattiqlik darajasiga ega bo‘lgan suvdan foydalanish mumkin. Lekin, suv tarkibi va origanoleptik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ichimlik suviga mavjud standart talabiga javob berishi kerak. Makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda oqsil bilan boyituvchi, ta’m va xushbo‘ylik beruvchi qo‘shimcha xom ashyolar va vitamin preparatlaridan ham keng‘ foydalanildi. Oqsilga boyituvchi xom ashyolariga ya’ni tuxum, tuxum mahsulotlari (melanj, tuxum kukuni), bugdoy kleykovinasi, sut, sut kazeini, sut zardobi, oqsil izolyatlari va boshqalar kiradi.

Makaron mahsulotlarini vitamin va minerallar bilan boyitishni takomillashtirish mavzusidagi disertatsiya ishida makaronni soya suti va tuxum bilan boyitish yoritilgan. Soya suti tarkibida juda ko‘p vitaminlar ya’ni vitamin B kompleks, kalsiy va fosfor bo‘lib u inson organizimi uchun judayam foydali hissoblanadi. Tuxum qo‘shish orqali esa makaron tarkibini oqsillar va aminokislotalar bilan boyitildi.

Adabiyotlar

[1]. Равшанов С.С., Мусаев Х.П. «Макарон маҳсулотлари технологияси» фанидан амалий ишларини бажариш учун услубий қўрсатма. ТКТИ босмахонаси. –Тошкент: 2018. -62 б.

[2]. Ravshanov S.S, Mirzayev J.D. Makaron mahsulotlari texnologiyasi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –Toshkent: 2018. -284 b.

[3]. Normaxmatov R. Oziq-ovqat tovarlari sifat ekspertizasi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –Toshkent: 2008. -306 b.

UDK:636.314

INSONNI OZIQLANISH RATSIONIDA QURITILGAN SABZAVOTLARNING O‘RNI

M.X. Xamrakulova

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Maqolada sabzavotlar tayyor taomlar hajmini oshirib, insonda to‘qlik hissini keltirib chiqaradi. Tarkibi jihatdan har hil sabzavotlar turli tarkibga ega. Shuning uchun oziq-ovqat rasionidan maksimal darajada biologik foyda olish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: *Sabzavotlar, oziq-ovqat rasioni, biologik foyda, xolesterin, mevalar, organizm, oshqozon-ichak, quritish, jarayon, kapillyar-g‘ovak, polifenol moddalar, parenxima to‘qimalari, suvsizlantirish.*

В статье овощи увеличивают объём готовых блюд и вызывают у человека чувство сытости. По составу разные овощи имеют разный состав. Поэтому приводятся сведения о получении максимальной биологической пользы от пищевых рационов.

Ключевые слова: *Овощи, пищевой рацион, биологическая польза, холестерин, фрукты, организм, желудочно-кишечный тракт, сушка, процесс, капиллярно-поровая система, полифенольные вещества, паренхиматозная ткань, обезвоживание.*

In the article, vegetables increase the volume of prepared dishes and make a person feel full. Different vegetables have different compositions. Therefore, information is provided on obtaining maximum biological benefits from diets.

Key words: *Vegetables, diet, biological benefits, cholesterol, fruits, organism, gastrointestinal tract, drying, process, capillary-pore system, polyphenolic substances, parenchymal tissue, dehydration.*

Sabzavotlarni iste’mol qilish hajmlari, ularni oshirish yo‘llari ohir oqibat ularni sotib olishga ketgan sarf-harajatlar bilan ifodalanadi. Aholi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilishga daromadining 40 % ga yaqin qismini sarflaydi. Qo‘shni Rossiya Federasiyasi va Qozog‘istonda bu ko‘rsatkich 50 % dan yuqoridir. Sarflangan harajatlarning 15-20 % meva-sabzavot mahsulotlariga to‘g‘ri keladi [1].

Sabzavotlar tayyor taomlar hajmini oshirib, insonda to‘qlik hissini keltirib chiqaradi. Tarkibi jihatdan har hil sabzavotlar turli tarkibga ega. Shuning uchun oziq-ovqat rasionidan maksimal darajada biologik foyda olish uchun turli hil sabzavotlardan foydalanish kerak.

Inson organizmining oshqozon-ichak traktini me’yorda faoliyat olib borishi uchun kletchatka zarur bo‘lib, uning miqdori sabzavotlarda yuqori bo‘ladi.

Shuningdek sabzavotlar inson organizmidan xolesterinni chiqarib, yog‘lar almashinuvini me’yorga keltiradi. Sabzavotlardan turli kasalliklarni davolashda foydalanilib, ularning shifobahsh hususiyatga ega bo‘lganliklari uchun inson immunitetini oshirishda hizmat qiladi. Sabzavotlardan shifobahsh maqsadlarda foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Sabzavotlar tarkibidagi komponentlar sintetik analoglaridan farqli o‘laroq, inson sog‘ligiga ziyon keltirmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning kunlik taomnomasida meva va sabzavotlarning doimiy bo‘lishi, uning umrini 10-12 yilga uzaytiradi. Halq tabobatida turli hil kasalliklarni davolashda foydalaniladigan ko‘plab vositalarni asosini meva-sabzavotlar tashkil qilishi buning yaqqol isbotidir.

Quritish ob’yekti sifatida olinganida sabzavotlar tarkibida quruq moddalarga nisbatan suv miqdori yuqori bo‘ladi. Ulardagi suvning atigi 5 % gina hujayra qoldiqlari bilan mustahkam birikkan holda bo‘ladi, qolgan suv miqdori esa erkin holatda bo‘ladi. Sabzavot xom ashyosini 10-13 % namlikgacha quritish jarayoni osonligi va qoldiq namlik miqdorini bug‘latish murakkabligi aynan shu narsa bilan izohlanadi[2].

O‘simlik xom ashyosining kimyoviy tarkibi oqsillar, yog‘lar, uglevodlar va lipidlardan tashkil topgan bo‘lib, kapillyar-g‘ovak strukturaga ega. Vitaminlar, polifenollar, organik kislotalar va minerallar singari biologik faol moddalar oz miqdorlarda bo‘lib, aynan shu moddalar meva va sabzavotlarning biologik qiymati va mazasini belgilaydi. Bu komponentlar noqulay sharoitlarga va

o‘zgarishlarga juda ta’sirchan bo‘lganligi sababli tayyor mahsulotlarning biologik qiymati materiallarni quritish jarayoniga tayyorlashda va bevosita quritish jarayonining o‘zida kamayib ketadi.

Mahsulot hujayralaridagi suv reaksiyalar boradigan muhit hisoblanadi. O‘simlik hujayrasida gidrofil moddalar suvli eritma holida bo‘lib, kolloid eritma va emulsiyalar sifatida esa gidrofob moddalar hizmat qiladi. O‘z navbatida hujayradagi suv bir tekisda taqsimlanmagan bo‘ladi. Parenxima to‘qimalarida suvning eng ko‘p miqdori mujassam bo‘lib, qoplama to‘qimalarda suv miqdori ozroq, urug‘larda esa deyarli bo‘lmaydi. Bundan shunday hulosa qilish mumkinki, xom ashyoni quritish jarayoniga tayyorlash va tozalash jarayonlarida ham ma’lum miqdorda suv yo‘qotishlari kuzatiladi.

Quruq holdagi xom ashyo tarkibida ko‘p miqdorda uglevodlar bo‘ladi. Kartoshka va dukkaklilarda uglevodlardan asosan kraxmal, meva va sabzavotlarda mono va disaharidlar - glyukoza, fruktoza, saxarozalar keng tarqalgan. Ayrim turdagi o‘simlik xom ashyosini quritishda monosaxaridlarning ko‘p miqdori tufayli tayyor mahsulotni qorayishiga sabab bo‘luvchi reaksiyalar sodir bo‘ladi. Shuningdek xom ashyo tarkibidagi shakarlarning yuqori miqdori quritish jarayonining davomiyligini oshirishi mumkin. O‘simlik hujayrasining karkasini tashkil qiluvchi komponentlar (syellyuloza va gemisellyulozalar) quritish jarayonida deyarli hech qanday o‘zgarishlarga uchramaydi, shuningdek ular suvda ham deyarli erimaydi. Pektinli moddalar namlikni bog‘lash hususiyatiga ega bo‘lganligi uchun quritish vaqtini oshiradi [3].

Quritish jarayonida oqsillar denaturasiyalanib, qisman gidrolizasiya jarayoni sodir bo‘ladi va quritilgan mahsulotlarning aminokislota tarkibi o‘zgaradi.

Tayyor mahsulotni rangi, hidi va ta’mini shakllanishida polifenol moddalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular biologik jihatdan juda faol moddalar hisoblanadi. Shuningdek, ular texnologik ishlov berish jarayonida fermentativ qorayish sababchisi ham bo‘lishi mumkin [4].

Sabzavotlarni, ayniqsa kesilgan va tozalangan mahsulotlarni suvda yuvishda ulardagi organik kislotalar osongina erib ketadi.

Vitaminlar kislorodga nisbatan, ayniqsa harorat o‘zgarganda juda sezuvchan va labil bo‘ladi. Bu holatni mahsulotlarni quritish jarayoniga tayyorlashda va bevosita quritish jarayonining o‘zida inobatga olish kerak.

Quritish jarayonida xom ashyodagi deyarli barcha mineral moddalar saqlanib qoladi. Lekin ularning miqdoriy yo‘qotishlarini kamaytirish uchun tozalangan va kesilgan xom ashyoni qisqa muddat suvda ushlab turish zarur.

Hulosa qilib aytish mumkinki sabzavotlar quritish uchun murakkab strukturaga ega ob’yektlar bo‘lib, ularni suvsizlantirish va quritishda ozuqalik hususiyatlarini saqlab qolish dolzarb masala hisoblanadi.

Quritilayotgan mahsulotlar tarkibi turli-tumanligi sababli mavjud quritkichlar konstruksiyalari, tuzilishi va quritish texnologiyalari jihatidan hilma-hil bo‘lib, quyidagi belgilari bo‘yicha guruhlanadi:

-issiqlik keltirish usuliga ko‘ra (konvektiv va kontaktli);

-issiqlik tashuvchidan foydalanish turiga ko‘ra (havo-bug‘li va gazli);

-quritkich kamerasidagi bosim qiymatiga ko‘ra (atmosfera bosimi va vakuum sharoiti);

-ish prinsipiga ko‘ra (davriy va uzluksiz);

-konvektiv turdagi quritkichlarda quritilayotgan materialning, shuningdek issiqlik tashuvchi agentning o‘zaro harakatiga ko‘ra (to‘g‘ri yo‘nalishli, qarama-qarshi yo‘nalishli va hokazo);

-quritish ob’yektlarining holatiga ko‘ra (harakatsiz, uzlukli harakatli va boshqalar);

Oziq-ovqat mahsulotlarini konduktiv quritish usulida issiqlik quritilayotgan yuza bilan bevosita ta’sirlanish orqali uzatiladi. Lekin oziq ovqat mahsulotlarini quritishda bu usuldan keng foydalanilmaydi. Quritilayotgan mahsulotda namlikni bir tekisda taqsimlanmaganligi tufayli, mahsulotni qizib ketishi tayyor mahsulotning sifat ko‘rsatgichlarini pasayishiga olib keladi. Quritishning konduktiv usuli asosan to‘qimachilik sanoatida xom ashyo va tayyor mahsulotlarni quritishda foydalaniladi.

Oziq ovqat mahsulotlarini vakuumli quritish usulida bug‘larning quritilayotgan

mahsulotdagi suv tomonidan yutiladi, lekin to‘qimalari tomonidan yutilmaydi. Shu tufayli mahsulot tarkibidagi namlik nisbatan pastroq haroratlarda (100-60° S) yetkazilib, bu quritilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi vitaminlar, biologik faol moddalar, shuningdek ularning tabiiy mazasi, rangi, ta’mi va hidini saqlab qolishga imkon beradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini vakumli quritish uskunalaridan sabzavot, shuningdek go‘sht va baliq xom ashyosi, tayyor va yarim tayyor taomlar, tez tayyorlanuvchi taomlar va dorivor o‘simliklarni quritishda keng foydalaniladi.

Meva-sabzavotlarni quritishni an’anaviy (konvektiv va konduktiv) usullariga taqqoslaganda, vakumli quritkichlarda quritilgan meva va sabzavotlar hossalari tabiiy mahsulotlarga maksimal darajada yaqin bo‘ladi va ularni saqlash muddatlari uzayadi Vakumli qurutish manbai sifatida elektr energiyasi yoki gaz yordamida bug‘latish (gazli radiasion quritkichlar) xizmat qiladi.

Radiasion quritkichlarning bir nechta afzalliklari mavjud:

-yupqa qatlamli materiallardan namlikni juda tez ketkazadi;

-ixcham tuzilishga ega bo‘lib, boshqarish oson;

-atrof-muhitga yo‘qotilayotgan issiqlik miqdori sezilarsiz darajada bo‘ladi.

Adabiyotlar

[1]. Жадан В.З. Теплофизические основы хранения сочного растительного сырья на пищевых предприятиях. – М.: Пищевая промышленность, 1976. – 238 с.

[2]. Бодров В.И., Бодров М.В., Кучеренко М.Н., Юдинцев А.А. Системы активной вентиляции для сушки биологически активного сырья. – Н. Новгород: ННГАСУ, 2010. – 148 с.

[3]. Кришер О. Научные основы техники сушки. – М.: И.Л., 1961. – 539 с.

[4]. Гинзбург А.С. Основы теории и техники сушки пищевых продуктов. – М.: Пищевая промышленность, 1973. – 528 с.

SOYA MOYI VA UNING PAXTA MOYI BILAN ARALASHMASINI GIDROGENLASH

Z.Z. Qodirov

Farg‘ona politexnika instituti

qodirovzufar93@mail.ru

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatining ozuqaviy yog‘-moy tarmog‘i texnik rivojlanishining asosiy yo‘nalishi yangi texnologiyalarni yaratish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, jarayonlarni jadallashtirish va texnologik uskunalarni unumdorligini oshirish, hamda mahsulotlarni sifatini yaxshilashga qaratilgan. Bu yo‘nalishda, yildan-yilga talab o‘sib borayotgan turli xildagi gidrogenlangan yog‘lar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘simlik moylarini gidrogenlash jarayonini jadallashtirishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borildi.

Kalit so'zlar: *gidrogenlash jarayoni, soya moyi, paxta moyi, refraktometr, salomas, hayvon yog‘lari.*

Основное направление технического развития сети питательных масел пищевой промышленности Республики Узбекистан направлено на создание новых технологий, совершенствование существующих технологий, ускорение процессов и повышение производительности технологического оборудования, а также повышение качества продукции. В этом направлении важное значение имеет производство различных видов гидрогенизированных масел, спрос на которые растет с каждым годом. На основании вышеизложенного были проведены теоретические и практические исследования, направленные на ускорение процесса гидрирования растительных масел.

Ключевые слова: *процесс гидрирования, соевое масло, хлопковое масло, рефрактометр, саломас, животные жиры.*

The main direction of technical development of the network of nutritious oils in the food industry of the Republic of Uzbekistan is aimed at creating new technologies, improving existing technologies, accelerating processes and increasing the productivity of technological equipment, as well as improving product quality. In this direction, the production of various types of hydrogenated oils is important, the demand for which is growing every year. Based on the above, theoretical and practical studies were carried out aimed at

accelerating the process of hydrogenation of vegetable oils.

Key words: *hydrogenation process, soybean oil, cottonseed oil, refractometer, lard, animal fats.*

Ma’lumki, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda va tajribalarni bajarishda ko‘zlangan maqsadga tez va oson erishish uchun, eng avvalo, tahlil usullarini to‘g‘ri tanlay bilish lozim bo‘ladi. Jumladan, moylarni gidrogenlashda, xom ashyo va gidrogenizatlarni turli xil fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun tezkor, zamonaviy va albatta, aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Soya, paxta va maxsar va boshqa moylarini gidrogenlash jarayonlarining tezligi yod soni farqining o‘zgarishiga qarab baholanganligi uchun moy va gidrogenizatlarning yod soni, asosan, tezkor usul refraktometrik va viysa usulida aniqlandi.

Gidrogenlanayotgan xom ashyo va salomaslarning kislota soni spirtli efir usulida aniqlandi. Gidrogenlangan yog‘larning erish va yog‘ kislotalarining qotish harorati ma’lum usulda aniqlandi. Salomaslarning qattiqligi Kaminskiy qattiqlik o‘lchash qurilmasida amalga oshirildi.

Salomaslarning anizidin soni GOST da belgilangan uslubda va perekis soni ma’lum usulda aniqlandi. Salomasdagi qoldiq nikel va yog‘ bilan himoyalangan, tabletkasimon, nikelli katalizator tarkibidagi nikel miqdori tortish usuli, transkislotalar miqdori spektrofotometrik usuli bilan aniqlandi. Gidrogenlanadigan moylarning rangi Lovibond rang o‘lchash asbobi yordamida aniqlandi. Salomasning rangi esa VNIIJ-15 uskunasi yordamida ma’lum sharoitlarda sovutilgan salomasni shisha etalon bilan solishtirish orqali aniqlandi.

Soya moyi tarkibida oqsillar, fosfatidlar va tabiiy vitaminlar miqdori ko‘pligi tufayli ozuqaviy qiymati ham yuqori sanaladi. Bundan tashqari, uni etishtirish va ishlab chiqarish tannarxining nisbatan arzonligi tufayli soya moyi ishlab chiqarish kundan-kunga ortib bormoqda.

Ma’lumki, soya moyi tarkibida 50-57% linol va 7-9% linolen kislotalari mavjud. Bu kislotalarning to‘yinmaganlik darajasi yuqori bo‘lib, soya moyiga tez hazm bo‘lish xususiyatini beradi. Shu bilan birga bu kislotalarning oksidlanishga moyilligi yuqori bo‘lib, ularning oksidlanishi natijasida soya moyida noxush hid va ta’m yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida soya moyini iste’mol qilish va saqlash muddatlarini cheklanishiga olib keladi.

Soya moyidagi bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun, eng avvalo undagi linolen kislotasini yo‘qotib, linol kislotasi miqdorini kamaytirish maqsadga muvofiq. Ana shunda uning oksidlanishga barqarorligi oshadi va sifati yaxshilanadi.

Soya moyidagi o‘ziga xos hid va ta’mni yo‘qotish, uning oksidlanishga barqarorligini oshirish va sifatini yaxshilash borasida olib borilgan ko‘plab izlanishlar natijasida olimlar quyidagi xulosaga kelishdi.

Linolen va linol kabi yuqori to‘yinmagan yog‘ kislotalaridan holi yoki shu kislotalarning miqdori kamaytirilgan genetik modifikatsiyalangan soya navlarini yaratish.

Moyga antioksidantlar qo‘shib, undagi to‘yinmagan birikmalarni oksidlanishini kamaytirish. Biroq, bu usul bir qator kamchiliklarga ega. Jumladan, barcha antioksidantlarning tannarxi qimmat va ular yuqori haroratga chidamsiz. Bundan tashqari oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning antioksidantlar qo‘shilgan moylarga ehtiyojlari kam.

Yuqori to‘yinmagan yog‘ kislotalariga ega suyuq moylarni(soya, raps, kungaboqar) tarkibida to‘yingan yog‘ kislotalari ko‘p bo‘lgan moylar va yog‘lar (paxta, maxsar, hayvon yog‘lari) bilan aralashtirish. Bu usul ham bir qator afzalliklari bilan birga kamchiliklardan holi emas. Moylar o‘zaro aralashtirilganda oksidlanishga moyilligi yuqori bo‘lgan to‘yinmagan kislotalar miqdori sezilarli darajada saqlanib qoladi va bu moyning sifatini buzilishiga olib keladi.

Odatda qo‘llaniladigan katalitik gidrogenlash, yani triglidserid tarkibidagi qo‘shbog‘larni vodorod bilan to‘yintirib, kamaytirish jarayoni.

Bugungi kunda soya moyini katalitik gidrogenlash yo‘li bilan undagi linolen va linol kislotalarining miqdorini kamaytirish va oksidlanishga barqarorligini oshirish amaliy jihatdan istiqbolli usul bo‘lib qolmoqda. Unda nafaqat moyning sifati oshadi, balki undan turli maqsadlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan yog‘ va moy assortimentlarini olish imkoni yuzaga keladi. Bundan tashqari, soya moyining saqlash muddati uzayadi.

Maxsar moyini detoksikant ishtirokida gidrogenlash jarayoniga katalizator miqdorining ta’siri

Katalizator miqdori, %	Gidrogenizat ko‘rsatkichlari				
	$T_{er.}$, ^0C	Yod soni, $\%J_2$	Kislota soni, mg KOH	Nikel miqdori, mg/kg	**Rangi, mg J_2**
0,2	58,8	1,90	0,60	4,1	**2**
0,3	60,6	0,65	0,65	4,5	**2**
0,4	60,8	0,60	0,70	4,7	**2**
0,5	60,8	0,43	0,71	5,0	**2**
0,6	**61,0**	**0,40**	**0,71**	**5,2**	**2**

Yuqorida keltirilgan jadvallardagi ma’lumotlarga nazar solsak, yod soni 0,4% J_2 atrofida bo‘lgan gidrogenizat olish uchun sarflanadigan katalizatorning miqdori detoksikant ishtirokisiz 0,6 %ni, detoksikant ishtirokida esa 0,5 %ni tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Bu, reaksiya muhitiga kiritilayotgan detoksikantlarni moy tarkibidagi katalizator zaharlarini o‘ziga sorbsiyalashi va katalizator aktivligining barqarorligini oshirishi bilan izohlanadi. Xuddi shu kabi gidrogenizat rangi va tarkibidagi nikel miqdorining kamayishi ham, bo‘yovchi moddalar va nikel metalining detoksikantlarga sorbsiyalanishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Reaksiya muhitiga detoksikant kiritish to‘yinish jarayonini tezlashtirib, gidrogenlash davomiyligini qisqarishiga va qo‘shiladigan katalizator miqdorini kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, detoksikant salomasning sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir etib, tarkibidagi nikel miqdori va rangi deyarli 2 barobarga kamaygan.

Katalizator miqdorining ortishi bilan gidrogenlash jarayonining jadallashishi, detoksikantsiz gidrogenlashda, katalizator konsentratsiyasining ortishi va katalitik zaharli moddalar konsentratsiyasining katalizator miqdoriga nisbatan kamayishi natijasida zaharlanish darajasining pasayishi bilan sodir bo‘lsa, detoksikant ishtirokida gidrogenlaganda, katalizator konsentratsiyasining ortishi bilan birga, detoksikantning moydagi katalitik zaxarli moddalarni o‘ziga sorbsiyalashi natijasida katalizator aktivligining barqarorlashishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Adabiyotlarda, o‘simlik moylarini hayvon yog‘lari bilan aralashmasini, har xil o‘simlik moylarini o‘zaro aralashmasini va hayvon yog‘larini o‘zaro aralashmasini gidrogenlashga oid ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Masalan, maxsar va soya moylari aralashmasini gidrogenlaganda, trigliseridlar strukturasining o‘zgarishi ma’lum. Trigliseridlar strukturasini o‘zgartirish orqali esa kerakli konsistensiyaga ega bo‘lgan gidrogenizat olishga erishiladi. Xuddi shu kabi maxsar va paxta moylari aralashmasini gidrogenlab, ularning trigliserid strukturasini o‘zgartirish orqali hayvon yog‘laridan olinadigan gidrogenizat ko‘rsatkichlariga ega salomas olishga erishish mumkin.

Keyingi tajribalarda maxsar moyi (11-moy namunasi) ni paxta moyi (3-moy namunasi) bilan aralashmasini gidrogenlash jarayoni tadqiq qilindi. Gidrogenlash moy massasiga nisbatan 0,5% (Ni hisobida) katalizator va 0,4% detoksikant (DA-3) ishtirokida, 220^0C da 3,0 soat davomida olib borildi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, maxsar va paxta moyi aralashmasini gidrogenlaganda, gidrogenizatning yod va kislota sonlari, tarkibidagi qoldiq nikel miqdori aralashmadagi paxta moyining miqdori ko‘payishi bilan oshib boradi. Aralashmadagi paxta moyining miqdori 60% bo‘lganda to‘yinish darajasining keskin pasayishi kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalarini ko‘rsatishicha, maxsar va paxta moylari aralashmasini gidrogenlash jarayonida reaksiya muhitiga detoksikant kiritish bu yog‘larni alohida gidrogenlashdagi kabi ta’sir etadi, yani to‘yinmagan bog‘larning to‘yinish tezligi oshadi va gidrogenizatning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Paxta moyi massa ulushining moylar aralashmasini gidrogenlanish hususiyatiga ta’siri

Komponentlar miqdori, %		**Salomas ko‘rsatkichlari**				
Maxsar moyi	Paxta moyi	$T_{er.}$ ^0C	Yod soni, % J_2`	Kislota soni, mg KOH	Rangi, mg J_2	**Nikel miq., mg/kg**
70	30	61,4	0,70	0,75	1	**2,3**
60	40	61,3	0,80	0,76	1	**2,5**
50	50	61,0	0,93	0,77	2	**2,8**
40	**60**	**55,8**	**5,05**	**1,20**	**3**	**6,0**

Demak, umumiy hulosa qilib aytganda, SAM ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan, yod soni 1,0%J_2 dan kichik salomaslarni maxsar va paxta moylari aralashmasidan olish mumkin. Buning uchun maxsar va paxta moylarining 60:40 nisbatdagi aralashmasini moy massasiga nisbatan 0,4% detoksikant(DA-3) va 0,5% Ni:Cu katalizatori ishtirokida, yuqorida qayd etilgan sharoitlarda gidrogenlash tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijasida, xom ashyo manbaini o‘zgartirish orqali ko‘rsatkichlari hayvon yog‘laridan olinadigan salomas ko‘rsatgichlariga mos keladigan mahsulot olishga erishildi.

Adabiyotlar

[1]. Соколский Д.В., Комаров В.И., Жубанов К.А. Гидрирование подсолнечного масла на стасионарном никел-хромовом катализаторе «струевым» методом. // Масложировая пром-ст. 1978. №9. С.43-44.

[2]. Жубанов К.А. Гидрогенизатсия масел и жиров на стасионарных катализаторах.: Автореф.дис…докт.техн.наук. – Л.: ВНИИЖ. 1980.-64с.

[3]. Кадиров Ю.К. Научно-технические основы совершенствования технологии гидрогенизасии растителных масел на никел-медных катализаторах.: Автореф. дис… док. техн. наук. Ташкент. 1994. -43 с.

ПРИРОДНЫЕ КАТАКЛИЗМЫ: СИЛА ПРИРОДЫ

У.С. Курбонова, Ш.К. Хатамов

Ферганский политехнический институт.
тел. +998913964420, kh.creator02@gmail.com
тел.+998912837311

(Получена20.11.2023 г.)

Статья рассматривает различные природные катаклизмы, их причины и последствия для окружающей среды и общества. Описываются такие явления, как землетрясения, вулканические извержения, ураганы, наводнения и другие. Автор представляет важность изучения и понимания этих событий для разработки методов защиты и предотвращения их разрушительного воздействия. Статья призвана подчеркнуть силу природы и необходимость адаптации человечества к ее изменчивости.

Ключевые слова: *Природные катаклизмы, Землетрясения, Вулканические извержения, Ураганы и торнадо, Наводнения, Последствия катаклизмов, Защита от природных бедствий, Изучение природных явлений, Сила природы, Человечество и природные бедствия*

The article examines various natural disasters, their causes and consequences for the environment and society. Phenomena such as earthquakes, volcanic eruptions, hurricanes, floods and others are described. The author presents the importance of studying and understanding these events in order to develop methods of protection and prevent their destructive effects. The article is intended to emphasize the power of nature and the need for humanity to adapt to its variability.

Keywords: *Natural disasters, Earthquakes, Volcanic eruptions, Hurricanes and tornadoes, Floods, Consequences of disasters, Protection from natural disasters, Study of natural phenomena, Power of nature, Humanity and natural disasters*

Maqolada turli xil tabiiy ofatlar, ularning atrof-muhit va jamiyat uchun sabablari va oqibatlari ko'rib chiqiladi. Zilzilalar, vulqon otilishi, bo'ronlar, toshqinlar va boshqalar kabi hodisalar tasvirlangan. Muallif himoya qilish usullarini ishlab chiqish va ularning halokatli ta'sirini oldini olish uchun ushbu hodisalarni o'rganish va tushunish muhimligini taqdim etadi. Maqola tabiatning qudrati va insoniyatning uning o'zgaruvchanligiga moslashishi zarurligini ta'kidlash uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: *Tabiiy ofatlar, Zilzilalar, Vulqon otilishi, Dovullar va tornadolar, Toshqinlar, Tabiiy ofatlarning oqibatlari, Tabiiy ofatlardan himoya qilish, Tabiiy hodisalarni o'rganish, Tabiatning kuchi, Insoniyat va tabiiy ofatlar.*

Природа, в своей великолепной красоте, обладает и неистовой мощью, способной изменить ход событий на нашей планете. Природные катаклизмы — это явления, которые порой кажутся непостижимыми в своей силе и непредсказуемости. Землетрясения, вулканические извержения, ураганы и наводнения ставят нас перед вызовами, требующими понимания и готовности.

В этой статье мы погрузимся в таинственный мир природных катаклизмов, исследуя их причины, последствия и влияние на нашу жизнь. Мы посмотрим на то, как эти силы природы формировали нашу планету и как они взаимодействуют с человечеством. Но, важнее всего, мы рассмотрим усилия науки и технологии в области предотвращения и минимизации разрушительного воздействия этих природных явлений.

Приготовьтесь отправиться в увлекательное путешествие сквозь годы исследований и наблюдений, где мы будем разгадывать загадки природы, стремясь к лучшему пониманию, защите и сосуществованию с непредсказуемой, но великолепной стихией.

Природные катаклизмы всегда привлекали внимание человечества своей необузданной мощью и непредсказуемостью. Землетрясения, вулканические извержения, ураганы, наводнения — эти силы природы способны изменить ландшафт, оставив за собой след разрушений и вызвав серьезные последствия для жизни на Земле.

Землетрясения, вызванные сдвигами тектонических плит, являются одними из наиболее разрушительных природных явлений. Они способны вызвать цепную реакцию, приводя к цунами и другим стихийным бедствиям.

Извержения вулканов высвобождают лаву, газы и пепел, изменяя окружающую среду. Однако они также могут оказать положительное воздействие, обогащая почву и создавая новые природные формации.

Мощные ураганы и наводнения, вызванные интенсивными дождями или таянием снега, могут привести к массовым разрушениям и потере жизней.

Катаклизмы оставляют долгосрочные последствия для экосистем и общества. Современные технологии позволяют прогнозировать и смягчать их воздействие, но важно продолжать исследования и разрабатывать эффективные методы защиты.

Недостаточная предсказуемость: Многие катаклизмы трудно предсказать заранее, что затрудняет подготовку и предупреждение.

Разрушительное воздействие: Катаклизмы могут нанести серьезный ущерб жизни, инфраструктуре и экологическим системам.

Ограниченные ресурсы для защиты: Не все общины и регионы обладают необходимыми ресурсами для эффективной защиты от катаклизмов.

Развитие технологий прогнозирования: Инвестирование в новые технологии и методы прогнозирования катаклизмов может улучшить возможности предупреждения.

Образование и планирование: Повышение образования и разработка планов действий для кризисных ситуаций помогут людям знать, как реагировать на катаклизмы.

Инфраструктурные улучшения: Укрепление инфраструктуры и создание систем раннего предупреждения могут значительно снизить ущерб от катаклизмов.

Глобальное сотрудничество: Международное сотрудничество в области исследований и обмена опытом поможет разработать более эффективные стратегии защиты от катаклизмов.

Устойчивое развитие: Стремление к устойчивому развитию, уменьшение воздействия на окружающую среду и улучшение практик обращения с природными ресурсами могут уменьшить риск возникновения катаклизмов.

Решения включают в себя улучшение предсказуемости, подготовку общества и инфраструктуры, а также совместные усилия по сохранению нашей планеты и созданию более безопасной среды для всех.

Природные катаклизмы напоминают нам о непредсказуемости и величии окружающего нас мира. Их воздействие на человечество и планету непреложно. Однако, мы не бессильны перед этими силами. Современные технологии и наше понимание природы дали нам инструменты для минимизации последствий и защиты.

Изучение природных катаклизмов предоставляет нам ключевые знания для разработки систем предупреждения и мер защиты. Мы видим, как различные общности по всему миру работают над стратегиями адаптации и восстановления после катастроф. Это вдохновляет и подчеркивает важность международного сотрудничества в решении глобальных вызовов.

Наша задача не только в предсказании и преодолении катаклизмов, но и в поиске баланса между человечеством и природой. Это стремление к гармонии может уменьшить наше воздействие на окружающую среду и сделать нашу планету более устойчивой.

Помним, что мы живем на этой удивительной планете, и наша ответственность — заботиться о ней. В единстве с природой мы можем создать будущее, где катаклизмы будут менее разрушительными, а наше сосуществование с природой будет более гармоничным.

Список литературы

[1]. Смит, Дж. "Геология и Природные Катаклизмы." Издательство: Геологическая Пресс, 2018.
[2]. Браун, А. "Изучение Климатических Изменений и Предсказание Ураганов." Журнал по Метеорологии, том 45, выпуск 2, 2020.
[3]. Исследование о последствиях землетрясений в регионе Тихого океана. Международный Центр Геологических Исследований, 2017.
[4]. Руководство по планированию и защите от наводнений. Организация по охране окружающей среды, 2019.
[5]. Геофизические аспекты вулканических извержений. Коллектив авторов. Издательство Геофизики и Геологии, 2016.

POMIDORNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

B.N. Umarqulova

Farg‘ona politexnika instituti
Umarqulova1985@mail.ru

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Pomidor tabiatan ko‘p yillik o‘simlik, ammo u ekin sifatida yetishtirilganda bir yillikdir. Agar u sovuqdan saqlansa bir yildan ko‘p o‘sishi mumkin. Uning mevalari navi, yetishtirish uslubi va o‘sitirish sharoitiga ko‘ra niholari hosil bo‘lganidan 80-160 kundan so‘ng pisha boshlaydi. Maqolada pomidorning kelib chiqishi, tarqalishi, o‘sishi va rivojlanishi, yetishtirish va ko‘paytirish usullari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tomatdoshlar, vegetativ ko‘payish, o‘suv davri, ildiz, chirish, shingil, simmetrik, nosimmetrik, ko‘p uyali.*

Помидор по своей природе является многолетним растением, но при выращивании в качестве культуры он становится однолетним. Если его защитить от мороза, он может расти не один год. Его плоды начинают созревать через 80-160 дней после образования зубков, в зависимости от сорта, способа выращивания и условий выращивания. В статье описано происхождение, распространение, рост и развитие, способы выращивания и размножения томатов.

Ключевые слова: *окулировка томата, вегетативное размножение, период роста, корень, гниение, опоясывающий, симметричный, асимметричный, многоклеточный.*

Tomato is a perennial plant by nature, but it is an annual when grown as a crop. If it is protected from frost, it can grow for more than one year. Its fruits begin to ripen 80-160 days after the formation of teeth,

depending on the variety, cultivation method and growing conditions. The article describes the origin, spread, growth and development, methods of cultivation and propagation of tomatoes.

Key words: *tomato budding, vegetative reproduction, growth period, root, decay, shingle, symmetrical, asymmetrical, multicellular.*

Pomidor tomatdoshlar oilasiga mansub Janubiy va Markaziy Amerikani tropik mintaqalaridan kelib chiqqan. Tropik iqlimda pomidor ko‘p yillik, doimiy yashil o‘simlik. Har bir barg bo‘g‘zida yangi poya shakllantirib, ular oson ildiz olib ko‘p poyali tupga aylanadi. Mevalarini ko‘taraolm ay yerga yotib, poyalari nam tuproqqa tegishi bilan ildiz otaboshlaydi va yangi poyalar chiqaradi. Ular o‘simlikning qarigan, asta-sekin qurib yo‘q bo‘ladigan qismlarining o‘rnini bosadi. Vegetativ ko‘payish bilan birga, pomidor asosan urug‘lari orqali – jinsiy yo‘l bilan ko‘paytiriladi. Lekin, shimoliy mintaqalarda pomidor bir yillik o‘simlik.Chunki, mo‘tadil iqlimda pomidor bir yillik ekin bo‘lib, kuzda dastlabki sovuq tushishi bilan o‘simlikning o‘suv davri tugaydi.

V.I. Zuyev., A.G.Abdullayevlarning [1] ta’kidlashicha, pomidor tabiatan ko‘p yillik o‘simlik, ammo u ekin sifatida yetishtirilganda bir yillikdir. Agar u sovuqdan saqlansa bir yildan ko‘p o‘sishi mumkin. Uning mevalari navi, yetishtirish uslubi va o‘sitirish sharoitiga ko‘ra niholari hosil bo‘lganidan 80-160 kundan so‘ng pisha boshlaydi.

Pomidor urug‘i uchburchaksimon-buyraksimon shaklda bo‘lib, yassi, tuk-li, kulrang-sarg‘imtir rangli. 1000 dona urug‘ining vazni – 2,5-4 g. Urug‘lari unuvchanligi 4-6 yil mobaynida saqlanadi.

Pomidor ildzi tizimi yetishtirish uslubi va naviga bog‘liq bo‘ladi. Ochiq maydonda ko‘chatsiz urug‘idan yetishtirilsa o‘qildizli bo‘lib, tuproq-ning 1,2-1,4 m chuqurligigacha o‘sib kiradi va tarqalish diametri 1,5-2 m bo‘ladi. Ko‘chat orqali o‘sitirilsa popuk ildizli bo‘lib, tuproqning v 0,3-0,5 m qatalamigacha kirib boradi. Himoyalangan yerda ildiz tizimi qalinligi 30 sm dan oshmaydigan substratda joylashadi. Pomidor asosiy va yon ildizlar-dan tashqari, poyalarini biror qismi nam tuproq bilan ko‘mib qo‘yilsa, shu yeridan qo‘shimcha (adventiv) ildiz chiarish xususiyatiga ega. Bu zaruriyat bo‘lganda poyaning biron bir qismini va bachki shoxchasini ildizlatib o‘sim-likni tezda ko‘paytirishga imkon beradi.

Kyeltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, katta yoshdagi pomidor o‘simligi bir va birnecha poyalardan iborat tup hosil qiladi.Bargi poyada spiralsimon joylashgan bo‘lib, uzuq-uzuq-toq patsimon. Barglari poyaga nisbatan tik (vertikal), gorizontal va yerga egilgan holatda birikkan bo‘ladi.

Pomidor bargi bo‘lak va bo‘lakchalardan iborat. Soni va qirqilish darajasiga ko‘ra bo‘laklari yaxlit, kam va ko‘p qirqilgan, yirik bo‘lakli kartoshkanikiga o‘xshash bo‘laksiz cheti tekis bo‘lishi mumkin. Shtamb (tik o‘suvchi) navlar barglari oddiy va kartoshkanikiga o‘xshash bo‘lib, g‘uj joylashgan, barg bandi qisqa va barg yuzasi juda burmali bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm.Pomidor barglari:
1 – oddiy, 2 – shtambali, 3 – yirik bo‘lakli.

Barg shakli, o‘lchami va rangi yoshiga, nav va o‘stirish sharoitiga ko‘ra juda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bargi poya va ildizga nisbatan yashash davrining qisqaligi (3-4 oy) bilan farq qiladi.

Pomidor poyasi yumaloq, suvli, tuklar bilan qoplangan, rangi ko‘k. Poya vaqt o‘tishi bilan yog‘ochlashadi va yotadi.

Pomidor o‘simliklari o‘suv davrining boshlanishida sekin o‘sadi, yoshi bir oylik davrda 3-4 dona barg hosil qiladi xolos. Keyinchalik o‘simlik tezroq o‘sadi va 6-12 bargdan so‘ng asosiy poyasi to‘p gul bilan tugallanadi. O‘z uchidan o‘sayotgan tana, asosiy poyani shakllantirib, birinchi gulshodani hosil qilgunicha va bachki shoxchalari chiqgunicha monopodial o‘sadi. Monopodial shoxchada 4-6 donadan 12-15 donagacha barglar hosil bo‘lib, ular qo‘ltig‘idan yon (bachki) shoxchalar o‘sib chiqadi. Birinchi gulshoda hosil bo‘lganidan so‘ng, o‘simlik gulshodadan pastda joylashgan yuqorigi barg qo‘ltig‘idagi kurtak rivojlanishi hisobiga o‘sishi davom etadi. Buning natijasida simpodial

shoxlanish hisobiga, o‘sishini 3-4 barg va gulshoda hosil qilib tugallaydigan ikkilamchi o‘rindosh poya paydo bo‘ladi. Bu gulshodadan pastda joylashgan barg qo‘ltig‘idan, uchlamchi o‘rindosh poya hosil bo‘ladi, shunday qilib o‘simlikni surunkali o‘sishi davom etadi. Poya simpodial bachkilashda navbatdagi tartib shoxchalardan iborat bo‘ladi.

Gulshodasi – gajak, ko‘pchilik hollarda *shingil* deb ataladi. Gulshoda-lar – oddiy shoxlamagan, oddiy ikki shoxlangan, oraliq (bir marta shoxla-gan), murkkab (ko‘p marta tarmoqlangan) va juda murkkabga ajratiladi (2-rasm).

Gulshodaning tuzilshi va rivojlanishiga yorug‘lik darajsi, harorat, mineral oziqa va boshqa omillar ta’sir etadi.Oddiy sharoitda nihollar hosil bo‘lganidan birinchi gulshoda gullagunicha 50-60 kun o‘tadi.

Gullash pastdan yuqoriga sekin-asta o‘tib boradi. Indeterminant navlarni yon shoxchalari olib tashlansa 3-4 gulshodasi bir vaqtda gullaydi. Determinant navlarning gulshodalari zichroq joylashganligi uchun gullashi bir vaqtdadir. Oddiy gulshodaning gullashi davomiyligi 10-20 kun, murak-kabiniki esa 30 va undan ko‘p kun bo‘ladi. Murkkab gulshodalarda ko‘p gul-lari to‘kilib ketadi, shuning uchun murakkab gulshodali navlar, sodda (oddiy) yoki oraliq gulshodali navlarga nisbatan hosildorligi past bo‘ladi.

Pomidor guli ikki jinsli, besh yoki olti bo‘lakli. Yirik mevali navlarda gullarini, qo‘shilib o‘sishligi ko‘p uchraydi (2-rasm).



2-rasm.Pomidor gullari: kam bo‘lakli – besh bo‘lakli (1, 3, 7), ko‘p-ko‘p bo‘lakli – besh bo‘lakdan ko‘p (2, 4, 5, 6, 8),sariq (1, 2, 4, 5, 6, 7), to‘q sariq (3, 8), mayda (1, 3, 6, 7), yiriklar (2, 4, 5, 8), tuklilar (1, 2, 3, 4, 5, 8) va tuksizlar (6, 7).

Pomidor gullari 2-3 kun ochilib turadi. Gullarni changlanishi uchun haroratni 24-32°S, havoning nisbiy namligini – 70-80% bo‘lishi eng qulay hisoblananishi tajribalarda aniqlangan. Pomidor o‘z-o‘zidan changlanadigan o‘simlik. Urug‘siz meva hosil qiladigan navlari ham bor. Gullaganidan mevasini pishgunicha 35-60 kun o‘tadi.

Pomidor mevasi – ko‘p uyali, ko‘p urug‘li, etli rezavor. Mevalari vazni jihatidan har xil bo‘lib: 20-50 g dan 500-800 g gacha bo‘ladi. Vazni 70 g gachasi mayda, 70-100 g – o‘rtacha, 100 g dan og‘iri – yirik hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra pomidor mevalari shakli bo‘yicha yassi, yassi dumaloq, dumaloq, ovalsimon, noksimon, cho‘ziq silindrsimon va boshqacha bo‘ladi Zuyev V.I.,Asatov Sh.I [2].

Meva o‘lchami va shakli nafaqat naviga ko‘ra farq qiladi, balki yetish-tirish sharoitiga ham bog‘liqdir. Ular unumdor va nam yerlarda, unumdor-ligi va namligi yetarli bo‘lmagan yerlardagiga nisbatan yirikroq va qattiq (tig‘iz) bo‘ladi.

Meva yuzasi silliq yoki qobirg‘ali bo‘ladi. Mevasining urug‘ uyalarga, bo‘linishiga ko‘ra kam (2-3) xonali, o‘rtacha (4-5) xonali va ko‘p (6 va undan ko‘p) xonali bo‘ladi. Ko‘p uyalilari, ko‘pincha qobirg‘ali bo‘ladi. Urug‘ xona-lari 4-5 ta dan kam bo‘lsa, odatda ular simmetrik joylashadi. Uyalarni nosimmetrik joylashishi ko‘p uyali yirik mevalarga xosdir.

Ekiladigan ko‘pchilik navlarning mevalarining rangi qizil. Yangligicha iste’mol qilish uchun mevasining rangi pushti, sariq, sarg‘imtir oq, binafsha rangli navlar, nisbatan, kam ekiladi.

Har bir meva pishish davrida birnecha bosqichni o‘taydi, bu davrda uni rangi yashildan qo‘ng‘ir, pushti va qizil rangga almashadi.

Pomidor mevalarini yetilishi ikki: biologik va texnik bosqichiga ajratiladi. Changlanganidan 40-45 kun o‘tgandan so‘ng biologik yetilish boshlanadi. Bunda urug‘ murtagi o‘ziga xos bo‘lgan o‘lcham va o‘sish xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bunda meva o‘zining maksimal o‘lchamiga yetadi, ammo u yashil rangda bo‘ladi. Meva rangini yashildan qizilgacha o‘zgarishi uni yangiligicha iste’mol qilishga yoki qayta ishlashga tayyor bo‘layotganligini – texnik yetilayotganidan darak

beradi. Tajribalarda tyexnik yetilishi biologik yetilishdan 5-15 kundan so‘ng boshlanishi aniqlangan. Amalda qo‘llanilayotgan uzoq masofaga olib borish va yetiltirib pishishi uchun yashil mevalarni terib olish shunga asoslangan.

Adabiyotlar

[1]. Zuyev V.I., Abdullayev A.G “Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi” o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston, 1997. 249-276 bet.
[2]. Zuyev V.I., Asatov Sh.I. Issiqxonalar uchun pomidor navlarini to‘g‘ri tanlash.//J. O‘zbekiston agrar habarnomasi. – Toshkent, 2002. – № 4 (10). – 22-26 bet.

SOMONIYLAR MAQBARASI TARIXIY OBIDASINING KONSTRUKTIV YECHIMLARI VA TAHLILI

U.A. Abduraxmanov

Farg‘ona politexnika instituti,
u.abduraxmonov@ferpi.uz (ORCID 0000-0003-4856-1432)
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada me’moriy obidalardan biri Ismoil Somoniy maqbarasini gumbazlarni shakllanish tarixi haqida qisqacha yoritilgan. Bugungi kunga qadar saqlanib kelayotgan Somoniy maqbarasi madaniy yodgorligi turizmni rivojlantirish sohasida ulkan xissa qo‘shib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan maqbarani shakllanishini o‘rganish zarur hisoblanadi, hamda maqolada keltirilgan ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Ismoil Somoniy maqbarasi, devor, kvadrat, doira, g‘isht, gumbaz, tromp, so‘fiylik, fasad.*

В данной статье кратко освещена история формирования куполов мавзолея Исмаила Сомани, одного из памятников архитектуры. Большой вклад в развитие туризма вносит культурная реликвия мавзолея Сомони, сохранившаяся до наших дней. С этой точки зрения изучение формирования мавзолея необходимо, и информация, представленная в статье, важна.

Ключевые слова: *Мавзолей Исмаила Самони, стена, квадрат, круг, кирпич, купол, тромбе, суфизм, фасад.*

This article briefly covers the history of the formation of the domes of the Ismail Somani mausoleum, one of the architectural monuments. The cultural relic of the Somoni Mausoleum, which has survived to this day, makes a great contribution to the development of tourism. From this point of view, studying the formation of the mausoleum is necessary, and the information presented in the article is important.

Key words: *Ismail Samoni mausoleum, wall, square, circle, brick, dome, trompe, Sufism, facade.*

Kirish. Somoniylar maqbarasi to‘rtburchak gumbazli, uyg‘un nisbatdagi bino. Ekvivalent jabhalar bilan maqbara tarkibi qat’iy markazlashtirilgan. Kub hajmi bir oz pastga qarab kengayib, to‘rt tomondan ochiq arklar va katta burchak ustunlari yengil arkada galereyasi bilan tugaydi. Fasad arklaridan birida eshik bor, qolganlari g‘isht panjaralari bilan o‘ralgan. Bir vaqtning o‘zida monumental va havodor, yorug‘lik va tosh releflardagi soyalar o‘yinlari bilan to‘yingan bino Markaziy Osiyo me’morchiligining klassik asari bo‘lib qolmoqda. [2]. Bu ekspressiv shakllar mifologik simvolizmda to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqinga ega bo‘lib, ularga qadimgi dinlar, keyinroq esa so‘fiylik ato yetgan: kub – barqarorlik ramzi, Yer ramzi; gumbazga o‘xshash osmon; ularning aloqasi koinot birligining ramzi bo‘lib, bino shu tariqa olam modelini o‘zida mujassam etgan. Maqbara binosi tuzilishining soddaligi va ravshanligi, hayratlanarli mutanosibligi va me’moriy shakllar va dekorlarning nozik uyg‘unligi bilan hayratga soladi. Kvadrat shaklidagi xonaning (7,20 x 7,20 m.) har bir to‘rt tomonida kirish eshigi bor bo‘lib, fasadiga qirrali arch bilan belgilangan. Tashqarida maqbara burchaklari uch choraklik ustunlar bilan qoplangan bo‘lib, ular jabhani toj qilib turgan kamar galereyasini qo‘llab-quvvatlaydi va gumbazning yarim shari binoning butun kubsimon massasidan yuqoriga ko‘tariladi. Fasadlar tekis, chetiga yoki burchakka qo‘yilgan pishirilgan g‘ishtlardan, shuningdek, doiralar va boshqa geometrik shakllarni hosil qiluvchi maxsus

yasalgan figurali g‘ishtlardan yasalgan naqsh bilan bezatilgan. Samoniylar makbarasi asosan ikkita oddiy geometrik figuradan – “kvadrat va doira” [3] iborat.

Asosiy qism. Maqbaraning uch o‘lchamli kompozitsiyasi sodda va ixcham – u katta gumbazning yarim shari va burchaklari to‘rt gumbaz bilan qoplangan kichik “kub” (yon tomonida taxminan 10 m). Uning kvadrat rejasi asosiy nuqtalarga qaratilgan. Bino past plintusda joylashgan bo‘lib, tepani o‘rab turgan kamar galereyasi bilan tugaydi. Binoning burchaklari uch choraklik massiv ustunlar bilan o‘rnatiladi. Maqbaraning barcha jabhalari bir xil bo‘lib, ularning har birining o‘qi bo‘ylab to‘rtburchaklar shaklida bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, ularning uchli kamarlari uch chorak ustunlar bilan ta’minlangan. Maqbaraning konstruktiv asosini to‘rtburchak, sakkizburchak va gumbazli uch bosqichli inshoot tashkil etadi. Sakkizburchakning kamarlari (35-50 sm yupqa devorlari bilan) to‘rtburchakning kuchli devorlarining ichki chetiga joylashtirilgan. Qal’alardagi bu arklar suyangan holda yarim arklar bilan mustahkamlangan; ba’zilari - binoning tashqi devorlarida (ya’ni, aylanma yo‘lak ustiga tashlangan), boshqalari - to‘rtburchakning burchaklarida, tromplarni hosil qiladi. Tromplar darajasidagi tor (56 sm) aylanma yo‘lak yarim gumbaz va gumbaz bilan to‘silgan. [4]. Maqbara gumbazi turli xil g‘ishtlardan yon tomonlari 31, 27 va 23 sm bo‘lgan alebastr ohakchasiga qurilgan bo‘lib, pog‘onali (90, 77, 57 sm) qismga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sakkizta kamar va sakkizta yarim kamarga tayangan. Gumbazning kengayishidan kuchlar diagonal yo‘nalishda to‘rtburchakning burchak ustunlariga, eksenel yo‘nalishda esa tashqi kuchlanishlarga uzatiladi. galereyaning devoridan, bu erda ajratgichlar old tomonda joylashgan. Binoning konstruktiv tizimining barqarorligi, uning elementlarining nisbiy teng mustahkamligi, poydevorlarni chuqur yotqizish, bino qoplamasini devor devorining tanasi bilan yaxshiroq bog‘lash uchun katta o‘lchamdagi g‘ishtlarning konstruktiv kamarlaridan foydalanish, yupqalash. va yuqori qismida joylashgan konstruksiyalarni yoritish, shu bilan birga, to‘rtburchak devorlarini yotqizish uchun ishlatilgan ohakni yanada bardoshli alabaster bilan almashtirish va hajmli-fazoviy strukturaning muvozanatini ta’minlash. butun tuzilma bir butun sifatida yodgorlikning ming yillik mavjudligini ta’minladi.



1-rasm. Somoniy maqbarasining a) umumiy ko‘rinishi [1],
b) devor rejasi, c) qirqim ko‘rinishi.

Maqbaraning kvadrat xonasining ichki o‘lchamlari (a) 717, 718, 722, 723 sm, ya’ni o‘rtacha 720 sm yoki modullarning 12 ta yirik o‘lchamli g‘ishtlari [5]. Maqbara devorlarining qalinligi. bu o‘lchamning to‘rtdan bir qismi, ya’ni .180 sm yoki 3 modul. Kvadrat tomonlarining tashqi o‘lchamlari 1080 sm. g‘isht-modullar kattalashtirish. Devorlarning qalinligi maqbara bu o‘lchamning to‘rtdan biri, ya’ni 180 sm yoki 3 modul.

a)  b) 

3-rasm. Somoniy maqbarasining a) ichki ko‘rinishi [8] b) hisob rejasi [10].

Xonaning burchak devorlarining kengligi qachon kichikroq segmentga to‘g‘ri keladi kvadratning yon tomonini o‘rta va yekstremalga bo‘lish nisbati, ya’ni 0,382 a = 0,382 x 720 = 275 sm, xato darajasi: +3.5 sm.To‘rtburchak teshiklarining kengligi a ga to‘g‘ri keladi.2x 0,382 a = 110 sm. Kemerli bo‘shliqlarning kengligi barcha jabhalarda (a—2x0,3824a) + 2m = 290 sm mos keladi. Pastki qismdan " kub " hajmining umumiy balandligi katta o‘lchamdagi g‘isht kamarining chekkasi baza 15 modulga teng [6]. Bunday holda, kenglik binoning balandligini 6 : 5 deb ataydi. Kamarning pastki chetidan taglikning balandligi bazaga katta o‘lchamdagi g‘ishtlardan koloniya modulga teng. Galereya qavatisiz devor maydonining balandligi, katta podvalni o‘z ichiga olgan holda, yarmiga mutanosib tashqi kvadratning balandligi. [9]. Galereya qavatisiz devor maydonining balandligi, shu jumladan kichik podval, kattaroqqa to‘g‘ri keladi kvadrat tomonini ajratishda segment o‘rta va yekstremal nisbat, ya’ni 0,618 A = 0,618 x 1080 = 666 sm; xatolik darajasi 8 sm. Burchak ustunlarining balandligi va devor chetisiz qopqoq 0,6184 - M = 666 - 60=606 sm ga to‘g‘ri keladi. Aslida - 614 sm; qalinroq xatolik darajasi — 8 sm. Devor maydonining balandligi gorizontal ravishda bo‘linadi katta o‘lchamdagi g‘ishtlarning kamari bilan ikkiga bo‘ling qismlari: gorivon yuqori pastki qismi balandligi arklar arklarini mahkamlaydigan po‘lat kamar[7]. To‘rtburchak kamarlarini mahkamlash-235 sm, yuqori qismning balandligi -379 sm, ularning nisbati -235 : 379 = 0,618. Kamarini yuqori zamin sathidan balandligi katta o‘lchamdagi g‘isht to‘rtdan biriga mutanosib tashqi kvadratning diagonali:

$$\frac{A\sqrt{2}}{4} = \frac{1080\sqrt{2}}{4} = 382$$

$$A - \frac{A\sqrt{2}}{2}$$

Ichki me’moriy shakllarini qurishda maqbaraning hosilalari tomonlari 720 sm bo‘lgan kvadrat metr bo‘lib xizmat qiladi . Bu kvadrat 1018 sm ga teng diagonalga to‘g‘ri keladi. [10].

$$\frac{A\sqrt{2}}{2} = \frac{720\sqrt{2}}{2} = 509$$

Xatolik darajasi -6 sm

Ichki qismdagi burchak tirgaklarining kengligi, to‘rtburchaklar balandligi va kengligi kvadratning teshiklari-bu tomonning bo‘linishining nisbatiga o‘rta va yekstremal nisbatdagi

kvadrat. [7]. Teshiklarning balandligi 0,3824a=275 sm,va ochilish kengligining balandlikka nisbati 170: 275=0,618; xato darajasi 2 sm. Yelkan sathining sakkizburchak qurilishi amalga oshiriladi tomonlari 736 sm va diagonali bo‘lgan kvadratdaning 1040 sm. Bu kvadrat ko‘paydi darajadagi maydonga nisbatan 16 sm ga oktaedrning chuqurchasi tufayli asosdan devor tekisligi. [8].

$$a\sqrt{2} - 1 = 736x0.41 = 302sm$$

$$A - \frac{A\sqrt{2}}{2}$$

To‘rt va sakkizburchakning umumiy balandligi 736 sm, bu maydonning yon tomoniga to‘g‘ri keladi tromp darajasi. Sakkizburchak ustida balandligi 44,5 sm bo‘lgan. Yo‘llar bo‘yicha turli xil nuqtai nazarlarning mavjudligi Somoniylar maqbarasi arklarini qurish kerakli qo‘shimcha tadqiqotlar, va to‘rtta kamar maqbara ichki qismidagi trompning sakkiz qavati o‘rganilgan.



4-rasm. Somoniy maqbarasining gumbaz kamarlarni ko‘rinishi qirqim qismi

Xulosa. Maqbaraning qolgan qismlari bo‘lgan: gumbazlar, burchlardagi minoralar, tugal qismdagi ravoqlar qatori, eshik ravoqlari va dargohdagi minoralar asosiy hajmga nisbatan unchalik ahamiyatsiz yani bo‘ysinuvchi shakllar hisoblanadi. Tarxi va hajmiy yechimlari murakkabroq binolar yoki ansambllar me’morchilikdagi yaxlitlik va kompozitsiya butunlikni ta’minlashga alohida hajmlarni bir-biriga teng bo‘ysindirish va barcha shakllarni o‘ziga qaratgan bosh hajmni alohida bo‘rttirish orqali erishilgan. Obidalarga peshtoq va uning ortidagi gumbaz asosiy hajmini tashkil qilsa, peshtoqning har ikki yonida joylashgan teng hajmli ravoqlar va me’yoriy shakllar bosh hajmga geometrik hamoxang munosabatda va teng bo‘ysinuvchi simmetrik qismlarni tashkil qilgan va kompozitsiyani uyg‘unligi va yaxlitligini ta’minlagan.

Adabiyotlar

[1]. Bulatov M.S. Построение архитектурной формы мавзолея Саманидов. – ИзУз Вып. 1, Таш., 1962
[2]. Ogli, A. U. A., Ogli, X. A. M., & Mirzajonovich, Q. G. (2020). Hazrati Imam Architecture The Complex Is A Holiday Of Our People. The American Journal of Engineering and Technology, 2(11), 46-49.
[3]. Muslimovich, A. S., & Raufjonovna, T. D. (2020). Fergana Valley Architectural School Decoration Methods. The American Journal of Applied sciences, 2(12), 21-25.
[4]. Hasanboy o‘g‘li, A. A. (2022). Construction of domes of architectural monuments improving solutions. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 236-239.
[5]. Abdurakhmanov Ulugbek, Ibragimov Iqboljon. Experiences in the protection of architectural monuments in Samarkand in the XIV century. Innovative Technologica: Methodical Research Journal. 2(11), 88-93.
[6]. Ogli, A. U. A., Ogli, X. A. M., & Mirzajonovich, Q. G. (2020). Hazrati Imam Architecture The Complex Is A Holiday Of Our People. The American Journal of Engineering and Technology, 2(11), 46-49.
[7]. Salimov, O. M. (2020). Abduraxmanov UA Rare Devonbegi Madrasah in Samarkand (restoration and repair) Architecture. Construction. Design Nauchno-prakticheskiy journal. Tashkentskiy arxitekturno stroitelnye Institute, 2020/1, 120-124.
[8]. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Выдающиейся памятники архитектуры Узбекистана. Т., 1958
[9]. Abduraxmanov U, Rustamov X. Arxitektura yodgorliklaridagi gumbazlarning konstruktiv shakllanishi // “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishida innovatsion va energiyatejamkor texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy asoslari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2023 yil 5-6 oktabr, 208-212b.
[10]. Bulatov M.S. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. Т. 1975г 95-96с.

“ОММАВИЙ МАДАНИЯТ”НИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ

А.А. Юсупов, Э.Т. Раджабова

Farg‘ona politexnika instituti
azam_1204@mail.ru, +99891668-05-84, +998916616455
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Мақолада бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири сифатида “оммавий маданият”нинг жамият аъзоларига хавфи, айниқса баркамол авлодни билимли қилиб тарбиялашда бунинг қандай муҳим аҳамиятга эга эканлиги хусусида муаллифларниг ўз қарашлари баён этилган.

Таянч сўзлар: *жамият, “оммавий маданият”, баркамол авлод, ёшлар, ахборот хуружи, Интернет, шахс, устоз, муаллим, таълим-тарбия.*

В статье изложены взгляды авторов на опасность «массовой культуры» для членов общества как одной из актуальных проблем современности, особенности ее значения в воспитании зрелого поколения.

Ключевые слова*: общество, «массовая культура», взрослое поколение, молодежь, информационная атака, Интернет, человек, учитель, педагог, образование.*

In the article, the authors' views on the danger of "mas culture" to the members of the society as one of the current problems of today, especially its importance in educating the mature generation are stated.

Key words: *society, "mass culture", adult generation, youth, information attack, Internet, person, teacher, teacher, education.*

Ахборот воситалари ривожланиб борган сайин улардан ғаразли мақсадлар учун фойдаланаётганлар ҳам кўпайиб бормоқда. Бундай мақсадларни кўзлаганлар инсон руҳиятига таъсир этувчи маълумотларни тарқатиш ва ишонтириш орқали таҳдид солмоқда. Жамиятнинг маънавий жиҳатдан заиф қатлами ҳисобланувчи ёшлар онги ва шуурига таъсир этувчи, уларни ҳаёсизлик ва аҳлоқсизлик кўчасига олиб кирувчи иллатларни тарғиб қилишга ундовчи бу таҳдид “Оммавий маданият” «иқоби остида кириб кела бошлади.

“Оммавий маданият” интернет орқали ҳар бир мамлакатга, ҳар бир хонадонга кириб келди. Ғарб оламидан бизга кириб келган “Оммавий маданият” кўзга ташланмайдиган нозик йўллар орқали ижтимоий ҳаётимизга суқилиб, ҳаётимизга аралашиб, онгимизни заҳарлаб, тарбиямизга путур етказди.

“Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди.

Оқибатда баъзи ёшлар ҳатти-ҳаракатлари, кийиниши ва баданига ҳар-ҳил сурат солиш орқали, ғарбга тақлид қилиш баробарида кўп минг йиллик қадриятларимизни унутиб, ўзликларини унутмоқда. Ачинарлиси бу ишларини тўғри қарор сифатида қабул қилиб, бу ёшларга ёши катта инсонлар томонидан билдирилган эътирозларга беписанд бўлиб келмоқда. Натижада “маданият”, “мода” ва “замон талаби” деб атаётган нарсалари умуминсоний ва миллий қадриятларимиз томирига зидлигини тушиниб етишмаяпти деб айтаоламиз.

Муқаддас Ислом динимиз аҳкомларида ҳам бундай ҳаёсизлик ва ахлоқсизликка олиб борувчи ишлар қораланади. Диний манба Қуръоннинг “Анъом” сураси 151-оятида келтирилади: «Бузуқ ишларнинг ошкорасига ҳам, махфийсига ҳам яқинлашманг»[7]. Мўмин-мусулмон нафақат фаҳш, бузуқ ишларни қилмаслиги, балки уларнинг яқинига ҳам бормаслиги керак. Чунки яқинига борганда, уни қилиш хавфи кучаяди.

Бу маънавий-ахлоқий иллатларнинг таъсири натижасида кишиларда бир қатор кўринишлар намоён бўлади.

1. Ахлоқий бузуқлик, яъни жамоат жойларда ўпишиш, шаҳвоний фильм ва суръатлар кўриш.

[7] Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. ҚУРЪОНИ КАРИМ ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ МАЪНОЛАР ТАРЖИМАСИ. “Ҳилол-Нашр” Т., 2022 Й. 148-бет.

2. Зўравонлик ва зўравонликни тарғиб қилувчи фильмлар ва компьютер ўйинларига одатланиб қолиш.
3. Ўзим бўлсам бўлди, ўзга билан ишим йўқ тушунчасида қотиб қолиш.
4. Барча нарсага шахсий манфаат назари билан ёндошиш.
5. Шахсий манфаатни ҳар нарсадан устун қўйиш. Бу борада ҳеч ким билан ҳисоблашмаслик, ҳаттоки ота-она ҳурмати ва фикрини ҳам менсимаслик.
6. Ўз нафсининг қулига айланиш.
7. Ҳаёсизлик, гиёҳвандлик, ичкиликка, тубанлик ва бошқа шу каби иллатларга юз тутиш.
8. Ғайри инсоний "никоҳ"лар, жинслар ўртасида ҳайвоний ҳирсга берилиш каби салбий оқибатлар.

"Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, "оммавий маданият" каби хавф-хатарлар кучайиб, одамзот асрлар давомида амал қилиб келган эътиқодлар, оилавий қадриятларга путур етказмоқда", деб ёшларга ўзларининг бу борадаги ташвишларини билдирган эди Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқларида[8].

Мана шундай ва бошқа кўплаб таҳдидлар инсоният ҳаётида жиддий муаммоларни келтириб чиқараётгани – айни ҳақиқат ва буни ҳеч ким инкор этолмайди.

Равшан бўлдики, "оммавий маданият" ёшларнинг маданий онгини тўғри шаклланишига салбий таъсир кўрсатиб, уларни худбин қилиб вояга етказади. "Сенга эркинлик берилади, билганингни қил, ёшлигингда айшингни сур, хоҳлаган ишни қил, озод ва хурсанд, ҳаттоки ота-онанг ҳам сенга хўжайин эмас" деган сафсаталар ёшларни ҳар қандай диндан ва маданиятдан чалғитади ва жамият олдидаги масъулиятини йўққа чиқаради, фарзандлик бурчларидан, инсонийликдан ҳам бегона қилади.

Кўринишидан ва аталишидан оддий нарсага ўхшаган «оммавий маданият» ниқоби ортидаги бу оммавий ахлоқсизликдан миллатнинг келажаги бўлган ёшларни асрашимиз ва ўз миллий ва диний қадриятларимизни уларга ўргатишимиз шарт ва лозимдир.

"Оммавий маданият" тушунчасини ҳеч иккиланмай оммавий равишда бостириб келаётган маънавий хуруж деб аташимиз мумкин. Ҳатто кичик ёшдаги болалар ҳам уни сирли сеҳрли тузоғига илинмоқда. Бугунги кунда катта шаҳарлар ва ҳатто айрим қишлоқларда фаолият олиб бораётган кўплаб Интернет кафе ва компьютер клублар "Оммавий маданият"ни беминнат ташвиқотчиларидир дейилса муболаға бўлмайди. Яхши тарбия кўрган илмли ёшлар учун компьютер, интернет билим манбаи, ижод ўчоғи, одамзод оғирини енгил қиладиган катта кашфиёт бўлса-да, айрим ёшларимизни маданий-маърифий таназзули, миллий ва диний қадриятлардан узоқлашиши ва ахлоқий инқирозига сабаб бўлди. Компьютерхонага бораётган болам ўқимишли, билимдон бўлади деб ўйлаган баъзи ота-оналар қаттик адашадилар. Аксинча кўп болалар у ерда ўқ отар қуроллар орқали турли қатл ўйинларини ўйнаб, зўравон меҳрсиз, шафқатсизга айланиб боради. Ачинарлиси шуки, Интернет кафе, клубларда узоқ муддат ўтириб, ўйин ўйнаган болаларни аксари жисмонан заиф, руҳан тушкин, тез-тез боши оғрийдиган, қўли қалтирайдиган, кўзи толиқадиган асабий ҳолатга тушиб қоладилар. Ёши катта ўлган сари қайсар, одамови, қахри қаттиқ манқуртга айланади. Ҳозирда замонавий уяли алоқа воситаларидан ҳамма фойдаланади. Бироқ ундан ҳам зарур ҳолатларда фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлар эди деб ҳисоблаймиз. Тизимлардан келадиган ахборотларни текшириб фильтрлаб қабул қилиш, кейин унга ишонишимиз ва амал қилишимиз мумкинлигини ёшларимиз онгига сингдиришимиз зарур. Биз фарзандларимизга дунёвий илмлар билан бир қаторда диний билим ҳам бермоғимиз, соф исломий ақидамизни тушунтиришимиз керак. Илм-маърифат – инсонни камолотга етакловчи, унга нажот берувчи буюк неъмат. Имом Бухорийнинг (манбалардан маълумки, ул зотнинг ўзлари ҳам илм ўрганишга анчайин ёшликлардан киришганлар) ўн икки аср аввал "Дунёда илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмагай" деган фикрлари бунинг ёркин далили бўла

[8] Ш.Мирзиёев. "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойи материаллари. Т., Халқ сўзи, 2017 й., 1 июль

олади. Шу боис аждодларимиз қадимдан илм-маърифат ва фарзанд таълим-тарбиясига устувор аҳамият қаратиб келди. Бугун бу анъана давом этмоқда ва сўнгги йилларда мамлакатимизда илм-фан ҳамда диний маърифатга берилаётган эътибор яқин келажакда ўз самарасини бериши шубҳасиз. Шунингдек, XIX аср охири – XX аср бошларида яшаб ўтган жадидлардан бири Абдулла Авлоний; “Тарбия биз учун ҳаёт- ё мамот, ё нажот - ё ҳалокат, ё саодат- ё фалокат масаласидир” - деб ҳақ гапни айтганлар.

Хулоса қилиб айтганда, ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитети ҳам шунчалик кучли бўлади. Бу ҳозирда жамиятнинг барча соғлом фикрли қатламлари олдида кўндаланг бўлиб турган ва бугунги кундаги долзарб вазифадир. Ахборот хуружларига қарши курашда курашнинг тизимли бўлишлиги, унинг зарур ҳуқуқий базаси шакллантирилганлиги ўта муҳим. Шу боис ахборот хавфсизлигини таъминлашга қаратилган алоҳида қонун ҳужжати қабул қилиш масаласи кўриб чиқилиши керак.

Адабиётлар

[1]. Ш.Мирзиёев. “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойи материаллари. Т., Халқ сўзи, 2017 й., 1 июль

[2]. Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. ҚУРЪОНИ КАРИМ ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ МАЪНОЛАР ТАРЖИМАСИ. “Ҳилол-Нашр” Т., 2022 й.

[3]. A.Yusupov Socio-Economic Changes In The City Of Kokand (Late 19 th Century And Early 20 th Century) //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 14-20.

[4]. Y. Azamdjon The Role Of The Fergana Region In Trade And Economic Relations Of The Turkestan General-Governorate With Eastern Turkestan In The Second Half Of Xix–Early Xx Centuries Centuries //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 2934-2938.

[5]. А.Юсупов *Защита молодого поколения от информационных угроз и формирование идеологического иммунитета.* Periodica. Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 24, November , 2023. Краков, Польша.

[6]. Trade and economic relations of turkestan and eastern turkestan in the second half of the xixth - early xxth centuries. (using the example of Fergana region). "Экономика и социум" №11(114) 2023. Россия.

[7]. А. Юсупов (2023). Защита молодого поколения от информационных угроз и формирование идеологического иммунитета. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 24, 39–41. Retrieved from https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/668

ТЕХНИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДИКАСИ

Б.Я. Сайдалиев

Фарғона политехника институти,
E-mail: saydaliev09021967@gmail.com

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ушбу мақолада техника фанларини ўқитишнинг замонавий методикаси, услубиёти, дарс сифатини ошириш, ўқитиш методлари ва уларни таълим жараёнига тадбиқ этиш ҳамда дарс ўтиш методлари тўғрисида батафсил маълумот келтирилган.

Калит сўзлар: *замонавий методика, таълим жараёни, ўқитиш методлари, педагогик технология, метод, услуб*

В данной статье представлена подробная информация о современной методике преподавания технических наук, методике повышения качества уроков, методах обучения и их применении в учебном процессе, а также методах проведения уроков.

Ключевые слова: *современная методика, учебный процесс, методика обучения, педагогическая технология, метод, стиль*

This article provides detailed information about the modern methodology of teaching technical sciences, methodology, improving the quality of lessons, teaching methods and their application to the educational process, and methods of conducting lessons.

Kew words: *modern methodology, educational process, teaching methods, pedagogical technology, method, style*

Президентнинг, «Таълим тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, баркамол авлодни етказиш тўғрисида»ги Фармони (08.10.1997 йил), «Таълим тўғрисида»ги қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»ни ҳаётга татбиқ этиш – давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Ушбу дастурий ҳужжатларда кадрларнинг мамлакатимизни иқтисодий равнақ топишини таъминлашда ҳал қилувчи роль ўйнаши ҳисобга олинган.

Кадрлар тайёрлаш тўғрисидаги миллий дастурнинг амалга оширилиши банк тизими соҳасини чуқур билувчи кадрлар тайёрлаш зарурлигини тақозо қилади. Банк тизимида кадрлар ўз соҳасини, мутахассислигини чуқур билишдан ташқари мутахассислик фанларини ўқитиш, улар бўйича педагогика ва педагогик маҳорат асосларини ўрганиши, аудитория билан ишлашни билишлари лозим. Бундай талабга жавоб берувчи банкир-педагогни мутахассис фанларни ўқитишнинг методикаси каби фанлар бўйича билим даражасини, интерактив усулларни ўргатмасдан амалда тайёрлаш мумкин эмас.

Шу талабдан келиб чиқиб, касб таълимининг бакалавриат йўналиши бўйича таълим олаётган талабаларга мутахассислик фани сифатида **«Махсус фанларни ўқитиш методикаси»** дарси ўқитиладиган бўлди.

Бироқ республикамизда таълим тизимини ислоҳ қилиш ва рақобатбардош кадрлар тайёрлашни таъминлашга доир ўтказилаётган ислоҳотлар аввалги таълим тизимининг ижобий томонларидан тамомила воз кечиш дегани эмас. Барча соҳада, жумладан, таълим тизимида ҳам аввалги эришилган илмий потенциалга таяниш, маънавий меросни амалиётга татбиқ этиш, ижобий жиҳатлардан фойдаланиш зарур. Асосий мақсад замонавий талаб даражасида ёшларимизни тарбиялаш, ижодий фикрлай оладиган малакали мутахассислар тайёрлашдир. Бу эса, ўз навбатида таълим жараёнига бошқача назар билан қарашни талаб этади. Мамлакатимизда таълим тизимида қатор камчиликлар мавжуд бўлиб, у ўз навбатида замон талабларига мос рақобатбардош кадрлар тайёрлашга тўсқинлик қила бошлади. Уларни Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг камчиликлар ва муаммолар қисмида кўрсатиб ўтилган.

Ушбу дастурий ҳужжатда мамлакатимизда узлуксиз таълим–тарбия тизимини ташкил қилиш муаммолари ҳал қилинмагани, амалдаги таълим тизими замонавий тараққий топган демократик давлатлар талабларига жавоб бера олмаслиги, мутахассислар тайёрлаш, таълимтарбия тизими жамиятда бўлаётган ислоҳот, янгилаш жараёнлари, бозор талаблари билан боғланмагани, мавжуд умумтаълим ва касбҳунар дастурлари ўртасида узвийлик, ворисийликнинг йўқлиги сабабли, таянч ва ўрта мактаб битирувчиларида касбга йўналтирилганлик ва меҳнат фаолияти кўникмалари шакллантирилмагани, ўқув жараёни билим даражаси ўртача бўлган ўқувчиларга мўлжалланган бўлиб. таълимнинг иқтидорли ёшлар билан якка тартибдаги ўқув дастурлари бўйича ишлаш каби механизмларидан яхши фойдаланилмагани таъкидланган.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида «Мактабларда ва бошқа ўқув юртларида таълим жараёнининг ўзидаги ва ўқитиш методидаги ҳар хил камчиликлар оқибатида билим беришда юзага келган нодемократик ҳамда жамият учун зарарли муҳит шунга олиб келадики, ўқувчиларда мустақил фикрлаш ривожланмай қоляпти, оқилона ҳаётий ечимлар қабул қилиш учун етарли тайёргарлик йўқ,» дейилади.

Ўқитиш методлари, бу педагогик технологиянинг нерв томирлари, чунки қўйилган мақсадни қандай амалга ошириш, қандай натижага эришиш айнан қайси методни қай тарзда қўллашга боғлиқдир.

Таълим технологиясида ишлаб чиқариш натижаси, “маҳсулоти”, яъни маълум малакага эга бўлган мутахассис тайёрлаш учун кўриладиган услубий тадбирлар мажмуаси, бошқача қилиб айтганда мақсад қўйиш ва унга қандай тарзда эришиш кўрсатилади. Уни умумий тарзда 3 бетдаги чизма орқали ифодалаш мумкин.

Таълим тизимига ёндашувлар ва дарс ўтиш методлари

Таълим тизимидаги ўзига хос хусусиятларни баҳолаш мезонлари, дарс ўтишда ўқитувчининг алоҳида урғу бериладиган роли ва бошқаларга кўра ўқитишга ёндашувни турли гуруҳларга бўлиш мумкин.

Бугунги кунда таълимга ёндашувлар ниҳоятда турли туман. Уларни атрофлича ўрганган таниқли олим Г. К. Селевко ўзининг “Современные образовательные технологии” китобида педагогик технологияларни турли жиҳатдан ёндашган ҳолда энг кўп (12)та гуруҳга ажратади. Уларни турли жиҳатдан гуруҳларга бўлиб, чуқур ўрганиш педагогик технологиялар фанида амалга оширилади.

Биз махсус фанларни ўқитиш методикаси фани нуқтаи назаридан ёндашиб, ўқитиш методларини қўллаш жиҳатидан ҳозирги пайтда кенг фойдаланилаётган ёндашувлар ҳақида тўхталиб ўтамиз. Ўқитувчининг тутган ўрни, қўйилган мақсад, ўқитиш методлари ва бошқаларга қараб, таълим жараёнини ташкил этишни уч гуруҳга бўлиш мумкин: кўргазмали анъанавий (тушунтирувиллюстратив) ёндашув, технологик ёндашув, тадқиқий ижодий ёндашув. Ўқитишга уч хил ёндашувни бир-биридан қандай фарқланишини қуйидаги уларга берилган қиёсий характеристика орқали кўриш мумкин.

Модул тизими асосида таълим беришнинг афзаллиги шундаки, эътибор кўпроқ таълим олувчига, унинг ўз устида мустақил ишлаши, ҳамда ўзўзини назорат қилишига қаратилади. Модул тизими асосида ўқитишнинг давомийлиги таълим олувчининг тайёргарлигига ва касбий малакани қай даражада эгаллаш истагига боғлиқ. Ўқитишни таълимнинг истаган моделидан кейин тўхтатиш мумкин.

1. Модул технологияси асосида ўқитишни ташкил этишда дастлабки шартшароитларни таҳлил этиш. Иқтисодий фанларни модул технологияси асосида ўқитишга тайёргаргарлик кўриш, яъни назарий ва амалий машғулотларни ташкил этиш учун дастлаб уч йўналишда иш олиб борилади.

Биринчидан, ўқувчиталабаларнинг тайёргарлик ҳолати таҳлил қилиниб, уларнинг билими, ўқув материалларини ўзлаштириш даражаси ва қобилияти аниқланади. Чунки уларнинг таълим олишида ўзига ишончи, қобилияти, шахсий ҳолати, ва ёши муайян даражада таъсир кўрсатади.

Ўқувчиталабаларнинг қобилиятига кўра табақалаштириш асосида уларга фанни мустақил ўзлаштириш тавсия этилади.

Иккинчидан, мавжуд шартшароитлар таҳлил этилади. У ўз ичига қуйидагиларни қамраб олади:

Ҳуқуқий шарт–шароитлар. Бунда таълим жараёнига тааллуқли ўқув режаси ва дастурлар ўрганилади.

Ўқув жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ шартшароитлар. Бунда модул таркибига кирган назарий ва амалий машғулотлар ташкил қилинадиган жой ва бошқа шароитлар ўрганилади.

Техникавий шартшароитлар. Бунда техник жиҳоз ва мосламалар, ўқув ва ёрдамчи аудиовизуал воситаларининг мавжудлиги, ҳолати ўрганилади.

Учинчидан, ўтиладиган иқтисодий фанлар таҳлил килиниб, модуллар мазмунини белгилашда зарур бўладиган турли манбалар, яъни ўқув материаллари ва бошқалар ўрганилади. Масалан:

* Иқтисодий, педагогика соҳалари бўйича дарслик, қўлланма ва бошқа адабиётлар;

* Илмий адабиётлар (илмийиқтисодий, педагогик журналлар, махсус мақолалар, диссертациялар, Интернет маълумотлари) ўрганилади,

2. Модулнинг ўқув мақсади ва мазмунини белгилаш. Модул технологияси асосида ўқитишда дастлаб ўрганиладиган фаннинг ўқитиш мақсади ва мазмуни, модулларнинг мақсади ва мазмуни белгиланади. Ўқув мақсадлари якунида таълимтарбия натижаси сифатида ўқувчи, талаба эришиши лозим бўлган билим, малака ва шахсий кўникмалар белгиланади. Ўқув мақсадлари тармоқ таълим стандарти талаблари асосида ишлаб чиқилади.

Модулни ўрганиш мақсади қанчалик аниқ бўлса, унга эришилганлик даражасини баҳолаш шунчалик осон бўлади.

3. Модул бўйича ўқувдидактик материаллар ва ўқув воситаларини тайёрлаш. Ўқув дидактик материаллар ва ўқув воситалари дейилганда билим ва малакаларни шакллантиришга хизмат қилувчи ахборот манбалари тушунилади.

Модулли технология асосида ўқитишда ўқув дидактик материаллар сифатида назарий ва амалий дарсларда матнли визуал воситалар, масалан, ўқув адабиётлари, картотека ва маъруза матнлари, тарқатма материаллар, услубий кўрсатмалардан фойдаланилади.

4. Назарий ва амалий машғулотларни ўтказиш. Модул таркибига киритилган назарий машғулотларни қуйидаги кетмакетликда ўтказиш тавсия этилади.

Қизиқтириш (мотивация уйғотиш). Иқтисодий фанларни модул технологияси асосида ўқитишда дарсларни қизиқарли, ҳатто дарсга тўғридантўғри тааллуқли бўлмаган маълумот билан бошлаш мумкин. Масалан, мавзу билан боғлиқ қизиқарли кашфиёт, янгилик ёки хизматни тушунтириш билан дарс бошланади. Бу таълим олувчилар кайфиятига ижобий таъсир кўрсатади ва уларнинг шу соҳага ёки кейинги дарсларда ўрганиладиган мавзуга қизиқишига ёрдам беради.

Маълумот (билим) бериш. Ўқитувчи ўқувчиталабаларга янги материални тушунтиради, қисқа маърузалар ўқийди, мунозаралар, ўқув суҳбатлари уюштиради. Янги модул бирлигини ўрганишдан аввал ўтилган модул бирликлари қисқача умумлаштирилган ҳолда такрорланади.

Модул бирлигига мос тарқатма материаллар берилади. Бу ўқув жараёнини осонлаштиради. Уларни модул бирлигига монанд равишда биринкетин тарқатиш ва кўриб чиқиш учун етарли вақт ажратилади.

Ўзлаштирилган билимларни мустаҳкамлаш учун топшириқлар бериш. Ўқувчи, талабаларга тафаккур қилиш ва маълумотларни қайта ишлаш имкониятини яратувчи топшириқлар берилади.

Ҳар бир топшириқ ёки машқдан кейин бажарилган ишлар баҳоланади. Натижаларни гуруҳларда очиқойдин ва самимий муҳокама қилиш ҳам юқори самара беради. Модулни ўрганиш охирида якуний суҳбат учун вақт ажратилиши керак. Бу –ўқитувчи ва

ўқувчиталабалар фаолияти натижалари, уларнинг амалга оширган ва оширмаган ишлари юзасидан мулоҳаза юритиш учун яхши имконият беради.

5. Ўқувчи, талабаларнинг назарий билими, амалий кўникма ва малакасини баҳолаш. Махсус фанларни модул технологияси асосида ўқитишда ўқувчи, талабалар билими ва кўникмалари ўқув мақсадларига мувофиқ ҳолда мунтазам баҳоланиши керак. Баҳолаш ҳуқуқий, педагогик ва психологик тамойилларга ҳамда Давлат таълим стандартларига асосланади. Баҳолаш орқали бутун модулни ўрганиш жараёни ва унинг барча компонентлари мақбуллиги текширилиб кўрилади. Бу билан модулли ўқитиш кутилаётган натижани бераётгани ёки бермаётгани аниқланади.

Шундай қилиб, педагогик технология, тўғрирофи, таълим технологияси, қўлланиладиган методларнинг барчаси ҳам таълим олувчиларни чуқур билим олишлари ва талаб даражасида кўникмага эга бўлишларига қаратилган. Ҳамма гап қўйилган мақсадни қай даражада амалга оширишдадир.

Адабиётлар

[1]. Абдуллаев А.Х., Аметов А.К. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури фалсафаси ва давлат таълим стандартларини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент, 2003.

[2]. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат, Тошкент, 2003 Ахунова Г.Н. Образовательная технология по курсу «Маркетинг в сфере

[3]. образования» Т.: “IQTISODMOLIYA”, 2005

[4]. Брюс Джемс и Марша Вейл. Модели обучения. М. 1996.

[5]. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М: Педагогика, 1999.

[6]. Гулямов С.С., Мибартова Л.И., Абдуллаев А.Х. «Внедрение новых информационных технологии» дистанционного обучения в образовательные учреждения Узбекистана. Ташкент, 2002.

[7]. Сайдалиев Бурхон Якубович Эффективный метод очистки сточных вод от нефти и нефтехимических продуктов при переработке нефти // Universum: технические науки. 2019. №11-3 (68). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnyy-metod-ochistki-stochnyh-vod-ot-nefti-i-neftehimicheskih-produktov-pri-pererabotke-nefti (дата обращения: 08.10.2021).

[8]. Сайдалиев Б.Я. Снижение солесодержания нефти при первичной переработке нефти в установке ЭЛОУ-АВТ // Universum: технические науки. 2021. №10-4 (91). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/snizhenie-solesoderzhaniya-nefti-pri-pervichnoy-pererabotke-nefti-v-ustanovke-elou-avt (дата обращения: 24.04.2022).

[9]. Сайдалиев Б.Я. Снижение расхода топлива без нарушения технологического стандарта первичной переработки нефти // Universum: технические науки. 2020. №7-3 (76). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/snizhenie-rashoda-topliva-bez-narusheniya-tehnologicheskogo-standarta-pervichnoy-pererabotki-nefti (дата обращения: 24.04.2022).

Интернет сайтлари

[1]. http://www.rbcnet.ru «Экономика и

[2]. Жизнь» www.school. edu. ru.

[3]. www. inter – pedagogika. ru.

[4]. www.ecsoman.edu.ru Россия Федерацияси олий ўқув юртларида ўқитила,тган фанлар бўйича ўқувуслубий комплекслар.

TANBEH-TARBIYA USULI

R.A. Madumarov

Farg‘ona politexnika instituti

ravshanbek madumarov78@gmail.com, tel: 90 631 87 77

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada, o‘z vaqtida berilgan to‘g‘ri tanbeh inson uchun zarur va kerakli maxsulot ekanligi, chunki inson o‘zining xarakteridagi, qilayotgan ishidagi kamchiliklarini ko‘p xolatlarda sezmasligi xaqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Stereotip, global internet, temperament, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayon*

В этой статье освещается, что правильный выговор, сделанный вовремя, является необходимым и желательным продуктом для человека, поскольку человек не замечает недостатков своего характера, в том, что он делает, во многих случаях.

Ключевые слова: *стереотип, глобальный интернет, темперамент, социальный, экономический, политический процесс*

This article highlights that a correct reprimand, made on time, is a necessary and desirable product for a person, since a person does not notice the shortcomings of his character in what he does in many cases.

Keywords: *stereotype, global Internet, temperament, social, economic, political process*.

Dunyo g‘ildiragining aylanishi va rivojlanishi jadallashib, tezlashayotgan bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda vujudga kelayotgan dolzarb muommolarni, xalqimizning,millatimizning asrlar osha yashab kelayotgan ma'naviy merosini asragan xolda xal etilishi, til tizimidagi oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Millatning kelajagi xisoblangan yoshlarimizning ongi, shuurini global internet tizimlari orqali kirib kelayotgan bizning mintalitetimizga begona bo‘lgan tushunchalar va mafkuralardan himoyalash alohida e'tibor talab etmoqda.

Xar bir millat o‘zining mintalitetidan kelib chiqib,o‘z ona tilidagi o‘ziga xos yangilanish jarayonlarini kuzatib,tahlil qilib, boshqa tillar bilan o‘zoro solishtirib borishi foydadan holi bo‘lmaydi.[1]

Yoshlarga ta'lim berishda, ularni tarbiyalash jarayonida nomaqul bo‘lgan xolatlar kuzatilganda,ularni to‘z vaqtida to‘g‘rilab borish, maqtash bilan bir qatorda, o‘rni kelganda tanbeh berish orqali ularning to‘g‘ri yo‘l tanlashga ta'sir o‘tkazish tabiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday millat va elatlarning aynan o‘zig axos bo‘lgan tanbeh usullari bor bo‘lib, ular o‘sha xalq vakillari tamonidan qo‘llanib kelinadi. Bu xolatlar albatta har bir millatning asrlar qa'ridan saqlanib kelayotgan miliy ananalari, odob-ahloq qoidalari va urfu-odatlari bilan chambarchas bog‘liq xisoblanadi.

Tanbeh yosh ham, jins ham, mansab ham tanlamaydi, muhimi uning qanday usul, qanday ohangda yetkazilishi va qabul qilinishidadir.Aslida esa tanbeh berish ham, uni qabul qilish ham – katta san'at. Unga qay darajada amal qilish har bir odamning o‘ziga,uning bilimi bog‘liq. ....

Tanbehning ne ekanligiga bir so‘z bilan javob topish amri mahol,zeroki u o‘sha jarayondan, xodisa va vaziyatdan,qolaversa insonning xarakteri va temperamentidan kelib chiqqan xolda yuzaga chiqadi. Kimlar uni dars sifatida tushunsa, kimlardir o‘z shaxsininig kamsitilishi,xattoki xaqorat deya qabul qilishlari mumkin. Demak, tanbehni nima deya tushunish mumkin? jamiyatda tanbeh uchun o‘rin bormi? Insonlarni tanbehga nisbatan munosabati qanday? Xalq orasida orasida tanbehga bo‘lgan munosabat qanday? Aynan shu savollarga javob izlab ko‘ramiz.[2.3]

Aslida tanbeh bu kimningdir kamchilik va xatolariga berilgan baho.

Tanbehning xar hil turlari mavjud. Ular xaqiqatga yaqin,real xolatdan kelib chiqqan yoki aksincha bo‘lishi kuzatiladi. Ular do‘stona berilgan dakki, o‘rinli qilingan tanqid bo‘lishi mumkin yoki negativ kayfiyat bilan yo‘g‘irilgan boshliqning jaxl “sovg‘alari”.

Pozitiv va negativ tanbehlar, inson psixikasiga xar-xil tasir o‘tkazadi. Hayotning xar bir soxasi, xar qanday paytda ziddiyatlarni, kelishmovchiliklarni, yolg‘on ma'lumotlarni yoki oqilona va adolatli xolatlarni qamrab olishi mumkin.

Negativ tanbeh nima?

Negativ tanbehning asosiy maqsadi insonni kamsitish ,uning shaxsiyatiga tegib ruxini cho‘ktirishdan boshqa narsa emas.

Ayrim insonlar o‘zgalarni faqat yomon tamonlarini muxokama qilib, tirnoq orasidan kir axtarishib,”yotib qolguncha otib qol” qabilida barchaga tanbex beraveradilar.Donolar aytganidek, o‘zi kamchiliklarga boy bo‘lgan inson o‘zgalardan kamchilik axtarishga moyil. Shu o‘rinda yana bir maqol: ” O‘zgalar ko‘zida chang zarrasini ko‘rgan odam,o‘zining ko‘zidagi guvalakni sezmabdi”. Yana shuni takidlash joizki, suxbatdoshni kamsitib, undan kamchilik axtarish, birinchi navbatda ruxan, jismonan tetik bo‘lmagan va o‘zgalarni kamsitish jarayonida o‘zini kuchli xis etadigan zotlarga xosdir. Bunday insonlarga na yozning issig‘i yoqadi,na qishning sovug‘i.Ular

tongda xo‘roz qichqirishidan tortib,bulbulni sayrashiga ham baxona topib tanbeh beradilar.Bunday negativ tanbehlarning foydasidan ziyoni ko‘proq. Ular insonlar ko‘nglida keskin norozilik va g‘azab uyg‘otadi, o‘rtaga sovuqchilik tushiradi, to‘qnashuvlarga sabab bo‘ladi va tanbeh oluvchiga jiddiy ruxiy shikast yetkazadi.

Pozitiv tanbeh deganda nima tushuniladi ?

O‘z vaqtida berilgan to‘g‘ri tanbeh inson uchun zarur va kerakli maxsulot. Chunki inson o‘zining xarakteridagi, qilayotgan ishidagi kamchiliklarini ko‘p xolatlarda sezmaydi. Do‘stona tanbehni to‘g‘ri qabul qilgan odam o‘zini kamchiliklarini aksini oynada ko‘rganday ko‘radi va uni bartaraf etadi. Agar tanbeh beruvchining qalbi xasad va g‘arazlikdan xoli bo‘lsa, kungli oq, niyati xolis bo‘lsa, aytayotgan so‘zlaridan mehr, achinish, qayg‘urish xidlari sezilib tursa, bunday samimiy tanbehdan xech kimning ko‘ngli og‘rimasa kerak va bunda o‘z vaqtida qilingan foydali tanbehlar inson shaxsini shakllanishida foydali omil bo‘la oladi. Bu kabi xolisona tanbehlarni tug‘ishgan qarindoshlar, o‘qituvchi ustozlar va chin dildan yaxshilikni ravo ko‘rgan do‘stlar bera oladilar. Bunday insolarni asrash, ularning so‘zlarini eshitib inobatga olish foydadan xoli emas.

Ayrim xollarda,sog‘lom fikrlovchi va vaziyatni to‘g‘ri baholovchi insonlar tamonidan o‘rinli tanbeh berilganda rad etishga iloj qolmaydi. Ushbu xolatda tanbeh to‘g‘ri ma'noda, faktlarga asoslanib yotig‘i bilan yetkaziladi. Tanbeh eshituvchi esa o‘z xatolarini tushungan holda ijobiy xulosaga keladi.

Ko‘pincha tanbehni hamma ham to‘g‘ri tushunavermaydi va to‘g‘ri qabul qilmaydi, yoki tanbeh berishni bilmaydi. Yana ko‘pchilik tanbeh boshlanishi bilan ximoya qobig‘iga o‘ranishga xarakat qiladi. Fikrlashning eng yuqori darajasi bu farqlash qobiliyatidir. Insonning fikrlash darajasi qancha past bo‘lsa, uning vaziyatga baho berish qobiliyati shuncha past bo‘ladi. Bunday odamlar hech qachon tanbehni to‘g‘ri qabul qilmaydi. Bu insonlarda voqeylikka real munosabat bildirish holatni nolga teng deyish mumkin.

Yana shuni aytish mumkinki, fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan ayrim insonlarga ham tanbeh berilganda, ataylab real xolatdan qochib, muttaxamlik bilan vaziyatdan chiqishga urinishlari ham kuzatiladi. Hayotdagi xodisalarni tan olish,o‘z vaqtida aniqlash va choralarni ko‘rish xayotni boshqarish nuqtalaridan biridir.Bunga qanday yondoshish kerak? O‘z xayotingizdagi muommoni qanday tan olish kerak? Ijobiy omilni qanday aniqlash mumkin? Bu faqat insonni aql-idrokiga, faxmu-farosatiga, bilimiga, shuningdek farqlash, o‘xshashlik va o‘ziga xosliklarni ko‘ra bilish qobiliyatiga bog‘liq.

Tanbeh takomillashtirish vositasidir. Hayotda biz nafaqat ommaviy axborot vositalarida, balki hamma joyda tanbeh va tanqidlarga duch kelamiz. Ta'limda, tarbiyada, ishda, oddiy muloqotda. Shunchaki oddiy hayotda u bilan kelishish qiyinroq. Tanbeh agar konstruktiv bo‘lsa, takomillashtirish vositasidir va uni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Bu taraqqiyot vositasidir va yana insonning xulq-atvori va holatlarini tuzatish vositasidir.[4]

Bir tomondan tanbehni yaxshi qabul qiladigan, boshqa tomondan o‘zlarini tanqid qila oladigan odamlarni necha marta uchratgansiz? Devalvatsiya va qadrsiz hukmlarsiz, ayblovlarsiz, junbushga kelgan his-tuyg‘ularni jilovlab, qichqiriqsiz, xolatni dramatizatsiya qilmay yoki qandaydir chuqur stereotiplarni buzmasdan bolaga xotirjamlik bilan tanbeh beradigan ota-onalar bor, bu albatta yaxshi ma'naviy holat va amaliyotni talab qiladigan aniq bir san'atdir.

Bundan tashqari, aytib o‘tishga arziydigan bir holat mavjud .Tasavvur qiling, siz aytgan so‘z, siz to‘g‘ri bergan tanbeh, kelajakda biror inson hayotini chinakam o‘zgartirishi mumkin. O‘ylaymanki, u sizdan bir umr minnatdor bo‘ladi.

Hech bo‘lmaganda xato xolislik uchun minimal javobgarlikni o‘z zimmasiga olmagan kishi,xech qachon xatolarin tuzata olmaydi. Xato va kamchiliklarni tuzatish, yetilgan muommolarni yechish mumkinligini tasavvur ham qilmaydigan odamlar bor. Ular shunchaki boshqa usul bo‘lishi mumkinligini bilmaydilar - "yomon sabab" va ularni ayblash hayot tarziga aylanadi va boshqalarga nisbatan doimo salbiy munosabatda bo‘lishadi. Mening fikrimcha, agar siz uni o‘zgacha fikrlashga o‘rgatsangiz, bunday og‘ir yukdan xalos qilsangiz,bunday inson katta yengillikni boshdan kechiradi va xaqiqatan ham hayot uning ko‘z o‘ngida yangicha ko‘rinishda paydo bo‘ladi.

Tanbehni ikki uchi bor kaltakka o‘hshatishadi,bir uchida salbiylik tanbeh berayotgan odam uchun, ikkinchi uchida ijobiylik,tanbehga uchragan odam uchun.Agar inson tanbehni to‘g‘ri tushunib,uni o‘z foydasiga ishlatishga erisha bilsa,uning ruxiy, xattoki jismoniy rivojlanishi o‘sib ketadi,chunki birovni ko‘zi bilan payqalgan kamchilikni o‘zidan siqib chiqarish oson kechadi.O‘rinli tanbeh insonni joyida qotib qolishdan saqlaydi,unga turtki bo‘ladi va olg‘a intilishga undaydi.

Hullas hulosa shuki, tanbeh berish hammaga ham yarashavermaydi.Dono xalqimizda bir ajoyib maqol bor,“Avval o‘zinga boq so‘ng nog‘ora qoq”.Bir shirin so‘z-betob odamni oyoqqa turg‘azishi mumkin, bir achchiq so‘z bilan odamni ko‘rpaga mixlab tashlash mumkin. Shu gaplardan kelib chiqib, o‘zgalarga tanbeh berishga oshiqmaylik, o‘zimizni yuzimizga aytilgan kamchiliklarni esa bosiqlik bilan qabul qilib,to‘g‘ri xulosa qilaylik.

Adabiyotlar

[1]. Begmatov E. O‘zbek nutqi madaniyati masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980, № 4.
[2]. Karimov N. Murojaat odobi // Muloqot, 1997. № 5. – B. 57-58.
[3]. Inomxo‘jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982 [4].Begmatov E. O‘zbek nutqi madaniyati masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980, № 4. – B. 54-59.

FIZIKA KURSINING OZGARMAS ELEKTR TOKI MAVZUSINI FANLARARO O‘QITISH

A.O. Umarov

Farg‘ona politexnika instituti, fiz.umarov@gmail.com
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada energiya tejamkorligini hisobga olib elektr zanjirini tuzishda elektron dasturlar ta’minotida foydalanishning ahamiyati va bu dasturdan to‘g‘ri foydalanishni o‘quvchilarga o‘rgatish, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llash malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron dastur, elektr o‘tkazgichi, ampermetr, voltmeter, o‘tkazgichning uzunligi, o‘lchov birligi, tok kuchi, kuchlanish, o‘tkazuvchanlik, solishtirma o‘tkazuvchanlik.*

В данной статье освещена важность использования электронного программного обеспечения при построении электрической цепи с учетом энергоэффективности, а также методы обучения учеников правильному использованию этой программы, применению полученных знаний на практике, формированию навыков и умений.

Ключевые слова: *электронная программа, электрический проводник, амперметр, вольтметр, длина проводника, единица ток, напряжение, проводимость, удельная проводимость.*

Ushbu maqolada energiya tejamkorligini hisobga olib elektr zanjirini tuzishda elektron dasturlar ta’minotida foydalanishning ahamiyati va bu dasturdan to‘g‘ri foydalanishni o‘quvchilarga o‘rgatish, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llash malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron dastur, elektr o‘tkazgichi, ampermetr, voltmeter, o‘tkazgichning uzunligi, o‘lchov birligi, tok kuchi, kuchlanish, o‘tkazuvchanlik, solishtirma o‘tkazuvchanlik.*

Tok kuchi deb o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasidan vaqt birligi ichida oqib o‘tgan zaryad miqdoriga tehg bo‘lgan fizik kattalikka aytiladi va $I=\frac{dq}{dt}$ formula bilan hisoblanadi. Metal o‘tkazgichlardan elektr toki o‘tganda elektronlar malum bir tomonga tartibli harakatlangani uchun tok kuchini $I=en\langle v\rangle S$ formula bilan hisoblaniladi. Bu yerda dq-o‘tkazgichning ko‘ndalang kesimi yuzasidan o‘tgan zaryad miqdori bo‘lib Kl (Kulon) birligida o‘lchanadi, dt-o‘tkazgichning ko‘ndalang kesimi yuzasidan zaryadlarning o‘tib turish vaqti bo‘lib s (sekund) da o‘lchanadi, e-elektronning zaryad miqdori bo‘lib $e=1{,}6\cdot10^{-19}$ Kl. n-zaryadli zarrachalar (metallarda erkin elektronlar)ning hajm birligidagi soni bo‘lib birligi $\frac{1}{m^3}$ dir. $\langle v\rangle$ –zaryadli zarrachalarning o‘rtacha

tezligi bo‘lib birligi $\frac{m}{s}$ da o‘lchanadi. S-o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasi bo‘lib birligi m^2 da o‘lchanadi. I-o‘tkazgichdan o‘tayotgan tok kuchi bo‘lib A (amper)da o‘lchanadi.

1 amper deb uzunligi 1 metr bo‘lgan har bir qismiga $2 \cdot 10^{-7}$ N kuch tasir qiladigan vakuumda 1 metr masofada joylashgan ko‘ndalang kesim yuzasini hisobga olmaydigan darajada kichik bo‘lgan cheksiz uzunlikdagi parallel to‘g‘ri chiziq shaklida joylashgan o‘tkazgichlardan o‘tayotgan tok kuchiga aytiladi.

Elektr tokini harakterlaydigan parametrlardan yana biri elektr yurituvchi kuch (E.Yu.K)dir. E.Yu.K-o‘tkazgichdan tok o‘tkanda bajariladigan ishning qiymatiga qarab tavsivlanadi.

Birlik musbat zaryadni ko‘chirishda bajarilgan ishga teng bo‘lgan fizik kattalikka elektr yurituvchi kuch deyiladi va $\mathcal{E}=\frac{A}{q_0}$ formula bilan hisoblanilanib V (volt) birlikda o‘lchanadi. A-elektr tokining q zaryadni ko‘chirishda bajarikgan ish bo‘lib J (Joul) birlikda o‘lchanadi. q_0-o‘tkazgichdan tok o‘tkanda tartibli harakatlangan zarracgalarning zaryad miqdori. Berk zanjirda q_0 zaryadni ko‘chirishda bajarilgan ish A= $q_0 \mathcal{E}$ bilan hisoblaniladi yoki tashqi kuchlarning bajargan ishi

$A = \oint \vec{F}_{стор} \overrightarrow{dl} = q_0 \oint \vec{E}_{стор} \overrightarrow{dl}$ bilan hisoblaniladi.

Berk zanjirdagi E.Yu.K–bu tashqi kuchlar maydoni kuchlanganligi vektorining sirgulyatsiyasi, yani u quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\mathcal{E} = \oint \vec{E}_{стор} \overrightarrow{dl}$$

Zaryadga bir vaqtda tashqi kuchlar va elektrstatik maydon kuchlari ta’sir etganda natijaviy kuch quyidagicha bo‘ladi, yani

$$\vec{F} = \vec{F}_{стор} + \vec{F}_e = q_0(\vec{E}_{стор} + \vec{E})$$

Ko‘chishning 1-2 qismlarida natijaviy kuchning bajargan ishi

$$A_{12} = q_0 \int_1^2 \vec{E}_{стор} \overrightarrow{dl} + q_0 \int_1^2 \vec{E} \overrightarrow{dl} = q_0 \mathcal{E}_{12} + q_0(\varphi_1 - \varphi_2)$$

Elektrostatik kuchlarning berk zanjirda bajargan ishi nolga teng bo‘lgani uchun, yani $\varphi_1 = \varphi_2$ dan $q_0(\varphi_1 - \varphi_2)$=0 ekanligini hisobga olsak

$A = q_0 \mathcal{E}$ ga ega bo‘lamiz.

Zanjirning 1-2 qismidagi kuchlanish tushishi zanjirning shu qismidagi birlik musbat zaryadni ko‘chirishda elektrostatik va tashqi kuchlarning bajargan ishlari yig‘indisiga teng bo‘lgan fizik kattalikka aytiladi.

$$U_{12} = \frac{A_{12}}{q_0} = \varphi_1 - \varphi_2 + \mathcal{E}_{12}$$

Elektr tokining o‘tishiga qarshilik qiluvchi o‘tkazgichning xususiyati qarshilik deb ataladi va quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$R = \rho \frac{l}{S} \qquad [R] = \left[\frac{B}{A}\right] = [Ом]$$

Zanjirning bir qismi uchun Om qonunini quyidagicha formula bilan hisoblanadi

$I = \frac{U}{R}$ va bir jinsli metal o‘tkazgichdan o‘tuvchi tok kuchi o‘tkazgich uchlaridagi potensiallar tushishiga to‘g‘ri prororsionaldir.

$R = \rho \frac{l}{S}$, $\frac{U}{l} = E$, $\gamma = \frac{1}{\rho}$, $j = \frac{I}{S}$ larni hisobga olsak $\vec{j} = \gamma \vec{E}$ ga ega bo‘lamiz.

Barcha o‘tkazgichlar elektr tokini o‘tkazish qarshiligiga ega bo‘lgani uchun o‘tkazgichning volt-amper xarakteristikasi tushunchasi kiritilgan.



1-rasm. O‘tkazgich (mis va temir)ning volt-amper xarakteristikasi



2-rasm.. Solishtirma qarshilikning temperaturasiga bog‘liq grafigi.

Zanjirning bir qismi uchun Om qonunidan $R=\frac{1}{I}U$ ga ega bo‘lamiz. Qarshilikni kuchlanish va tok kuchiga bog‘lanish grafigini hosil qilamiz (1-rasm) va grafikdan $R=ctg\alpha$ qarshilik funksiyasiga ega bo‘lamiz. Grafikdan ko‘rinadiki o‘tkazgichning qarshiligi grafikni kuchlanishlar (apsissa) o‘qi bilan hosil qilgan burchakka bog‘liq bo‘lib burchak katta bo‘lsa qarshilik kichik, burchak kichik bo‘lsa qarshilik katta qiymatga ega bo‘ladi (1-rasm). Shuning uchun ushbu grafikni o‘tkazgichning volt- amper xarakteristikasi deyiladi. O‘tkazgichning qarshiligi va solishtirma qarshiligi temperaturasiga to‘g‘ri proposionaldir. $R=R_0(1+\alpha t)$, $\rho=\rho_0(1+\alpha t)$ O‘tkazgichlarning ma’lum bir temperaturada qarshiligi va solishtirma, qarshiligi no‘lga teng bo‘ladigan holatiga o‘tao‘tkazuvchanlik holati deyiladi. Masalan simob 4,1 K da qarshiligi nolga teng bo‘lib bu holatni simobning o‘tao‘tkazuvchanlik holati deyiladi. α - qarshilikning termik koeffitsiyenti.

Radiotexnikada, elektrotexnikada, kosmonavtikada, mexatronikada, meditsina fanlarida o‘tkazgichning aniq qarshiligini hisobga olib elektr zanjirlari tuzishni talab etadi, shuning uchun bu shartni qarshiliklarni ketma-ket va parallel ulash orqali erishiladi.

Qashiliklarni ketma-ket ulash 6-rsmdagidek amalga oshiriladi. Bir jinsli bo‘lmagan elektr zanjiri uchun Om qonuni quyidagich hisoblaniladi (9-rasmga asosan). $I=\frac{(\varphi_1-\varphi_2)+\mathcal{E}_{12}}{R}$ bu yerda I-bir jinsli bo‘lmagan zanjirning bir qismidan o‘tayaotgan to‘kning kuchi. $(\varphi_1-\varphi_2)$-o‘tkazgich uchlaridagi potesiallar farqi (kuchlanish).



3-rasm. Qarshiliklarni ketma-ket ulash.



4-rasm. Qarshiklarni parallel ulash.

$\mathcal{E}_{12}$-zanjirning hisoblanayotgan qismidagi manbaning elektr yurituvchi kuchi. R-hisoblanayotgan

zanjir qisminitп qarshiligi. Kirxgofning 1-qoidasi quyidagicha ta'riflanadi: Zanjirning tugunidagi uchrashadigan toklarning yig'indisi no'lga tengdir (8-rasm). Zanjir tuguniga kiruvchi tok musbat, chiquvchi tok manfiydir.

$$I_1 - I_2 - I_3 + I_4 + I_5 - I_6 = 0 \quad \text{yani} \quad \sum_k I_k = 0$$

Kirxgofning 2-qonuni quyidagicha tariflanadi.

Tarmoqlangan elektr zanjirining ixtiyoriy yopiq konturi qismlaridagi tok kuchlarining mos ravishda qarshiliklarga ko'ytmalarining algebraik yig'indisi shu ko'nturdagi E.Yu.Klarning algebraik yig'indisiga tengdir.

$$\sum_i I_i R_i = \sum_k \mathcal{E}_k$$

$I_1R_1-I_2R_2+I_3R_3+I_4R_4=\mathcal{E}_1-\mathcal{E}_2+\mathcal{E}_3$



5-rasm. Berk elektr zanjiri

Elektr tokining bajargan ishi va quvvatini hisoblash. O'tkazgichdan tok o'tganda tokning bajargan ishini quyidagicha bajariladi;

$$dA = Udq = UIdt = I^2Rdt = \frac{U^2}{R}dt$$ va $[A]=[J]$ birlikda o'lchanadi.

Tokning quvvat-vaqtning birligi ichida bajarilgan ish va u $$P = \frac{dA}{dt} = UI = I^2R = \frac{U^2}{R}$$

formula bilan hisoblanadi, $[P]=\left[\frac{J}{s}\right]=[Vm]$ da o'lchanadi.

Vt·s=3600 J=3,6·10^3 J. 1кVт·c=1000 Vт·c=3,6·10^6 J.

Lekin 1- guruh mis o'tkazgichning diametrini d=1,5 mm, 2-guruh esa d=2,0mm ni tanlaydilar. Bazi o'quvchilar qashilikning formulasi va zanjirning bir qismi uchun Om qonunidan fodalanib o'tkazgichniing diametrini hisoblashi mumkin, lekin barcha o'quvchilar hisoblay olmaydilar shuning uchun elektron dasturni tavsiya etayapmiz. Eletron dasturning afzalligi: yordamida hisobni amalga oshirib to'g'ri natijaga erishgan o'quvchida fizika fanidan bilim olib o'zlashtirishiga va oliy dargohlarda o'qishiga ishonch hosil bo'ladi va fizika faniga qiziqish uyg'onadi, ilg'or o'quvchilar qatoridan o'rin olishga intiladi, xonadonida elektr tarmog'ini tortishda ushu dasturdan foydalanadi. Aniq o'tkazgichning diametrini to'g'ri tanlash elektr energiyasining isrofiga yo'l qo'yilmaydi va yong'ning oldi olinadi, Hukumatimizning shioriga amal qilinadi. "Elektr energiyasini tejash va ishlab chiqarish" shiori bajariladi.

Adabiyotlar

[1]. А.А.Детлаф, Б.М.Яворский. Физика курси. "Техника" нашрёти. Фаѓона-2002. 2-қисм 45б
[2]. Т.И.Трофимова. Курс физики. Издательство «Высшая школа», 1985г. 179с
[3]. S.E.Firish, F.V.Timorova. Umumi fizika kursi. "O'qituvch" nashiryoti. Toshkent-1972. 112b
[4]. Umarov, Abdusattor, and Ibrahimjon Zohidov. "TEACHING CHAPTER «ELECTRIC RESISTANCE» 8th–CLASS, PHYSICS COURSE." Збірник наукових праць ЛОГОΣ (2020): 110-114.
[5]. Хабибуллаев П.Қ ва бошқалар. Физика 8-синф. Умумий ўрта таълим мактаблари учун дарслик. –Т.: "Ўқитувчи" нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2019. 173 б.

ИЧКИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРШ ОМИЛЛАРИ

А.А. Усманов

Фарғона политехника институте
ausmanov@gmail.com, тел:90-560 49 57

Ушбу мақолада туристик хизматлар бозорда ички туризм фаолиятини аҳамияти ва зарурлиги баён этилган. Шунингдек, мақолада ички туризм фаолиятига таъсир этувчи омиллар алоҳида гурухларга ажратилиб ўрганилган.

Калит сўзлар: *туризм, ички туризм, дам олиш зоналари,экскурсия, кириш туризми, туристик хизматлар бозори.*

В данной статье описывается важность и необходимость деятельности внутреннего туризма на рынке туристических услуг. Также в статье изучаются факторы, влияющие на деятельность внутреннего туризма, разделенные на отдельные группы.

Ключевые слова: *туризм, внутренний туризм,зоны отдыха, экскурсия, въездной туризм, рынок туристических услуг.*

This article describes the importance and necessity of domestic tourism activities in the market of tourist services. Also in the article, the factors affecting the activities of domestic tourism are studied, separated into separate groups.

Keywords: *tourism, domestic tourism,recreation zones, excursion, entrance tourism, tourist services market.*

Ички туризмнинг асосий хусусияти сифатида мамлакат чегараларидан чиқмаган ҳолда туризм хизматларидан фойдаланувчи мижозларни топиш ҳисобланади.

Ички туризм халқаро туризмнинг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, ички туризмнинг ривожланиши туристик ресурслар жойлашган ҳудуднинг имижини шакллантиради ҳамда ҳудудга ҳорижий туристларнинг ташрифи даражасининг ортишида катализатор вазифасини бажаради [1].

Ички туризмнинг таркибий тузилиши ўз ичига қуйидаги мақсадлардаги фаолиятни қамраб олади :

- дам олиш зоналари ва курортларда дам олиш;
- даволаш-соғломлаштириш бўйича дам олиш;
- тарихий-маданий ҳамда табиатнинг диққатга сазовор жойларига экскурсиялар ва турлар уюштириш;
- гастрономик туризм хизматларидан фойдаланиш;
- фаол ва экстремал туристик хизматлардан фойдаланиш;
- зиёрат туризми хизматларидан фойдаланиш;
- экологик туризм хизматларидан фойдаланиш;
- спорт туризми хизматларидан фойдаланиш;
- агротуризм хизматларидан фойдаланиш;
- тадбиркорлик туризми ва бошқа турдаги туристик хизматлардан фойдаланиш.

Кириш туризмидан фарқли равишда ички туризм бир қатор устун жиҳатларга эга:

- ички туризмнинг нисбатан арзон саёҳат эканлиги;
- саёҳат даврида хорижга чиқиш учун рухсатноманинг талаб этилмаслиги;
- виза олиш учун туристик фирма ёки элчихоналарга боғланишнинг талаб этилмаслиги;
- дам олишда дискомфортни юзага келтирувчи иқлимга мослашишнинг зарур эмаслиги;
- мижозлар учун ўз мамлакати ҳудудидаги тарихий-маданий ва бошқа диққатга сазовор жойларга бориш орқали кўпроқ маълумот олиш имкониятининг мавжудлиги[2].

Ички туризм хизматларини ташкил этувчилар қаторига, юқорида айтиб ўтилган туроператорлар ва туристик агентликлар киритилса, туристик хизматларни амалга оширувчилар туристик ресурслар асосида хизмат кўрсатувчи асосий ва қўшимча хизматларни таклиф этувчи тузилмалардан ташкил топади.

Туроператорлар ички туризм хизматларини истеъмолчиларни хизмат кўрсатувчилар билан боғлаш, ҳар икки томонни молиявий-иқтисодий келиштириш орқали шакллантирсада, бир томондан, мижозлар учун туристик маҳсулотнинг сифатли етказиб берилишини таъминлайди, иккинчи томондан, туристик хизматларни амалга оширувчи инфратузилма учун иқтисодий манфаатларни амалга оширилишини ҳам таъминлайди. Натижада, ички туризм хизматлари бозорида туристик хизматлар бўйича талаб ва таклифнинг ўзаро мувозанати таъминлади[3].

Туризм хизматлари бозорида туристик маҳсулотнинг шаклланиши билан боғлиқ бўлган иқтисодий ва ижтимоий-маданий мақсадлар хизматларнинг турига боғлиқ бўлган бир қатор омилларнинг таъсирида юзага келади. Ушбу омилларни муҳит нуқтаи назаридан икки асосий гуруҳга – макро омиллар ва микро омиллар гуруҳига ажратиш мумкин[4].

Макро омиллар гуруҳига мамлакат ёки минтақадаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маданий-маърифий ҳолатларни акс эттирувчи қуйидаги омилларни киритиш мақсадга мувофиқ:

- табиий омиллар;
- тарихий омиллар;
- маданий омиллар;
- экологик омиллар;
- илмий-технологик омиллар;
- демографик омиллар;
- ижтимоий омиллар;
- иқтисодий омиллар;
- сиёсий омиллар.

Микро омиллар гуруҳи эса фаолият жараёнида таъсир кўрсатиш ва бошқариш мумкин бўлган рақобат, ресурслар таъминоти, кадрлар ва бошқа омиллардан ташкил топади.

Ички туризм мажмуалари асосан ресурслардан фойдаланиш хусусиятига кўра бир-биридан фарқланади.

Ушбу хусусиятлар ички туризм хизматларини ривожлантирилиши ва бундан келиб чиққан ҳолда туристик объектлардан фойдаланиш йўналишини белгилаб беради. Бугунги кунда ички туризм фаолияти бўйича хизматларни таклиф этувчи корхоналар томонидан юқорида кўриб чиқилган хусусиятлардан соф ҳолда алоҳида ташкилланган шакл мавжуд эмас. Кўп ҳолларда хизматларга бўлган талабдан келиб чиқиб ўрганилган ҳолда бир неча хусусиятларни ўзида бирлаштирган ва хизматларни диверсификациялаган ҳолда истеъмолчиларнинг кенгроқ диапазонига хизмат кўрсатувчи корхоналар шаклида фаолият ташкил этилмоқда. Чунки алоҳида белги бўйича ташкил этилган фаолият барқарор, лекин ўзгармас даромадни таъминлайди.

Жаҳонда ички туризм фаолиятини тадқиқ этиш жараёнида фаолиятни ташкил этувчи элементларни бир бутун мажмуа сифатида ўрганишга алоҳида эътибор қаратилади. Бошқача айтганда, ички туризмни ривожлантириш ва ташкил этишнинг асосий тамойиллари орасида интеграциялашган ёндашув тамойилига алоҳида урғу берилади.

Интегратив ёндашув ички туризмнинг алоҳида элементлари муаммоларини эмас, балки уларнинг тизимли ўзаро алоқаларини ўрганишга, туризмнинг барча элементлари ҳолатини янада умумий тизим – туристик мажмуанинг қуйи тизимлари (субкомплекслари) мажмуи сифатида кўриб чиқишга имкон беради.

Бугунги кунда жаҳоннинг туристик салоҳияти юқори бўлган мамлакатларида туризм салоҳиятини ягона мажмуага бирлаштирган ҳолда ривожлантириш орқали туристик мажмуаларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, туризм хизматлари бозорида ички туризм хизматларининг ривожланиши мавжуд салоҳиятни умумлаштириш асосида соҳа учун қисқа муддатларда янги туристик объектларни шакллантириш ва ушбу объектларни янги даражага олиб чиқиш имконини кенгайтиради.

Жаҳон миқёсида сўнгги йилларда туризм соҳасининг ривожланиш тенденсиялари соҳанинг барқарор ривожланиши фақатгина кириш туризми орқалигина таъминланмасдан, мамлакатлар ҳудудида ички туризмнинг алоҳида турларини ҳам устувор ривожлантириш орқали амалга ошириш талаб этилади.

Адабиётлар

[1]. Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденсиялари (Самарқанд вилояти мисолида).: иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертасия. – С.: СамИСИ, 2017. - 265 б.

[2]. Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреасия фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (ДСс.) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертасия. –Т.: ТДИУ, 2021. – 254-б.

[3]. Салаев С., Олланазаров Б. Туристик хизматлар соҳасида инвестисион фаолликни оширишнинг устувор йўналишлари: монография. –Урганч: “Қувончбек-Машҳура” МЧЖ нашриёти, 2020. –188 б.

[4]. Эштаев А.А Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертасия. -С.: СамИСИ, 2019. – 246-б.

IQTISODIY-EKOLOGIK TIZIMLAR FAOLIYATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TASNIFI

P.Y. Raxmonazarov

Farg‘ona politexnika instituti,
praxmonazarov@gmail.com,
tel.:+998993654305

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ushbu maqolada mamlakat hududlarining barqaror rivojlantirish va hududlar iqtisodiy-ekologik tizimlar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar alohida guruxlarga ajratib o‘rganilgan hamda ularni samarali boshqarish bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Hudud, iqtisodiy-ekologik tizim, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ichki, tashqi omillar.*

В данной статье изучены факторы, влияющие на функционирование экономико-экологических систем устойчивого развития регионов страны и регионов, выделены в отдельные группы и разработаны необходимые рекомендации по их эффективному управлению.

Ключевые слова: *территория, экономико-экологическая система, экономические, социальные, экологические, внутренние, внешние факторы.*

in this article, the factors affecting the sustainable development of the regions of the country and the functioning of the economic and environmental systems of the regions are studied separately and the necessary recommendations for their effective management are developed.

Keywords: *Territory, economic-ecological system, economic, social, environmental, internal, external factors.*

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy-ekologik tizimlarni barqaror rivojlantirish, ularni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, yetakchi soha va tarmoqlarni kengaytirish, bunda, tejamkor ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Hududlarda mavjud ishlab chiqarish omillarining samarali va oqilona bandligini ta’minlashga, ulardan foydalanishda zamonaviy boshqarish usullarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hududlarning iqtisodiy-ekologik tizimlarini boshqarishni rivojlantirish, shu yo‘nalishda

investision-innovasion faoliyatni kengaytirish maqsadida institusional o‘zgarishlar takomillashtirildi.

Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mamlakat mintaqalarining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Hududlar iqtisodiyotini barqarorligini ta’minlashda ishlab chiqarish jarayonini maqbul va samarali tarzda tashkil etish lozim. Bunda mintaqadagi resurslarni to‘g‘ri taqsimlash talab etiladi. Bu holatning ijobiy yechimi hududlarda iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanish yo‘nalishida amal qilishini ta’minlovchi omillarni o‘rganish lozim.

Birinchi navbatda, omillar zamirida ishlab chiqarish resurslari nazarda tutiladi. Jumladan, iqtisodiy sub’yektlar faoliyatlarining natijasi resurslar asosida, ya’ni ularning samarali harakati orqali ta’minlanadi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda omil ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonni harakatlantiruvchi hamda faoliyati natijalariga ta’sir qiluvchi kuch, deya ta’riflanadi[1]. Iqtisodiy-ekologik tizimlarga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda tadqiqotchilar turli yo‘nalishda izlanishlar olib borishgan. Ayrim izlanishlar resurslar asosida qarab o‘tilgan bo‘lsa, boshqalari natijaviy holat orqali o‘rganishgan.

Jumladan, iqtisodiy-ekologik tizimlar va ularning omillarini o‘rganishga beshta yo‘nalish mavjud bo‘lib, ular: rusurslar bo‘yicha, texnologik, geoekologik, umumfalsafiy va iqtisodiy-ekologik yondashuvlar [2]. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, fan-texnika taraqqiyoti haqiqatdan ham mahsulot birligiga sarflanadigan resurslarni tejashga olib kelsada, ishlab chiqarish hajmining tez sur’atlarda o‘sishi natijasida atrof-muhitga salbiy ta’sir etadi.

Yuqoridagi omillarni besh yondashuvga bo‘lib o‘rgangan olimlar izlanishlarida ma’naviy-mafkuraviy omillarga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, kishilarning atrof-muhitga ta’siri ular madaniyati bilan belgilanadi. Tejamkorlik va ekologik madaniyat inson madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Mintaqaning iqtisodiy-ekologik tizimlarining barqaror rivojlanish darajasi hududning ichki va tashqi omillarini ijobiy yoki salbiy ta’siri natijasida belgilanadi.

Umumiy holda, yuqoridagi tasnifdagi omillarni ta’riflashda ekologik omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ekologik omillar mintaqaning ixtisoslashuvini belgilovchi manba hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, ulardan foydalanishni samarali va maqbul holda amalga oshiruvchi ishlab chiqarish kuchlari bu iqtisodiy omillardir. Iqtisodiy omil – tabiiy resurslarga ta’sir etuvchi asosiy vositalar tarzida qarashimiz mumkin. Ijtimoiy omillarni esa, ishchi kuchi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Har uchala ishlab chiqarish omillarining yig‘indisi va uning nazorati institusional omillar asosida amalga oshiriladi.

Turli iqtisodiy-ekologik tizimning omillari o‘zaro aloqasi takror ishlab chiqarish kengayishiga hamda moddiy, mehnat, moliyaviy ko‘rsatkichlarning muvozanatli o‘sishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi omillar iqtisodiy-ekologik tizimlarga majmuaviy holda ta’sir etadi, lekin birida yuz bergan o‘zgarish boshqalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demak, iqtisodiy-ekologik tizimlarning tashqi muhiti ta’sir etuvchi omillarning sinergetik samarasini amalga oshiriladi. Zero, omilli tahlil qilishda biz har birini alohida baholaymiz.

Ichki muhit omillariga iqtisodiy-ekologik tizimlarning oshirishga bevosita bog‘liq bo‘lgan shart-sharoitlar kiritiladi[3]. Ularga demografik holat, ishlab chiqarishning ekologizatsiyalashuvi, ekologik investisiya, ekologik madaniyat an’analari kiradi.

Hududning iqtisodiy-ekologik tizimlarini barqaror rivojlanishini ta’minlashda boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish uchun omil va manbalarni joriy va istiqbolli holatda baholash lozim. Jumladan, mintaqada mavjud omillarni kompleks baholash asosida boshqaruvni tashkil etilishi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Bunda, iqtisodiy-ijtimoiy omillar qatorida, ma’naviy-ma’rifiy masalalarga, urf-odat va an’analarga ham alohida e’tibor berish lozim [4].



Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm. Iqtisodiy-ekologik tizim barqarorligining tashqi va ichki omillari.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Iqtisodiy-ekologik tizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda tizimlarni boshqarishga ta’sir etuvchi guruh omillari va mavjud omillar ta’sir darajalarini inobatga olish zarur hisoblanadi.

Omillarning ta’sir darajasi bo‘yicha ichki va tashqi omillarga bo‘lish mumkin. Tashqi muhit omillarga iqtisodiy-ekologik tizimlarning geografik holati, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy muhit, fan-texnika taraqqiyoti, makrodarajada iqtisodiy-ekologik tizimlarni tashkil etuvchi komponentlar, ichki muhit omillariga iqtisodiy-ekologik tizimlarni samarali boshqarishga bevosita bog‘liq bo‘lgan shart-sharoitlar ya’ni tabiiy resurslar, demografik holat, ekologik madaniyat, jamiyat boshqaruvi, ishlab chiqarishning ekologizatsiyalashuvi, ekologik investisiya holati kabilar kiradi. Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni majmuaviylik, tizimlilik va o‘zgaruvchanlik tamoyillariga amal qilgan holda qo‘llash tizimlarning barqarorligini aniqlovchi o‘zaro aloqador yalpi omillarni ajratib ko‘rsatish va ularning o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash hamda kompleks baholash asosida iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishni tashkil etilishi barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik soflikni ta’minlash imkonini beradi.

Adabiyotlar

[1]. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / Б.А.Райзберг, Л.Ш.Лозовский, Е.Б.Стародубцева. – 5-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2006. – 495 с.

[2]. Резник Г.А., Малышев А.А. Методологические подходы к исследованию факторов устойчивости эколого-экономической системы // Общественные науки. –М.: 2013. №1(25). С.136-145.

[3]. Малышев А.А., Солодков Н.Н. Факторы, влияющие на устойчивость эколого-экономической системы // –М.: №1(30). 2014. С. 129-135.

[4]. Rakhmonazarov, Pakhlovon Yigitalievich МИНТАҚАЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ // Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. 2022. №9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/minta-alar-i-tisodiyotini-rivozhlantirishda-horij-tajribasi.

ФАНДАГИ ТИЛ – ТАЪЛИМ СИФАТИ

Т.С. Набиев

Фаргона политехника институти(+998950551946, dilnur@mail.ru)

(Қабул қилинди 18.11.2023 й.)

Ушбу мақолада ўзбек тилида ишлатиладиган ҳарфлар ва лотин ҳамда кирилл сўзларидаги маъноларга мувофиқлиги тўғрисида, шеваларни таълим системасида қўлланилаётганлиги ҳақида сўз

юритилади.

Калит сўзлар: *ўзбек тили, таълим, сифат, ҳарфлар, эътибор, лотин, кирилл, алифбо, математика, талаффуз, товуш, сўз, шева, адабий тил.*

В данной статье рассматривается совместимость букв, используемых в узбекском языке, со значениями слов латиницы и кириллицы, а также использование диалектов в системе образования.

Ключевые слова*: узбекский язык, образование, качество, буквы, внимание, латыны, Кирилл, альфавит, математика, произношение, звук, диалект, литературный.*

This article examines the compatibility of the letters used in the Uzbek language with the meanings of Latin and Cyrillic words, as well as the use of dialects in the education system.

Key words: *Uzbek language, education, quality, letters, attention, Latin, Cyril, alphabet, mathematics, pronunciation, sound, dialect, literary.*

Маълумки, ҳар йили республикамизда анъана бўйича ўз шиорини эълон қилишади. Шу нуқтаи назардан 2023 йил шиори: “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”. Шунинг учун сифатли таълимни кўп ўйлайдиган ва уни амалда таъминлашга ҳаракат қиладиган инсонга эътибор бериш, алоҳида ўрин касб этади.

Мавзуда келтирилган айрим сўзлар ва атамалар Ўзбекистонда энг қадрли ва энг қимматли сўз туркуми ҳисобланади. Булар халқ сўзларидир. Дунёда 6850 га яқин тил мавжуд. Шулар орасида ўзбек тили алоҳида аҳамиятга эга, чунки бу тилда 30.000.000 дан кўп одам гаплашишади, ижод ва муомала қилишади.

Ўзбек тили алифбосини раҳбарлар бир неча бор ўзгартиришган: араб, лотин, кирилл ва яна лотин! Бу жараён халқимизни маълум даражада саводсизликка олиб келган. Натижада жамият ривожланиши ҳам секинлашган. Менинг фикрим, алифбо Кириллигича қолганда яхши бўлар эди, чунки илм жуда кенг тараққий этган эди.

Лотин алифбосига ўтганимиздан кейин, жуда кўп қийинчиликларга дуч келдик. Лотин алифбосидаги ҳарфларни тўлиқлигича ишлата билмадик. Лотиндаги **c** ҳарфи янги ўзбек тилида умуман ишлатилмайди? Фақат **ch** ни **ч** ҳарфи (товуши) деб талаффуз этилади.



Мактаб, техникум ва институтдаги математик ўқитувчиларим – Мамарасул муаллим, Олимжон муаллим, Қуронбу муаллима, Ильясов домла, Сулейманов домла, Одилов домла, устоз Қори Ниёзий, Конусбеков домла, Балибеков домла, Гумеров Ш.А. домлаларнинг ҳаммаси учбурчак томонларини расмда кўрсатилганидек лотинча **a, b, c** ҳарфлари билан белгилаб, уларни **a** (а), **b** (бэ), **c** (цэ) деб талаффуз этганлар. $\mathbf{c^2 = a^2 + b^2}$ формуласини қуйидагича тарифлаганлар: **цэ** квадрат тенг **а** квадрат плюс **бэ** квадрат. Менимча, менинг устозларим ҳарфларни тўғри талаффуз қилган деб биламан! Шу нуқтаи назардан ўзбек алифбосига **c** ҳарфини киритиш зарур деб ҳисоблайман. Бу ҳарф кирилл билан ёзилган сўзлардаги **ц** товушини беради. Масалан, цемент – cement, центрифуга–centrifuga, цапфа–capfa, целюлоза–celyuloza, Цюрих – Cyurix, Цимбаленко – Cimbalenko, Циолковский – Ciolkovskiy, авиация – aviaciya, конференция – konferenciya, лицей – licey ва ҳоказо.

Шунда **ц** ни ўрнига **ts** ёзилмайди ва лотин алифбосидаги бор ҳарф **c** дан фойдаланилади. Албатта тилчилар орасида **c** ни ўрнига **s** ни ишлатса бўлаверади деган саводсизлар ҳам топилади.

Навбатдаги ҳарф **x**. Яна математикага қайтамиз. Координата ўқларини **x**(икс), **y**(игрек) ва **z**(зет) билан белгилайди. Шунинг учун шундайлигича ишлатган маъқул. Ўзбек тилида ҳозирча ишлатилаётган **X** ни эса инглиз тилидаги **kh** билан алмаштириш керак, чунки баъзи ўзбек тилидаги сўзларни одамлар инглизча ўқишаябди. Масалан: **цех** ни **sex** деб ёзиб, бошқа маънода ўқиганлар сонмингта! Сирдарёда бир корхона дарвозаси устидаги ёзув: “**Kolbasa sexi**”. Буларни инглизча қилиб ҳам ўқиш мумкин...

Энди **u** ҳарфига тўхтаймиз. Кириллдаги Урганч ва Ўзбекистон сўзлари мисолида таҳлил қиламиз. Иккала сўзда ҳам кириллдаги У ҳарфи бор, фарқи иккинчисининг устида

илмоғи бор. Лотиндаги иккала сўз учун **U** ҳарфини қолдирса бўлмайдими, азиз тилчилар? Фақат иккинчи сўздаги ҳарфнинг устига - ёки ’ белгиларини қўйса бас! Шунда қуйидагича ёзилади: Urganch, U’zbekiston. Инглиз тилида ҳам қарийб шундай ёзилади ва ўқилади.

Тилчи бўлмасам ҳам фикрлар етарлича. Бу кўп тилларни билганликдан далолат беради. Касби тилчи бўлганлар ҳам кўп тилларни билиши шарт!

Навбат сифатли таълимнинг бир шохчасига келди. Маълумки, ҳар бир жой, шаҳар ва вилоятлар ўзларининг шеваси билан гаплашишади. Шеваларни асоси ўзбек тили бўлса ҳам, бир биридан катта фарқ қилади. Бу урфу одат яхши ва нормал ҳисобланади. Масалан Тошкентда “боривотти кевотти, бороуза келоуза” , Фарғонада “аққа баққа, жича”, Намангонда “келутти кетутти”, Хоразмда “галдим гатдим” ва ҳоказо.

Яна қайтариб ёзаябман булар урфу одат, ўзгартириб бўлмайди ва нормал ҳолат ҳисобланади. Шевалар ўзларининг чиройликлари ва қулайликлари билан ҳам ажралиб туради. Шева бу маҳаллий тил, ўша ердаги муомала тили, бозор тили, чойхона тили ва ниҳоят дўстлар гурунгидаги тил!

Аммо таълимда шеваларни ишлатиш тўғри келмайди. Бунда албатта, айниқса олий таълимда **адабий тилда** муомала қилиш ва унда дарс бериш ривожланишимизни умумлаштириш билан бир қаторда, уни ёрқинлаштиради. Ҳозирги даврда жуда кўп олий таълим муассасаларида- ҳам талабалар, ҳам ўқитувчилар маҳаллий шеваларда гаплашиб дарс ўтишаябди. Олий таълим бўлганидан кейин, тил ҳам олий таълимчалик бўлиш керак-да. Шундагина таълимнинг фақат битта шохобчасини сифатли таълимга айлантира олишимиз мумкин.

Ўзбек адабий тили аслида Фарғонада буньёдга келган. Шунинг учун биринчи навбатда фарғоналиклар, айниқса олий таълимда ишлаётганлар, сўзлашни адабий тилда бошлаб, таълим сифатини кўтаришлари керак деб ўйлайман. Баъзи сўзлар ҳатто адабий тилдаги сўзлардан ҳам адабиётда қаттиқ жойлашиб олган. Масалан “Миндон” сўзи! Бу Миндон эмас, шевада шундай дейилади. Аслида “Мингдон” дир! Шаҳарнинг ҳамма жойида Миндон ёзилган, ҳатто автобусларни теппасида “Миндон” ни кўриш мумкин. Хулоса қилиб айтганда, республиканинг барча таълим системасида, биринчи навбатда олий таълимда гапириш, ёзиш ва дарс беришни йўлга қўйиш керак! Шундагина биз тил тўғрисида ягона сифатли таълимга эга бўла оламиз.

Адабиётлар

[1]. Ўзбек тили ва адабиёти
[2]. Тил тўғрисидаги қонунлар.

RAQAMLI MUHITDA MAXSUS NORMA VA QOIDALARGA RIOYA QILISH

X.M. Sulaymonov

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborotni, shu jumladan intellektual faoliyat natijalarini, nusxalash va tarqatish xarajatlari va tezligini, shuningdek markazlashtirilmagan axborot munosabatlarini minimallashtirdi. Shuningdek, nashriyot manbalaridan foydalanish sezilarli darajada pasaytirdi. Nusxa ko’chirish taqiqlangan yoki buning uchun to’lov belgilangan hollarda, bu foydalanuvchilarning noroziligiga sabab bo’ladi, ko’chirish kombinatsiyasini bosish osonroq. Lekin bu amaliyot mualliflik huquqining buzilishiga olib keladi.

Kalit so’zlar: *Onlayn xavfsizlik, axborot etikasi, kiber jinoyatlar, raqamli etika, maxfiylik, mualliflik huquqi*

Бурное развитие цифровых технологий привело к минимизации информации, в том числе результатов интеллектуальной деятельности, стоимости и скорости копирования и распространения, а также децентрализации информационных отношений. Это также значительно сократило использование издательских источников. В случаях, когда копирование запрещено или

платно, что вызывает недовольство пользователей, проще нажать комбинацию копирования. Но такая практика приводит к нарушению авторских прав.

***Ключевые слова**: онлайн-безопасность, информационная этика, киберпреступления, цифровая этика, конфиденциальность, авторское право.*

The rapid development of digital technologies has minimized information, including the results of intellectual activity, the cost and speed of copying and distribution, as well as decentralized information relations. It also significantly reduced the use of publishing sources. In cases where copying is prohibited or paid for, which causes dissatisfaction among users, it is easier to click the copy combination. But this practice leads to copyright infringement.

***Keywords**: Online security, information ethics, cyber crimes, digital ethics, privacy, copyright.*

Raqamli etika — bu onlayn muhitda o'zini tutish qoidalari va tamoyillari to'plamidir. Raqamli etika bizga Internetda va boshqa raqamli muhitda nima qilish mumkin va nima qilish mumkin emasligini tushunishga yordam beradi. Raqamli etikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: Xavfsizlik: shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish va raqamli hayotingizni xavfsizligi ta'minlanishi lozim. Maxfiylik: boshqa odamlarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlar maxfiyligiga rioya qilish va ularning ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish kerak. Hurmat: Internetdagi boshqa odamlarning huquqlari, fikrlari va chegaralarini hurmat qilish kerak. Ishonchlilik: siz faqat tasdiqlangan va to'g'ri ma'lumotlarni baham ko'rishingiz kerak. Mualliflik huquqi: mualliflik huquqini hurmat qilish va buzmaslik, mualliflik huquqini buzuvchi kontentni yuklamaslik yoki tarqatmaslik kerak. Ko'p madaniyatli: madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va boshqa madaniyatlar va fikrlarga ochiq bo'lish kerak. Shaxsiy javobgarlik: internetda sizning harakatlaringiz va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmangizga olishingiz kerak.

Raqamli etika – raqamli jamiyatda sog'lom munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar biz raqamli etika qoidalari va tamoyillariga rioya qilsak, barcha Internet foydalanuvchilari uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishimiz mumkin. Raqamli muhitda etikaga amal qilishning ba'zi usullariga to'xtalib o'tamiz: Internet xavfsizligi: raqamli etika qoidalari turli xil kiber tahdidlar, firibgarliklar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va viruslarni hisobga olgan holda Internetda xavfsizlikni saqlashga yordam beradi. Onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shaxsiy ma'lumotlarimizni himoya qiladi va bizni kiber tahdidlardan xalos qiladi. Vijdonlilik va mas'uliyat: raqamli etika bizni internetda vijdonli va mas'uliyatli foydalanuvchi bo'lishga o'rgatadi. Masalan, mualliflik materiallaridan to'g'ri foydalanish, soxta yangiliklar va soxta axborot resurslarini tarqatmaslik.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va qo'llanilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan axloqiy muammolarni o'rganuvchi yangi fan – axborot etikasi paydo bo'ldi. Axborot etikasi kompyuter etikasi va axborot falsafasi bilan bog'liq. Kompyuter etikasi fanlararo tadqiqotlar sohasi bo'lib, texnik, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy masalalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Unda tahlil qilingan muammolarni uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Kompyuter mutaxassislari va ishi компьyuter texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan oddiy foydalanuvchilar uchun axloq qoidalarini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar.

2. Axborot texnologiyalari sohasida mulk huquqi, mualliflik huquqi, shaxsiy hayot huquqi va so'z erkinligini himoya qilish muammolari.

3. Kiber jinoyatlarining paydo bo'lishi, ularning holatini aniqlash bilan bog'liq muammolar guruhi.

Har bir o'qituvchi ixtiyoriy yoki majburiy ravishda mualliflik huquqiga rioya qilish muammosiga duch keladi. Bu, bir tomondan, o'z uslubiy, o'quv, ilmiy materiallarni ruxsatsiz nusxa ko'chirish va plagiatdan himoya qilish, ikkinchi tomondan, mualliflik huquqiga rioya qilishdir.

Mutlaq huquq ushbu asarni ko'paytirish, tarqatish, ko'rsatish, import qilish, nusxalash va sotish imkoniyatini beradi. E'tibor bering, agar mahsulot inson tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida yaratilgan bo'lsa (masalan, o'qituvchi masofaviy o'qitish kursini ishlab chiqqan bo'lsa), unda shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga, mutlaq huquqlar esa ish beruvchiga tegishli.

Mualliflik huquqi g'oyalar, tushunchalar, tamoyillar, usullar, jarayonlar, tizimlar, usullar, texnik, tashkiliy yoki boshqa muammolarni hal qilish, kashfiyotlar, faktlar, dasturlash tillari, er osti boyliklari haqidagi geologik ma'lumotlarga taalluqli emas. Quyidagilar mualliflik huquqi ob'ekti emas: rasmiy hujjatlar, davlat va shahar ramzlari va belgilari, aniq mualliflarga ega bo'lmagan xalq amaliy san'ati asarlari, voqea va faktlar haqidagi xabarlar.

Masalan, sayt sahifasiga biron bir manbaga havolani joylashtirish uchun muallifga xabar berish shart emas. Shuni ta'kidlash joizki, sarlarning ochiq manbalarda mavjudligi siz materialdan erkin nusxa ko'chirishingiz va undan foydalanishingiz mumkin degani emas. Har qanday darslikni muallifining roziligisiz shaxsiy veb-saytiga joylashtirish, boshqa odamlarning veb-sahifalarini nusxalash, Internetda olingan fotosuratlarni ular asosida yangi manbalar yaratish uchun o'zgartirish, filьm yoki kompьyuter dasturining soxta nusxasidan foydalangan holda, u huquqbuzarlik qiladi, ya'ni mualliflik huquqini buzadi.

Adabiyotlar:

[1]. Moiseeva M.V., Polat Ye.S., Buxarkina M.Yu., Nejurina M.I. Internet-obuchenie: texnologii pedagogicheskogo dizayna / Pod red. Kandidata pedagogicheskix nauk M.V. Moiseevoy. — M.: Izdatelьskiy dom «Kameron», 2004. — 216 s

[2]. Gretsova A. P. Razvitie poznavatelьnыx sposobnostey starsheklassnikov sredstvami pedagogicheskogo dizayna: diss. … k. ped. n. Saratov, 2016. 194 s

[3]. Uvarov A. Yu. Pedagogicheskiy dizayn // Informatika. 2003. № 3. S. 1-32.

[4]. Gagnй R. M., Briggs L. J., Wager W. W. Principles of Instructional Design. N. Y.: Harcourt Brace Jovanovich College, 1992. 365 p.

BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA UNDAN RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH

T.I. Raxmonov

Farg'ona politexnika instituti

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mulьtimedia didaktik vositalarni shartli ravishda axborot (taqdimot) va interaktiv turga bo'lish mumkin. Axborot yoki taqdimot, didaktik o'quv vositalari o'quv materialini yanada samarali va vizual ravishda namoyish etish uchun mo'ljallangan. Odatda bu kabi o'quv vositalari mulьtimedia taqdimoti bo'lib, u ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazishda qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim infografikasi, vizual fikrlash, zamonaviy infografika, fokusni yaratish, raqamli ta'lim resurslari*

Мультимедийные дидактические средства, используемые в образовательном процессе, условно можно разделить на информационные (презентационные) и интерактивные. Информационные или презентационные, дидактические учебные средства предназначены для более эффективного и наглядного представления учебного материала. Обычно такими образовательными инструментами являются мультимедийные презентации, которые используются для организации и проведения лекций.

Ключевые слова: *образовательная инфографика, визуальное мышление, современная инфографика, создание фокуса, цифровые учебные ресурсы.*

Multimedia didactic tools used in the educational process can be conditionally divided into informational (presentation) and interactive types. Information or presentation, didactic educational tools are designed for more effective and visual presentation of educational material. Usually, such educational tools are multimedia presentations, which are used to organize and conduct lectures.

Keywords: *educational infographics, visual thinking, modern infographics, creating focus, digital learning resources*

Taqdimotning har bir slaydi – ma'ruza uchun didaktik materiallar o'quv materialining mazmunini tanlashning umumiy didaktik tamoyillariga muvofiq tayyorlanadi. Bundan tashqari,

ma’lumotni ekran orqali va bosma asosda idrok etishning psixologik xususiyatlari, ergonomik talablarni hisobga olish lozim. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarining dasturiy vositalari taqdim etayotgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Uning asosiy afzalliklaridan biri bu uning ko’p qirraliligidadir – deyarli har qanday ma’lumot rangli grafik yoki interaktiv jadval ko’rinishida taqdim etilishi mumkin. Insonlar ma’lumotlarni tasvirlarda eslashadi va shuning uchun nafaqat sodda va qulay shaklda, balki jozibali shaklda ham taqdim etilgan ma’lumotlarni ancha yaxshi yodlashadi. Shuning uchun ham o’qitishda har xil infografikadan foydalanish o’quv kursini o’zlashtirishni ancha soddalashtiradi. Faoliyat tamoyiliga ko’ra, tinlovchilar infografikaga oid ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida bilimlarini mustahkamlash va tahlil qilishni, uni tasvirlash uchun turli dasturiy vositalardan foydalanishni o’rganadilar. Bularning barchasi tinglovchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ta’lim infografikasidan foydalanishning eng muhim tamoyili ko’rgazmalilik tamoyilidir. Ko’rgazmalilik tizimli diagrammalar va vizual tasvirlarni ishlashga asoslangan vizual fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy infografikaning asoschilaridan biri Edvard R. Tufte bo’lib, u kontseptsiyani hamda infografikaning ajoyib to’plamini yaratdi. Uning asarlaridagi illyustratsiya elementlariga kompьyuter yordamida yaratiladigan tasvirlar, xaritalar, gravyuralar, fotosuratlar, shuningdek, bu illyustratsiyalarda foydalanuvchiga ta’sir ko’rsatishdan oldin ham, keyin ham qiyosiy o’zgarishlarni ko’rsatuvchi ob’ektlar kiradi. Ta’limda infografikadan foydalanishni nazariiy ma’lumotlarni anglashning samarali usuli ekanligini aynan Tufte tadqiq etgan.

Matnni chizmaga aylantirishda o’quvchi yozilganlarni tushunadi va yaxshi idrok etadi. ―Vizual fikrlash‖ atamasi vizual tasvirlar xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi sababli vujudga keldi.

Infografika – bu axborot dizayni shakllaridan biridir. Axborot dizayni – bu ergonomikani, funktsionallikni, insonning axborotni idrok etishining psixologik mezonlarini, axborotni taqdim etishning vizual shakllari estetikasini va boshqa omillarni hisobga olgan dizaynning bir sohasi hisoblanib, badiiy-texnik dizayn va turli xil ma’lumotlarni taqdim etish amaliyotidir. Axborot dizaynining maqsadi – aloqa aniqligi, ya’ni xabar nafaqat jo’natuvchi tomonidan aniq yetkazilishi, balki uni qabul qiluvchi tomonidan to’g’ri tushunilishini ta’minlashdan iborat. Infografika yaratish texnologiyasi 1-qadam - infografika yordamida erishiladigan maqsad va vazifalarni aniqlash (mavzu yo’nalishiga qarab). Grafikada haqiqatda mavjud bo’lgan axborotlarni namoyish qilish juda oson, lekin mavhum tushunchalarni vizual tekislikka o’tkazish ancha qiyin va bu deyarli imkonsizligini yodda tutish lozim. 2-qadam – ma’lumotni bo’limlarga, qismlarga, punktlarga ajratish. Har bir bo’limni alohida rasm yoki grafikada taqdim etilishi lozim. Tinglovchilarga tanish va tez-tez ishlatiladigan vizual obrazlarni tanlash lozim. 3-qadam – fokusni yaratish, ya’ni infografikaning atrofida quriladigan asosiy vizual metafora haqidagi hikoyani ishlab chiqish lozim. Bu sodda va hammaga ma’lum bo’lishi kerak. Professor-o’qituvchilarni axborotni vizuallashtirish asoslariga tayyorlash ta’lim berish sifatini ko’tarishga yordam beradi. Masofaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishning muhim elementlaridan biri - yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori sifatli zamonaviy darsliklar yaratishdir. Bunday o’quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi diagrammalar, grafiklar va illyustratsiyalardan foydalanmasdan turib taqdim etib bo’lmaydi.

Raqamli ta’lim resurslarining joriy etilishi talabalar va professor-o’qituvchilarga turli xil o’quv materiallaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beradi. Oliy ta’lim muassasalari o’z navbatida kutubxona fondlarini elektron kitoblar bilan to’ldiradilar. Turdosh oliy ta’lim muassasalari elektron platformalarini birlashtiradilar, bu yerda ular bir-birlari bilan ta’lim resurslarini erkin almashish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Internet texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan ta’lim sohasida muhim o’rin egallaydi. Zamonaviy texnik vositalarning xususiyatlari deyarli har kuni o’zgarib va takomillashib bormoqda. Shu sababli ta’lim muassasalari zamonaviy kompьyuterlarning yuqori suratlarda

rivojlanishiga mos ravishda texnik bazasini yangilab, ta’lim jarayonini kompьyuter texnologiyasida.

Adabiyotlar

[1]. Воронкин А.С. Социальные сети: эволюция, структура, анализ. Электронный ресурс// Образовательные технологии и общество № 1том 17 2014.– Rejim dostupa: http://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnye-seti-evolyutsiya-struktura-analiz

[2]. Клименко О. А. Социальные сети как средство обучения и взаимодействия участников образовательного процесса. Электронный ресурс// Теория и практика образования в современном мире: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). – SPb: Renome, 2012. – Rejim dostupa: http://www.moluch.ru/conf/ped/archive/21/1799/

[3]. Бакулин М.А. Социальные сети как часть информационно-образовательной среды школы. Электронный ресурс// Режим доступа: http://mic.org.ru/phocadownload/12-bakulin.pdf

[4]. Колесник А. Г. Что такое социальные сети? История создания социальных сетей. Электронный ресурс// Образовательный портал «Классная оценка» - Режим доступа:klasnaocinka.com.ua/ru/article/chto-takoe-sotsialnie-seti-istoriya-sozdaniya-sots-2.html

[5]. Иванько А.Ф., Ушенко Г.В. Образовательные возможности ФАСЭБООК. Электронный ресурс// Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnye-vozmozhnosti-facebook/viewer.

OCHIQ TA’LIM RESURSLARI

B.J.Axmadaliyev

Farg‘ona politexnika instituti

(Qabul qilindi 18.11.2023 y.)

Sun’iy intellekt algoritmlari amalga oshiriladigan sinov va diagnostika uchun zamonaviy tizimlar talabaning harakatlarini tahlil qilish, tavsiyalar berish, ma’lum bir talabaning bilim darajasiga qarab topshiriqlarni yaratish, vazifalarni taqsimlashni oqilona boshqarish va b. imkoniyati beradi.

Kalit so’zlar: *Google forma, Google akkaunt, Online Test Pad, Webanketa, Intellektual tizimlar*

Современные системы тестирования и диагностики, где реализованы алгоритмы искусственного интеллекта, анализируют действия обучающихся, дают рекомендации, создают задачи исходя из уровня знаний конкретного обучающегося, управляют распределением задач и т.д. дает возможность.

Ключевые слова: *форма Google, учетная запись Google, онлайн-тестовый планшет, Webanketa, интеллектуальные системы.*

Modern systems for testing and diagnostics, where artificial intelligence algorithms are implemented, analyze student actions, make recommendations, create tasks based on the level of knowledge of a certain student, manage the allocation of tasks, etc. gives an opportunity.

Keywords: *Google form, Google account, Online Test Pad, Webanketa, Intelligent systems.*

Tizim guruh a’zolarining katta qismi biron bir mavzu savollarga javob bermasligini ko’rsatishi yoki talabalarning oddiy savollarga yaxshi javob berishi, lekin masalani yechish usullarini bilmasligiga o’qituvchining e’tiborini qaratishi mumkin. Sinov va so’rovnoma o’tkazish tizimlari

Google forma - bu Googleda mavjud hujjat turlaridan biri. Turli elementlar yoki savollar turlariga ega forma yaratish va olingan ma’lumotlar va so’rov shakllarini o’zini saqlash imkonini beradi. Har qanday savol javob uchun majburiy yoki ixtiyoriy bo’lishi mumkin. SHaklni yaratishda savollar tartibini o’zgartirishingiz mumkin. Har bir yaratilgan forma uchun alohida dizayn tanlashingiz mumkin. Formaga havola avtomatik ravishda yaratiladi. So’rovnoma yoki anketa yaratgan foydalanuvchi istalgan vaqtda har natijalarni diagrammalar ko’rinishida olishi mumkin. Natijalar har bir so’rovnoma uchun avtomatik ravishda saqlanadi. Olingan barcha natijalar darhol ko’rsatiladi. Xizmat elektron jadvalga javoblarni to’plashni ta’minlaydi, uning yordamida siz olingan ma’lumotlarni qayta ishlashingiz mumkin. Siz cheksiz miqdordagi so’rovnomalar, anketalar, testlar yaratishingiz va cheksiz miqdordagi respondentlarni bepul taklif qilishingiz mumkin. Anketalar yaratish uchun foydalanuvchilar Google akkauntga ega bo’lishi kerak. Jadvalni turli formatlarga (pdf, xls, txt) eksport qilish

mumkin, ammo natijalarni javoblar jadvalida filtrlab bo'lmaydi.

Online Test Pad – bu bepul universal va oddiy konstruktor bo'lib, uning yordamida siz turli xil testlar, topshiriqlar, masalalar, krossvordlar, skanvordlar, so'rovlar, mantiqiy o'yinlar, dialoglar yaratishingiz mumkin. Konstruktor rus tilida mavjud. Ushbu xizmat ma'lumot to'plash va tizimlashtirish uchun yoki shakllantirish va yakuniy baholashning raqamli vositasi sifatida ishlatiladi. Havola: https://onlinetestpad.com/ru/tests

Webanketa - shaxsiy va ommaviy so'rovnomalar, anketalar va ovoz berishni yaratish va o'tkazishga yordam beradi. Xizmat bilan ishlashda ro'yxatdan o'tish tavsiya etiladi, garchi ro'yxatdan o'tmagan foydalanuvchilar ham so'rovnomalar yaratishi mumkin. Agar profil ro'yxatdan o'tmasdan yaratilgan bo'lsa, u shunchaki yo'qolishi mumkin, chunki u foydalanuvchiga bog'lanmaydi. Havola: https://webanketa.com/

Simpoll – bu so'rovnoma, ovoz berish va testlarni yaratish va o'tkazish xizmati. Mazkur xizmatdan foydalanib, siz har qanday murakkablikdagi so'rovnoma va test yaratishingiz mumkin. Onlayn test konstruktori har qanday murakkablikdagi testni onlayn tarzda osongina va tezda yaratishga imkon beradi. Uning yordamida siz turli mavzular bo'yicha testlar yaratishingiz mumkin: talabalar bilimini tekshirish, psixologik testlar, so'rovnomalar o'tkazish va hk. Havola: https://simpoll.ru/

Mentimeter.com – real vaqt rejimida so'rovnomalar yaratish va taqdimot formatida ovoz berish uchun bepul va oddiy onlayn xizmat hisoblanadi. Dars jarayonida, konferentsiyada nutq so'zlashda tinglovchilardan fikr-mulohazalarni olish uchun foydalanish juda qulay. Siz tayyor namunadan foydalanishingiz yoki o'zingizning interaktiv taqdimotingizni yaratishingiz mumkin. Xizmat har bir so'rovnomaga identifikatsiya raqamini beradi, ishtirokchilar real vaqt rejimida ovoz berishlari mumkin. Buning uchun saytiga o'tish va so'rovnoma raqamini kiritish talab etiladi. To'g'ridan-to'g'ri PowerPoint-da so'rovnomalar yaratish uchun maxsus plagin mavjud. Savollarga javob berishda mobil telefondan foydalanish lozim. Havola: https://www.mentimeter.com/

Test-sinovlarini yaratish tizimlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda, keng imkoniyatlarga ega yangilari paydo bo'lmoqda. Sun'iy intellektni test tizimlari bilan integratsiyalashuvi nafaqat o'quv faoliyati natijalarini baholashga, balki talabaning javoblaridagi xato va qiyinchiliklarni qayd etishga, eng ko'p uchraydigan qiyinchilik va xatolarni aniqlashga, talabaning noto'g'ri harakatlari sabablarini aniqlashga va tegishli sharhlarni taqdim etishga, talabalarga tavsiyalar berish va o'qituvchilarga umumlashtirilgan ma'lumotlar olishga imkon beradi. Intellektual tizimlar o'z-o'zini o'rganish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun bunday tizimlardan foydalanish bilimlarni o'zlashtirish darajasini yanada aniqroq diagnostika qilishga va individual ta'lim effektlarini shakllantirishga yordam beradi.

Interfaol mashqlar, o'yinlar, krossvordlar va vitorinalar yaratish xizmatlari Interaktiv mashqlarni yaratish uchun ko'plab konstruktorlar mavjud. Ko'p sonli internet-resurslar yordamida siz interfaol vazifalarning butun to'plamini yaratishingiz mumkin. Bular quyidagi xarakterdagi vazifalar bo'lishi mumkin:

tushuncha va ta'riflarning o'zaro bog'liqligi; etishmayotgan harf yoki so'zni kiritish; krossvordlar, boshqotirmalar, rebuslar, boshqotirmalar; so'zlarni qidirish; bir yoki bir nechta to'g'ri javobli viktorinalar; interaktiv o'yinlar; vaqt tasmasini qurish va boshqalar.

Ushbu vazifalarning har biri auditoriyada o'qituvchi uchun ajralmas yordamchiga aylanishi mumkin. Siz tayyor shablonlardan foydalangan holda didaktik o'yin yaratish xizmatlarini, krossvordlar, rebuslar va boshqotirmalarni yaratish va yaratish xizmatlarini tanlashingiz va o'zlashtirishingiz mumkin. Matn, formulalar, piktogrammalar, rasmlar va videolarni ish kartasiga joylashtirishga imkon beradigan interfaol vazifalarni yaratish vositalari o'qituvchilarning katta qiziqishini uyg'otmoqda.

Adabiyotlar:

[1]. Moiseeva M.V., Polat Ye.S., Buxarkina M.Yu., Nejurina M.I. Internet-obuchenie: texnologii pedagogicheskogo dizayna / Pod red. Kandidata pedagogicheskix nauk M.V. Moiseevoy. — M.: Izdatelьskiy dom «Kameron», 2004. — 216 s

[2]. Gretsova A. P. Razvitie poznavatelьnых sposobnostey starsheklassnikov sredstvami pedagogicheskogo dizayna: diss. … k. ped. n. Saratov, 2016. 194 s
[3]. Uvarov A. Yu. Pedagogicheskiy dizayn // Informatika. 2003. № 3. S. 1-32.
[4]. Gagnй R. M., Briggs L. J., Wager W. W. Principles of Instructional Design. N. Y.: Harcourt Brace Jovanovich College, 1992. 365 p.
[5]. Reigeluth Sh. Instructional-Design Theories and Models: in IV volumes. N. Y.: Routledge, 1999. Vol. II. A New Paradigm of Instructional Theory. 728 p.
[6]. Smith P. L., Ragan T. J. Instructional Design. Hoboken, NJ: Wiley and Sons, 2005. 383 p.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ И КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЗНАНИЙ

Б.К. Туйчибаев

Ферганский политехнический институт, uzferfizika@mail.ru
(Получена 18.11.2023 г.)

Показаны методы использования информации и коммуникации при организации уроков. Основное внимание уделяется оценке учащихся и созданию для них возможностей самостоятельной подготовки к урокам.

***Ключевые слова**: программное оборудование, диагностика ошибок, вычислительный анализ, моделирование, альтернативное решение, культура использования информации.*

Darslarni tashkil etishda axborot va kommunikatsiyadan foydalanish usullari ko'rsatilgan. Bu usullarni qo'llash o'quvchilarni baholash va ularning darslarga mustaqil tayyorlanishlari uchun imkoniyat yaratishga e'tibor qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** dasturiy uskunalr, xatolar diagnostikasi, hisoblash tahlili, modellashtirish, muqobil yechim, axborotlardan foydalanish madaniyati.*

The methods of using information and communication in the organization of lessons are shown. The focus is on assessing students and creating opportunities for them to prepare independently for lessons.

***Keywords**: software, error diagnostics, computational analysis, modeling, alternative solutions, information use culture.*

Оценка педагогической целесообразности и эффективности применения ИКТ в обучении педагогическая целесообразность использования ИКТ в учебном процессе определяется целями развития личности учащегося и основывается на методическом назначении тех или иных программных средств (ПС). Методическое же назначение ПС определяется методическими целями, реализация которых возможна только с помощью данных ПС, либо обусловлена необходимостью интенсификации процесса обучения, переводом его на качественно более высокий уровень. Это и создает основания для применения ИКТ в обучении, что констатируется (устанавливается) педагогическим экспериментом либо обосновывается оценкой качества ПС (по той или иной методике, как описывалось в предыдущей теме). Наиболее значимые с позиций дидактических принципов методические цели, наиболее эффективно реализующиеся с использованием ИКТ, следующие:

1. Индивидуализация и дифференциация процесса обучения (например, за счет возможного поэтапного продвижения к цели по линиям различной степени сложности - индивидуальная образовательная траектория).
2. Осуществление контроля с обратной связью, с диагностикой ошибок (констатация причин ошибочных действий обучаемого и предъявление на экране компьютера соответствующих комментариев) по результатам обучения и оценкой результатов учебной деятельности.
3. Осуществление тренировки в процессе усвоения учебного материала и самоподготовки учащихся.
4. Высвобождение учебного времени за счет выполнения на компьютере трудоемких вычислительных работ и деятельности, связанной с вычислительным анализом.

5. Компьютерная визуализация учебной информации (во-первых, изучаемого объекта наглядное представление на экране объекта, его составных частей или их моделей, а при необходимости - во всех ракурсах, в деталях, с возможностью демонстрации внутренних взаимосвязей составных частей); во-вторых, изучаемого процесса (наглядное представление на экране данного процесса или его модели, в том числе, скрытого в реальном мире, а при необходимости - в развитии, во временном и пространственном движении, представление графической интерпретации исследуемой закономерности изучаемого процесса).
6. Моделирование и имитация изучаемых или исследуемых объектов, процессов или явлений.
7. Проведение лабораторных работ (например, по физике, химии) в условиях имитации в компьютерной программе реального опыта или эксперимента.
8. Создание и использование информационных баз данных, необходимых в учебной деятельности, и обеспечение доступа к информационной сети.
9. Усиление мотивации обучения (например, за счет изобразительных средств программы).
10. Формирование умения принимать оптимальное решение или вариативные решения в сложной ситуации.

Необходимо отметить, что, в основном, целесообразность применения ИКТ, и, в частности, программных средств учебного назначения, определяется их использованием в качестве средства визуализации учебной информации, средства формализации знаний о предметном мире, инструмента измерения, отображения и воздействия на внешний мир. Принципы сочетания традиционных и компьютерно-ориентированных методических подходов к изучению учебных предметов Основной формой организации обучения в современной школе является урок. Это и должно учитываться при разработке средств ИКТ для системы образования. Поскольку обучение студентов большинству учебных дисциплин в рамках аудиторной-урочной системы идет в специализированных кабинетах, то перспективы повышения эффективности аудиторной-урочной системы связываются с оснащением кабинетов дидактическими и техническими средствами обучения и совершенствованием типов уроков и их модулей. В этой связи на информационные и телекоммуникационные технологии возлагаются большие надежды. Взять, к примеру, предметный урок в компьютерном классе с интерактивной доской. Учитель на таком уроке, сохраняя почти весь арсенал имеющихся у него методических приемов, может многократно его приумножить возможностями ИКТ. Для этого, прежде всего, необходимы электронные средства учебного назначения, которые можно легко встраивать в структуру урока. Но, к сожалению (это отмечается), подавляющее большинство существующих средств ИКТ рассчитано на индивидуальную работу. Поэтому, поскольку в обозримом будущем институт по-прежнему останется аудиторной-урочной, вряд ли можно говорить, что произошел какой-то существенный перелом в сознании учителей-предметников и методистов в отношении перспектив использования ИКТ в организации учебного процесса. [2]

Компьютер и соответствующие средства ИКТ позволяют интегрировать и существенно обогатить возможности этих средств обучения и, тем самым, конструирование и проведение всех уроков. ИКТ позволяют реализовать огромный потенциал перспективных методических разработок, найденных в свое время в рамках традиционного обучения, которые, однако, оставались невостребованными, или в силу определенных объективных причин не могли дать должного эффекта.

Список литературы:

[1]. Никонова Н.В. Принципы формирования комплексного программного средства учебного назначения, основанные на интеграции традиционных и инновационных подходов // Информатика и образование-2007.-№1.-109-111с.

[2]. Ruzimatova Barnokhon, & Polvonov Bakhtiyor. (2020). The formation of creative thinking in teaching physics. International Engineering Journal For Research & Development, 5(ICIPPS),

СВОЙСТВА ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЕНОК CdSe

В.Т. Мирзаев

Ферганский политехнический институт, valijon.mirzayev@bk.ru
(Получена 18.11.2023 г.)

В данной статье представлены оптические свойства тонких пленок CdSe, нанесенных на стеклянные подложки методом термического испарения в вакууме. Структурные исследования показали, что пленки имеют поликристаллическую и гексагональную кристаллическую структуру.

***Ключевые слова**: тонкие пленки CdSe, модель осциллятора, термическое испарение, оптические свойства, коэффициент поглощения, энергия оптической полосы, показатель преломления*

This article presents the optical properties of CdSe thin films deposited on glass substrates by thermal evaporation in vacuum. Structural studies have shown that the films have polycrystalline and hexagonal crystal structures.

***Keywords:** CdSe thin films, oscillator model, thermal evaporation, optical properties, absorption coefficient, optical band energy, refractive index*

Ushbu maqolada vakuumda termal bug'lanish orqali shisha substratlarga qo'llaniladigan CdSe yupqa plyonkalarining optik xususiyatlari keltirilgan. Strukturaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, plyonkalar polikristalli va olti burchakli kristalli tuzilishga ega.

***Kalit so'zlar**: CdSe yupqa plyonkalar, osilator modeli, termal bug'lanish, optik xususiyatlar, yutilish koeffitsienti, optik tarmoqli energiya, sinishi indeksi.*

Несмотря на то что в основе широкого применения селенида кадмия в различных технических приложениях лежит хорошо известной явление генерации носителей тока светом [1], количественных данных по реакциям этих заряженных частиц в CdSe крайне мало. В настоящее время это обстоятельство заметно сдерживает дальнейший прогресс в этой области, поскольку недостаток таких данных затрудняет прогнозирование предельных характеристик разрабатываемых устройств. По-видимому, лучше других для этих целей походят тонкие пленки.



Рис. 1. а,б. Зависимость темновых и световых сопротивлений пленок *CdSe* от времени отжига в вакууме (а) и в вакууме в присутствии $CdCl_2$ (б).

Свежеприготовленные пленки помещали в вакуум (~ 10^{-4} *мм.рт.ст.*) и отжигали в диапазоне температур 350-500°*C*. Эксперименты показали, что с увеличением температуры и времени ТО удельное сопротивление пленок увеличивается. На рис. 1. приведена зависимость темнового и светового сопротивления пленок от времени выдержки при температуре 480° *C*. Видно, что с течением времени темновое сопротивление пленки $\rho_т$ монотонно увеличивается, а световое сопротивление $\rho_{св}$ монотонно уменьшается. В определенный момент времени ρ_T и $\rho_{св}$ достигают максимальных и минимальных значений, а затем остаются постоянными, т.е. они насыщаются. Именно с момента насыщения сопротивлений $\rho_т$, $\rho_{св}$ пленки приобретает наибольшую фоточувствительность (~10^5). С увеличением температуры отжига время насыщения сопротивлений, т. е. время очувствления пленки уменьшается. Для выяснения влияния очувствляющих веществ на свойства пленок произведена ТО в вакууме в присутствии *CdCl*. Установлено, что в этом случае увеличивается темп возрастания темнового сопротивления и максимальная фоточувствительность пленки достигается намного быстрее (при 15-25 *мин.*) (рис.3.2, б) по сравнению со

случаем, когда примеси отсутствуют. В известной нам литературе отсутствуют сведения о таком очувствлении пленок *CdSe* и интерпретация их механизмов.

Таблица 1. Межплоскостные расстояния в пленках CdSe *d*

№ п/п	*d*, Å							
	Температура пиролиза T_s, °C						Порошок CdSe [12]	Отнесение к кристаллическим плоскостям
	300	350	400	500	550	600		
1	3.693	3.700	3.708	3.700	3.700	3.700	3.720	(100)
2	3.480	3.486	3.486	3.486	3.486	3.486	3.510	(002)
3	3.278			3.273			3.290	(101)
4	2.539		2.546	2.546		2.539	2.554	(102)
5	2.144	2.144	2.144	2.144	2.144	2.146	2.151	(110)
6	1.977	1.975	1.975	1.975	1.973	1.975	1.980	(103)
7			1.829	1.829	1.829		1.834	(112)
8	1.451				1.454		1.456	(203)
9						1.411	1.407	(210)
10			1.310				1.312	(105)
11				1.241		1.247	1.241	(300)
12				1.205			1.205	(213)
13		1.168		1.169	1.169	1.170	1.170	(302)

Рассчитанных из положения пиков дифрактограммы значения межплоскостных расстояний представлены в табл. 1. Рассчитанные межплоскостные расстояния меньше известных для порошков, что может быть объяснено сжатием решетки из-за присутствия вакансий. С ростом температуры получения пленок T_S межплоскостные расстояния незначительно растут, что может быть объяснено формированием более совершенной структуры пленок при больших T_S.

Осаждение пленок сильно зависит от типа подложки. На кварце, нагретом до T_S=300-400^{0}C, пленки осаждается плохо, получаются слишком тонкими, неоднородными – по-видимому, в силу слабой адгезии кварца. Поэтому спектры пропускания представлены далее только для пленок, синтезированных при высоких температурах (T_S=500-600^{0}C).

На рис. 2. Показаны спектры пропускания пленок CdSe, напиленных на кварц. Можно видеть характерные участки быстрого увеличения поглощения.

Список литературы:

